

# O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarlari

*Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal*

*Jurnal bir yilda to'rt marta nashr etiladi*

**Bosh muharrir –**

**SHERMANOV Eldor Uralovich**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Bosh muharrir o'rinbosari –**

**JUMAYEV Sobirjon Saidovich**

professor

**TAHRIR HAY'ATI**

**RUSHANIN Vladimir Yakovlevich –**

Chelyabinsk davlat madaniyat instituti professori

**NURULLAYEV Abdulaziz Sirojiddinovich –** Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

**MAVRULOV Abduxalil Abdulxayevich –** Tarix fanlari doktori, professor

**TULYAXODJAYEVA Muhabbat Turobovna –** San'atshunoslik fanlari doktori, professor

**QODIROVA Sarvinoz Muhsinovna –** San'atshunoslik fanlari doktori, professor

**UMAROV Absalom Adilovich –** Sotsiologiya fanlari doktori, professor

**YULDASHEV Ma'rufjon Muxammadjonovich –** Filologiya fanlari doktori, professor

**TO'YCHIYEVA Sayyora Suyarqulovna –** Falsafa fanlari doktori, professor v.b.

**QOSIMOV Nozim Kozimovich –** Filologiya fanlari nomzodi, professor

**NISHONBOYEVA Qunduz Vahobovna –** Tarix fanlari nomzodi, dotsent

**MULLAJONOV Davlat Mavlonovich –** San'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

**FAYZIYEVA Feruza Xodjimuradovna –** San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

**XALIKULOVA Go'zal Erkinovna –** San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

**ABDUJABBAROVA Musallam Lapasovna –** Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**XUDOYEV G'ani Muhammadovich –** Sanatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.

**ISMOILOV Hamdam –** Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**KOSHELEVA Antonina Fedorovna –** Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**RASHIDOV Temur Maxmudovich –** San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

**TURG'UNOVA Nasiba Mamatovna –** Sanatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**MAMATQOSIMOV Jahongir Abirqulovich –** Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.

**JAMOATCHILIK KENGASHI**

**NAZARBЕКOV Ozodbek Ahmadovich –** O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri,

O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

**AXMEDOV Bahodir Majitovich –** O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri birinchi o'rinbosari, dotsent

**MIRZAALIYEV Iqboljon Mirzakarimovich –** O'zbekiston xalq shoiri

**AKILOVA Kamola Baltabayevna –** San'atshunoslik fanlari doktori, professor

**KARIMOVA Nigora G'aniyevna –** San'atshunoslik fanlari doktori

*Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.*

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan  
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya  
Komissiyasi Rayosatining 2017-yil 29-noyabrdagi  
245/6-sonli qarori bilan San'atshunoslik fanlari bo'yicha  
dissertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop  
etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN 2181-8932

2023/4(27)

# MUNDARIJA

## I. TEATR VA KINO

1. <b>I.Meliqo‘ziyev.</b> O‘zbekistonda operatorlarni tayyorlashda ta‘limni modernizatsiyalash.....	3
2. <b>K.Xidirova.</b> История и развитие визуальных эффектов в кинематографии.....	9
3. <b>Sh. Yusupov.</b> Mo‘jizakor qo‘g‘irchoq teatri.....	13
4. <b>Sh.Abdurasulov.</b> O‘zbek teatrida jahon mumtoz dramaturgiyasining yangi talqinlari.....	16
5. <b>S.Mannonov.</b> O‘zbek an‘anaviy masxarabozik san‘atida mim elementlari.....	21

## II. MUSIQA SAN‘ATI

1. <b>G‘.Xudoyev.</b> “Nasri Ushshoq” xususida.....	24
2. <b>M.Xodjayeva.</b> Sharq mutafakkirlari merosida musiqaga bo‘lgan qarashlar.....	27
3. <b>L.Djurayeva.</b> Muxtor Ashrafiy vokal ijodida Sharq mumtoz she‘riyati .....	30
4. <b>Sh.Almatov.</b> Mumtoz musiqa ijrochiligida sozandalar ansamblining rivojlanish tarixi.....	33
5. <b>N.Orzimurodova.</b> Musiqiy terapiya.....	36
6. <b>Z.Yakubov.</b> Mo‘g‘ulchai Buzruk talqiniga doir.....	38

## III. SAN‘AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. <b>O.Axmedova.</b> Baxshichilik san‘atini ta‘lim tizimida o‘qitish masalalari.....	40
2. <b>S.Ikramov.</b> Madaniy-ommaviy tadbirlar ijtimoiy-gumanitar fanlarning tadqiqot obyekti sifatida.....	43
3. <b>O.Kopadze.</b> Jahon dublyaj san‘ati tarixi metamorfozalari.....	46
4. <b>M.Xolmo‘minov.</b> Ommaviy tadbirlar menejeriga qo‘yiladigan talablar.....	50
5. <b>R.Jabbarov.</b> O‘zbek xalq amaliy san‘atida naqshlar.....	54
6. <b>D.Tangriyeva.</b> Teatr rejissyorning grimyor bilan ishlash san‘ati.....	59

## IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. <b>F.Mansurbekova.</b> Oliy o‘quv yurti talabalarida vokal ijrochilik ko‘nikmalarini.....	61
2. <b>M.Yuldasheva.</b> Социально-культурная сфера как фактор инновационной деятельности в условиях оптимизации социально-культурного развития молодежи.....	64
3. <b>Д.Мулладжанов.</b> Значение концертной деятельности студенческих коллективов государственного института искусств и культуры Узбекистана.....	69
4. <b>М.С. Маслов, Т.А. Иордан.</b> Дополнительное профессиональное образование: инноватика в менеджменте культуры и искусства.....	73
5. <b>Sh.Nazirbekova.</b> Tasviriy san‘atning rangtasvir fani orqali talabalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish.....	75

## V. KUTUBXONASHUNOSLIK

1. <b>S.Davlatov.</b> Shayboniylar hukmronligi davrida kutubxonalar.....	79
2. <b>M.Is‘hoqov.</b> Buktreyler – kitoblarni harakatlantirishning zamonaviy usuli.....	81
2. <b>H.Usmanova.</b> Концепция формирования информационной культуры личности: опыт разработки и реализации.....	84
3. <b>Ц.Ирина.</b> Особенности развития дисциплины «библиотечно-информационное обслуживание: теория и практика» в контексте нового подхода.....	87

## VI. YOSH TADQIQOTCHI

1. <b>M.Muxtorova.</b> Melis Abzalov kinokomediyalarida milliy va umumbashariy qadriyatlar ifodasi.....	90
2. <b>K.Umarov.</b> Zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda o‘zbek teatr san‘atining o‘rni.....	94
3. <b>G.Shavkatova.</b> Bolalar teatri ijodiy jamoasining vazifalari.....	97
4. <b>I.Yuldashev.</b> O‘zbek etnomadaniyati sinkretikligi va unda axloqiylik, estetiklik va tarbiyaviylik uyg‘unligi...100	
5. <b>Sh.Rustamaliyeva, P.Xolmaxmatov.</b> XX asrning mashhur metsenati – “Man afandi” va turkistonlik talabalar taqdiri.....	104
6. <b>K.Suleymanova.</b> Animatsion film yaratishda innovatsion texnologiyalar.....	107
7. <b>Z.Xudoyorova.</b> Xalq dostoni sahnada.....	110

## VII. E‘TIROF

1. <b>M.Yo‘ldoshev.</b> Ustoz Muhammadjon aka (Ustoz Muhammadjon Ismonovning 80 yilligiga bag‘ishlanadi)....	113
2. <b>M.Isokova.</b> Urganchlik aktrisa (O‘zbekiston xalq artisti Gulora Rahimova ijodiga chizgilar) .....	116
3. <b>A.Otegenov.</b> Mirsodiq Tojiyevning ijodiy merosi .....	118



# I BO' LIM

## TEATR VA KINO

Iqbol MELIYO'ZIYEV,  
O'zDSMI professori v.b.

“Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasini mudiri, s.f.d.(PhD)

## O'ZBEKISTONDA OPERATORLARNI TAYYORLASHDA TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH

**Annotatsiya.** Kinofilmning tom ma'noda san'at asariga aylanishi va operatorning o'ziga xos qirralarini namoyon bo'lishida, rejissyorning tasvirga bo'lgan e'tibori hamda g'oya talqini muhim ahamiyat kasb etgan.

Mustaqillik yillariga kelib, texnik vositalarning qamrovi kengayganligi, yangi apparaturalarning kirib kelishi sohada o'ziga xos imkoniyatlar va shart-sharoit tug'dirishga xizmat qildi. Bugungi kunda ijod qilayotgan yosh operatorlar ishlarida mavjud an'analarni davom ettirish bilan bir qatorda yangi ijodiy tamoyillar yaratish, uslubiy izlanishlar qilishga bo'lgan intilishni kuzatish mumkin.

**Калит сўзлар:** operator, san'at, tarix, obektiv, fotokamera, rang, yorug'lik, kompozitsiya, simmetriya, kino, kinooperatorlik maktabi, ijodkor, badiiylik, tasviriy yechim.

## ОБУЧЕНИЕ ОПЕРАТОРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** Внимание режиссёра к образу и трактовка идеи имеют большое значение в превращении фильма в произведение искусства в прямом смысле слова и раскрытии неповторимых качеств оператора.

За годы независимости расширилась сфера применения технических средств, внедрение новой техники послужило созданию уникальных возможностей и условий в этой области. В работах молодых операторов, творящих сегодня, можно наблюдать стремление создавать новые творческие принципы, проводить методические исследования, а также продолжать существующие традиции.

**Ключевые слова:** оператор, искусство, история, объектив, фотоаппарат, цвет, свет, композиция, симметрия, кино, школа кинооператоров, креатив, искусство, графическое решение.

## TRAINING OF OPERATORS IN UZBEKISTAN MODERNIZATION OF EDUCATION

**Abstract.** The director's attention to the image and the interpretation of the idea are of great importance in turning the film into a work of art in the truest sense of the word and revealing the unique qualities of the cameraman.

During the years of independence, the scope of application of technical means has expanded, the introduction of new technology has served to create unique opportunities and conditions in this area. In the works of young operators who are creating today, one can observe the desire to create new creative principles, conduct methodological research, and also continue existing traditions.

**Key words:** cinematography, art, history, Object, Camera, color, light, composition, Symmetry, cinema, School of cinematography, creativity, art, graphic solution.

Operatorlik san'ati – texnika bazasidagi ijoddir. Shu bois mazkur sohaga kirishda texnikani o'zlashtirishning o'zi kamlik qiladi, bo'lajak operator ijodkor ham bo'lmog'i lozim. Mazkur kasbni egallashda,

quyidagi vazifalarni egallash joizdir: “Operator – kinoda montajning o'rnini bilmog'i va tushunmog'i lozim. Operator – kinoaktyor ishining metodikasi va texnikasini bilishi va tushinishi kerak. Operator – filmning tasviriy-dekorativ bezatish uslubini his qilmog'i, rassom bilan ishlashni bilishi lozim. Operator – postanovkachi rejissyorning maqsad va g'oyasini idrok etishi shart”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Исмаилов А. Кинооператорское мастерство. – Ташкент: УзДСМИ, 2004 г. Стр.22.

Asardagi muayyan g'oyaning tug'ilishidan uni film tarzida ishlab chiqilishi hamda tarqatilishi milliy madaniyat negizi va milliy-estetik an'analardan kelib chiqmog'i, badiiy ijod qonuniyatiga bo'ysunmog'i zarur. Hozirda ko'plab o'zbek filmlari tasviriy yechimida hind, koreys, turk filmlariga taqlid qilish va o'z an'alaridan uzoqlashish kuzatiladi. Buning bir tomoni kinotexnika bilan ham bog'liq bo'lib, suratga olish jarayoni va apparatining arzon tushishi, qolaversa, film targ'ibotida internet vositasining qulayligi, sohaga tasodifiy kishilarning kirib qolishi sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, kino rivojining ilk pallasidanoq kadrda ma'no-mazmun asosan tasvir orqali yoritilgan. Hozir esa rivojlangan yuqori texnologiyalardan foydalanilayotgan bo'lsa-da, hatto, iqtidorli yosh operatorlar ishlarida ham badiiy tasviriy yoki san'at asari (живописный) darajadagi kadrlar kamayib ketgan. Buning sabablaridan yana biri shuki, videoda tasvirga olinayotgan filmlarda kadrlarning vaqt davomiyligi qisqa bo'lib qolmoqda. Atigi 2-3 soniya davom etadigan, kadr-dan-kadrga tez-tez almashib turadigan ko'rinishlar operatorning "живописный" tasvir yaratishi uchun kamlik qiladi, tomoshabin ham bunday qisqa vaqt ichida kadrda obyekt formasi va uning harakatidan boshqasini payqay olmaydi.

So'nggi paytlarda aksariyat yosh rejissyorlar ssenariyga yoki undagi aktyor dialogiga asosiy e'tibor qaratish bilan kifoyalanmoqdalar. Ular uchun tasvir, bo'layotgan voqeaning faktik ko'rinishiga aylanib qolgan, ayrim yosh rejissyorlar kino san'atining asosi optik-tasvir va fonik-ovozdan iborat ekanligini unutishgan. Endilikda ekran tasviriy jihatiga bo'lgan e'tibor yetarli emasligi tufayli kino ekrandagi spektaklga aylanib bormoqda, desak mubolag'a bo'lmas.

Hozirgi kunda ko'zga tashlanayotgan ijodiy muammolar amaliy faoliyat bilan chambarchas bog'lanib ketadiki, buning bir tomoni bo'lajak kinooperatorlar ta'limi masalasidir.

Jahon tajribasidan shu narsa yaxshi ma'lumki, boshqa sohalarga qaraganda, san'at sohasida, xususan, operatorlik sohasida kam sonli mutaxassislar ta'lim oladilar. Bu albatta, sohaga nisbatan qiziqishning pastligidan emas, balki mazkur san'atning o'ta murakkab va kamyob ekanligidandir. Buni nazarda tutgan holda mamlakatimizda kinotasvirchilar tayyorlash ikki etapda – o'rta maxsus va oliy o'quv yurtida amalga oshiriladi. Bugungi kunda ikkita kollej hamda bir OO'YU kafedrasida kinotasvirchilar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Bular Toshkent madaniyat kolleji, Toshkent televideniye va radio kasb-hunar kolleji hamda O'zDSMIning "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasidir. Bo'lajak kinooperatorlar o'rta maktab ta'limidan so'ng nomlari qayd etilgan o'quv yurtlarida tahsil olishlari, oliy ta'limni esa O'zDSMI'da davom ettirishi mumkin. "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasida bugungi kunda oliy ma'lumotli kinoteleoperatorlar tayyorlab beradigan respublikada yagona o'quv dargohidir.

Kino san'ati rivoji, mamlakatimizda kinooperator kadrlarga bo'lgan talab, yoshlarning sohaga bo'lgan

qiziqishlari inobatga olinib, 1991-yilda O'rta Osiyoda birinchi bo'lib Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent Davlat san'at (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat) institutida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Abdurahim Ismoilovning tashabbusi bilan "Kinoteleoperatorlik" bo'limi tashkil etilgan. Dastlab bu dargohda viloyat televideniylarida ishlayotgan operator assistentlari, yordamchi operatorlar, iqtidorli yoshlar talabalar safiga qabul qilingan edi.

1993-yildan boshlab "Kinoteleoperatorlik" bo'limining rivojlanishiga va tashkiliy jarayoniga san'atshunoslik fanlari nomzodi Abdumannon Ubaydullayev faol qatnashdi va hozirga qadar o'z faoliyatini davom ettirmoqda. 1997-yilda "Kinoteleoperatorlik mahorati" kafedrasini rasman tashkil etildi. Talabalarga dars berish uchun amaliyotda katta tajriba orttirgan malakali mutaxassislar taklif qilindi. Jumladan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Kim Gim Nyan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori Hotam Fayziyev, "O'zbektelefilm" studiyasi operatorlari K.Karimov, N.Gerasimov, "O'zbekiston ilmiy ommabop va hujjatli filmlar studiyasi" operatori Sh.Mahmudov, G'.Shukurov va kinoinjener L.Muhamedovlar keyinchalik "O'zbekfilm" kinostudiyasi operatori Hasan Fayziyev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, operator Turdi Nodirov, "O'zbekfilm" kinostudiyasi kinoapparat va optika bo'yicha muhandis va tasvirga olish texnik bo'limi boshlig'i Serafima Kim, "O'zbektelefilm" studiyasi kinooperatori Marat Soliyev, "O'zbekfilm" kinostudiyasi rejissyor-montajchisi Adiba Nosirova, "O'zbekiston ilmiy ommabop va hujjatli filmlar studiyasi" rejissyor-operatori Marat Ismoilov kabi o'zbek kinosining taniqli namoyandalari kafedraga jalb qilingan. Tajribali kinooperator Abdurahim Ismoilov kafedrani boshqardi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 21.07.2005-yildagi PQ-128-son qaroriga muvofiq, institut strukturasi qayta ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tashkil etish to'g'risida"gi 2012-yil 4-iyundagi PQ-1771-sonli qaroridan so'ng kafedraning ham moddiy texnik bazasi boyitildi, o'qitilish uslubi va yo'nalishi yangilandi.

Hozirda "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasida O'zbekiston kino va televideniyesining tajribali mutaxassislari faoliyat olib boradilar, o'qitish bakalavriat va magistratura shaklida amalga oshirilib, sohaning ijodiy-texnik masalalarini qamrab olgan fanlar o'qitiladi.

Bo'lg'usi kinooperatorlar sohaning asosi bo'lmish fotografiya san'atining umumiy qonuniyatlari, tasviriy san'atning rang, yorug'lik, kompozitsiya qonuniyati bilan bog'liq predmetlarni o'rganish bilan sohaga kirib keladilar. Zero, fotografiya bo'lajak kinooperatorning poetik tasvirni his qilish idrokini tarbiyalaydi. Birinchi o'zbek kinopublitsisti Malik Qayumov operator

Daniil Demutskiy qo'lida tahsil olarkan, ustozlari olgan fotosuratlar ilk bor tasvir, tasviriy yechim, kompozitsiya haqidagi fikrlarini shakllantirganligini bunday eslaydi: *“D.Demutskiyning “Choyxona” deb nomlangan fotosurati bor. Unda oldingi planda yo'g'on tanali, fonus chiroq osilgan tol tagida, qo'sh so'rida oq yaktakli, yo'l-yo'l chopon kiygan kishilar hordiq chiqarib, suhbatlashib o'tirishibdi. Ulardan biri qiyiq bilan boshini tang'ib olgan. Orqa planda aravakash, qo'qon aravada ikki nuroniy kishini olib ketmoqda. Oldingi va orqa planlar bir-biri bilan solishiltirganda keskin kontrast holat ko'zga tashlanadi. Xullas, 30-yillardagi tipik o'zbek choyxonasi va qishloq kishilarining jonli obrazlari ko'zoldimizda namoyon bo'ladi. Suratdan professional fotografning yuksak san'atkorona didini sezish mumkin”*<sup>2</sup>. Buningdek suratlardagi puxta kompozitsion qurilishlar, yorug'lik-nurning me'yori bo'lajak operatorlar uchun o'ziga xos saboq edi.

O'qitish tizimida jahon xalqlari madaniyati, adabiyoti, tasviriy san'ati, arxitekturasi, din tarixi bilan bir qatorda tabiiy fanlardan fizika, kimyo, geometriyani o'rganish, tasviriy san'atdagi mavjud uslublar va yangi oqimlar bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lish katta ahamiyat kasb etadi. Kafedra kinematografiya sohasidagi bo'lajak mutaxassislarining film yaratish ishida, ijodiy va texnik muammolarni yechishda kerakli bilim va tajribaga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shu maqsadda kino-tele-video kameralar, yoritish uskunalar, suratga olish mini pavilyoni, montaj stoli kabi texnik uskunalar bilan jihozlangan. Bugungi kunda kafedra texnik uskunalarini modernizatsiya qilinishi talabalar uchun imkoniyatlar doirasini kengaytirdi.

Talabalar ijodiy imtihon bilan qabul qilinadilar. O'qish davrida esa har bir kurs rejasi bo'yicha foto yoki video, oxirgi yilda bitiruv ishi sifatida qisqa metrajli film suratga olish yo'lga qo'yilgan.

Bakalavriatda “Kinoteleoperatorlik mahorati”, “Fotokompozitsiya”, “Tasviriy effektlar va postproda kshn”, “Kinoteledramaturgiya va rejissura asoslari”, “Montaj”, “Kino tasvir texnologiyasi”, “Yorug'lik rang va kompozitsiya asoslari”, “Kinotasvir apparatura va optika”, “Raqamli fotografiya”, “Filmning ovoz yechimi”, “Kinovideotexnika asoslari”, “Maxsus va murakkab tasvirga olish”, “Maxsus va murakkab montaj”, “Kompozitsiya asoslari (kino va TVda rassom ishi)” kabi fanlar o'tiladi. Nomi qayd etilgan fanlar talabaga film olish, kinorejissura operator, ovoz rejissyorligi jabhalarining umumiy masalalarini o'rgatadi, ijodiy ishlarni boshqaradi.

Belgilangan fanlarning tarixiy muammo imkoniyatlari ko'lami keng va ular bir-birini to'ldirib boradi. Jumladan, “Kinoteledramaturgiya” ijodiy kasb sifatida shakllanib shu kasbga tayyorlash zaminini tashkil etgan adabiyotning ta'sirini ochishga qaratilgan bo'lib, u o'quv rejasining ilk pog'onalarida qayd

etilgan. Dastlabki yillarda mazkur fanning o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yilmaganligi katta muammolarni yuzaga keltirgan edi. Bugungi kunda to'laqonli kinooperator bilishi muhim va shart bo'lgan bilimlar avvalida kinodramaturgiya, fotografiya, tasviriy san'at kabi fanlar turadi va o'qish jarayonining o'zida ham kinoteleoperatorlarning kurs ishlari, diplom loyihalarini amalga oshirishda o'z ahamiyatini namoyon etmoqda.

Ro'yxatdan ko'rinib turibdiki, tasvir madaniyati bilan bog'liq predmetlar bo'lajak soha mutaxassisini tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi. Bo'lajak operatorning fotografiya asoslari, kompozitsiya masalalarini o'rganishi tasvir borasidagi tushunchalarini kengaytiradi.

Shu o'rinda fotografiya bilan bir qatorda tasviriy san'at asoslari fanining chuqur o'rgatilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tasviriy san'at va operatorlik san'ati qonuniyatlari o'rtasida ko'pgina mushtarakliklar mavjud bo'lib, ifoda vositasiga ko'ra farqi shundaki, kino tasvir orqali fikr aytish san'atidir. Bo'lajak mutaxassisning tasviriy san'at asoslarini o'rganishi mushohada ko'lami kengayishiga, ramzlar tili, ranglar mazmuni borasida qarashlari chuqurlashuviga imkon berishi mumkin.

Kinooperator vizir orqali dunyoni ko'radi va uning ma'lum joyini ajratgan holda kadrda joylashtiradi. Shu orqali u tomoshabinga yetkazmoqchi bo'lgan g'oyasini tasvirlaydi. Bu holatni operatorning harakatlanuvchi tasvir orqali bajargan avtorlik ishi, deyish mumkin. Shu ma'noda rassom ham huddi shunday o'z g'oyasini o'zining tasviriy ishida ifodalaydi. Demak, bekorga ijodkor uchlik deyilmas ekan. Chunki operator va rassom ham rejissyor kabi g'oyaga o'zining shakllangan ichki “rejissyorlik” qobiliyati orqali yondashadi. A.Ismoilovning “Kinooperatorlik mahorati” kitobida shunday yoziladi: *“Operator – filmning hunarmandi, hammuallifidir. Operatorlik san'atining qudrati va o'ziga xosligi mana shunda”*.

Ma'lumki, kino san'at sifatida shakllana boshlagan paytdan e'tiboran uning tasviriy san'atga juda yaqin turishi anglashilgan. Badiiy kinoda qahramon muhitini, film vaziyatini yaratishda amaliy san'at muhim rol o'ynaydi. Film pavilyonlardan tashqariga chiqqanda, ayniqsa film rangli bo'lganda, peyzaj kadrlari shu janrdagi rangtasvirni eslatadi. Tasviriy san'atning barcha turlariga tegishli ifoda vositalari kinoning shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan. Biroq kino ulardan nusxa ko'chirgan emas. Kino kadr tuzishda grafika asaridan (oq-qora kinoda), rangtasvir asaridan (rangli kinoda) o'tadigan koloritni, filmning tasviriy uslubini yaratishni o'rgangan, bunda me'morchilik alohida rol o'ynagan.

Rangtasvir va grafikadan kino, aniqrog'i, operator yorug'lik bilan ishlashni, kadr kompozitsiyasini badiiy jihatdan ifodali qo'yishni o'rgatgan. Rangtasvir janri bo'lgan portret kinoning umumiy plan, o'rta plan, yirik plan kabi ifoda vositalarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Yirik planning paydo bo'lishida portret janrining roli, ayniqsa ahamiyatlidir. Buni tushunish uchun qahramon yirik planda aks ettirilgan kadrni to'xtatish kifoya qiladi. Shunda uning rangtasviridagi

<sup>2</sup> Hasanov B. Malik Kayumov. – T.: “Adabiyot va san'at”, 1972-y. 11-b.

<sup>3</sup> Исмаилов А. Кинотелеоператорское мастерство. – Т.: 2004 г. Стр.154.

portret asariga yaqinligi aniq ko'zga tashlanadi. Kino kadr, mizansahna tuzishda ham rangtasvir tajribasidan foydalangan. Haykaltaroshlik tajribasi kinoga qahramon obrazini plastik jihatdan hal etishda yordam beradi.

Kinoning tasviriy san'at turlari va janrlari bilan ijodiy aloqasi, ularning har birini rivojlanish darajasiga, ularda hukmron bo'lgan tamoyilga, rejissyorning ijodiy tafakkuri, uning vizual his etishiga, kinorassomlar va kinooperatorlarning yuksak mahoratiga bog'liq.

Ma'lumki kinooperatorning tasviriy yechim yaratishdagi hammaslagi rassomdir. O'zbek kino san'ati taraqqiyotida B.Chelli, G.Sentorn, S.Fedorchenko, V.Sinichenko, S.Alimov, A.Boim, L.Kusakova, V.Levental, E.Kolontarov, N.Dvigubskiy, N.Rahimboyev, M.Kartoshev, M.Romadin, V.Dobrin singari kinorassomlarining ijodiy faoliyati alohida o'rin tutadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, milliy kino san'atimizda yirik san'atkor, ulkan rassom Varsham Yeremyan o'ziga xos ijodiy maktab yaratib ketgan. Uning uslubiy o'ziga xosligi, kinokartina yaratishdagi roli har qanday filmda postanovkachi rassomning o'rni operatornikidan kam emasligi, aksincha eng mas'uliyatli vazifalardan biri ekanligini isbot etgan edi. Bu rassomning film postanovkasi uchun tayyorlagan rasmlari rejissyorlar N.G'aniyev, K.Yormatov, Y.A'zamov, Z.Sobitov, L.Fayziyevlar uchun chizma ssenariy bo'lsa, operator D.Demuskiy, M.Krasnyanskiy, M.Penson, A.Pann, N.Ryadovlar uchun esa eskiz bo'lib xizmat qilgan. Mahoratli rassom eskizlari qaysi tomondan yoritish, kamerani qay tomonga harakatlantirish, qanday kadrlarni qo'lda yoki bo'lmasa rels telejkada olish, qaysi vaziyatlar transfokatoridan foydalanishni ko'rsatib beruvchi o'ziga xos barometr, muhim tayanch vosita sanalgan. Rassom ijodini tushuna bilish va u bilan ijodiy hamkorlik o'rnatish olish bugungi kun kinooperatorlari ishida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, bo'lajak kinooperatorlar tasviriy san'at asoslari bilan bir qatorda mamlakatimiz kino san'ati rivojiga katta ulush qo'shgan yirik rassomlar ijodini, ularning uslubiy o'ziga xosliklari, o'zbek kinorassomligi an'analari ham puxta bilishlari nihoyatda zarur. Zero, film syujetiga asosan sodir bo'layotgan davr muhitining to'laqonli yaratilishi, epizodlardagi voqealar ruhiyatining plastik vositalar orqali ochilishi, muhit ko'rinishidagi, kostyumlardagi bo'yoqlar rang-barangligi, rassomning koloristik mahoratini tasvirda yetkaza olishi yuksak salohiyatni talab qiladi. Kinorassomlar ijodi o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etib, ularning film yaratilishida o'rni beqiyos: *"Kinorassom eskizlari milliy arxitektura, maishiy asbob-anjomlar, tabiat manzaralari faqatgina muhitni belgilovchi, unga milliy xarakter beruvchi, syujet voqealari sodir bo'layotgan davrni va joyni eslatuvchi elementlar emas, filmning butun mazmuni, uning obraz yechimi bilan bog'liq bo'lgan moddiy muhitdir"*<sup>4</sup>. Mazkur masala o'z navbatida kinooperatorlarning

kinorassomlar bilan birgalikda tahsil olishlari nihoyatda muhim ekanligidek o'qitishning yana bir muammosini o'rtaga tashlaydi.

Ma'lumki hozirgi kunda kinooperatorlar O'zDSMIda ta'lim olganlari holda kinorassomlar Milliy rassomlik va dizayn institutida tahsil ko'radilar. Tabiiyki ularning o'zaro ijodiy aloqalar o'rnatishi, birgalikda asar yaratishlari uchun yetarli darajada imkoniyat va shart-sharoitlar mavjud emas. Bunga hududiy masofa, dars jadvallari, o'quv-amaliy faoliyatning turlichaligi monelik qiladi. Mazkur ikki soha bitta yo'nalishga xizmat qilishi va bu borada kino san'atining ko'p yillik o'z an'analari mavjud ekanligidan kelib chiqqanda, ushbu muammoning hal etilishi endilikda nihoyatda muhimdir.

Keltirilgan fanlar ro'yxatiga "Uslubiyat" predmetining ham kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Bizningcha, mazkur predmetni kiritish orqali mahoratli kinooperatorlar uslubidagi o'ziga xosliklar va umuman uslub yaratishning badiiy xususiyatlari, ijodiy o'zlikni izlashdek muhim masalalarni o'rganish imkoni tug'ilar edi.

Kinooperator ssenariyni qo'lga olib o'qir ekan, undagi g'oya va motivdan ma'lum bir xarakter g'aydalanib turganini his qiladi. Shunga asoslanib qanday uslubda yondashish kerakligini aniqlaydi. Kinooperator ko'nikib qolgan uslubda yondashishi yoki g'oyaga mos bo'lmagan tajribani qo'llashi nojoizdir. Umuman olganda kinooperatorning bir qolipga tushib qolishi yaxshi natija bermaydi.

So'nggi yillarda magistratura yo'nalishining ochilishi "Ovoz rejissyorligi va operatorlik" kafedrasida kinooperatorlik, teleoperatorlik mutaxassisliklariga bo'lgan talabni yanada oshirdi.

Hozirgi kunda "Kinooperatorlik" va "Teleoperatorlik" magistratura mutaxassislik yo'nalishlarida "Kinooperatorlik mahorati nazariyasi", "Teleoperatorlik mahorati nazariyasi", "Operator ishi nazariyasi", "Kino va televideniya tasviriy yechim", "Kino nazariyasi", "Kinokadr kompozitsiyasi", "Kino kameralar va yoritish uslublari nazariyasi", "Badiiy film ishlab chiqarish va marketing", "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi", "Ekran san'ati tanqidi va tahlili", "Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish", "Ilmiy-pedagogik ish" kabi fanlar o'rgatilib, sohaning nazariy asoslarini yaratish harakatlari olib boriladi.

Bugungi kunda magistratura yo'nalishini tamomlagan yoshlar bevosita amaliy faoliyat muammolariga yechim bo'ladigan nazariy masalalarni ilmiy o'rganmoqdalar. Kinoshunoslik adabiyotlarida kinooperatorlik faoliyati nihoyatda kam o'rganilgani, sohada yuzaga kelgan muammolarga ilmiy yechim topish muhimligidan kafedrada bo'lajak nazariyotchilarni tarbiyalash uchun fan doktorlari, fan nomzodlari, professor va dotsentlar jalb etilgan.

Mazkur sohaning o'ziga xos muammolaridan biri nazariy masalalar yechimini topishda aks etadiki, bu bo'lajak magistrnlarning metodologiya borasidagi bilim va ko'nikmalarining yetishmasligi bilan bog'liq. Ikki yillikka mo'ljallangan magistratura ta'limi talabaga

<sup>4</sup> T.Rasulov S. Ekran san'atida tasviriy yechim va uning asoslari. - T.: O'zME, 2008-y. 112-b.

nazariyot masalalarini o'rgatgani holda ilmiy tadqiqot metodologiyasini yetarli darajada o'zlashtirishi uchun kamlik qiladi. Bevosita mazkur yo'nalish ta'lim jarayoniga metodologiya fanining kiritilmaganligi, bu boradagi ishlarda qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Zero, kinooperatorlik amaliy soha, uning o'ziga xosliklarini nechog'lik chuqur o'rganmasin, amaliyotchining nazariy ahamiyatga molik dissertatsiya ishi yaratishi ko'plab qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu boisdan kinooperatorlik yo'nalishidagi magistraturada birinchi kursdan boshlab "Ilmiy tadqiqot yaratish metodologiyasi" fan sifatida kiritilishi lozim. Shuningdek, magistr-kinooperatorlarga qo'yilgan ilmiy-nazariy ahamiyatga molik magistrlik dissertatsiya yozish talabi murakkab xarakterdagi ijodiy ish hamda uni ilmiy tadqiq etgan referat bilan almashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi deb bilamiz.

Bugungi kun o'qish jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan muammolardan yana biri xorij o'quv yurtlari bilan darslik va o'quv qo'llanmalar ayriboshlash masalasidir. Hozirda institutning yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan ilmiy-ijodiy aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mana shu munosabatdan kelib chiqib, kino-teleoperatorlik sohasini o'qitishga qaratilgan nazariy ahamiyatga molik qo'llanmalarni ayriboshlash hamda metodologik ahamiyatga molik yangi nashrlarni ta'lim tizimiga olib kirilishini amalga oshirish sohadagi nazariy asoslarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, texnik imkoniyatlarning kengayganligi ortidan hozirda operatorlik sohasi bilan ko'pchilik shug'ullanmoqda. Ko'p hollarda esa havaskor operatorlar xususiy kinolarda suratga olish faoliyatiga ham jalb etilmoqda. Shu munosabat bilan hozirda faoliyat olib borayotgan kafedra qoshida havaskor operatorlar tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari ochish, ularda umumiy qonuniyatlarni o'rgatish ishini yo'lga qo'yish mumkin. Mazkur o'quv kurslarini tugallagan yoshlarga sertifikat berish va shu hujjat asosida xususiy filmlarda ishlash huquqini qo'lga kiritishi amaliyotini tashkil etish lozim, deb o'ylaymiz. Bizningcha, mazkur faoliyatning yo'l qo'yilishi bugungi kunda xususiy kinoda kechayotgan muammolarga yechim topishda bir qadar ahamiyatli bo'lishi mumkin.

Kuzatilganlardan ko'rinadiki, har qanday jabhaning ertasi yetuk kadrlar tayyorlanishi bilan bog'liq. Shunday ekan, kinooperatorlik sohasining taraqqiyoti ham o'qitish tizimida islohotlar olib borish, predmetlar tizimida va tashkiliy jarayonlarda amaliy o'zgartirishlar qilish nihoyatda zarurligini ko'rsatmoqda.

Ularning eng muhimlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- *operatorlarni kinorassomlari bilan birgalikda o'qitish tizimini shakllantirish;*
- *magistratura yo'nalishida ilmiy ish yaratishning yangi shakllarini ishlab chiqish;*
- *xorijiy o'quv yurtlari bilan o'zaro darslik va qo'llanmalar ayriboshlash ishini amalga oshirish;*
- *kinooperatorlik o'quv kurslarini tashkil qilish faoliyatidan iboratdir.*

Kino san'ati ilk shakllanishi davrida kinooperator texnik xodim sifatida qaralgan bo'lsa, kinematograf taraqqiyoti uning kamera yordamida ijod qiluvchi san'atkor darajasiga ko'tardi. Operator postanovkachi rejissyor va bosh rassom bilan birgalikda film tasviriy yechimini yaratishga mas'ul, ijodiy jamoaning faol a'zosi ekanligi ma'lum bo'ldi. Operator mahorati – film badiiy yaxlitligining mezon, yetakchi vositasidir.

Kino yaratishda qo'llanadigan texnika va texnologiya taraqqiyot darajasi kinematografning audio-vizual imkoniyatlarini belgilaydi va operator ijodiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kinooperatorlik ijodi tasviriy san'atning uch o'lchamli sathiga to'rtinchisini ham kiritadiki, bu tasvir harakatidir.

Kinooperatorlikda san'at yaratish, deyilganda epizodlarni to'laqonli va bekamu-ko'st suratga tushirish emas, balki tasviriy ifoda vositalari orqali film g'oyasini ochish va badiiy obrazini barpo etish tushuniladi. Mahoratli badiiy film – ulkan dramaturgiya, yuksak rejissura, yorqin iste'dodli aktyorlar ijrosi bilan birga betakror san'at namunasiga aylangan tasviriy yechim uyg'unlashuvidan tug'iladi.

O'zbekistonda kinooperatorlik san'ati badiiy madaniyatning o'ziga xos hodisasi sifatida to'rt bosqichli tarixiy-evolyutsion yo'lni bosib o'tdi. O'zbek kinosida tasvirga olish xarakteri va uslubiy vositalari bilan o'ziga xoslik kasb etuvchi operatorlik badiiy maktabi shakllandi va rivojlandi.

A.Demutskiy asos solgan O'zbekiston operatorlik maktabi kadr tuzilmasi, quyoshning nuri va soyalaridan foydalanish xarakteri, diafragmalarni qo'llashda yorug'lik yechimi tabiiyligi, chuqur soyalar hamda yarim tularga boyligi, oldingi planni egallashga ko'proq diqqat qilinishi, koloriti, issiq ranglarning ko'p ishlatilishi singari bir qator xususiyatlariga ko'ra o'ziga xoslik kasb etadi va boshqa ijodiy maktablardan farq qiladi.

Operatorlik san'atida badiiy maktabning shakllanishi, an'analarni yuzaga kelishi, ijodiy uslublar paydo bo'lishi kino san'atining badiiy ifoda tili bilan bog'liqlikda kechdi. Texnik imkoniyatlar cheklangan murakkab muhit yangicha vositalar topish, kutilmagan usullar kiritishga ham sababchi bo'lib, milliy kinoning shoh asarlari yaratildi.

O'zbekiston kinooperatorlik maktabining tarixiy yo'lida tasvir xarakteri uchta bosqichni bosib o'tdi. Bular – maksimal; haqqoniy; obrazli-poetik tasvir bosqichlaridir.

Kino taraqqiyoti uchun qudratli industrial baza yagona omil emas. Operatorning tafakkur darajasi texnik vositalar takomilidan ustun turadi. Yuksak rivojlangan texnika hamisha ijodiy muvaffaqiyat garovi, deb bilish operatorlik sohasini biryozlama tushunishdir.

Raqamli kameralar, kompyuter texnologiyasi va boshqa yuksak sezuvchan texnik jihozlar kino yaratishda bir qadar yengillik tug'dirgani bilan ularga tasviriy yechim badiiyatini kuchaytirish, operatorlik mahoratini oshirish vositasi sifatida qarash to'g'ri bo'lmaydi. Operatorlik san'ati haqida fikr yuritishda texnik taraqqiyot bilan birga ijodiy tafakkur o'rtasidagi

o'zaro ta'sir va aks ta'sir masalasiga alohida e'tibor qaratish muhimdir.

Zamonaviy o'zbek badiiy kinosidagi ijodiy muammolar yosh rejissyorlarning tasviriy yechim qonuniyatini bilmaligi, operatorlar bilan ishlash salohiyatiga ega emasligi bilan ham bog'liqdir. Xususiylar kinalarda havaskor operatorlarning faoliyat olib borishi filmlar badiiy-estetikasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi kuzatiladi. Shu bois mazkur muammolar yechimiga yo'l ochish maqsadida, O'zDSMIning "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasida operatorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv kurslari tashkil etish joiz. O'quv sertifikatlari xususiylar kinoda ishlash huquqini berishiga erishish kerak.

O'zbek milliy kinosida shakllangan badiiy maktab an'alarini taraqqiy ettirgan va bu borada o'z yo'li hamda uslubiga ega bo'lgan Daniil Demutskiy, Mixail Krasnyanskiy, Hotam Fayziyev, Abdurahim Ismoilov, Hamidulla Hasanov, Rifkat Ibragimov singari operatorlar ijodini keng yoritgan kitoblar, o'quv qo'llanmalar yaratilishi lozim. Buningdek kitoblar talabalarning sohani yanada chuqur o'zlashtirishlariga yordam berishi mumkin.

Kinooperatorning tasviriy yechim yaratishdagi hammaslagi rassomdir. O'zbek badiiy kinosi taraqqiyotiga xizmat qilgan V.Yeremyan, V.Sinichenko, E.Kolontarov, N.Rahimboyev singari kino rassomlari ijodini ilmiy tadqiq etilishi nafaqat milliy kino tarixini, balki tasviriy yechimning nazariy asoslarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kino san'ati ta'limi jarayonida kinooperatorlarning kinorassomlar bilan birgalikda tahsil olishlarini ta'minlash talabalarning tasviriy yechim borasida bilim salohiyatining oshishi, hamkorlik loyihalarini amalga oshirishi, kasbiy malakani yanada puxta o'zlashtirishiga xizmat qilishi mumkin.

Kinooperatorlik magistraturasida shart qilib qo'yilgan ilmiy-nazariy ahamiyatga molik magistrlik dissertatsiya yozish talabi murakkab xarakterdagi ijodiy ish hamda uni ilmiy tadqiq etgan referat bilan almashtirilsa, amaliyot va nazariya uyg'unligiga ko'proq erishish mumkin bo'lar edi.

Kinooperatorlik sohasini o'rganishda yaqin va uzoq xorij mamlakatlaridagi o'qitish uslubi, yaratilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalar darajasi bilan tanishish, hamkorlik loyihalarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan qo'shni respublikalarda kino-teleoperatorlik sohasini o'qitishga qaratilgan nazariy ahamiyatga molik qo'llanmalarni ayriboshlash hamda metodologik ahamiyatga molik yangi nashrlarni ta'lim tizimiga olib kirilishini amalga oshirish sohadagi nazariy asoslarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ko'plab sohalarning o'z nashri bo'lgani holda kinooperatorlik san'atining maxsus nashri mavjud emas. Endilikda ushbu sohaning yutuq va kamchiliklarini yoritadigan, mutaxassislar hamda yosh tadqiqotchilar chiqishlarini amalga oshirishga qaratilgan maxsus nashrning tashkil etilishi mazkur sohani o'rganish, qolaversa, kino san'atidagi zamonaviy muammolarni hal etilishiga yordam berishi mumkin.

Hozirgi jahon kino jarayonlarida tasviriy yechim borasida kechayotgan tub o'zgarishlarni o'rganish uchun o'zaro ijodiy aloqalarni yo'lga qo'yish, mahoratli kasb ustalarini birgalikda film yaratish ishlariga jalb qilish kerak.

Kinooperatorlik sohasida tahsil olayotgan talabalarning son jihatidan kamaytirib, sifat darajasini ko'tarish va ularni amaliyot bilan ko'proq bog'lash zarur. Shuningdek, mazkur jabhadagi xorijiy adabiyotlarni tarjima qilish va o'quv amaliyotiga olish kirish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikbal Melikuziev. (2020). CINEMATOGRAPHER'S ABILITY IN THE CREATION OF GRAPHIC IMAGE IN UZBEK HISTORICAL FILMS. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(05), 1554 - 1567. Retrieved from <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10078>
2. Ikboljon, M., & Tirkashaliyevich, K. S. (2019). Creative researches of young cameramen on the creation of graphic image in modern uzbek feature films. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 5230-5236. doi:10.35940/ijeat. A2948.109119
3. Abul-Kasimova X. Кино и художественная культура Узбекистана. – Ташкент: "Fan", 1991 г.
4. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslar i/ X. Abulqosimova; mas'ul muharrir H.Ikromov; O'zbekiston Davlat san'at instituti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2009-y. 100-b.
5. Akbarov H. Adabiyot va kino. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1984-y.
6. Akbarov H. Sehrli yog'du. Yillar va filmlar, yetuklik bo'sag'asida, ekran va ikki muammo. – T.: "Adabiyot va san'at", 1977-y. 176-b.
7. Aliyev M. Xalq sevgan san'at. – T.: "Adabiyot va san'at", 1973-y. 134-b.
8. Aliyev M. Kino asoslari: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi madaniy-ma'rifiy ixtisosdan bilim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma. 2-qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr. – T.: "O'qituvchi", 1993-y. 160-b.
9. Aliyev M. Zamon bilan hamnafas (o'zbek kinosi misolida) – T.: "O'zbekiston" 1983-y.



## ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ВИЗУАЛЬНЫХ ЭФФЕКТОВ В КИНЕМАТОГРАФИИ

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о развитии визуальных эффектов в искусстве кинематографии. А также уделяется особое внимание выразительные средства и художественные приёмы при создании специальных эффектов.

**Ключевые слова:** искусство, кино, кадр, композиция, стиль, эффект, хромакей, композинг, киноосвещение.

## КИНЕМАТОГРАФИЯДА ТАСВИРИЙ ЭФФЕКТЛАР ТАРИХИ ВА ТАРАҚЇЇТИ

**Аннотация.** Мазкур мақолада, кинематография санъатида тасвирий эффектларнинг ривожланиш босқичлари ҳақида сўз боради. Шунингдек, фильмнинг бадиий образ ва тасвирий ечимини яратишда махсус эффектлар яратиш услубларига алоҳида эътибор қаратилади.

**Калит сўзлар:** санъат, кино, кадр, композиция, услуб, эффект, хромакей, композинг, кино ёритиш.

## HISTORY AND DEVELOPMENT OF VISUAL EFFECTS IN CINEMATOGRAPHY

**Abstract.** This article reveals the development of visual effects in the art of cinematography. And also special attention is paid to expressive means and artistic techniques when creating special effects.

**Key words:** art, cinema, frame, composition, style, effect, chroma key, compositing, film lighting.



Практически сразу после появления кинематографа, режиссерам показалось недостаточно того, что можно просто снять на камеру. Им захотелось показать зрителю что-то новое, то чего он не может увидеть в обычной жизни. Еще в 1905 году в Англии Р.Паул создал фильм «Автомобиль», где машина улетала с Земли, проезжала по кольцам Сатурна и возвращалась обратно. Для того чтобы зритель увидел на экране что-то необычное, можно либо создать перед камерой эту необычную картину, или снять что-то таким образом, чтобы это показалось необычным. Эти два способа с самого начала развивались параллельно и зачастую дополняли друг друга: на студиях строились колоссальные декорации, и вместе с тем начинали применяться так называемые комбинированные съемки.

Самый простой визуальный эффект можно было получить, просто повернув камеру, наклонить кадр или вообще перевернуть ее вверх ногами. При такой съемке у зрителя возникает ощущение, что мир встал на голову, а если использовать соответствующие декорации, то вполне можно снять человека, разгуливающего по потолку комнаты или по наружной стене дома. Камеру можно еще и немножко потрясти, таким нехитрым способом получив эффект тряски от взрыва. Чуть более сложные эффекты, кстати, как и предыдущие до сих пор активно применяющи-

ся, это использование светофильтров. С их помощью можно добиваться очень интересных результатов. Например, действие, которое происходит в пустыне, можно отснять на снегу, да прямо на снегу, просто применив желтый светофильтр. Более того, все персонажи, в качестве бесплатного дополнения, получатся такого органичного песчаного оттенка, как в знаменитом кинофильме «Белое солнце пустыни». Что интересно, светофильтры начали использовать еще до появления цветной пленки. В последнее время они выдерживают жесткую конкуренцию с компьютерной цветокоррекцией. Применение которой связано с некоторыми накладными расходами на оцифровку снятого материала, но цифровая технология позволяет применять разные фильтры к разным частям кадра, то есть герои «Белого солнца» могли бы получиться и не такие желтые. Увеличение и уменьшение скорости прокрутки пленки в камере – также эффект, который можно с уверенностью назвать долгожителем. Многие привычные вещи выглядят совсем иначе, если ускорить или, наоборот, замедлить течение времени. Полет комара снятый так, что различим каждый взмах его крыла, или видео, на котором день сменяется ночью за считанные секунды – вот несколько простых примеров использования этого эффекта. Эта идея получила свое цифровое развитие – так называемый буллеттайм (BulletTime).

При создании фантастических и исторических фильмов огромные деньги тратились на постройку декораций, но они необходимы далеко не всегда. Иногда фон можно заменить рисунком или фотографией. Снять актера на виртуальном фоне можно, просто установив позади него специальный экран и с обратной стороны при помощи проектора на просвет спроецировать на него фон. Если вместо статичной картинки использовать кино, то можно снять и более сложные сцены. За простотой этого метода скрывается и его недостаток – из-за того, что экран плоский, мы не можем в прямом смысле «поставить» людей в декорации. Мы можем только подменить фон, поверхность же, на которой люди стоят, должна быть реальной.

Настоящим прорывом в комбинированных съемках стало появление технологии так называемого хромакея (Chromakea). При этом сцена снимается на одноцветном фоне, обычно на зеленом или синем. После чего вместо этого цвета можно подставить любой другой видеофрагмент. Эта технология была очень тепло принята телекомпаниями, для создания виртуальных студий. Теперь студию новостей можно было заменить комнатой с однотонными стенами, а зритель при этом мог видеть что угодно: хоть футуристический, хоть классический интерьер; ведущих можно даже «перенести» на лесную лужайку. В кино данный метод применяется для создания как виртуального фона, так и некоторых других эффектов.

Если развить эту идею, то становится понятно, что финальная картинка в кинематографе может состоять не только из двух слоев, но и из большего количества. Например, при формировании сцены штурма крепости стены крепости, поле боя перед укреплениями, актеры и небо могут быть сняты в совершенно разных местах или даже нарисованы на компьютере. Совмещение различных видеопоследовательностей называется композингом (composing). Простейший случай композинга мы каждый день видим в новостях с сурдопереводом, где кадры из одной студии накладываются на кадры из другой. Но в кинематографе применяются куда более сложные эффекты. Но если всех конников сделать последовательным смещением, то они будут двигаться «в ногу», что наверняка вызовет у зрителя недоверие. Чтобы этого не произошло, каждую отдельно взятую фигуру накладывают со смещением, то есть одна лошадь начинает бежать с правой ноги, а соседняя будет повторять ее движения с некоторой задержкой.

<sup>1</sup> Ikbal Melikuziev. (2020). Cinematographer's ability in the creation of graphic image in uzbek historical films. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(05), 1554 - 1567. Retrieved from <http://serc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10078>

<sup>2</sup> Ikboljon, M., & Tirkashaliyevich, K. S. (2019). Creative researches of young cameramen on the creation of graphic image in modern uzbek feature films. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 5230-5236. doi:10.35940/ijeat.A2948.109119

Но иногда и этого бывает недостаточно, тогда можно даже слепить одну лошадь из двух других: так, в фильме «72 метра» некоторые чайки были слеплены из трех частей – голова от одной, а туловище и ноги от двух других. Но даже в идеальной армии все солдаты не могут выглядеть абсолютно одинаково. Возникает необходимость как-то разнообразить персонажей. На них можно накладывать цветокоррекционные фильтры, изменять их размер и пропорции и, как уже было сказано, составлять одно целое из частей разных персонажей. Для того чтобы на отснятый городской пейзаж добавить рекламный плакат, висящий на стене дома, необходимо **протреть** (получить последовательность координат точки на каждом кадре) точки, соответствующие тем углам дома, за которые будет крепиться плакат, и просто как четырехугольник по четырем углам прикрепить картинку с плакатом. Степень достоверности сцены зависит лишь от мастерства художника. Но при изменении положения камеры освещение может меняться, а так как наш плакат остается двухмерным, то имитировать правильное освещение – достаточно непростая задача. Что при работе с трехмерными объектами перестает быть столь большой проблемой.

Для виртуальной камеры мы всегда точно знаем ее параметры и траекторию движения, ведь они задаются цифрами. А для материалов, отснятых настоящей кинокамерой, обычно известно только фокусное расстояние объектива, да и то если информация не потеряна после съемок. Конечно, можно перемещать камеру в пространстве по строго определенному закону, но для этого требуется специальный дорогостоящий робот проще восстановить параметры камеры и способ ее движения по уже отснятому материалу. Метод для восстановления параметров и движений камеры называется **мачмувингом**. Эти точки могут выбираться программой автоматически – например, как самые яркие или как содержащие пересечение выделяющихся линий (уголки), но более точный результат обычно получается, если они заданы вручную. Человек указывает некоторые точки на одном кадре, после чего программа сама следит за их перемещением и находит их координаты на всех остальных кадрах, если, конечно эти точки все еще видны на них.

Кинематограф как жанр родился из театра, а в театре со спецэффектами особо не побалуешься, там все происходит на глазах у зрителя. Но существуют разнообразные технические средства, позволяющие создавать интересные эффекты в реальном времени<sup>2</sup>. Прежде всего это разного рода осветительные приборы. С их помощью можно сменить время суток, создать впечатление прозрачности актера. Да с помощью проектора на декорации модно спроецировать что угодно: хоть взрывы, хоть звездное небо. Часто как в кино, так и в театре для создания сцен, которые должны изображать сон, используют освещение «через

воду». Мощный источник света направляется в ванночку с водой, на дне которой лежат кусочки фольги. Съёмочная площадка заполняется неоднородными, быстро меняющимися бликами и отсветами, у зрителя создается впечатление нереальности ситуации.

Дымы тоже давно перестали быть проблемой для постановщиков. Существует множество разнообразных технологий для создания дыма, и большинство из них опровергает известную половицу «нет дыма без огня».

Иногда при съемках приходится работать со льдом, а он под горячим студийным светом тает буквально на глазах. Специально для таких случаев фирма Сопаог Рото производит широкую гамму заменителей льда. Вы можете приобрести кубики, или крошку, или даже маленький айсберг, форму которому при помощи бритвы можно придать самостоятельно. Все эти заменители делаются из желатина и после нескольких часов размачивания в воде, практически неотличимы от настоящего льда.

Далее при помощи различных математических моделей восстанавливается траектория камеры и трехмерные координаты тех точек, что были использованы в качестве входных данных. Например, для ролика, снятого в комнате, в качестве опорных точек можно выбрать углы стола и комнаты, или яркие колпачки на авторучках, а также другие мелкие хорошо видимые предметы. Результаты работы программы можно импортировать в 3D-редактор, для каждой опорной точки будет создан маркер, а камера будет полностью соответствовать той с помощью, которой был снят исходный ролик.

Сразу же встает проблема с освещением. Ведь для того, чтобы «оживленный объект выглядел органично, его освещение должно соответствовать сцене в целом. Более того, было бы совсем неплохо, если бы он отбрасывал тень на другие части сцены. С освещением все делается достаточно естественным путем. Если есть информация о свете, который был установлен на съёмочной площадке, то делается подобная структура из виртуальных осветительных приборов, а потом их параметры подгоняются, грубо говоря, на глаз. Если же такой информации нет, то сразу переходим ко второй стадии – подбору параметров, только теперь необходимо подобрать еще количество и расположение источников света.

А вот для реализации теней потребуется достроить в 3D те части сцены, на которые будет падать тень. Эти части делаются таким образом, что их не видно на финальной отрисовке сцены, но тень, которая падает на них, будет представлять собой полупрозрачное темное пятно. То есть фон (отснятый материал) будет просвечивать, он будет затемнен, одним словом мы получим именно тень. Можно конечно, поступить и проще – «прилепить» на композинге к 3D-объекту снизу полупрозрачное черное нечто, нарисованное в «Фотошопе», но

опять же непонятно, как это нечто будет меняться при повороте камеры.

Если же отснятых актеров необходимо внести в 3D-среду, то тут сначала вся сцена продумывается, создается четкий план. После чего актеры снимаются на зеленом или синем фоне, при этом камера должна «проехать» именно так, как в финальной сцене. Далее в дело снова вступает программа. Только теперь при съемках по фону следует расставить маркера которые будут использоваться программой как опорные точки. Маркеры могут быть какими угодно, главное, чтобы они были хорошо видны на основном цвете фона и чтобы впоследствии их было легко убрать. Например, в качестве маркеров часто применяют обычные шарики для пинг-понга, которые хорошо видны при любом освещении. В некоторых фильмах приходится изменять облик артистов. Например, нам необходимо «прицепить» к голове персонажа какой-то сложный имплантат – допустим, заменить глаз цифровой камерой. Для этого можно было бы изготовить специальный прибор, который и разместить на голове у актера. Но если персонаж должен выполнять какие-то действия, хотя бы вращать кольца объектива, применение механических «протезов» сильно осложняется. Нам необходимо «прицепить» 3D-объект к голове актера.

Для этого на то место, где впоследствии будет находиться имплантат, наносится яркий грим, играющий ту же роль, что и вышеописанные маркеры. Но если в предыдущем случае было достаточно одной камеры, то здесь потребуются как минимум фильм при **комполитинге**. Подобным образом, на самом деле, делается большинство киновзрывов.

Минимум две, причем в хорошем качестве может снимать только одна, именно с нее картинка впоследствии пойдет на экран. По такому же принципу, как работает наше бинокулярное зрение, с помощью двух и более камер можно определить положение любой точки в пространстве. Теперь если мы «привяжем» 3D-имплантат к маркерам на лице актера (мы уже знаем их траекторию движения), то он будет неподвижен на лице – мы получили искомый результат.

Особое место в спецэффектах занимают взрывы и дым. И если дыма можно напустить прямо на съёмочную площадку, то снимать взрывы, да еще и вблизи от актеров, быть весьма опасно. И дым, и взрывы могут быть выполнены как трехмерными, так и двухмерными. Могут быть и комбинации этих методов – например, от 2D-взрывов часто разлетаются 3D-осколки. Двухмерные взрывы обычно снимаются на полигонах на однородном фоне, после чего вставляются в фильм при композитинге.

С 2D-дымом еще проще, его с достаточной степенью реализма можно сгенерировать программно, то же самое касается и пара и даже в ряде случаев облаков. Но когда требуется сделать дым, который, как гроза у Островского, будет от-

дельным персонажем, используют более сложные способы и их комбинации. Например, в фильме «Манга» из труб автомобилей шел дым, отснятый прямо во дворе студии. Использование трехмерного дыма открывает большие возможности для управления им, становятся доступны разного рода завихрения и перемешивание слоев, но его создание куда более трудоемкое.

Обычно, 3D-дым представляет собой множество отдельных частиц со своими свойствами и сложной взаимосвязью, которые сливаются на экране в единое целое. Для получения достоверной картинки требуется очень много частиц со сложными взаимосвязями. Такой дым часто «идет» от падающих самолетов и горящих осколков. К движущемуся объекту привязывается так называемый источник системы частиц, который постоянно создает новые частицы, в дальнейшем живущие собственной жизнью. Что интересно, существуют и 2D-технологии, основанные на использовании систем частиц.

Трехмерные взрывы и огонь тоже чаще всего создаются при помощи частиц. Только теперь эти частицы движутся по другим законам и способны «излучать свет». Некоторые частицы пламени могут одновременно являться и источниками дыма, что иногда дает очень интересные результаты. На этом область применения систем частиц не ограничивается, с их помощью создается множество разнообразных эффектов: фейерверки, планктон и водные потоки, даже стаи птиц иногда делают по этому принципу.

Как сейчас модно говорить, **эффекты не делают фильм**. С этим утверждением трудно не согласиться, но ведь именно за спецэффектами зритель приходит в кинотеатр. Ведь только большой экран позволяет показать их во всей красе. Именно для того, чтобы взрывы и грохот разрушений были более реальны, в кинотеатры устанавливаются многоканальные акустические системы. И как показывает практика, кассовые сборы фильмов с впечатляющими эффектами обычно очень велики.



#### Использованная литература:

1. Dr.Tadjibayeva O.K., Melikuziyev I.M., Khusanov Sh.T. Issues of the using the Special Effects as means of Visual expression in the Cinema art. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7, 2, 2020, 2204-2215.
2. Melikuziyev I. (2020). Cinematographer's ability in the creation of graphic image in uzbek historical films. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(05), 1554–1567. Retrieved from <http://serisc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10078>.
3. Ikboljon, M., & Tirkashaliyevich, K. S. (2019). Creative researches of young cameramen on the creation of graphic image in modern uzbek feature films. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 5230-5236. doi:10.35940/ijeat. A2948.109119.
4. Melikuziyev I. (2016). Duties of a Cinematographer in Creating a Film. *Journal of Literature and Art Studies*, 6(7). <https://doi.org/10.17265/2159-5836/2016.07.013>.
5. Melikuziyev I. (2020). Cinematographer's ability in the creation of graphic image in Uzbek historical films. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1554–1567.
6. Камола Садиковна Хидирова. (2022). Развитие поэтического стиля в узбекских кинематографии. *Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture*, 2(13), 20–23. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7409251>.

## MO'JIZAKOR QO'G'IRCHOQ TEATRI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qo'g'irchoq teatri san'ati, O'zbek milliy qo'g'irchoq teatrida namoyish etilgan V. Shekspirning "Hamlet" asari taqdimoti va aktyorlar ijro mahorati haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, Sergey Obratsov nomidagi Moskva davlat akademik markaziy qo'g'irchoq teatri jamoasining o'zbek teatr sahnasida qo'yilgan spektakllari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** qo'g'irchoq, teatr, spektakl, tomoshabin, repertuar, tarjima, tragediya, ijro, sahna, aktyor.

## ЧУДЕСНЫЙ КУКОЛЬНЫЙ ТЕАТР

**Аннотация.** В данной статье рассматривается мнение об искусстве кукольного театра, а также о представлении зрителю произведения В. Шекспира «Гамлет», в исполнении Узбекского национального театра кукол, и об исполнительском мастерстве актеров. Речь также идет о произведениях коллектива Московского государственного академического центрального театра кукол имени Сергей Образцова, представленных жителям и гостям столицы.

**Ключевые слова:** кукла, театр, спектакль, публика, репертуар, перевод, трагедия, постановка, сцена, актер.

## WONDERFUL PUPPET THEATER

**Abstract.** This article discusses the opinion about the art of puppet theater, as well as about the presentation of W. Shakespeare's work "Hamlet", performed by the Uzbek National Puppet Theater, and about the performing skills of the actors. We are also talking about the works of the team of the Moscow State Academic Central Puppet Theater named after S. Obratsov, presented to residents and guests of the capital.

**Key words:** puppet, theater, performance, audience, repertoire, translation, tragedy, staging, stage, actor.



Har yili respublikamizning barcha teatrlari yangi mavsumni yangi sahna asari bilan ochadi. Bu bilan teatrlarning repertuari yana bitta spektakl bilan boyiydi. Xuddi shunday an'ana O'zbek milliy qo'g'irchoq teatrida ham bo'lib o'tdi.

Ma'lumki, qo'g'irchoq san'ati qadimiy va boy madaniyatimizning tarkibiy qismi bo'lib, o'zining yorqinligi, maftunkorligi bilan ajralib turadi. Bu san'at voqelikni qo'g'irchoq personajlar orqali o'ziga xos uslubda ba'zan jiddiy, ba'zan hazil, ba'zan esa kinoyalik yo'llar bilan lo'nda, ravon va qiziqarli qilib ko'rsata olish imkoniyatiga ega bo'lgan, betakror san'at turlaridan biridir [1].

Teatrning bosh rejissyori Shomurod Yusupovning adabiy tahriri asosida Maqsud Shayxzoda tarjimasini bilan qo'g'irchoq teatri uchun moslashtirgan Shekspirning "Hamlet" qo'g'irchoq spektaklini tomoshabinlar hukmiga havola etdi. Hammaga ma'lumki, "Hamlet" tragediyasi hayotdan, taqdir va muhit bilan qarama-qarshi turgan inson kechmishidan olib yozilgan bo'lib, undagi asosiy mavzu hokimiyat va boylik uchun sodir etilgan jinoyatdan iborat. Bu tragediya ko'plab teatrlarda qayta va qayta muvaffaqiyatli namoyish etilgan. Ushbu teatr sahnasida ham tomoshabinlar hukmiga havola etilgan qo'g'irchoq spektakli katta qiziqish bilan kutib olindi. Spektaklini tomosha qilar ekansiz, bu yerda qo'g'irchoqlar ijrosidagi "Hamlet" jonli ijrodagi spektakldan qolishmasligini, tomosha davomida sintez, ya'ni jonli qo'g'irchoq va animatsiyadan foydalanganligini ko'rib hayratga tushasiz.



Spektaklning syujeti haqida gapiradigan bo'lsak, aynan qo'g'irchoq teatri uchun moslangan spektakl dastlab Klavdiy (S. Ro'ziqulov), Gerd Rudo (Sh. Ishmuxeimedova)larning ko'rinishi bilan boshlanadi. Nutqiy jonli ifodaviylik tomoshabin ko'z o'ngida qo'g'irchoqlar emas, aynan jonli aktyorlar o'ynayotgandek paydo bo'ladi. Asar rivoji Hamlet (S. Jo'rayev) otasining o'limini bilib qolgani, so'ngra amakisiga nisbatan o'ch olish fikri paydo bo'lishi, uni Goratsio (O. Ibodov) bilan maslahatlashib, aktyorlar yordamida fosh qilish jarayonlari tomoshabin o'ziga jalb etadi. Ayniqsa, masxarabozlar sahnasida qo'g'irchoqlardan aktyorlar ijrosiga o'tish yoki bo'lmasa, jang sahnalarini jonli ijro etilishi ham rejissyorning topilmalaridan biri hisoblanadi. Sahnashtiruvchi rassom V. Apuxtin va rassom M. Ro'zmetovalarning asar talqiniga mos bo'lgan sahna bezaklari

aynan voqelikni yanada jonli chiqishiga yordam bergan. Xoreograf O.Ostaninaning olib chiqqan raqs sahnalari esa kompozitor D.Shostakovich musiqasiga hamohang tushganini ko'rish mumkin. Spektaklda Ofeliyani O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist M.Egamnazarova, Loertni O.Abduboyev, Ozrikni Sh.Jabborov, arvoh, pop rollarini A.Mirzariyazov, Rozenkrans rolida A.Axadov, go'rkov rolida O.Otaboyev Voltemand rolida T.Turdimurotov Bernardo rolini qo'yilmaqom ijro etgan Q.Davlatovning ijrosi tomoshabinlar qalbida uzoq vaqt saqlanib qoladi, degan umiddamiz.

Ommaviy sahnalarda esa teatrning yosh aktyorlari turli xil obrazlarni ijro etishdi. Spektaklda asosan plansher qo'g'irchoqlaridan foydalanildi. Ushbu qo'g'irchoq turining afzalligi shundan iboratki, u deyarli jonli odamdek harakat qila oladi. Uni bir emas, bir necha aktyorlar boshqaradi. Spektaklda nutqqa ham katta etibor qaratilgan. Chunki nutq ravon bo'lishi, bu ifodaviy ta'sirchanlik imkoniyatlarni mustahkamlab, mukammallashtirib borish orqali, ya'ni zamon bilan hamohang, hamnafas, hamfikir bo'lishda muhim omillardan bo'lgan tafakkur va tilning ezguligi, hayotbaxshililigiga yanada chuqur e'tibor qaratishga undaydi. Bu o'rinda spektakldagi personajlarning nutqini misol qilish mumkin [2].

O'zbek milliy qo'g'irchoq teatrining xorijiy mamlakat qo'g'irchoq jamoalari bilan ijodiy aloqalari kundan kunga ortib, mustahkamlanib bormoqda. Shunday ijodiy jarayonlar mahsuloti o'laroq Rossiya Federatsiyasi madaniyat vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi ko'magida bo'lib o'tgan "Rossiya mavsumlari" madaniy dasturi asosida S.V.Obraztsov nomidagi Moskva davlat akademik markaziy qo'g'irchoq teatri o'zbek tomoshabinlariga o'zining bir necha spektakllarini namoyish etdi. Ushbu teatr va uning repertuaridan o'rin olgan ijod mahsullari ko'pchilikka ma'lum.

Shu o'rinda Obraztsov teatrining bosib o'tgan tarixiy yo'lga nazar tashlasak. 1931-yilda tashkil topgan ushbu teatr dastlab o'zining mustaqil binosiga ega bo'lmagan. Oradan yillar o'tib, 1960-yilning oxirida, o'zining mustaqil teatr binosiga ega bo'ladi. Shundan boshlab teatr jamoasi repertuardagi spektakllari bilan o'z binosida tomoshabinlarni qabul qila boshlaydi. Shu kunga qadar teatr repertuarida ham bolalar, ham kattalar uchun ko'plab spektakllar namoyish etib kelinmoqda. Teatrning direktori Yelena Bulgakova, teatrning bosh rejissyori Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Boris Konstantinov ommaviy axborot vositalari bilan bo'lib o'tgan matbuot anjumanida gastrol safaridan o'rin olgan spektakllar bilan tanishtirib, ular ichidagi ba'zi asarlar aynan Obraztsov tomonidan sahnalashtirilganligi, shu vaqtgacha teatr repertuaridan tushmay tomoshabinlarni hayratga solayotganini so'zlab berdi.

*"Obraztsov teatri jamoasining poytaxtga tashrifi birinchisi emas. Jamoa 2018-yilda ham O'zbekistonning iliq va mehmondo'st tomoshabinlari bilan uchrashish baxtiga muyassar bo'lgan. Bu galgi tashrifimiz repertuaridan teatrning afsonaviy tashrif*

*qog'oziga aylangan, barcha zamonlar va xalqlarning sevimli tomoshasiga aylanib ulgurgan "G'aroyib konsert tomoshasi"ni ko'rishlari mumkin. Bundan tashqari katta gastrol safari rejasiga ko'ra, biz turli yoshdagi tomoshabinlar uchun har xil janrdagi 5 ta spektaklni olib kelganmiz. Ular ichida "Ali Bobo va Qirq Qaroqchi", "Quyosh nurchasi" nomli eng mashhur spektakllar ham bor", – deydi teatr bosh direktori.*

Ushbu spektakllar haqida fikr yuritar ekanmiz, qo'g'irchoqlarning o'ziga xosligi, asarning tomoshabinlarga tushunarli ekanligi, spektakl davomida voqealarning tez-tez o'zgarishi nafaqat bolalarni, balki kattalarni ham mulohaza qilishga chorladi. Shulardan biri Karlo Gotsining "Turandot" asaridir. Uni teatrning bosh rejissyori Oltin Niqob xalqaro Rossiya teatr tanlovi g'olibi Boris Konstantinov sahnalashtirgan. Rassom Viktor Antonov hamda kompozitor Katya Mislarning mahsuli hisoblanadi. Ushbu ertak qadimgi Xitoy afsonalariga asoslangan. U dunyoning ko'plab teatr sahnalarida qo'yilgan. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Venetsiya ko'priklarining birida, oy nurida ham namoyish etilgan. Ushbu spektakl o'zbek tomoshabinlarida juda katta taassurot qoldirdi.

"Qari senyor" asari o'zining falsafiy mushohadasi, zamon bilan makonning uyg'unligi, inson bilan hayvonlar o'rtasidagi munosabatlarning yig'indisi sifatida qabul qilindi. Ushbu g'oya Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan rassom Viktor Nikonenkaga tegishlidir. Ushbu spektaklda kompozitorlar Aleksey Kozlov, Nikolay Shamshin, plastika bo'yicha rejissyor Vladimir Anonyev, qo'g'irchoqlar texnologiyalari bo'yicha rejissyor Aleksandr Legussov birgalikda yaxlit kompozitsiyaga ega bo'lgan spektaklni yaratishgan. Spektakl davomida uning g'oyaviy fikrlarini tomoshabinlarga yetkazishda yordam bergan saksafon ijrochisi xalqaro konkurs laureati Ivan Dimaning spektakl davomida chiqishlari tomoshabinlarni sahnada bo'layotgan voqealarga yanada chuqurroq kirishiga yordam berdi. Qo'g'irchoqlarning xuddi tirik odamlardek harakatlanishi aktyorlarning hayratomuz ijrosidan darak beradi.

Bundan tashqari festival kunlari A.Popeskuning "Quyosh nuri" asarining premyerasi ham bo'lib o'tdi. Asar muallifi ruminiyalik dramaturg Aleksandr Popeskuning asarlari XX asrning 60-yillarida Rossiya va Yevropaning o'nlab qo'g'irchoq teatrlarida namoyish qilina boshladi. "Quyosh Nuri" tomoshabinni o'yga cho'mdiradi. Bunda pyesaning asosiy g'oyasi do'stlik qadriga yetish, asrab-avaylashdir. Rejissyor Sergey Yagodkin rassom Mixail Krivenko va rassom-texnolog Olga Afonasiyevlarning ijodiy hamkorligi asarning muvaffaqiyatida katta rol o'ynagan. Bosh rolni Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Olga Belenkova-Shesterikova va Aliya Gattarova mahorat bilan ijro etganlar. Olga Belenkova asosiy qahramon sifatida tomoshabinlar bilan muloqot qilgan bo'lsa, Aliya Gattarova qo'g'irchoqlarni jonlantirgani tahsinga sazovordir. Xuddi bir aktyor teatri singari monologlardan iborat bo'lgan ushbu spektakl ham aslida bolalar

uchun qo'yilgan bo'lsa-da, zaldagi katta yoshli tomoshabinlarda yaxshi taassurot qoldirdi.

Teatr repertuaridan o'rin olgan yana bir tomoshabop asar bu "Ali bobo va qirq qaroqchi" spektaklidir. Ushbu spektaklni o'zbekistonlik tomoshabinlarga namoyish qilinishida ham o'zgacha bir ma'no bor. Chunki ming bir kecha ertaklar turkumiga kiruvchi ushbu asarni 7 yoshdan 70 yoshgacha o'quvchi va tomoshabin biladi. Ma'lumki ushbu sevimli ertak Ali boboning qaroqchilar bilan to'qnashuvidan boshlanadi. Shundan so'ng spektakl yorug', rang-barang, dinamik sahnalar bilan davom etadi. Pyesa muallifi va rejissyori Boris Konstantinov va Yekaterina Babayevalar spektaklni karnay-surnay sadolari bilan boshlaganlari tomoshabinni birinchi sahnadayoq voqea ichiga olib kiradi. Rassom Viktor Platonov, musiqaviy bezaklarni mohirona spektaklga singdirgan Viktor Platonovlar tomoshabinlarga unutilmas xotiralarni hadiya qilishdi. Toshkent shahriga qilingan S.V.Obraztsov nomidagi Moskva davlat akademik markaziy qo'g'irchoq teatrining gastrol g'aroyib konsert tomoshasi bilan yakunlandi. Poytaxtimizning Turkiston san'at koshonasida namoyish etilgan ushbu spektaklni tomosha qilishga kelganlarning fikrlarini tinglab ko'rsak, ushbu spektaklga, hatto, Moskvaning o'zida ham chipta topib, tomoshaga kirishning iloji yo'qligini, chunki barcha chiptalar 3-4 oy avval sotib bo'linishini aytishdi. Keling, ushbu spektakl tarixiga ham to'xtalsak.

Bolalar yozuvchisi Aleksandr Vvedenskiy 1939-yil Obraztsov teatriga «Концерт Варьете» nomi bilan pyesa olib keladi. Bolalar uchun yozilgan ushbu pyesada turli xil o'sha vaqtlarda namoyish etilgan konsertlardagi parodiya nomerlari o'rin olgan. Keyinchalik ushbu asar "G'aroyib konsert" deb nomlandi. 1944-yilda yangi spektakl ustida ish boshlangan bo'lib, 1945-yil birinchi qo'g'irchoqlar eskizi yaratilib, repetitsiya jarayonlari boshlangan. Dastlab ushbu pyesaga V.A.Kuskov rejissyorlik qilgan. Uning premyerasi esa 1946-yil 19-iyunda bo'lib o'tgan. 1968-yil spektaklning yangi versiyasi yaratilgan bo'lib, to'liq konsert sifatida tomoshabinlarga taqdim qilingan. Ushbu spektakl hamon teatr repertuaridan tushmay kelyapti. O'zbek

tomoshabinlarga taqdim etilgan ushbu spektakl dastlabki yaratilgan spektaklning o'zginasi ekanini, faqat aktyorlar jamoasi biroz yosharganini hisobga olmasak, ishtirok etuvchi qo'g'irchoqlar jozibasi o'zini saqlab qolganining guvohi bo'lish mumkin.

O'zbek muxlisari taqdim etilgan spektakllarda rol ijro etgan aktyorlar mahoratiga tasannolar aytishdi. Davomiy qarsakalar bilan ijodkorlarni olqishlashdi. S.Obraztsov nomidagi teatr bosh rejissyori Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Boris Anatoliyevich Konstantinov bilan suhbatlashgan chog'imizda u loyiha va gastrol safari haqidagi taassurotlarini shunday izhor qildi: "Katta gastrol safari" rejasi, "Rus mavsumi" dastur loyihasi davomida biz, O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri ijodkorlari bilan o'zaro tajriba almashdik. Mahorat darslari juda qiziqarli o'tdi. Bu teatrning aktyorlari, qo'g'irchoq ustalari, ijodiy xodimlari, biz sahnalashtirgan spektakllarning ssenografiyasi, qo'g'irchoq yasash texnologiyasi bilan qiziqishdi. Ayniqsa, mono spektakllarimiz, aktyorlarning qo'g'irchoq boshqarish mahorati kasbdoshlarimizda katta qiziqish uyg'otdi. Biz o'zbek elining quyosh kabi qaynoq qalbini his qildik. Bu kabi safarlarimiz yana davom etadi, degan umiddaman", – deya so'zini yakunladi mehmonimiz.

Spektakl kunlari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Teatr san'ati" fakulteti talabalari, ayniqsa, qo'g'irchoq teatr yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ham faol ishtirok etishdi. Ular sahna bezagidan tortib, aktyorlar mahoratigacha bo'lgan jarayonlarni kuzatishdi. Bu esa ularga o'zlari tanlagan sohani mukammal egallashlarida yaqindan yordam beradi, degan umiddamiz. Shuningdek, talabalarimiz uchun Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan artist, teatrning yetakchi aktyori Dmitriy Chernov talabalar uchun mahorat darslarini o'tkazdi. U talabalarimiz bilan muloqot chog'ida ularning kasbga bo'lgan mehr-muhabbatini his qilganini alohida ta'kidladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, teatrning mo'jizaviy olami juda keng. U yerda aktyorlar yaratayotgan har bir obrazlar nafaqat kichik yoshdagi, balki katta yoshdagi tomoshabinlar uchun ham yaqin va aziz bo'lib qolaveradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurova M. Qo'g'irchoq teatr san'atining aktyorlik maktabi. – Toshkent: 2007-y.
2. Bayandiyev T. Qo'g'irchoqlarga jon bag'ishlagan san'atkor. – T.: 2022-y.
3. Qurbonov A. Qo'g'irchoq teatr rejissyorligi. – T.: 2020-y.
4. Волховский В. Актёр, персонаж, роль, образ (сборник научных работ-Ленинград. 1986.
5. O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri bosh rejissyori Sh.Yusupov bilan bo'lgan suhbat. 2023-yil, sentyabr.
6. Obraztsov nomli teatr jamoasi bilan bo'lib o'tgan matbuot konferensiyasidan olingan suhbat. 2023-yil, sentyabr.

## O‘ZBEK TEATRIDA JAHON MUMTOZ DRAMATURGIYASINING YANGI TALQINLARI

**Annotatsiya.** Ma‘lumki, jahon mumtoz dramaturgiyasi o‘zbek teatrining tarixi, shakllanish va rivojlanish jarayonlarida muhim o‘rin tutgan. Ushbu maqolada, so‘nggi yillarda mamlakatimiz teatrlarida jahon klassik dramalari asosida sahnalashtirilgan spektakllar tahlil qilinadi, ularning badiiy-estetik xususiyatlari, teatr repertuarlarini shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Maqola so‘nggida mavzu bo‘yicha zarur taklif va tavsiyalar bildiriladi.

**Kalit so‘zlar:** jahon mumtoz dramaturgiyasi, rejissura, sahnaviy talqin, fojia, repertuar, xarakter, aktyorlik san‘ati, epik teatr.

## НОВЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ МИРОВОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ДРАМАТУРГИИ В УЗБЕКСКОМ ТЕАТРЕ

**Аннотация.** Известно, что мировая классическая драматургия сыграла важную роль в истории, становлении и развитии узбекского театра. В данной статье анализируются спектакли, поставленные в театрах нашей страны по основам мировых классических драм в последние годы, раскрываются их художественно-эстетические особенности, их роль в формировании театрального репертуара. В конце статьи даны необходимые предложения и рекомендации по теме.

**Ключевые слова:** мировая классическая драматургия, режиссура, сценическая интерпретация, трагедия, репертуар, характер, актерское искусство, эпический театр.

## NEW INTERPRETATIONS OF WORLD CLASSICAL DRAMA IN THE UZBEK THEATER

**Abstract.** It is known that the world classical dramaturgy played an important role in the history, formation and development of the Uzbek theater. This article analyzes the performances staged in the theaters of our country on the basis of world classical dramas in recent years, reveals their artistic and aesthetic features, their role in the formation of the theatrical repertoire. At the end of the article, the necessary suggestions and recommendations on the topic are given.

**Key words:** world classical drama, directing, stage interpretation, tragedy, repertoire, character, acting, epic theater.



Jahon mumtoz dramaturgiyasi o‘zbek teatrining tarixi, shakllanish va rivojlanish jarayonlarida muhim o‘rin tutgan. Milliy rejissura, aktyorlik maktablarining taraqqiy etishi, talqin va ijro mahoratini oshishi, teatrlarning badiiy-estetik imkoniyatlarini kengayishi, repertuarlarning har jihatdan puxta spektakllar bilan boyishida jahon klassik asarlari beqiyos ahamiyat kasb etgan. Bu xususida san‘atshunoslik fanlari doktori I.Muxtorov shunday yozadi: “Jahon mumtoz dramaturgiyasi o‘zbek teatrining rivojlanish tarixi davomida salmoqli o‘rin egalladi va uning realistik asoslarini shakllantirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Milliy sahna san‘atimizning ko‘plab yutuq va muvaffaqiyatlari, burilish nuqtalari va ziddiyatli holatlari Shekspir, Shiller, Gogol, Molyer, Ostrovskiy, Chexov, Gorkiy nomlari bilan bog‘liq. Xorij dramalarining buyuk namunalari o‘zbek tiliga teatr uchun maxsus tarjima qilinishi milliy madaniyatimizda alohida hodisaga aylandi” [1.B.7].

So‘nggi yillarda respublikamiz teatrlarida xorij dramaturgiyasini sahnalashtirish borasida yangi izlanish va tajribalar olib borilmoqda. Bu o‘z navbatida teatrlarimizning ijodiy imkoniyatlarini oshirish, yosh aktyorlarning mahoratini charxlash, sahna estetikasini yangilash va mumtoz asarlarning davrga mos talqinlarini izlash imkonini bermoqda. Xususan, keyingi yillarda sahna yuzini ko‘rgan buyuk ingliz dramaturgi V.Shekspirning “Romeo va Juliyetta” (O‘zbekiston davlat drama teatri, sahnalashtiruvchi rejissyor O.Salimov), “Qirol Lir” (Samarqand viloyati musiqali drama teatri, sahnalashtiruvchi rejissyor V.Umarov), (Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri, sahnalashtiruvchi rejissyor N.G‘oyibnazarova), (B.Yo‘ldoshev nomidagi “Diydor” teatr-studiyasi, sahnalashtiruvchi rejissyor S.Potapov), “Hamlet” (O‘zbekiston davlat rus akademik drama teatri, sahnalashtiruvchi rejissyor V.Umarov), “Richard III” (Buxoroviloyatimusiqualidramateatri, sahnalashtiruvchi rejissyor V.Umarov), N.Gogolning “Revizor”





(O'zbekiston davlat satira teatri, sahnalashtiruvchi rejissyor B.Hamidov), J.B.Molyerning "Xasis" (O'zbekiston davlat rus akademik drama teatri, sahnalashtiruvchi rejissyor R.Tog'ayqulov), "Shaddod ona va uning bolalari" (O'zbek Milliy Akademik drama teatri, rejissyor T.Isroilov) singari asarlari asosidagi spektakllar ancha yillar davomida klassik asarlarni sahnalashtirish borasida yuzaga kelgan bo'shliqni muayyan darajada to'ldirishga xizmat qildi. Garchi qayd etilgan spektakllarning badiiy saviyasi bir xil bo'lmasa-da, ushbu jarayonni qayta jonlangani va yangi izlanishlarning mavjudligi e'tiborga molik.

Xususan, O'zbekiston davlat drama teatrida V.Shekspirning mashhur "Romeo va Julyetta" fojiasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Olimjon Salimov tomonidan sahnaga qo'yildi.

Shoir va mutarjim Jamol Kamol tarjimasida sahnalashtirilgan besh pardali fojining ilk sahnasi Verona maydonida, bir-biriga azaliy dushman ikki oila – Montekki va Kapulettilar xizmatkorlarining nizosi bilan boshlanadi. Atrof-javonib zulmatga burkangan, bu ikki xonadonning dastidan shaharda tinchlik, orom yo'q, odamlar ozurda, besaranjom hayot kechirmoqda, har kuni neder talofat, qirg'in, xunrezgillik, alqissa, shundayin baddin muhit, razolat hukmronki, bu jamiyatda insoniy munosabat-u tuyg'ularga o'rin yo'q. Ayni voqelik sahnalashtiruvchi rassom Sergey Chufarnov tomonidan mahorat ila tasvirlangan: sahna markazida yirtqich sher haykali – bamisoli bu sovuq mahluk butun shahar qonga to'lganining ramzi, adovat, fisqu fasod, zulm makoniga aylangan yurtda inson faqat o'lim, g'orat etilishga mahkum.

Ikki oila xizmatkorlarining nizosi janjalga aylanadi – qilichu qalqonlarning zarbidan yeru ko'k titraydi, zamin motam libosini kiyadi. Ammo bu boshlanajak fojialarning ibtidosi, xolos. Feodal jamiyatning chirkin qoyalari bag'rida ikki gul g'uncha ochadi, asarda tasvirlanganidek:

**Va lekin bu dushman oilalardan  
Tug'ilgan farzandlar sevishib qoldi.  
Bu ikki baxtsizning o'limi bilan  
Adovat o'zi ham g'orda yo'qoldi.**

"ERK – "Romeo va Julyetta"ning Olimjon Salimov talqinidagi O'zbek Davlat drama teatri spektaklida

asosiy maqsad – bosh g'oyaviy konsepsiya taassurotini beradi. Ha, yosh sevishganlarga erk berilmasligi, ularning fojiasini muqarrar etadi" [2.B.29].

Romeo – muhabbat dardida yonayotgan bo'z yigit, u Julyettani butun vujudi, jismu joni ila sevadi, qizda ham xuddi shu hol, ikki yoshning sevgisi buloq suvidek pokiza, shaffof. Ularning ilk uchrashuvi spektaklda nihoyatda go'zal va nafis bo'yoqlarda chiziladi: Kapulettilar xonadonidagi bazmga yashirincha borgan Romeo Julyettaga nigohi tushadi-yu, tamomila es-hushidan ayriladi, qiz ham yigitga oshiq bo'ladi. Spektaklda bosh qahramon obrazlarini ijro etgan yosh aktyorlar – Behzod Zokirjonov va Gulruh Pirnazarova rejissyorning haqiqiy topilmasi bo'ldi. Behzod Romeoning tiyatidagi inja tuyg'ular, pokiza hissiyotlarni lirik-romantik jo'shqinlik, poetik ruh ila ko'rsatadi.

Julyetta obrazini gavalantirgan aktrisa Gulruh Pirnazarova ham qizning beg'ubor olami, sof tiynati, otashin qalbini nozik did, yorqin pafos uyg'unligida ochib beradi. Aytish o'rinliki, spektaklda Julyetta Romeoga nisbatan faol, kurashuvchan, jasoratliдек ko'rinadi. U muhabbatiga yetmoq uchun har nega tayyor, hatto, o'limgacha tik boqmoqqa qodir. Romeo Montekki oilasining farzandi ekanini bilsa-da, aslo ortga chekinmaydi: "O'zing emas, noming dushman menga..." – deya nadomat qiladi. Aktrisa Julyettaning botini, ruhiyati, xarakterini teran his qiladi, rejissyor ko'rsatmasini to'g'ri anglagan holda bor imkoniyati, iste'dodini obraz mohiyatini ochishga yo'naltiradi.

Spektakldagi har bir ijro diqqatga arzigulik. Xususan, rohib Lorenzo (P.Normatov), Merkusio (K.Ramazonov), enaga (O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Dono Boboxonova), Montekki (G'aybulla Jumanov), Montekki xonim (Go'zal Payziyeva), Kapuletti (Bahodir Mirmaqsudov), Kapuletti xonim (Tamara Mirmaqsudova), Benvolio (Sirojiddin Sattorov), Tibalt (Ilhom Berdiyev), Paris (Ilhom Ochilov) va boshqa qahramonlarni ijro etgan aktyorlar ham o'zlariga yuklatilgan missiyani muvaffaqiyatli bajarishdi. Hatto, spektaklda bor-yo'g'i birgina epizodda ko'rinish beruvchi dorifurush (Rustam Ahmedov) personaji ham katta ijtimoiy yuk tashiydi. Uning og'u so'rab kelgan Romeo bilan suhbatida tag-tomiri bilan chirib borayotgan feodal jamiyatning illatlari, qusurlari fosh etiladi. Dorifurush Romeoga zahar sotishni xohlamaydi, chunki bu ish uchun o'limga hukm etilardi. Shunda Romeo bir harakat bilan og'ufurushni yiqitadi-da, bo'yniga xanjar tiraydi. Muqarrar o'limdan titragan tujjor zaharni keltiradi, evaziga tillalarni olar ekan, "men emas, muhtojlik oldi" – deya o'zini oqlaydi. Shu sahnada Romeoning g'oyat falsafiy, keskin, razolatga to'la dunyoni chok-chokidan so'kuvchi o'tli monologi bor:

**Mana, senga oltin – inson joniga og'u,  
Shu qabohat dunyoda bu qotildir, qo'rqinch  
Sotilishi man etilgan zaharingdan ham.  
Sen zahar sotmading, senga men zahar sotdim.**

Romeo o'zi berayotgan oltinlarni haqiqiy og'u deb ataydi, aslida ham Shekspir nazdida pul, boylik,

mansab – inson qadr-qimmatini, tuyg'ulari poymol etilayotgan jamiyat uchun chinakam og'u edi. Shu bois Romeo: *“Zaharni sen emas, men sotdim”*, – deya bor gunohni o'z bo'yniga oladi, shubhasiz, bu voqelik asar va spektaklning e'tiborga molik, fojiaviy sahnalaridan biri.

Mazkur fojia Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrida rejissyor A.Qudaynazarov tomonidan sahnalashtirildi. Ta'kidlash o'rinliki, ushbu talqin ham o'ziga xos. Eng avvalo, rejissyor bosh qahramonlar ijrosi uchun munosib aktyorlarni tanlay bilgan. Xususan, Romeo obrazini gavdalandirgan R. Telemisov muhabbat dardida yonib kuyadigan, tabiatan ehtirosli yigit timsolida namoyon bo'ladi. Julyettani ijro etgan B.Baxiyeva ham hissiyotlarga tashna, irodali, sevgisi uchun har narsaga qodir qiz obrazini talqin qiladi. *“Spektakl rejissyori A.Qudaynazarov asar mohiyatini to'la anglab yetgani uchun ham prologni bir to'da yoshlarning janjalidan boshlaydi. Spektakl temporitmini esa asar oxirigacha yuqori nuqtalarda ushlaydi. Bu yondashuv juda to'g'ri bo'lib, rejissyor voqealar davomida aynan yoshlik shijoati, inson yuragida kechadigan ilk hissiyotlar va ularga ko'rkona bo'ysunish har doim ham yaxshilikka olib bormasligini qayta-qayta isbotlashga urinadi”* [3].

Rejissyor ijodiy jamoani o'z maqsadi yo'lida birlashtira olgani, spektaklning barcha ijodkorlariga to'g'ri yo'nalish berganini qayd etish lozim. Xususan, rassom T.Shardemetov ishlagan dekoratsiyalar asar g'oyasi, davr ruhi va voqealar yuz beruvchi Verona shahri manzaralarini ifodalashga xizmat qiladi. A.Palimbetov tanlagan musiqalar esa tomoshabinni olis moziy muhitiga olib kirib, dardchil va mungli muhabbat qissasini his qilish imkonini beradi.

Spektaklda rejissyor yechimiga alohida to'xtalish lozim. Bir-birining vasliga yetolmagan ikki yoshning o'limidan so'ng oppoq libosdagi farishtalar ularning yo'lga oq poyandoz to'shaydilar. Boqiy dunyoga yo'l olishdan avval Romeo va Julyetta ortiga bir nazar tashlaydi: oilalar o'rtasidagi adovatu nizolar barham topganini ko'rgach, shodu hurramp holda bir-birlarining qo'lidan tutib, oppoq poyandozdan yugurgancha sahnani tark etadilar.

Samarqand viloyati musiqali drama teatrida V.Shekspirning yana bir mashhur asari “Qirol Lir” fojiasi taniqli rejissyor Valijon Umarov tomonidan sahnalashtirildi. Rejissyor klassik asarning yangi talqinini yaratarkan, ramziy-shartli ifoda vositalaridan unumli foydalanadi. Xususan, spektaklning ilk sahnasida Qirol, uning qizlari va saroy mulozimlari yuziga niqob tutgan holda namoyon bo'ladi. Qirol – Masxara tilidan so'zlaydi va qizlarining o'ziga bo'lgan mehr-muhabbati qay darajada ekanini bilmoqchi bo'ladi va shu izhorlarga qarab, mol-mulkini taqsimlashini ma'lum qiladi.

Qirolning savolidan keyin katta qizlari – Gonerilya (M.Hakimova) va Regana (S.Saitova) oshkora hushomadga o'tishadi, og'izlaridan bol tomib, soxta tuyg'ularini izhor qilishadi. Har ikki qiz ham yuzidan niqobini olmaydi, bu bilan rejissyor ayni tuyg'u va kechinmalarning yolg'onligi, malikalarning munofiq

va makkorligiga ishora qiladi. Faqatgina kenja qiz Kordeliya (Sh.Rahimova)ga navbat kelganida, u mulozamat qilmay, niqobdan voz kechadi va otasining qahriga yo'liqadi.

Spektaklda Masxara (T.Xudoyberdiyev) obraziga alohida e'tibor qaratiladi, asar g'oyasi va rejissyor talqinining yuzaga chiqishi, qahramonlar xarakteri va maqsadining ochilishida ushbu personaj muhim rol o'ynaydi. Spektakl ibtidosida Masxara tomoshabinlarga yuzlanib, Shekspirning mashhur iborasini baralla ovozda aytadi: *“Butun olam bu – teatr, biz odamlar unda aktyorlarmiz!”*. Rejissyor Masxarani juda faol qahramonga aylantiradi, aktyor – T.Xudoyberdiyev mimikasi, plastikasi, xatti-harakatlari orqali obraz xarakterini ochib beradi.

Qirol Lir obrazini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Solijon Hakimov ijro etadi. Aktyor obrazning murakkab olamiga kira olgan, Lirning ruhiyatida kechayotgan ziddiyatlar – hukmdor va ota sifatidagi kechinmalar, qahr va mehr o'rtasidagi nozik tuyg'ularni ishonarli talqin etgan. Aktyor gavdalandirgan Lir qat'iyatli, mag'rur, ahdidan qaytmaydigan hukmdor, ayni vaqtda ishonuvchan, ruhan ojiz, ehtirosarga boy inson. Aktyor ijrosi xususida san'atshunoslik fanlari nomzodi O.Rizayev shunday yozadi: *“Aktyor Lirning ham ichki-botiniy, ham tashqi-zohiriy qiyofasini tomoshabinga turli, kontrast bo'yoqlarda ko'rsatadi. Avvaliga tomoshabin ko'z o'ngida tikqomat, qat'iyatli, nigohlari o'tkir, so'zlari va harakatlaridan o'ziga bo'lgan ishonch va kibr ufurib turgan qudratli hukmdor namoyon bo'ladi. Ayniqsa, katta qizlarining yolg'on maqtovidan hushi uchgan, kenja qizining sodda, samimiy so'zlaridan tushunib-tushunmay g'azabi junbishga kelgan hayajonli sahnada aktyor Lir ruhiyatida kechayotgan qarama-qarshi tuyg'ular tug'yonini ham ruhiy, ham jismoniy xatti-harakatlar uyg'unligida, o'ta ta'sirchanlik bilan ochib beradi”* [4.B.32-33].

Tragediyadagi ikkinchi muhim syujet liniyasi – Graf Gloster va uning o'g'illari Edgar va Edmund bilan bog'liq voqeliklar ham spektaklda asosiy o'rinni egallaydi. Ayniqsa, yosh aktyor J.Murodov ijrosidagi benikoh tug'ilgan o'g'il Edmund voqealar rivojida muhim o'rin tutadi. Edmund – J.Murodov sahnada juda faol harakatlanadi, goh turli hiyla-nayranglar orqali ota va akasi o'rtasiga nizo soladi, gohida Qirol qizlarini yo'ldan ozdiradi. Aktyor qahramoni xarakteridagi turli ziddiyatlar, salbiy illatlarni mahorat bilan ochib beradi, uning talqinidagi Edmund – makkor, yolg'onchi, ikkiyuzlamachi, munofiq kimsa sifatida namoyon bo'ladi.

“Qirol Lir” fojiasining ahamiyati xususida teatrshunos G.Boyadjiyev shunday yozgan edi: *“Qirol Lir haqidagi rivoyatlar asrlar davomida yashaydi, inson va xalq taqdiri fojiasining eng oliy formulasini daho ijodkorning barcha asarlaridan kuchliroq ifodalaydi. Bu tragediyani Shekspirning eng fojiali va ayni vaqtda eng jasoratli asari deb atash mumkin”* [5.B.128].

Rejissyor V.Umarov Shekspirning “Hamlet” fojiasini O'zbekiston davlat rus akademik drama teatrida sahnalashtirdi. Jahon teatr va kino san'atida yuzlab

talqinlarga ega bo'lgan buyuk tragediyaga rejissyor an'anaviy – klassik tomosha mezonlaridan kelib chiqib yondashdi. Sahnalashtiruvchi rassom Sergey Chernov davr muhiti, voqealar yuz beruvchi makon va zamonni mahorat bilan aks ettiradi: parda ochilganda tomoshabin nigohi shahzoda Hamlet ta'бири bilan aytganda, zindonga aylangan Daniya va mahobatli Elsinor qasriga tushadi. Shuningdek, rejissyor liboslar, musiqa, sahna janglari va turli tomosha effektlari yordamida tomoshabinni davr muhitiga olib kirishga harakat qiladi.

Bosh qahramon – Hamlet obrazini gavdalantirgan aktyor Ivan Nenashevning yoshi fojidadagi qahramonga nisbatan kattaroq, shunday bo'lsa-da, aktyor obraz ruhiyatiga kirishga, zulmatu qabohat maskaniga aylangan jamiyatni tozalashni maqsad qilgan, chirkin tuzumga qarshi bosh ko'targan mard va oliyanob shahzodaning bosh missiyasini ochib berishga intiladi. I.Nenashev talqinidagi Hamlet shiddatli, ehtirosli yoniq, kurashuvchan, maqsadidan chekinmaydigan qasoskor shaxs; aktyor ruhiy va jismoniy imkoniyatlaridan to'la foydalangan holda qahramonining murakkab, ziddiyatli xarakterini psixologik kechinmalar, tejankor sukutlar va keskin nigohlar orqali ifodalab beradi.

V.Umarov talqinida salbiy qahramonlarga alohida e'tibor qaratilgan, hatto, ba'zi o'rinlarda ularning spektakldagi o'rni asosiy planga chiqayotgandek taassurot uyg'onadi. Nazarimizda, rejissyor davrning qorong'i, zulmat manzarasini ifodalashga ko'proq urg'u qaratgani bois qora kuchlarning faolligi oshirilgan. Xususan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Oleg Golaxov ijrosidagi qiroi Klavdiy spektakldagi eng faol obrazlardan biriga aylanadi. Aktyor goh sovuqqon nigohi, goh makkor kulgisi orqali yovuz qirolning zohiriy qiyofasini chizadi. Shuningdek, spektaklda Poloniy (S.Shamsutdinov), Hertruda (Ye.Belova) singari qahramonlar rejissyor talqinida alohida o'rin egallaydi.

Teatrlarimizda jahon dramaturgiyasining murakkab asarlarini sahnalashtirish borasida ham o'ziga xos izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbek Milliy Akademik drama teatrida taniqli rejissyor Tojiboy Isroilov "epik teatr" asoschisi, atoqli dramaturg, sahna nazariyotchisi Bertolt Brextning "Shaddod ona va uning farzandlari" asarini sahnaga olib chiqdi.

Brext pyesani "O'ttiz yillik urush xronikasi" deb nomlaydi. Asar markazida Shaddod ona nomi bilan mashhur bo'lgan Anna Firling ismli ayol va uning farzandlari qismati turadi. Ta'kidlash o'rinliki, jahon dramaturgiyasida bu qadar murakkab, ziddiyatli, tomoshabinu ijrochining aqlu shuurini ag'dar-to'ntar qilib yuboradigan obrazlar kam uchraydi. Ona bir vaqtning o'zida urushni la'natlaydi va yana urush davom etishini xohlaydi. Spektaklda Shaddod onani mahoratli aktrisa, O'zbekiston xalq artisti Malika Ibrohimova ijro etdi. Malika opa favqulodda iste'dodli, obrazning eng nozik hujayralarigacha kirib boradigan, holatu kechinmalarni boricha ko'rsatadigan ulkan san'atkor; biroq taassufki, rejissyorlarimiz shunday ajoyib aktrisaning imkoniyatlaridan to'la foydalangan

emas. Nazarimda, aynan mazkur spektaklda Malika Ibrohimova fenomeni qayta kashf etildi, aktrisa nihoyatda og'ir, zalvorli, serqatlam obrazning mohiyatini goh hissiy ishoralar, goh sovuqqon nigohlar, gohida yengil yumor ila ochib beradi.

Aktrisa yaratgan Shaddod ona urushning barcha zahmatlarini totgan, obdon qiyinchilik ko'rgan ayol; qotmadan kelgan tanasi, bo'rtib turgan tomirlari, egnidagi eskirgan ko'ylak va sharf, uzun, yamoq solingan yubka, boshidagi erkakshoda qalpoq shunga ishora qiladi. Kichkina jussasi ila biror lahza tinim bilmaydi, charchamaydi, eski soyabon aravasini tortib, qonga to'lgan urush maydonlaridan rizqu nasibasini izlaydi. Arava – ramziy detal: u ona va farzandlari qo'nim topgan maskan, mo'jazgina vatanga ham mengzasa bo'ladi; boshqa tomondan yashab qolish, ro'zg'or tebratish uchun shu arava mudom harakatlanishi lozim, bo'lak chora yo'q.

Shaddod onaning yashirilgan xazina sabab harbiylarga asir tushgan kenja o'g'li Shveysariyalik (Jamol Ibrismetov)ning hayotini xuddi bozor singari savdolashishi spektaklning eng ta'sirchan, dramatik sahnalaridan biri. Bu savdoda zohiran tannoz ko'rinsa-da, yuragi hasratga to'la ayol Ivetta Potye (Shodiya Abduqodirova) qalliq rolini o'ynab beradi, ona jigargo'shasini asrab qolishni istaydi, biroq urush uni dahshatli tanlov bilan yuzma-yuz qo'yadi: o'g'lining hayoti uchun ikki yuz gulden (Avstriya imperiyasida muomalada bo'lgan pul birligi)ni qizg'anadi, chunki shuncha pulni bersa, ertaga och-nahor qolishi, boshqa farzandlarining rizqi kesilishini o'ylaydi. Harbiylarni bir yuz yigirma guldenga ko'ndirishni so'rab, Ivettaga yalinib-yolvoradi. Alaloqibat, ikki yuzga rozi bo'lganida, kech qoladi, parda ortidan hukm ijro etilganini bildiruvchi dahshatli ovoz yangraydi. Ivettaning alamu iztirob ila aytgan: *"Savdolashib yetgan yeringiz shu bo'ldi! Endi soyabon aravangiz foydaga qoldi. Bu dunyodan o'g'lingizga tekkani o'n bitta o'q bo'ldi, xolos"*, – degan so'zlari fojining butun qabohati, qo'rqinch manzarasini ochib beradi.

Taniqli aktrisa Shodiya Abduqodirova ikkita obrazni gavdalantirdi: biri Anna Firlingning soqov qizi Katrin, ikkinchisi Ivetta Potye. Har ikki obrazning o'ziga xos olami, xarakteri bor. Katrin – urushning tilsiz guvohi, onasidan farqli o'laroq insonlarga mehr-muhabbati, xayrixohligi kuchli, ammo ichidagi tuyg'ulari, kechinmalarini izhor qilmoqqa o'jiz. Sh.Abduqodirova Katrinning bolalarcha beg'ubor, pokiza dunyosi, ayni vaqtda urushga bo'lgan cheksiz alamu nafratini psixologik bo'yoqlar, imo-ishoralar orqali ifodalaydi. Ayniqsa, kichik akasi Shveysariyalikning o'limidan so'ng murda axlatxonaga ravona bo'lgach, butun jismu jahoni bilan hayqirishi, zabonsiz bo'lsa-da, ruhan motam tutishi tomoshabinni mutaassir qiladi.

Katrinning o'lim sahnasi ham juda ta'sirli ishlangan. Begona qishloqqa borib qolgan qiz o'zi qo'nim topgan uyning tomiga chiqadi-da, jon-jahdi bilan baraban chala boshlaydi. Chol-kampirning necha bor yozg'irishiga qaramay, chalishdan to'xtamaydi. Askarlardan biri o'q uzadi, qiz jon taslim qiladi. Sh.Abduqodirova barabanni shiddat bilan chalayotgan Katrin timsolida,

butun insoniyatni qirg'inu muhorabalardan ogoh etayotgan, ularni birdamligu ittifoqqa chorlayotgan jonli obrazni yaratadi.

Aktrisa ijrosidagi Ivetta Potye oliftanamo, tannoz xonim, bashang kiyingan, boshida shlyapa. U ham urushning ortidan kun ko'radi, faqat nobop yo'l – nomusini sotish bilan hayot kechiradi. Biroq uning ham o'z haqiqati bor: boshiga tushgan ko'rgiliklar uchun badbin jamiyatni, atrofidagi makkor insonlarni ayblaydi. "Sevib qolishdan ehtiyot bo'lish kerak!" degan shiorni dastak tutadi. Sh.Abduqodirova Ivettaning tashqi va ichki dunyosiga xos jihatlarni mohirona gavdalantiradi, uni yo'ldan ozdirgan, nopok ko'chalaraga boshlagan illatlarning asl mohiyati, tag-tomirini ko'rsatishga intiladi. Aktrisa spektaklda ruhiy va jismoniy tomondan ko'p kuch sarflaydi: xarakterlari bir-biriga o'xshamas, nihoyatda murakkab ikkita obraz yaratadi. U har ikki qahramonning his-tuyg'ularini teran anglaydi, holatdan-holatga tez moslashadi, obrazlarning ichki muvozanati, dinamikasini saqlaydi.

Spektaklning final sahnasi. Urushda bor-budini, jondan aziz farzandlarini yo'qotgan Shaddod ona – M.Ibrohimova yana o'sha soyabon aravasini jon holatda, bazo'r tortganicha sahnani tark etadi. Bu orqali rejissyor hayot, tirikchilik tashvishlari davom etishi, beomon urush hali uzoq yillar insoniyatning sabru matonati, irodasini sinovdan o'tkazishiga ishora qiladi.

O'zbek Milliy Akademik drama teatrining "Shaddod ona va uning farzandlari" spektakli ijodiy jamoaning imkoniyatlarini charxlash, yosh aktyorlarning dramatik mahoratini oshirishda muhim tajriba maktabi bo'lib xizmat qilgani shubhasiz. Zero, "Brex dramaturgiyasi nafaqat g'oyaviy teranligi, balki badiiy mohiyati

bilan dolzarbdir. Uning butun teatr estetikasi singari pyesalarining badiiyligi teatr ifodaviyligini yangi shakllarini, aktyorlik ijro usullarini, teatr va tomoshabin o'zaro aloqasini yangi tamoyillarini kashf etishga yo'l ochadi" [6.B.12].

Jahon mumtoz dramaturgiyasi barcha davrlarda ham teatr san'ati rivojida muhim o'rin tutib kelgan. Yillar, asrlar o'tsa-da, mudom yashab kelayotgan, zamonu makon, tilu millat tanlamaydigan klassik asarlarning davrga hamohang, yangi sahnaviy talqinlarini izlash bugun zarur ahamiyat kasb etmoqda. "Klassikaning mahobati kimnidir cho'chitishi, hayiqtirishi kerak emas. Aksincha, uni rejissyor, aktyor va tomoshabin chuqur his qilishi, go'zalligi, haroratini tuyib, erkin va baxtli yashashi lozim", – deb yozadi teatrshunos olimasi Inna Vishnevskaya.

Jahon klassik asarlari rejissyor, aktyor, sahna rassomi va boshqa ijodkorlarning charxlanishi, ijodiy mahoratining oshishi, yangi imkoniyatlarining yuzaga chiqishida beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagi tahlil va xulosalardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirish maqsadga muvofiq:

1. Respublika teatrlarining joriy va istiqbolli repertuaridan jahon mumtoz dramaturgiyasi namunalarini muntazam o'rin olishini ta'minlash;
2. Respublika teatrlarida jahon mumtoz dramalarini sahnalashtirish uchun davlat buyurtmasini yo'lga qo'yish;
3. Jahon klassik asarlarini sahnalashtirish, eksperimental spektakllarni yaratish bo'yicha xorij teatr ijodkorlari bilan hamkorlik qilish;
4. O'zbekiston bo'yicha o'tkazib kelinayotgan turli teatr festivallarida "Jahon dramaturgiyasining eng yaxshi sahnaviy talqini uchun" maxsus nominatsiyasini joriy etish.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухтаров И. Театр и классика. – Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1988 г. Стр.176.
2. Rizayev Sh. "Shekspir nomli hodisa". "Teatr" jurnali, 2022-yil, 2-son. 26–30-bet.
3. Ahmadjonova M. "Mungli muhabbat tarixi". "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2022-yil, 6-son.
4. Rizayev O. "Qirol Lir" Samarqand teatrida". "Teatr" jurnali, 2022-yil, 2-son. 31–33-bet.
5. Бояджиев Г. От Софокла до Брехта за сорок театральных вечеров. – Москва: 1969 г. Стр.349.
6. Brext B. Tanlangan dramatik asarlar (tuzuvchi va mas'ul muharrir E.Muxtorov). Muxtorov E. Bertolt Brext va o'zbek teatri – T.: "San'at", 2012-y. 5–12-b.

## O‘ZBEK AN‘ANAVIY MASXARABOZLIK SAN‘ATIDA MIM ELEMENTLARI

**Annotatsiya.** Maqolada, o‘zbek an‘anaviy masxarabozlik san‘atida pantomimaga xos bo‘lgan elementlarning mavjudligi va ularning zamonaviy teatr san‘atiga ta‘siri haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** masxaraboz, teatr, improvizatsiya, mimika, pantomima, aktyor, rejissyor.

## ЭЛЕМЕНТЫ КЛОУНАДЫ И МИМА НА СЦЕНЕ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА

**Аннотация.** В статье идёт речь об традиционном искусстве клоунады и пантомимы, с её существующими элементами, которая существенно отразилась на развитии современного театра.

**Ключевые слова:** клоун, театр, импровизация, мимика, пантомима, актёр, режиссёр.

## ELEMENTS OF CLOWNING AND MIME ON THE STAGE OF THE UZBEK THEATRE

**Abstract.** The article talks about the presence of pantomime elements in the traditional Uzbek clowning art and their influence on modern theater art.

**Key words:** clown, theater, improvisation, mime, pantomime, actor, director.



Qariyb uch ming yillik tarixga ega o‘zbek xalq tomosha san‘atining asosi bo‘lmish masxaraboz va qiziqchilar san‘ati bugungi zamonaviy teatr san‘atida mavjud badiiy sahnaviy ifoda vositalarining deyarli barchasini o‘zida mujassam qilgan. Ayniqsa, hozirjavoblik, improvizatsiyaga moyillik, sahnada o‘ynalayotgan tomosha voqealarini imo-ishora, mimika, yuz-ko‘z, tana harakatlari orqali bo‘rttirib ko‘rsatish masxarabozlik san‘atining ijro usullaridan biri bo‘lgan. Bu usul pantomima san‘atining ham o‘zagi hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy o‘zbek teatr san‘atida an‘anaviy masxarabozlik san‘atining ijro usullaridan unumli foydalanilgan qator spektakllar borki, ularda so‘z o‘rnida improvizatsiya, mimika, ifodaviy qo‘l va tana harakatlari ustunligini ko‘ramiz. **“Qorli shou”**, **“Masxarabozlar uchun regtaym”**, **“Klomadeus”** kabi spektakllarda aynan shu xususiyat bo‘rtib turadi. Umuman olganda, o‘zbek an‘anaviy teatriga xos masxarabozlik tomoshalari bugungi pantomima san‘atining rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. **“O‘zbek xalqining qadimiy masxarabozlik teatrida ham pantomima san‘ati katta o‘rin egallagan. Taqlid deb atalgan o‘zbek pantomimasi, xususan, Amir Temur va temuriylar saltanatida yaxshi taraqqiy etgan. Ushbu davrga kelib pantomima katta bir san‘atga aylanib, ko‘pgina janrlarda (drama, fojia, ertak, pamflet kabi) qo‘llandi”**<sup>1</sup>.

Ba‘zan musiqa, ashula, hatto, deklamatsiya bilan qo‘shib olib boriladi. Tabiiyki, bu jarayon olomon ko‘p joylarda ularning vaqtini chog‘ qilish, turli tomoshalar qo‘yishga ehtiyojni shakllanishiga olib keladi. Bu davrda talabdan kelib chiqib, bozorlarda faoliyat yurituvchi ma‘lum bir qiziqchilar, masxarabozlar paydo bo‘la boshlaydi. Ular ko‘pincha taqlid, badihago‘ylik va turli murakkab xatti-harakatlarni bajara olishgan. **“Bozorlarda qiziqchi – aktyor bo‘lish uchun o‘tkir va qiziq so‘zlarga va improvizatsiyaga mohir bo‘lish, ashula aytish, pantomimik sho‘x, hazilnamo o‘yinlarni ijro eta bilish, qiziq sahnalar yaratishi, taqlidga, mimik harakatlarga, akrobatik figuralar qilishga usta bo‘lishi – umuman badiiy ijrochilik hunarining turli toifalarini bilishi kerak edi”**<sup>2</sup>.

**“Bozorlarda bozandalar, xonanda va masxarabozlar faoliyat ko‘rsatishgan. Odam gavjum joylarda doimiy 3-4 repertuardan iborat tomoshalar qo‘yganlar”**<sup>3</sup>.

Alisher Navoiyning **“Hayrat ul-abror”** dostonidagi bir epizodda bir masxarabozning olomonni kuldirish uchun yuziga qora surtib, soqol qo‘yib olgani va ko‘zbo‘yamachi qiyofasida tinmay yolg‘on so‘zlar so‘zlagani aks etgan. Engagiga yolg‘on soqol bog‘lab, odamlarni kuldirar ekan, bunda soqol tufayli odamlar uning o‘zini ustidan kulgani keladilar. Hatto, boshiga maymun bo‘rkini qo‘yib olganidan ma‘lum bir obrazni satira qilayotganini tushunish mumkin. Mamajon Rahmonovning **“O‘zbek teatr tarixi”** kitobi orqali o‘zbek an‘anaviy masxarabozlik tomoshalariga oid shu kabi ko‘plab misollarni topishimiz mumkin.

Bugungi rivojlangan zamonaviy o‘zbek teatr san‘atida ham patomima elementlaridan foydalanib, sahnalashtirilgan spektakllar ko‘zga tashlanadi.

<sup>1</sup> Wikipediya.org-pantomima

<sup>2</sup> Rahmonov M. O‘zbek teatri: qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. – Toshkent: “Fan” 1975-y. 68-b.

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, – T.: 1989-y. 115-b.

Masalan, O'zbekiston Yosh tomoshabinlar teatrida rejissyor Olimjon Salimov sahnalashtirgan to'rtta mustaqil sahna ko'rinishlaridan iborat **“Boz masxaraboz”** spektaklini bunga misol keltirish mumkin. Shartli ravishda **“Farrosh”** deb atash mumkin bo'lgan birinchi sahna aktyor M. Abdulxayirov tomonidan mahorat bilan ijro etilgan. Ushbu lavhada farrosh o'zini iste'dodli sozanda, skripkachi sifatida tasavvur qiladi. Eski radiodan taralayotgan kuyni “supurgi” skripka (tasavvurdagi buyum bilan ishlash texnikasi) orqali plastik va pantomimik harakatlarda ifodalaydi. Yana spektakl davomida farroshning do'stlari kelib, radiokanallaridan taralayotgan turli millat kuylariga raqs tushadilar. Yashash zavqini tuyadilar, bolalarcha quvonadilar. Keyingi lavhada esa qahramonning kimsasiz orolga tushib qolishi, u yerda chumoli bilan do'stlashib, shu mittigina jonivordan ham quvonch, baxt topishga urinishi, yolg'iz emasligini his qilishga intilishi so'zsiz imo-ishoralari, yuz-ko'z va tana harakatlari orqali aktyor tomonidan mohirona ijro etiladi.

“Boz masxaraboz” spektakli tomoshabinlarga masxara va pantomim – aktyorlar tilidan voqeani bayon etadi. Sahna devorlari turli niqoblar bilan bezatilgan. Pantomima tomoshabin uchun mo'ljallangan qora fon tomoshabin diqqatini faqat ijrochilarga qaratishiga imkon beradi. Dastlab, to'rt xil obrazda sahnada paydo bo'lgan masxarabozlar televizor yoki magnitofon kabelini o'zlariga ulay boshlaydilar. Kim unga ulansa, musiqa o'zgaradi va ijrochining ichida bo'layotgan hissiyotlar musiqa orqali o'z ifodasini topadi. Aktyor Muhammadiso Abdulxayirov axiri bir chetga o'tib, simni o'ziga ulashga muvaffaq bo'ladi. Shundan so'ng etyud shaklidagi pantomima tomoshabinlari boshlanadi. Spektakl prologdan tashqari 3 xil voqeani o'z ichiga oladi: birinchi, aktyor Muhammadiso Abdulxayirov sahnada bir o'zi klassik mim obrazi Pyero qiyofasida gavdalanadi. Kimsasiz orolda yolg'iz o'zi qolgan qahramon yordam so'rab tinmay baqiradi. Dengizga tushib suzib ketmoqchi bo'ladi va suvdan qo'rqqani bois ortiga qaytadi. Taqdirga tan bergach, orolda qolishga majbur bo'ladi. Zerikkanidan turli tomoshabinlar ko'rsatadi. Goh xafa, goh xursand bo'ladi. Qorni ochib ketganligi bois, xayolida kafega borib turli yeguliklarga buyurtma beradi. Bir vaqt mobaynida bir necha rollarni bir o'zi o'ynagan aktyor, Marsel Marso yo'nalishidagi monomimani ijro etadi. Zerikib yig'lay boshlaydi. Kutilmaganda kichik bir chumolini ko'rib qoladi.

San'at instituti talabalarining ko'pchiligi aktyor Muhammadiso Abdulxayirovning mana shu “chumoli” bilan bo'lgan sahnasiga taqlidan etyudlar ishlab, ko'rsatib keladilar. Chumoli bilan turli o'yinlar o'ynagan qahramon unga bog'lanib qoladi. Pantomima librettosiga ko'ra qahramon chumolini esidan chiqargan holda, boshqa narsalarga chalg'ib, ustiga o'tirib oladi. O'z do'stiga aylangan chumolini o'ldirib qo'yganini ko'rgan qahramon yig'lab-yig'lab, uni orolga ko'madi. Ushbu parchadagi kichik voqealar

juda qiziq va kutilmagan tarzda rivojlanib borib, katta falsafiy mulohazalarga turtki bo'lgan.

*Ikkinchi parchada* to'rtta masxaraboz kutilmaganda bir taxtning oldidan chiqib qoladilar. Taxtga kim o'tirsa hukmronlik unga tegishli bo'ladi. Taxtda maxsus bir tugmacha bo'lib, u taxtga o'tirmagan qahramonlarni har ko'yga solishga qodir bo'ladi. Kim unga o'tirsa muruvvatini burar va sheriklarini istagan o'yiniga o'ynatadi. Taxtga chiqqan podsho, chetda qolganlar unga xizmatkor bo'ladi. Voqealar rivojlanib, hamma taxtdan qocha boshlaydi. Chunki u yomon oqibatlariga olib keladi. Do'stlarni bir-biridan ayiradi. Etyud so'nggida bir o'zi qolgan masxaraboz, taxtni tark etmoqchi bo'lsa, taxtdan turli shovqinli ovozlari chiqadi. Shunda u kiyimlarini yechib taxt ustiga qo'yadi. Go'yo odam shakliga keltiradi. Turli shovqinlar tingach, sahnani yalang'och tark etadi.

Ushbu sahna plastik xatti-harakatlar, mimika va pantomima elementlari orqali tomoshabinlarga go'yo hayot falsafasidan saboq beradi. Ushbu spektakl haqida taniqli adabiyotshunos olim Sh. Rizayev o'zining **“Surat va siyrat chizgilari”** kitobida shunday yozadi: *“Taxt uchun kurash” mim masxarabozlar tomonidan shunday zaharxanda kulgi ostiga olinadiki, tomoshabin bir paytning o'zida ham bo'rttirilgan ramziy xatti-harakatlar zamiridagi realikni anglab xandon otib kulsa, ikkinchi tomondan hokimiyat uchun siyosiy kurashlarning mohiyatida har qanday tubanlikdan qaytmaslik illati yotganini idrok etib, tegishli muhim xulosalar chiqaradi. Oxir-oqibat beshta masxara – da'vogarning butun harakatlari chippakka chiqib, o'roqda yo'q, mashoqda yo'q noma'lum bir quruq qo'g'irchoq taxtga o'tiradi. Ha, uning eng muhim xususiyati – qo'llarining uzunligi. Uzatsa har yerga yetadigan, o'sha beshta raqibini bitta-bitta girbonidan olib, itqitib tashlashga qodir uzun qo'llar. Shohda qo'l bor, yurak yo'q. Satirik fars sifatida talqin qilingan lavhaning “qissadan hissa”si ana shu”<sup>4</sup>.*

*Uchinchi parcha.* Kolombina va Pyero timsolidagi aktyorlar sahna markazida xomush bir-birlariga qaraydilar. Qo'g'irchoq kabi kiyintirilgan obrazlarning qo'llari va badanlarining turli joyidan marionetka kabi yuqoriga iplar tortilgan. Ular harchand xohlamasin bir-biriga yetisha olmaydilar. Oxiri Pyero o'zini o'ldiradi. Kolombina esa turli jestlar bilan iztirob chekkanini ko'rsatadi. Xanjarni olib o'ziga uradi. Sevgilisining yoniga yotib, u ham jon beradi. Parcha syujeti Shekspirning **“Romeo va Julyetta”** tragediyasining so'nggi voqealariga taqlidan olingan. Birmuncha vaqt yerda jonsiz holda yotgan qahramonlar sekin-asta tirila boshlaydilar. Qo'llari orqali plastik xatti-harakatlarni amalga oshirib, nihol kabi o'sib boradilar va go'yoki ularning ruhi boshqa dunyoda birga bo'ladi. Spektaklning bir-biriga mantiqiy bog'lanishi voqealarga tabiiylik kiritadi. Mazkur sahna ko'rinishni hammaga yaxshi tanish bo'lgan asar syujetlari asosiga qurilgan – simqo'g'irchoq misolida rejissyorlikning yangicha topilmasi, deyish mumkin.

**“Boz masxaraboz”** spektakli tugallangan, har biri ma'lum ma'no va aniq voqealarga ega parchalardan

<sup>4</sup> Rizayev Sh. Surat va siyrat chizgilari: Olimjon Salimov. – T.: “Sharq”, 2010-y. 96-97-b.

iborat. Ushbu spektakl pantomima, plastika va masxarabozlik elementlariga qurilgan bo'lsa-da, tomoshaning umumiy syujeti dramatik tarzda kechadi. Tomoshabinni o'yga soladi. Aktyor-mimlar bemaqsad va mantiqsiz kuldirishga bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirmaydilar. Ularning har biri voqeani ochib berishga va spektaklning badiiy yaxlitligini ta'minlashga harakat qiladilar. Ushbu spektakl orqali aktyor Muhammadiso Abdulxairov pantomima elementlarining mohir ijrochisi sifatida jamoatchilikka tanildi.

Keyinchalik "Boz masxaraboz" spektakli 2000-yil Germaniyaning Myulxaym shahrida "An de Rur" teatrida o'tgan Markaziy Osiyo va Eron mamlakatlari teatrlarining Xalqaro festivalida, 2001-yil Misr Arab Respublikasi Qohira shahrida an'anaviy Xalqaro eksperimental teatrlar festivalida qatnashib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi. Shu yil bosh rol ijrochisi Muhammadiso Abdulxairov "Yilning eng yaxshi aktyori", Olimjon Salimov "Yilning eng yaxshi teatr rejissyori" deya e'tirof etilib, "Ofarin – 2001" ijodkorlar tanlovi g'olibi bo'ldilar.

Zamonaviy klounadaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning tarkibida pantomima elementlarining mavjudligidir. Zamonaviy masxarabozlik lirik va ijtimoiy-siyosiy, qiziqarli satira va komediya nomerlarini rang-barangligini o'zida mujassamlashtiradi. Qayd etish kerakki, zamonaviy klounada san'ati bir tipda emas. U xilma-xil jo'shqin va hissiyotlarga boy pantomimalar, komik holatlar va vaziyatlarga quriladi, qahramonlarning tutgan yo'llarini o'xshashligi, bo'rttirilgan rekvizitlar bilan kutilmagan o'yinlar va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu yo'nalishda aka-uka Lavrovlar, G.Mozel va D.Demash, A.Shliskevich, Karandash, O.Popov, A.Nikolayev va boshqalar sirk arenasida o'z san'atlarini namoyish etganlar. Mashhur Yengebarov esa deyarli rekvizit va dekoratsiyalarni ishlatmagan. *"O'zining san'ati haqida Leonid Yengebarov xuddi olimlardek chuqur mulohaza yuritadi. Sirkka oid kulgililik – original va*

*chuqur ma'noga ega bo'lishi kerak. Sirk mutaxassislari uning nomerlaridagi dramaturgiya va jo'shqinlikni, yoki rejissurasi va keng ko'lamda sahnalashtirilgan pantomimalarni tahlil qilishi va o'rganishiga hali ancha bor"*<sup>5</sup>, – deya fikr yuritadi Slavskiy.

Masxarabozlik pantomimalarining yana bir jihati – uning tashqi ifodaviy tilidir. Ba'zan qandaydir g'uldirashlar, ma'lum bir ovozlari qatnashishi evaziga ham so'zsiz masxarabozlik pantomimalari namoyish etilgan. Makarov o'zining kitobida shunday deydi: *"Klounadaning tashqi ifodaviy "tili" pantomimadan boshqa ular ishlatgan turli janrlar va uslublar bilan boyitilgan: epizodlarning ko'p marotaba takrorlanishi, tomoshabinlar bilan muloqot qilish, quvnoq musobaqalar, kulgili tortishuvlar, komik mushtlashishlar, masxarabozlarning tuganmas kiyinishlari: goh ayol kishi kiyimi, goh doktor, gohida hayvonlar, kutilmaganda ustidan suv to'kilishlari, payraha, pudra kabi turli kukunlarni ustlaridan sochish, sovunli ko'piklarni ustiga surish va boshqalar"*<sup>6</sup>.

Mana shu kabi masxarabozlik uslubidagi pantomimalar o'tgan asrda ko'plab sahnalashtirilgan. Dramatik va yorqin mimikalarga boy turdagi pantomima va masxarabozlik sahnalarini Y.Nikulin, M.Shuydin, G.Makovskiy, G.Rotman va boshqalar ijodida ham ko'ramiz. Ular ijrosidagi kulgiga asoslangan, intrigaga boy o'tkir syujetli sahnalar tomoshabinlarni voqealar ortidan ergashtirib ketadi. Aktyorlar o'z qahramonlarining ruhiy holatlari, his-tuyg'ulari, quvonch va iztiroblarini mimik va plastik xatti-harakatlar orqali bo'rttirib ko'rsatishgan. Garchi mazkur tomoshalar sirk arenasida namoyish etilsada, dramaturgik kompozitsiyaga egaligi, ijroda grim, kostyum, butaforiya va musiqiy bezaklardan badiiy sahnaviy vositalar sifatida foydalanilganligi bilan dramatik teatr san'atiga o'xshab ketadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq masxarabozlik va qiziqchilik san'atining nafaqat zamonaviy teatr san'atiga, balki sirk san'atining rivojiga ham ta'siri katta bo'lgan.

<sup>5</sup> Slavskiy P.E. Леонид Енгибаров. – Москва: «Искусство», 1989 г. Стр.126.

<sup>6</sup> Макаров С.М. Искусство клоунада в СССР. – М.: «Искусство».



# II BO' LIM

## MUSIQA SAN'ATI

G'anjion XUDOYEV,

O'zDSMI professori v.b., san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### “NASRI USHSHOQ” XUSUSIDA

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, mumtoz maqomlarimizda keladigan Ushshoq yo'llari Buxoro Shashmaqomidagi “Nasri Ushshoq” bilan qiyosiy muhohasa qilinadi. Shuningdek, maqomlarda keluvchi Ushshoq kuy va ohang namunalarining bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotidagi ahamiyati muxtasar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Shashmaqom, Ushshoq, Rost, ashula, nasr, maqom.

### ПРО “НАСРИ УШШАК”

**Аннотация.** В статье рассматривается сходство и различия национальной макомной мелодии “Ушшок” с “Насри Ушшок” Бухарского Шашмакома. Также, даётся анализ инструментальных и вокальных мелодий Ушшок, встречающиеся в творчестве композиторов и бастакоров.

**Ключевые слова:** Шашмаком, Ушшак, Рост, ашуля, наср, маком.

### ABOUT “NASRI USHSHAK”

**Abstract.** The article examines the similarities and differences between the national maqom melody “Ushshok” and “Nasri Ushshok” by Bukhara Shashmakom. Also, an analysis is given of the instrumental and vocal melodies of Ushshok, found in the works of composers and bastakors.

**Key words:** Shashmakom, Ushshak, Rost, ashulya, nasr, makom.



O'tmishdan bizgacha ma'anaviy meros bo'lib yetib kelgan kuy va ashula yo'llari qatorida, ayniqsa, “Ushshoq” nomli namunalar xalqimiz orasida juda mashhur va qadrlidir. Rivoyatlardan ma'lumki, “Ushshoq” maqomi Nuh alayhissalomdan meros qolgan. Shuning uchun ham bu mumtoz navo mo'tabar va muqaddas kuylardan hisoblanadi. Inchinin, “Ushshoq” atamasi arab tilidan olingan bo'lib (“oshiq”, “ishq” va h.k. so'zlarining ko'pligidagi), “oshiqlar” ma'nosini anglatadi<sup>1</sup>.

Ushshoq maqomiga milliy musiqamiz darg'alari bo'lmish atqoli bastakorlar nazira tarzida bir qancha cholg'u va ashula yo'llarini yaratganliklari ma'lum. Fikrimizga “Sodirxon Ushshog'i”, “Mulla To'ychi Ushshog'i” (yoki “Toshkent Ushshog'i”), “Samarqand Ushshog'i” va shu kabi maqom yo'lida ijod qilingan bir qancha nodir va noyob navolarni misol keltirish mumkin.

Mazkur asarlarga qiyosiy nazar tashlaydigan bo'lsak, Hoji Abdulaziz Rasulovning “Samarqand Ushshog'i” (Zebuniso g'azali)da Ushshoq kuyi Uzzol

kuyiga ulanib kelsa, Mulla To'ychi Toshmuhammedov nazirasida – “Toshkent Ushshog'i” (Navoiy g'azali) bevosita Ushshoq parda-ohanglariga tayanadi. Sodirxon Bobosharipovning ijod namunasi bo'lgan “Sodirxon Ushshog'i” (Jomiy g'azali) esa katta ashula ta'siri o'laroq qo'qqisdan avj pardalarini “zabt” etish bilan boshlanadi. Har biri betakror badiiy qiymatga ega bo'lgan mazkur asarlar o'z ijodkorlari tomonidan yuksak mahorat bilan ijro etilganligi bilan ham hofizlik san'atining alohida maktablarini namoyon etadi<sup>2</sup>.

Bundan tashqari maqomlar tarkibida ham bir qator Ushshoqlar o'rin olgan. Jumladan, Shashmaqom turkumining Rost maqomi “cholg'u yo'li”, ya'ni Mushkilot bo'limida – “Muxammasi Ushshoq”ni keltiradigan bo'lsak, “aytim yo'li”, ya'ni Nasr bo'limida esa – “Talqini Ushshoq”, “Nasri Ushshoq”, “Ufari Ushshoq”, “Savti Ushshoq” va uning shahobchalarini (Talqincha, Qashqarcha, Soqiyнома) qayd etish mumkin.

Mazkur maqolada, Buxoro Shashmaqomining Rost maqomi tarkibiga kiruvchi “Nasri Ushshoq”, yoki xalqimiz orasida “Shitob aylab” nomi bilan ma'lum va mashhur maqom aytimi xususida fikr yuritishni maqsad qildik. Shu ma'noda, Nasr nomli sho'balari Buxoro Shashmaqomi tarkibida qay tarzda kelishini kuzatadigan bo'lsak, Buzruk maqomida – Nusrullovi,

<sup>1</sup> Ma'lumot uchun qarang: I.Rajabov. Sharq musiqasi atamalarining qisqacha lug'ati. // Nashrga tayyorlovchi maxsus muharrir va izohlar muallifi Oqilxon Ibrohimov. – Toshkent: “Tamaddun”, 2023-y. 177-b.

<sup>2</sup> Ibrohimov O. Maqom asoslari. – T.: “Turon-Iqbol”, 2018-y. 77-b.



Nasri Uzzol; Rost maqomida – Nasri Ushshoq, Navroʻzi Sabo; Navo maqomida – Nasri Bayot, Orazi Navo, Husayniy Navo; Dugoh maqomida – Nasri Chorgoh, Orazi Dugoh, Husayniy Dugoh; Segoh maqomida – Nasri Segoh, Navroʻzi Xoro, Navroʻzi Ajam; Iroq maqomida – Muxayyari Iroq kabi nomlarda namoyon boʻladi. Mana Shashmaqomda Nasr nomli ashula yoʻllarining qay tartibda kelishiga guvoh boʻldik.

Endi Ushshoq yoʻllari xususidagi fikrimizni davom ettiradigan boʻlsak, bu nomli maqom yoʻllari nafaqat Shashmaqomda, balki Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari va Xorazm maqomlari tarkibida ham juda koʻp oʻrinlarda keladi. Hattoki, Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllaridagi Ushshoq nomli maqom tarkibida bir qancha maqom yoʻllaridagi asarlarning oʻziga xos turkum va noturkum koʻrinishdagi cholgʻu yoki ashula yoʻllarida uyushib kelganligini ham kuzatish mumkin<sup>3</sup>. Shuningdek, Xorazm maqomlarida ham Muxammasi Ushshoq va Ushshoqlarning ashula yoʻllari keng oʻrin olganligini koʻrish mumkin.


Endi bevosita Nasri Ushshoqqa toʻxtaladigan boʻlsak, “Nasri Ushshoq” shoʻbasi turli davrlarda bir qancha shoirlarning turli mavzudagi sheʼrlariga solib aytilganligi, bizga yaqin tarixdan maʼlum. Lekin Alisher Navoiyning “Shitob aylab” radifli gʻazaliga bogʻlanib aytilgan Nasri Ushshoq asarga oʻzgacha koʻrk va shukuh bagʻishlaydi.

Nasrlarda asosan aruzning “Hazaji musammani solim” sheʼriy vazni keng oʻrin tutgan boʻlsa, biroq “Shitob aylab” gʻazali quyidagi vaznda: **mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun**, yaʼni oʻn olti boʻgʻinda keladigan **hazaji musammali solim** vaznida aytilgan:

*Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulruh shitob aylab,  
Mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun.*

Shitob aylab gʻazali Nasr usullariga mos tarzda, uning doyra usuli olti hissali (6/4) boʻlib, yaʼni 2/4 va 4/4/ yoki aksincha 4/4/ va 2/4 takt oʻlchovlarining qoʻshilib kelishida kuzatish mumkin.

Nasr doyra usuli ham murakkab koʻrinishga ega boʻlsa-da, maʼlum qadar tantanavor yangraydi:



Shashmaqomni oldingi ijro yoʻllarida aynan “Shitob aylab” gʻazaliga moslab ijro etilganligini juda koʻp ijrolarda uchratsak-da, biroq boshqa gʻazallarga ham qoʻyib aytilgan variantlari mavjudligi xususida yuqorida ham toʻxtalib oʻtgan edik. Ammo “Nasri Ushshoq”ning Alisher Navoiy gʻazali bilan aytiluvchi “Shitob aylab” radifli gʻazalida ijro etilishi maqom ijrochiligidan juda mashhurdir.

Xorazmda ham aynan shu anʼana saqlanib qolgan. Xorazmlik koʻplab maqomdon ustozlar “Faryodi Nasri

Ushshoq” deb atashadi. Bu kuy jihatidan, vazn jihatidan va doyra usuli jihatidan ham Shashmaqomdagi doyra usulidagi biroz farqni hisobga oladigan boʻlsak, yaʼni Nasr doyra usuli yuqorida taʼkidlanganidek, oʻsha olti hissali, bir-biriga juda yaqin, hamohang tarannum etiladi.

Endi Isʼhoq Rajabovning tadqiqotlaridan yaxshi bilamizki, Buxoro Shashmaqomidagi “Nasri Ushshoq” variantida toʻqqizta xatdan iboratligi taʼkidlanadi<sup>4</sup>.

Odatda, maqomlarda birinchi xat *daromad*, ikkinchi xat *miyonxat*, uchinchi xat *dunasr* boʻlib keladi. Lekin Ustoz Rajabovni tadqiqotlaridan maʼlum boʻladiki, Nasri Ushshoqning birinchi xati – *daromad*, ikkinchi va uchinchi xatlari – *miyonxat*, yaʼni oʻrta pardalarda ijro etiladi va toʻrtinchi xatni *dunasr* qamrab oladi.

Demak, mana shu dastlabki toʻrtta xat oʻqilgandan keyin *daromad*, *miyonxat*, *dunasr*, yaʼni bir oktava doyrasidagi ijrolar yakuniga yetib, soʻngra avj qismlariga yetib keladi. Avj qismlari, odatda, koʻpincha beshinchi yoki **oltinchi xat**dan boshlanadi. Bunda beshinchi xatda Namudi Uzzol keladi (Namudi Uzzol – bu pastga sakrovchi xususiyatlari bilan ajralib turadi), u yuqori pardalarda ijro etiladi. Va keyingi 6-, 7- (8-) xatlar davomida – Namudi Muxayyari Chorgohga ulanib ketadi. Shashmaqomning Rost maqomi aytim yoʻllarida koʻproq Segoh, Ushshoq namudlari ishlatiladi. Lekin bu “Nasri Ushshoq”da, ulardan farqli oʻlaroq, Buzruk maqomida kelgani singari Uzzol namudi bilan Muxayyari Chorgoh namudlari keladi. Buning oʻziga xosligi aynan mana shunda. Va eng yuqori choʻqqilarga chiqqandan keyin 8-xatda *furovard*, yaʼni tushurum qismi bilan yana dastlabki tayanch pardaga kelib asar yakun topadi.

Nasri Ushshoq yuqorida taʼkidlaganimizdek, 9 ta xatdan iborat, lekin gʻazal 8 baytdan iborat boʻlib, shunda har bir xatga bittadan bayt, yaʼni ikki misradan toʻgʻri kelishi kerak. Endi maqom sanʼatida birinchi oʻrinda – kuy, musiqa, yaʼni ohang ustuvorligini inobatga oladigan boʻlsak, shu maʼnoda soʻz ham shunga boʻysunib, baʼzi baytlar ikki marotaba takroriy keladigan holatlar ham uchraydi, yoki avjlarni yorqin koʻrsatish maʼnosida ayrim baytlar takror ijro etilishi natijasida maʼlum tizimga boʻysunadi. Nasri Ushshoq, yaʼni Shitob aylab aytimida, maʼlum baytlarning takrorlanishi hisobiga 9 ta xatga boʻysuntiriladi.

“Nasri Ushshoq” maqomi ijrochilar uchun ham juda mukammal va ayni vaqtda murakkab maqom ashula yoʻli hisoblanadi-ki, shu sabab, ustoz koʻrgan xonandalar, aniqroq aytadigan boʻlsak, bunday ijrolarni koʻproq maqomxon hofizlar ijrosida kuzatamiz.

“Shuning uchun ham Buxoro va Samarqandda Nasr yoʻllari va boshqa ashula boʻlimiga kirgan shoʻbalarni ijro etadigan hofizlarni ayrim hollarda “nasrchi hofizlar” deb ham atashgan<sup>5</sup>.

Misol uchun shunday ijro yoʻllaridan Borux Zirkiyev ijrosidagi bir qancha Nasr ashula yoʻllarini Yunus Rajabiy tomonidan gramplastinkalarga yozib olib notaga olganliklari, yoki Mixoil Tolmasov, Eson Qandovlar ham yuksak mahorat bilan ijro etganliklari oʻz vaqtda gramplastinkalarga yozib qoldirilgan audioyozuvlardan guvohlik beradi. Soʻnggi davrlarda

<sup>3</sup> Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макоми. – Т.: “Media Land”, 2006 г.

<sup>4</sup> Rajabov I. Maqomlar. – Т.: “Sanʼat”, 2006-y. 236-b.

<sup>5</sup> Rajabov I. Maqomlar. – Т.: “Sanʼat”, 2006-y. 237-b.

O'zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Tojiboyev ham Nasr ashula yo'llarini yuksak mahorat bilan ijro etganliklarini guvohimiz. Bu kabi ijrolarni ansambl ijrochiligida Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansamblining ijro repertuarlarida ham ko'rish mumkin<sup>6</sup>.

Endi Nasr sho'balari xususidagi fikrimizni davom ettiradigan bo'lsak, har bir nasr sho'balari mustaqil ashula yo'llari hisoblanadi. Ularning ko'pida taronalar mavjud bo'lsa-da, ayrim nasr sho'balari, jumladan, Husayniy (Navo va Dugoh maqomlarida)lar, Nasri Segoh va Nasri Uzzol sho'balari esa taronalar uchramaydi<sup>7</sup>.

Shashmaqomda keluvchi "Nasri Ushshoq"da asosan ikkita tarona bo'lib, bu tarona ohanglariga xos nazira sifatida bir qancha asarlar yaratilganligini ham ko'rish mumkin.

"Ey sabo" ashulasining boshlanishi "Nasri Ushshoq"ning birinchi taronasi ohang pardalariga xos ishlangan bo'lsa, Xorazmda ijro etiladigan "Hanuz" ashulasi esa, "Nasri Ushshoq"ning I-II taronalari asosida ishlanganligini ko'rish mumkin<sup>8</sup>.

"Nasri Ushshoq" maqomi ohanglaridan, balki

maqom ohanglaridan ta'sirlanib yoki ilhom olib, bir qator **bastakor va kompozitorlar** o'z ijod mahsullarida keng foydalanishgan. Buning natijasi sifatida – simfoniya, operalarda keng qo'llanilganini ko'rish mumkin. Masalan, kompozitor Mustafo Bafoyevning "Sevgim samosi" operasida aynan biz aytayotgan "Nasri Ushshoq" yoki "Shitob aylab" ashulasi o'rin olgan. Bunda, asardagi bosh qahramon Xorazmiyning ijrosida, ya'ni qahramonning xorazmlik ekanligini ifodalash maqsadida, Xorazm yo'lidagi "Faryodi Nasri Ushshoq" ijro etilgan<sup>9</sup>.

Bundan anglashiladiki, bastakor va kompozitorlar maqomlardan ilhom olib o'z asarlarida qo'llab kelishayotgan bo'lsa, Ushshoq maqomlariga doir olib borilayotgan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlaridan<sup>10</sup> ham ko'rinish turibdiki, hali maqomlar xususidagi ilmiy-ijodiy munozaralar davomli kechadi.

Biz umid qilamizki, kelajakda maqomlarimizdan ilhomlangan zamonamiz bastakor va kompozitorlari tomonidan yana ko'plab yangi-yangi asarlar, yangicha ijro talqinlari yuzaga kelishi va bu yo'nalishda turli mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макоми. – Ташкент: "Media Land", 2006 г. Стр.175.
2. Ibrohimov O. Maqom asoslari. – T.: "Turon Iqbol", 2018-y. 160-b.
3. Ibrohimov O., Xudoyev G'. Musiqqa tarixi. – T.: "Barkamol fayz media", 2018-y. 310-b.
4. Ibrohimov O. Ushshoqlar xususida. "Madaniyat chorrahallari" elektron jurnali, 2019-yil, 1-son. 10–16-b.
5. Rajabov I. Maqomlar. (YUNESKO va Markaziy Osiyo mumtoz musiqasi – Shashmaqomni asrash bo'yicha Yaponiya Trast Jamg'armasining hamkorlikdagi loyihasi. Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov). – T.: "San'at", 2006-y. 404-b.
6. Rajabov I. Sharq musiqqa atamalarining qisqacha lug'ati (nashrga tayyorlovchi maxsus muharrir va izohlar muallifi O.Ibrohimov). – T.: "Tamaddun", 2023-y, 230-b.
7. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T.: "Fan", 1993-y. 56-b.
8. Khudoev G. (2015). Peering Into Culture of Ancient Bukhara. Journal of Literature and Art Studies. USA. Volume 5, Number 8 August 2015. – p. 630–633.
9. Xudoyev G'.M. (2019). Ko'hna Buxoro saroy musiqasi – maqom ijrochilik an'analari. – T.: "Madaniyat chorrahallari". // «Перекрёсток культуры», 2019. №3. 4–9-b.
10. Khudoev G. About executive traditions of Bukhara Shashmakom. РИНЦ, "Интернаука" научный журнал. № 1 (224). Часть 4. Россия. – М.: "Интернаука", 2022 г. Стр. 32–35.
11. Xudoyev G'.M. Buxoro mumtoz musiqasida maqomshunoslik masalalari. "O'zDSMI xabarlari" jurnali, 2017-yil, 3-4-son. 43–49-b.
12. Ergasheva Ch. O'zbek kasbiy musiqasida nazira an'analari (Ushshoq namunalari misolida). San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasi. – T.: O'zR FA San'atshunoslik instituti kutubxonasi. 2018-y. 968-inv. raqami.

<sup>6</sup> Ibrohimov O. Ushshoqlar xususida. // "Madaniyat chorrahallari" elektron jurnali. 2019-yil, 1-son. 10–16-b.

<sup>7</sup> Rajabov I. Maqomlar. – T.: "San'at", 2006-y. 237-b.

<sup>8</sup> Rajabov I. Maqomlar. – T.: San'at, 2006-y. 238-b.

<sup>9</sup> Ibrohimov O., Xudoyev G'. Musiqqa tarixi. – T.: "Turon Iqbol", 2018-y. 239-b.

<sup>10</sup> Ergasheva Ch. O'zbek kasbiy musiqasida nazira an'analari (Ushshoq namunalari misolida). Falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasi. – T.: O'zR FA San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv.№968. 2018.

## SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSIDA MUSIQAGA BO'LGAN QARASHLAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, O'rta asr Sharq allomalari o'zining kuchli gumanistik ruhi, insonparvarlik nafasi bilan sug'orilgan yuksak kashfiyotlari, insoniyat jamiyati tayanishi kerak bo'lgan ma'naviy ustunlarga aylangan merosida musiqaga bo'lgan qarashlar o'rganilgan. Sharq musiqa ilmiga tamal toshini qo'ygan buyuk allomalarimiz musiqa idroki, uning insonga ruhiy ta'siri, ijodiy faoliyat, musiqa bilan ruhni davolash kabi masalalarini o'z davrlarida birinchilardan bo'lib yoritganliklari xususida so'z ketadi.

**Kalit so'zlar:** gumanizm, Sharq Renessansi, musiqa ilmi, yangi madaniy qatlam, "axoruto", musiqiy psixologiya, ta'sir, ma'naviyat ustuni.

## ВЗГЛЯДИ НА МУЗЫКУ В НАСЛЕДИИ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются аспекты музыкально-просветительских и эстетических взглядов, изложенных в наследии великих ученых Восточного Ренессанса. В своих многочисленных трудах они затрагивали все отрасли знаний того времени, в том числе основы музыки и музыкальной психологии – педагогики. Эти бесценные знания и духовное наследие являются настоящим источником воспитания в сознании подросткающего поколения чувства глубокого уважения и национальной гордости за великих предков.

**Ключевые слова:** гуманизм, Восточный Ренессанс, наука о музыке, новый культурный слой, «ахорото», музыкальная психология, эмоциональное воздействие, оплот духовности.

## VIEWS ON MUSIC IN THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS

**Abstract.** This article discusses aspects of musical, educational and aesthetic views, expansions that are described in the works of the great scientists of the Eastern Renaissance. In his numerous works they affect all branches of knowledge of that time, including the basics of music and musical psychology - pedagogy. These invaluable knowledge and spiritual heritage are a real source of education in the minds of growing generation a sense of deep respect and national pride of our great ancestors.

**Key words:** humanism, "Oriental Renaissance, the science of music, a new cultural layer" achoruto "music psychology, emotional impact, a stronghold of Spirituality.



Mustaqil O'zbekistonning ko'hna, boy va shonli tarixi uning jahon tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarining asrlar osha bizgacha yetib kelgan beqiyos ijodlari bilan hamon olamga dovruq' solmoqda. Ushbu maqolada, biz O'rta asr Sharq allomalarning kuchli gumanistik ruhi, insonparvarlik nafasi bilan sug'orilgan yuksak kashfiyotlari, insoniyat jamiyati tayanishi kerak bo'lgan ma'naviy ustunlarga aylangan merosida musiqaga, uning jamiyatdagi o'rniga bo'lgan benazir qarashlari xususida to'xtalishni lozim topdik. "Bizning davrimizgacha yetib kelgan bu boy merosdan butun bashariyat ravnaqi yo'lida oqilona va samarali foydalanish – siz bilan bizning vazifamiz, siz bilan bizning burchimizdir" [1.16.], – deb ta'kidlagan edi Birinchi Prezident Islom Karimov.

Markaziy Osiyo mintaqasida IX–XI va XIV–XV asrlarda ilmiy, madaniy, ma'naviy yuksalish yuqori pog'onaga ko'tarildi va ayni shu hudud jahonni hayratga solgan buyuk mutafakkirlarni yetishtirib berdi. Ilm-ma'rifat, betakror kashfiyotlar beshigi – tarixda "Sharq

Renessansi" deb baholandi. Shu asrlarda yashagan olimlarning kashfiyotlari jahonshumul ahamiyat kasb etib, ularning nomlari butun dunyoga taraldi. Ma'lumki, Yaqin va O'rta Sharqning yirik shaharlarida musiqa san'ati, cholg'ular va musiqa ijrochiligining gurkirab rivojlanishi IX asrda fanning mustqil bo'limi – **musiqa ilmining** tug'ilishiga olib keldi.

Musiqa – yunon tilida adabiyot, san'atlarning umumlashgan nomi bo'lib, "ilhom parisi" ma'nosini anglatishi, qadimgi yunonlar qo'shiq aytishni, soz chalishni bilmaydigan odamlarni "**axoruto**", ya'ni johil, bilimsiz kishilar deb atashlari ko'pgina manbalarda keltirilgan.

Musiqa ilmining asoschilari bo'lgan Abu Nasr Forobiy va Ibn Sinolar Sharqda va musiqashunoslik tarixida o'chmas iz qoldirdilar. Bu ikki alloma o'zidan oldin yashab ijod etgan yunon olimlari – Aritoksen, Ptolomey, Evklid, Aristotellarning musiqiy konsepsiyalarini tanqdiy qayta ishlab chiqib, musiqa ilmida mustaqil ta'limot yaratdilar. Ko'pgina Sharq

mamlakatlari (O'rta Osiy, Arabiston, Eron) musiqa madaniyatini o'rganib umumlashtirdilar. Ularning asarlarida o'z davrining musiqa nazariyasidagi muhim masalalar bilan bir qatorda musiqa san'atining inson va jamiyat hayotidagi o'rni, musiqaning kelib chiqishi, musiqaning hissiy idroki, uning ta'sir kuchi, musiqiy-etetik tarbiya haqidagi muhim fikrlar targ'ib etiladi.

Qayd etish lozimki, Forobiy musiqaning kelib chiqishiga ilmiy baho berar ekan, oldin musiqa amaliyoti (kuy ijro etish, qo'shiq kuylash), keyin musiqa ilmi kelib chiqqan, deb hisoblaydi va musiqani ko'p funksional – lazzat baxsh etuvchi, ko'ngilochar vosita, ma'naviy tarbiya vositasi ekanligini tavsiflaydi.

Sharq pedagogikasida birinchilardan bo'lib, Ibn Sino shaxs kamolotini rivojlantirish konsepsiyasini yaratdi va unda musiqaning tarbiyaviy rolini asoslab berdi. U musiqa orqali inson ruhini shakllantirish, rivojlantirish va jismoniy mashqlar bilan badanni tarbiyalash lozimligi haqidagi fikrni ilgari suradi. **“Tib qonunlari”** kitobida buyuk olim musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, go'dakning tarbiyasidagi ahamiyatini oddiygina ta'riflaydi: *“Go'dak tanasining chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onaning qo'shig'i (allasi). Birinchisi bolaning tanasiga, ikkinchisi ruhiga tegishlidir”*. Bu Sharq **“Renessans”**ining eng ilg'or fikrlaridan biri bo'ldi.

Musiqaning ta'limiy ahamiyati haqidagi turli fikr va qarashlar Sharqning ko'p sonli bilvosita manbalarida ham ko'plab keltirilgan. Bularga badiiy adabiyot, tarixiy, falsafiy, diniy, ilmiy risolalarini keltirish mumkin. Yusuf Xos Hojibning **“Qutadg'u bilig”**, A.Yugnakiyning **“Hibat ul-haqoyiq”**, Firdavsiyning **“Shohnoma”** va yana qator asarlari bunga misol bo'la oladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Sharq musiqa ilmiga tamal toshini qo'ygan buyuk allomalimiz musiqani nafaqat san'at sifatida, ilm sifatida rivojlanishning yuqori cho'qqisiga olib chiqdilar, balki musiqa idroki, uning insonga ruhiy ta'siri, ijodiy faoliyat, musiqa bilan ruhni davolash kabi masalalarni o'z davrida birinchilardan bo'lib yoritib, musiqiy psixologiya faniga ham asos soldilar.

O'z davrining ilmiy kishisi, musiqa va tibbiyot ilmiga ishtiyoqi kuchli bo'lgan Kaykovus **“Qobusnoma”** asarida yoshlarning ilm olishiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, ilm-fan insonni har tomonlama rivoltantiradi va bunda tibbiyot, astornomiya bilan bir qatorda musiqani o'rganish birinchi galdagi vazifa, deb hisoblaydi. Kaykovus asarida donishmadlik ila musiqaning ta'sir kuchi, uning inson tabiati bilan bog'liqligiga doir shunday yozadi: *“...majlis ahliga qara, agar eshituvchi qizil yuzlik, mosh-guruch soqol bo'lsa (musiqa asbobining) ikkinchi torida chalgin, agar sariq yuzli safroyi bo'lsa bum torida chalgin, agar qora yuzli savdoyi, ori q bo'lsa ko'proq (musiqani) uch torida chalgin, agar badani oq va semiz hamda pilchillagan nam bo'lsa yo'g'on torida chalgin. Chunki rudni (musiqa cholg'usi) odamning to'rt tabiati uchun muhayyo qilganlar”* [2.97].

Mutafakkir olim, davlat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy ko'plab lirik she'rlar,

tarixiy, ilmiy va didaktik asarlar yaratishi bilan bir qatorda musiqa san'ati bilimdoni, o'z zamonasi musiqachilarining homiysi sifatida san'at rivojiga ulkan hissa qo'shib, unda o'chmas iz qoldirgan buyuk shaxsdir. Navoiy musiqaning shaxs rivojidagi ulkan ahamiyati, musiqa idroki, uning insonga ruhiy ta'siri, ijodiy faoliyat, musiqa bilan ruhni yuksaltirish, ya'ni musiqiy pedagogika va psixologiya masalalarida ham o'z davrining peshqadamlaridan bo'ldi. O'zining **“Sab'ai sayyor”**, **“Majolis un-Nafois”**, **“Mezon ul-avzon”**, **“Holati Pahlavon Muhammad”**, **“Mahbub ul-qulub”** kabi asarlarida musiqa ilmi va uning inson kamolotida tutgan o'rni, musiqa va go'zallik tarbiyasi, o'tmish va o'z davrining yetuk san'atkorlari – musiqashunos, bastakor, hofizu mashshoqlar haqida atroflicha ma'lumot beradi. Musiqadan chuqur ilmi bo'lib, yoshligidan o'zi yozgan she'rlariga kuy bastalagan ulug' shoir **“Majolis un-Nafois”** (“Nafis majlislar”) tazkirasida o'z zamonasining ko'zga ko'ringan bastakori Xoja Yusuf Burhon haqida yozar ekan: *“faqir musiqiy fanida aning shogirdimen”*, deb aytadi [3.51]. Shoirning qator kuylar yaratganligi haqida Bobur Mirzo: *“...yana musiqada yaxshi nimalar bog'laptur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur”*, deb ta'kidlaydi [4.132]. Navoiyning ko'plab hassos va jarangdor she'rlari asrlar davomida kuyga solinib, sevib ijro etib kelingan va kelinmoqda. *“Ma'lumki, she'riyat o'z jarangdorligi va ohangdorligi bilan musiqaga yaqin turadi. Chunki she'r tabiatiga ko'ra qiroat bilan o'qish, zamzama qilish va qo'shiq qilib kuylash uchun yaratiladi. Aruz vaznida esa musiqiylik yanada kuchli”*, – deb ta'kidlaydi zamondoshimiz, taniqli filolog olim E.Ochilov Navoiy ijodiga bag'ishlangan maqolasida [5.7].

Navoiyning **“Mahbub ul-qulub”** asarida musiqa-chilarga bag'ishlangan fasl va sahifalaridagi fikr-mulohazalari, falsafiy kuzatishlari xalqimizda asrlar davomida musiqaga bo'lgan muhabbat va munosabat mohiyatini anglashda yordam beradi. Musiqa o'ziga xos mo'jizakor tovushlar, maftunkor kuylar va hissiy kechinmalar olami, tinglovchining qalbi, ruhi, histuygulariga ta'sir etish orqali unda turli kechinmalarni yuzaga chiqarishini chuqur his eta olgan Navoiy musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri beqiyosligini juda go'zal tarzda ifodalab beradi: *“Mayxonada kimki may ichishdan ibo qilsa, nay ovozi bir dilkash navo bilan uni rasvo qiladi-qo'yadi. Agar kishi may zavqini unutilib, ichishdan tortilar ekan, g'ijjak cho'ziq nolalar chekib, unga yolvoradi va tanbur pardalari maftunkorlik bilan halok etadi, uning halovat pardasini chok etadi, chang zorlanib, bo'g'zini cho'zadi; ud tilining ingrab yolvorishi changnikidan ham ortadi. Qachonki rubob boshin yerga qo'yib iltimos qilganda, qo'buz quloq tutib, kayf-safo ohangini tuzadi...”* [6.29]. Insonning ruhiy, axloqiy poklanishi va ilohiy muhabbatdan quvvat olib yuksalib borishida, musiqa yordamida so'fiyning ilohiy uyg'unlikka erishish masalalaridan chuqur xabardor bo'lgan Navoiy: *“Suluk ahlig'a yashirin bo'lgan bu manzilda inson ham kamolot topadi, ham zarar orttiradi. Solik bu yerda bir dardli oh bilan maqsadga yetibdur va bir na'rai jonkoh bilan yillar bo'yi qozongan*

ham ilgidan-qo'ldan ketubdir", – deb xulosa qiladi.

Musiqaning falsafiy qarashlarga jalb etilishi so'fiylar dunyoqarashi bilan bog'liqligi tarixan ma'lum. Shu o'rinda mashhur tariqat piri, naqshbandiya silsilasining asoschisi Abdulxoliq G'ijduvoniyning (1103–1179) muridiga: "Samo' (musiqa tinglash) majlislarida ko'p o'tirma, zero nifoq hosil bo'lib, samo'ning ortig'i dilni o'ldiradi. Lekin samo'ni inkor etma, samo' qiluvchilar ko'p. Samo' faqat qalbi tirik va nafsi o'lik kishigagina joiz. Bunday holga erishmagan kimsaga samo' halol va muboh emas", – deb uqtirgan nasihati Sharq allomalari musiqaning kuchli hissiy ta'siriga jiddiy e'tibor qaratganliklarini ko'rsatadi.

Navoiy o'z zamonasining mashhur san'atkorilari haqida: "Shibliy va Nuriy... samo'da ketdilar va bu yo'l tariqat birla maqsad manziliga yetdilar. Ko'p Allohni istaguvchilar arg'anun-organ sadosiga maftun bo'lib, butxonga kirdi va dinu islom naqdini mug'bachalarga boy berdilar" [6.30], – deb yozar ekan fikrimizcha, bu o'rinda ma'naviy ozuqa bera oladigan, kamolotga yetkazuvchi musiqalarni eshitish, yomonlaridan esa tiyilish g'oyasini ilgari suradi.

Alisher Navoiy: "...ko'k gumbazi uzra bezakli qandil. U oltinchi falakdan turib kishilarga baxt va tole ulashadi", – deb ta'riflagan. XI asr yirik nazariyotchisi va faylasufi, qalblar tabibi deb nom olgan Muhammad al-G'azzoliy aytadiki: "Alloh taolo bandalariga ko'rish uchun ko'z berdi, hid bilish uchun burun ato qildi, qo'l berdi, oyoq berdi. Ko'z ham, quloq ham dunyodagi ne'matlardan foydalanadi, quloqning rohati esa go'zal ohanglarni, yaxshi suhbatlarni eshitishdadir, quloqning ne'mati yaxshi nag'malar, yaxshi ashulalardir" [7.162].

Hazrat Alisher Navoiyning yana bir buyuk asari "Nasoyim ul-muhabbat"da ham musiqaga bo'lgan ikki xil munosabatni ko'rishimiz mumkin. Navoiy Shayx Avhaduddin Kirmoniy haqida so'z yuritib, aytadilar: "...Alar der ermishlarki, rubob uni behisht eshigining

sariridir, agar andin qalbimizga xushnudlik yetsa, jihat budur".

Yana bir nuqtayi nazarni Dovud Bin Ahmad Doroniy haqida so'z ketganda kuzatish mumkin:

– Chiroyli ovozdan ta'sirlanadigan ko'ngil haqida nima deysan?

Dedi:

– Ul ko'ngil zaifligi va bemorligidir. Bunday ko'ngilni davolash kerak [8.21].

Sharq mutafakkirlari merosida musiqaga bo'lgan munosabatini tushunishda tasavvuf ta'limoti tarixi yordam beradi. "Islom dinining bevosita bir qismini tashkil etuvchi tasavvuf ta'limotida ham musiqaga hamma vaqt halol deb qaralgan, u insonning Allohga bo'lgan buyuk muhabbatining o'ziga xos bir ifodasi sanalgan. Chunki inson o'z qalbidagi ishq ilohiyini ko'pincha kuy, ashula vositasida ifodalagan" [9.11-son]. Chindan ham kelib chiqishi ilohiy bo'lgan musiqa san'atining emotsional ta'sir kuchi shu qadar kuchliligi, uni tinglovchi diliga yaxshilik, yuksaklik, go'zallik tuyg'ulari bilan komillikka yo'naltirishga qodirligini Sharq allomalari o'z asarida purhikmat, serma'no so'zlari bilan yoritib bera oldilar. Ularning musiqa haqidagi so'nmas g'oya va ta'limotlari hali-hanuz o'z qimmatini yo'qotmaydi. O'rta asr buyuk olimi Abu Nasr Forobiyning: "O'zlariga ma'lum bo'lgan musiqaviy san'atlardan to'g'ri foydalanishga odatlangan odamlar tahsinga sazovordirlar" [10.34], – deb aytgan so'zlari to'laqonli ravishda buyuk daholarga taalluqlidir.

Sharq mutafakkirlarining musiqiy-estetik, musiqiy-ma'rifiy qarashlari o'z zamonasi jamiyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, o'rta asrlarda amaliy tatbiqqa ega bo'lmadi. Ammo Sharqdagi eng ulug' ma'rifiy ilm bo'lib kelgan bu musiqiy-estetik g'oyalar musiqa, inson ruhiyati timsoli, ma'naviy go'zallik ramzi sifatida asrlar osha ezgulikka xizmat qilib keldi va doim tarbiya manbai bo'lib qolaveradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. "O'rta Asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati". Xalqaro konferensiya manbai. – Samarqand: 2014-yil, 15-16-may, 16-bet.
2. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: "O'qituvchi", 1973-y. 97-b.
3. Alisher Navoiy. "Majolis un-nafois" (mukammal asarlar to'plami). 13-jild. – T.: "Fan", 1997-y.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: "Sharq", 2002-y.
5. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur. Muftalo bo'ldim sanga. – T.: "O'zbekiston", 2013-y. 7-b.
6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983-y.
7. Muhammad al-G'azzoliy. Ihyou ulumid-din (II jild). – T.: "Movarounnahr", 162-b.
8. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. – T.: "O'zbekiston", 2015-y. 21-b.
9. Hoji Abdurazzoq Yunusov. "Islom va musiqa". "Jahon adabiyoti" jurnali, 2014-yil, 11-son.
10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: "Yangi asr avlodi", 2018-y. 3-b.

Laylo DJURAYEVA,  
O'zbekiston davlat konservatoriyasi  
"O'zbek musiqasi tarixi" kafedrasida doktoranti (DSc),  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## MUXTOR ASHRAFIY VOKAL IJODIDA SHARQ MUMTOZ SHE'RIYATI

**Annotatsiya.** XX asr o'zbek musiqasining yirik namoyandasi, kompozitor, dirijyor, pedagog, davlat va jamoat arbobi – Muxtor Ashrafiyning serqirra ijodida vokal asarlar alohida o'rin egallaydi. Uning vokal ijodida turli janrlarni – yirik hajmli operalardan tortib, kichik romanslargacha uchratish mumkin. Sharq shoirlari she'riyatidagi chuqur dramaturgiya, hissiyotlarning donishmandona ifodalanishi teran tafakkur egasi bo'lgan kompozitor nazaridan chetda qolmagan. Ushbu maqolada, M.Ashrafiyning vokal ijodida Sharq mumtoz she'riyatining ifodalanishi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** vokal, Sharq, mumtoz, she'riyat, kompozitor, opera

## ВОСТОЧНАЯ КЛАССИЧЕСКАЯ ПОЭЗИЯ В ВОКАЛЬНОЙ ТВОРЧЕСТВЕ МУХТАРА АШРАФИ

**Аннотация.** Вокальные произведения занимают особое место в творчестве крупного представителя узбекской музыки XX века, композитора, дирижера, педагога, государственного и общественного деятеля Мухтара Ашрафи. В его вокальных произведениях можно найти самые разные жанры – от масштабных опер до небольших романсов. Глубокая драматургия, мудрое выражение эмоций в поэзии восточных поэтов не ускользнули от внимания глубокомыслящего композитора. В данной статье описывается выражение восточной классической поэзии в вокальном творчестве М. Ашрафи.

**Ключевые слова:** вокал, Восточная, классическая, поэзия, композитор.

## ORIENTAL CLASSICAL POETRY IN THE VOCAL WORK OF MUKHTAR ASHRAFI

**Abstract.** Vocal works occupy a special place in the creative works of Mukhtar Ashrafi, a major representative of 20th century Uzbek music, composer, conductor, pedagogue, state and public figure. Various genres can be found in his vocal work – from large-scale operas to small romances. Deep dramaturgy, wise expression of emotions in the poetry of Eastern poets did not escape the attention of the profoundly thoughtful composer. This article describes the expression of Eastern classical poetry in M.Ashrafi's vocal works.

**Key words:** vocal, Eastern, classical, poetry, composer.



XX asr bashariyat tarixida eng murakkab ijtimoiy-siyosiy voqeliklarga (ayniqsa, ikkita jahon urushi!) boy bo'lishi bilan birga ilm-fan, texnikaning jadal taraqqiyoti asri, deyish mumkin. Shuningdek, o'tgan asr O'zbekiston musiqa madaniyatida nainki xalq milliy merosini anglash, yozib olish, o'rganish, targ'ib qilish ishlari bilan, balki Yevropa ko'p ovoqli janrlarida ijod qiluvchi o'zbek kompozitorlarining yangi avlodini yetishtirib berganligi bilan ham ahamiyatlidir.

"Shuhrat" ordeni (1934), "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" (1937), O'zbekiston xalq artisti (1939), ikki marotaba Davlat mukofoti (1943, 1952), Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti (1970), Javoharlal Neru (Hindiston, 1971), Jamol Abdul Nosir (Misr Arab Respublikasi, 1972) Xalqaro mukofotlari laureati, kompozitor, dirijyor, pedagog, jamoyat arbobi Muxtor Ashrafiy XX asr nafaqat o'zbek, balki Uzoq va Yaqin Sharq musiqasi tarixida o'ziga xos iz qoldirgan ijodkoridir. Kompozitorning ijodiy merosini operalar (4 ta operalari – ilk o'zbek operasi **"Bo'ron"** (1939), **"Ulug' kanal"** (1941), **"Dilorom"** (1958), **"Shoir qalbi"**

(1962), baletlar (4 ta baletlar – **"Sevgi tumori"** (1969), **"Tohir Malik"** (1970), **"Matonat"** (1971), **"Muhabbat va qilich"** (1973), simfonik musiqalar ("Qurilish" marshi (1932), **"Qahramonlik"** simfoniyasi (1942), 3 ta simfonik syuitalar (1950-yillar), **"Baxt qo'shig'i"** kantatasi (1951), **"Temurmalik"** simfonik poemarsodiyasi (1963), **"Bayram shodiyona"**si uvetyurasi (1964), **"Dahshatli ishlar"** vokal-simfonik poemasi, **"Subhidamda"** nomli simfonik-xoreografiya (1968) **"Rustam haqida doston"** epik-oratoriyasi (1974), musiqali dramalar ("Ichkarida" (1933), **"Sherali"** (1942), **"Mirzo Izzat Hindistonda"** (1969), kinofillar uchun musiqalar **"Bahor eli"** (1937), **"Nasriddin Buxoroda"** (1942), **"Opa-singil Rahmonovalar"** (1954), **"Natashaxonim"**, **"Momoqaldiroqda tug'ilganlar"** (1965), **"Koinot g'orining siri"** (1967), ilk film opera **"Dilorom"** (1968), **"Qadim qal'a afsonasi"** (1970), **"Seshqar"** (1972), **"Gang uzra tong"** (1975) va boshqalar), turli yakka cholg'ular va ansambllar uchun har xil janrlarda kuy, qo'shiq va romanslar tashkil etadi. San'atkorning ijodida mumtoz shoirlarga bag'ish-

langan yoxud mumtoz she'riyatdan ilhomlangan jihatlari talaygina. Bunga sabab, yosh ijodkor qalbga bolaligidan singdirilgan o'zbek milliy mumtoz kuy-u ashulalarning ta'siridir. Axir bo'lajak kompozitor Shashmaqom vatani bo'lgan Buxoroi sharifda taniqli dutorchi va xonanda Ashrafjon hofiz oilasida tavallud topgan. *“Ashrafjon hofizning uyida tez-tez mashhur san'atkorlardan Ota Jalil G'iyosov, Abdurahmon tanburchi, Tohirjon Davlatzoda, Levi Boboxonov, Domla Halim va boshqalar to'planishib o'zaro suhbatlashishar, qo'shiq aytib kuylar ijro etishardi. Yosh Muxtorning musiqaga bo'lgan intilishi shu darajada kuchli ediki, xonanda va sozandalarning kuyini maroq bilan tinglab, ular ijodidan bahramand bo'ldi. Bular, albatta, serhavas musiqaga ishqiboz bolaga ta'sir etgan edi”*. [6.66-b]

Muxtor Ashrafiy dastlab Buxorodagi Sharq musiqa maktabida o'qidi. U yerda Tohirjon Davlatzodadan dutor chalish sirlarini o'rgandi. Otasining xohishiga ko'ra Buxoro maorif oliygohiga o'qishga kirgan musiqa ixlosmandini institutning qoshida tashkil qilingan musiqa drama to'garagi o'ziga jalb etdi. O'sha yillardan uning teatr san'atiga bo'lgan muhabbati uyg'ongan bo'lsa ajab emas. Keyinchalik Samarqanddagi Musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot institutida o'qigan M.Ashrafiy oliygoh rahbari N.Mironovdan xalq kuylarini notaga yozib olishni o'zlashtirdi hamda u Buxoro, do'stlari T.Sodiqov Farg'ona, Sh.Ramazonov Xorazm xalq qo'shiqlarini yozib oldi. Bu namunalar 1931-yil N.Mironov tahriri ostida bosilib chiqdi [Qarang: 4]. Kompozitorning ijodiy merosida kelgan *“Ro'moli shoi”*, *“Mavrigi”* (*«Таджикская танцевальная сюита»*), *“Farg'onacha”* (*«Утро моей Родины»* simfonik poemasida), *“Saraxbori Oromijon”*, *“Sharob”*, *“Chapandozi Navo”*, *“Karimqulbegi”*, *“O'lturgusi”* (*“Dilorom”* operasida), *“Yalla”* (*“Shoir qalbi”* operasida), *“Tanovar”*, *“Naylaram”* (*“Sevgi tumori”* baletida) [Qarang: 2] singari xalq qo'shiqlari va klassik ashulalarning, ayniqsa maqomlarning ishlatilishi ham institutda xalq merosini yozib olish tajribasidan orttirilgan bo'lishi tabiiy. Shuningdek, qayta ishlangan milliy musiqiy namunalar ham uchraydi: *“Gulzorim”*, *“Qo'shchinor”*, *“Buxoro Iroqi”* (1935) shular jumlasidan. Ashrafiyning konsert ijodida Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan *“Bayot II”*ning ohangi, ladi, ritmoformulasi va usuli, intonatsion rivojlanishini chiroyli hamda o'rinni qo'llanilishi [Qarang: 5] kompozitorning bolaligidan maqomlarga bo'lgan muhabbatini ifodalaydi.

Muxtor Ashrafiyning ijodiy asarlari orasida mumtoz shoirlarga ehtirom ila yaratilgan Alisher Navoiyning *“Sab'ai sayyor”* dostoni asosidagi *“Dilorom”*, Zokirjon Furqatga bag'ishlangan *“Shoir qalbi”* operalari, Sadridin Ayniy xotirasiga bag'ishlangan *“Temurmaliq”* simfonik poema-rapsodiyasi, Abulqosim Firdavsiyning *“Shohnoma”*si asosida yozilgan *“Rustam haqida doston”* epik-oratoriyasi, Shayxzoda so'ziga *“O'zbekiston”* kantatasi kabi yirik shaklli asarlari uning mumtoz she'riyatga befarq bo'lmaganligini anglatadi. Mazkur asarlarning har biri alohida ilmiy tadqiq etishga arziydi. Hazrati Navoiyning *“Xamsa”*sidagi to'rtinchi dostoni bo'lgan *“Sab'ai sayyor”* asosida Komil Yashin va Muzaffar Muhammadovlar librettosiga yozilgan *“Dilorom”* operasi kompozitorning mustaqil yozgan ilk

operasi bo'lib, u 1958-yilning 5-fevralida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta opera va balet teatri jamoasi tomonidan sahnalashtirilgan.

Bu ishqiy lirik doston Bahrom va Dilorom haqidagi hikoyaning kompozitsion tuzilishi yetti hikoyadan iborat. Bu hikoyalar yetti xil qasrda haftaning yetti kunida bayon qilingan. Dunyoning turli tomonidan kelgan sayyohlar tomonidan bayon etilgan turfa hikoyalarda sevgi va vafo, do'stlik va sadoqat, himmat va saxovat, mardlik va jasurlik kabi insoniy fazilatlarini ulug'lab, an'anaviy ezgulik va yomonlik o'rtasidagi kurashni ifodalaydi. Mazkur libretto asosida kompozitor mustaqil ravishda afsonaviy romantik operani yaratdi. Opera musiqasini yozishda kompozitor o'zbek va boshqa xalqlarning musiqiy merosidan foydalanib, milliy ruhda o'zbek folklori bilan uzviy bog'liq ohangdorlik zaminida original musiqa yaratishga muvaffaq bo'ldi. Yuqorida ta'kidlanganidek, unda *“Saraxbori Oromijon”*, *“Chapandozi Navo”* kabi maqomlardan, *“Sharob”*, *“Karimqulbegi”*, *“O'lturgusi”* singari mumtoz ashulalardan unumli foydalangan. Opera jahon klassik operalar shaklida yozilgan, ya'ni ariya, arioz, qo'shiq, romans, rechitativlar, turli vokal ansambllar va xor nomerlari simfonik orkestr jo'rligida ijro etiladi. Opera 4 parda, 7 ko'rinishdan iborat.

Ashrafiy ijodida yirik shaklli asarlardan tashqari ko'plab mumtoz va o'z zamonasining shoirlari she'rlariga yozilgan qator qo'shiq va romanslari ham bo'lib, ularni XX asr vokal musiqasining bebaho durdonalari tarkibiga kiritish mumkin. Ularni jadval ko'rinishida ifodalash maqsadga muvofiq.

№	Asar nomi	Shoir	Yozilgan yil
1.	“G'unchai xandonimdan”	Fuzuliy	1935
2.	“Ey sanami Sharq”	Loxutiy	1935
3.	“Xabardor et”	Fuzuliy	1935
4.	“Kel”	Uyg'un	1944
5.	“Arzimmi yora ayting”	Uyg'un	1944
6.	“Aylar seni”	Chustiy	1944
7.	“Shim zabona ayting”	Uyg'un	1944
8.	“G'amim dildora izhor et”	Fuzuliy	1948
9.	“Jonim mening”	Navoiy	1948
10.	“Mening O'zbekistonim!”	Uyg'un	1949
11.	“Subhidam”	Uyg'un	1949
12.	“Tinchlik kabutani”	Uyg'un	1951
13.	“Kashmirda”	Furqat	1960
14.	“Vafo yaxshi”	Habibiy	1962
15.	“Mehri modar”	I.Mirzo	1963
16.	“Yo'llanim”	T.To'la	1972
17.	“Chon mebarad”	Ansoni	1975
18.	“Dilam xohad bahoni zindagiro”	M.Tursunzoda	1975
19.	“Yoshligim”	E.Vohidov	1975
20.	“Saxar bulbul hikoyat bo sabo kard”	H.Sheroziy	1975
21.	“G'ami tu doram”	H.Sheroziy	1975
22.	“Surudi arusi”	M.Tursunzoda	1975

Bular orasida she'ri XIX asr oxirida yashab ijod etgan shoir Zokirjon Furqat (1859–1909) qalamiga mansub **“Kashmirda”** romansi, ayniqsa, juda mashhur va diltortardir.

*Bir qamar siymoni ko'rdim baldai Kashmirda,  
Ko'zlari masxuru yuz jodu erur tasxirda.  
Zarra-zarra zar sochar boshig'a har kun oftob,  
Subh kelgach, kecha yotib chashmai iksirda.  
Bir ko'rib chohi zaqan Horut ila Morut ikkov,  
Chohi Bobil ichra qolmishlar bo'lak tadbirda.  
Lam'ai qiyg'och ko'zidin aning barqi nigoh,  
Tezlik javharlari qar bo'lsa har shamshirda.  
Qoshi uzra xolining asroridin bir nuqtadur,  
Surai Nun o'qudim payvasta har tafsirda.  
Forig' ermas hech kim ul dilraboning ishqidin,  
Zulfiga dilbastalig' har bir juvonu pirda.  
Aydin: “Ey, jon ofati, zulfingga bo'lmishman asir!”  
Aydi: “Bu savdoni qo'y, umring o'tar zanjirda!”  
“Nuqta lab ustida bejodur”, – dedim aydi kulib:  
“Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda”.  
Aydi: “Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?”  
Man dedim: “G'urbatda Furqat bor ekan taqdirida!”*

[7.123-b]

Bu misralar kirib bormagan qalb bo'lmasa kerak. Albatta, romans she'riy matnni to'liq qamrab olmagan, ammo uning ohangi she'rning mazmunini to'laqonli yoritib bera olgan.

Asli qo'qonlik bo'lgan Furqat dastlab Xo'jand, Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida yashab, 1891-yildan chet el sayohatiga chiqadi. Marv-Ashxobod-Boku-Botumi orqali Istanbulga boradi. Shu tariqa shoir hayoti, dunyoqarashi va ijodida chuqur iz qoldirgan vatanjudolik boshlanadi. Furqat Istanbuldan Bulg'oriya va Yunonistonga qisqa muddatli sayohat uyushtirib, Bolqon yarim orolining qator shaharlarida bo'ladi. U 1892-yil martida Istanbuldan O'rta yer dengizi oraqli Arabistonga o'tib, Makkada haj ziyoratini bajo aylab, Jidda, Madina shaharlarida bo'ladi. Makka ziyoratini

tugatgach, Furqat Bombeyga kelib, Hindistonning qator qishloq-shaharlariga sayohatlar uyushtiradi. Shoirning bu davrda yaratgan barcha asarlarida, ayniqsa, **“Kashmirda”** sof lirik g'azalida ham vatanni qo'msash mavzusi ko'zga aniq-ravshan tashlanadi. Furqat 1893-yil martida Kashmir-Tibet orqali uyg'ur o'lkasiga keladi. Yorkentda turg'un bo'lib qoladi va o'sha yerda vafot etadi.

Muxtor Ashrafiy ham Hindistondagi safaridan so'ng shoirning bu she'riga e'tibor qaratib, Kashmirda bo'lgan xotiralarining siyмосi sifatida bu go'zal g'azalga g'oyat ajib badiiy talqinlar bilan musiqqa bastalab, musiqqa va she'riyatning uzviy sintezining noyob namunasini taqdim etadi. O'zbekiton kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi, kompozitor Rustam Abdullayev Muxtor Ashrafiy tavalludining 100 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda shunday degan edi: *“Muxtor Ashrafovichni yodga olganda uning Muyassar Razzoqova tomonidan beqiyos ijro etilgan “Kashmirda” romansi haqida gapirmaslikni iloji yo'q. Men bu ajoyib asar ijrosida M.Razzoqovaga bir necha bor jo'rnavoqlik qilishga muvaffaq bo'lganman va har safar biz asarda yangi tovushlar olamini, yangi qirralarni, ruhiy yuksalishlarni his qilar edik”* [1.11-b]. Chindan ham romansning boshlanishi, cholg'u qismning birinchi taktidanoq Kashmirning butun go'zal tabiati tinglovchi tasavvurida namoyon bo'ladi. Xonandaning **“O”** deb kuylashi kuchli lirik hissiyotni paydo qilib, shoirning kechinmalariga to'laqonli olib kirib ketadi. Vokal partiyaning bu tahlidda (**“O”** bilan) boshlanishi va yakunlanishi milliy musiqaga xoslikning yorqin ifodasidir.

Muxtor Ashrafiyning ijodidagi barcha asarlar, kichik hajmli qo'shiqlardan to yirik operalargacha o'zbek millatining faxri bo'lishi bilan bir qatorda o'zga xalqlarni ham maftun etgan va musiqiy madaniyatining bir qismiga aylangan. Shuning uchun ham buyuk ijodkorning xotirasi abadiy e'zozlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев П. Масштаб личности. // Мухтор Ашрафий ва XXI asr. Ashrafiy tavalludining 100 yilligi va muzey faoliyatining 30 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-ijodiy konferensiya maqolalar to'plami. – Toshkent: 2012-y. 10-11-b.
2. Ашрафи Ф., Соломонова Т., Тёмина Е. Мухтар Ашрафи. Документальный очерк. Жизнь и творчества. – Т.: 2004 г.
3. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari (to'ldirilgan 2-nashri). – Т.: 2015-y.
4. Миронов Н. Песни Ферганы, Бухары и Хивы. – Т.: 1931 г.
5. Ташматова А. Любовь к макомам. // Мухтор Ашрафий ва XXI asr. Ashrafiy tavalludining 100 yilligi va muzey faoliyatining 30 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-ijodiy konferensiya maqolalar to'plami. – Т.: 2012-y. 113–116-b.
6. Umarova N. Asrlarga imzo qo'ygan san'at yog'dusi. // Мухтор Ашрафий ва XXI asr. M. Ashrafiy tavalludining 100 yilligi va muzey faoliyatining 30 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-ijodiy konferensiya maqolalar to'plami. – Т.: 2012-y. 66–68-b.
7. Furqat. Tanlangan asarlar. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975-y.



## MUMTOZ MUSIQA IJROCHILIGIDA SOZANDALAR ANSAMBLINING RIVOJLANISH TARIXI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, o'zbek mumtoz musiqasining asosini tashkil etuvchi sozandalar ansambli xususida fikr yuritiladi. Musiqiy cholg'ular haqidagi ilk ma'lumotlar, arxeologik topilmalar haqida ma'lumotlar beriladi. Ansambl tuzilishi hamda ijrochilikning o'ziga xos jihatlari batafsil to'xtalib, o'tmish va bugungi kun ijrochilik amaliyoti tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Sharq, Ayritom, Lukariy changzan, musiqa, cholg'u, ansambl, tanbur, dutor, g'ijjak, doyra, chang, qo'biz.

## ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ АНСАМБЛЯ МУЗЫКАНТОВ В ИСПОЛНЕНИИ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается ансамбль музыкантов, составляющий основу узбекской классической музыки. Даны первые сведения о музыкальных инструментах, сведения об археологических находках. Подробно обсуждаются специфические аспекты ансамблевой структуры и исполнения, анализируются прошлые и настоящие исполнительские практики.

**Ключевые слова:** Шарк, Айритом, Лукарий чанган, музыка, инструмент, ансамбль, танбур, дутор, гиджак, дойра, чанг, кубуз.

## HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF AN ENSEMBLE OF MUSICIANS IN THE PERFORMANCE OF CLASSICAL MUSIC

**Abstract.** This article discusses the ensemble of musicians that forms the basis of Uzbek classical music. The first information about musical instruments, information about archeological finds is given. Specific aspects of ensemble structure and performance are discussed in detail, past and present performance practices are analyzed.

**Key words:** Sharq, Ayritom, Lukariy changzan music, instrument, ensemble, tanbur, dutor, gijjak, doira, chang, kubuz.

Sharq qadim zamonlardayoq dunyo tamaddunida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan, ilm-fan yuksalgan hamda madaniyat o'chog'i sifatida ma'lum va mashhur zamin hisoblanadi. Xususan, Sharq xalqlari ma'naviy-madaniy hayotida musiqa san'ati alohida o'rin egallaydi. O'zbek xalqining ko'hna va boy musiqa madaniyati asrlar osha qudratli ma'naviyat manbai bo'lganligi o'tmish tarix zarvaraqlaridan ma'lum. Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan buyuk olimlar jahon fani, me'morchiligi, adabiyoti va san'ati rivojiga katta hissa qo'shib kelganlar. Musiqa san'ati ravnaqida ham ana shunday allomalarning ulushi katta bo'lgan. Sharq musiqa madaniyatini o'rganish, tatbiq etish bo'yicha ko'plab izlanishlar, olib borilganligi barchaga ma'lum.

O'rta Osiyo hududida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida kashf etilgan musiqaga oid topilmalar, bu yerlarda islomgacha ham yuqori darajadagi musiqiy jarayon davomiy bo'lib turganini ko'rsatadi. Milloddan avvalgi musiqa madaniyatiga oid Qadimiy Parfiya, Xorazm, Baqtriya, Sug'd, Choch (Shosh), Sharqiy Turkiston arxeologik topilmalaridan tashqari, Kushon (I–IV asrlar), Eftalitlar (VI asr o'rtalari) davlatlari va turk hoqonligi (VI–VII asrlar) davrlariga

oid topilmalar, xususan, Afrosiyob, Marv, Zartepa, Dalvarzintepa, qadimiy Xorazmdagi Qo'y qirilgan qal'a, Surxon vodiysidagi Ayritom, Xolchayon, Ashxobod yaqinidagi Nisa va boshqa yerlardan topilgan sopol haykalchalar, tosh tasvirlar, fil suyagidan yasalgan idishlar, ritonlarning tepa qismidagi bo'rtma tasvirlar bu jihatdan ibratlidir.

Musiqaga oid arxeologik topilmalar orqali musiqa va musiqa asboblari takomillashuvi jarayonini kuzatish mumkin. Masalan, V asrga mansub Toshkent yaqinidan topilgan qadimiy tasvirda sozanda ayol qo'lida ikki torli ud cholg'usini ushlab turgani tasvirlangan. VII asrga oid Panjikent devoriy suratlaridagi ud tasvirlarida esa uning tori to'rtta bo'lib, ilgak xarrak bilan bir butun va u qorin ustida, qorin katta, qopqog'ida aks-sado chiqaruvchi tuynukchalar bor, dastasi kalta, dastaning oxiridagi quloqxona nihoyasi orqaga qayirilgan, ud chalayotgan ayolning qo'lida esa mizrob bor. Ayritomda, ibodatxonaning kiraverish peshtog'iga bo'rttirib ishlangan tasvirlarda qo'shnay, nog'ora, ud, arfa kabi musiqa asboblari chalayotgan 14 sozandani, ya'ni cholg'uchilar ansamblini ko'rish mumkin. Panjikent devoriy suratlarida ham ansambl tasvirlangan, faqat bu yerda ashula, raqs va musiqa asboblari o'zaro birgalikda ansamblni tashkil qilishgan<sup>1</sup>. Biz bu kabi topilma hamda afsonalarda keltirilgan ma'lumotlardan

<sup>1</sup> Oripov Z. X–XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbaashunosligi. – Toshkent: 2017-y.13-b.

o'sha davr ijrochiligi haqida nazariy xulosalar chiqara olamiz, xolos. Bu kabi topilmalar shuni anglatadiki, bu hududlarda musiqa qadimdan kasbiy darajada rivojlangan, deyish mumkin.

Shu o'rinda ansambl atamasi haqida to'xtalib o'tsak. "**Ansambli**" fransuzcha "**Ensemble**" – birgalikda, uyg'unlik, ohangdoshlik,<sup>2</sup> ya'ni birgalikda ijro etish ma'nosini bildiradi. Ansamblning turli tarkiblari mavjud. Jumladan, vokal yoki cholg'u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi; bir guruh artistlarning bir butun badiiy jamoa holida chiqishi. Ansambl atamasi yaxshi tuzilgan va yuksak ijrosi bilan ajralib turadigan badiiy jamoalarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Cholg'ular va cholg'u ijrochiligi xususida qadimiy risolalarda ham ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Urmaviy, Marog'iy, ibn Zayla, Husayniy, Jomiy, Navoiy, Kavkabi, Changiy va Fitrat kabi allomalarning musiqaga oid risolalari so'zimizning yorqin dalilidir. Qolaversa, IX–XII asrlarda Rud, tanbur, borbat, daf, ko's, tabl, qo'biz, rubob, taburak, nay, zir, dagona, shaypur, surnay, karnay, organun, qonun, chang kabi musiqa asboblaridan keng foydalanilganligi musiqa madaniyatining nechog'lik taraqqiy etganligini ko'rsatib beradi. Bu davr musiqa madaniyati rivojlanishida turkiy, forsiy, hamda arab xalqi musiqa nomoyandalari o'zaro hamkorlik qilganliklari tarixiy manbalarda o'z aksini topgan. Xususan, shoir Manuchehriy Dog'moniy o'zining quyidagi baytida X–XI asrlarda musiqa san'ati bilan shug'ullangan cholg'uchi va bastakorlarning nomlarini tilga oladi.

**Az Xuroson Bushuaybu Bo'zar on turki Keshiy, V-on Saburiy porsiy v-on Lukariy changzan.**

Ya'ni Xurosondan Bushuaybu va Bo'zar, Keshlik turk va fors Saburiy hamda changchi Lukariylar haqida gapirib o'tilgan<sup>3</sup>.

XV–XVII asrlarga kelib Hirot, Buxoro, Samarqand vohalarida madaniyat ravnaqi tobora yuksala boshlaydi. Podshoh va xon saroylariga yetuk sozanda va xonandalar jalb qilinib, musiqa sohasi jadal rivojlanib boradi. O'sha davrdagi musiqa cholg'ularining tuzilishi va ijrochilik uslubi haqida aniq fikrlar bildirish qiyin. Chunki bu davr musiqasi va ijrochiligi xususida faqatgina yozma manbalar orqali nazariy ma'lumotlar olish mumkin. Amaliy tomoni esa qorong'iligicha qolaveradi.

XV–XVII asrlarga oid Hirot, Buxoro va Samarqand miniatyura maktablari vakillarining kitobiy mo'jaz tasvirlari asosida ansambl ijrochiligi bilan bog'liq muayyan vaziyat va joylar, o'sha davrlarda ijro etilgan musiqa janrlari haqida ham ma'lum tasavvur hosil qilish mumkin. Masalan: karnay, nog'ora va dovullar harbiy yurishlar, janrlar, ov jarayonlari, shuningdek, xalq sayllari, ommaviy marosim va bayram tantanalarida chalingan bo'lsa, tanbur, rubob, g'ijjak, ud, nay, chang-arfa kabi cholg'ularning nozik nolasi saroylardagi

ziyofatlarda, oshiqlarning xonaqohlardagi nafis yig'inlarida, kibarlar majlislarida, do'stlar davrasida yangragan<sup>4</sup>.

Xuddi shunday Kamoliddin Behzod tomonidan A.Navoiy asarlariga ishlangan miniatyuralar tasvirida daf, nay, ud va chang cholg'ularini ko'rish mumkin. Bu tasvirlar bizga cholg'ular tuzilishi bilan birgalikda ijrochilik masalalarida ham kengroq tasavvur uyg'otadi. Ya'ni cholg'ular ijrochiligida yakka va jamoa bo'lib ijro qilish uslublari qadimdan bor bo'lib, hozirgacha yetib kelmoqda.

XVIII–XIX asrlarga kelib Buxoro, Xiva, Qo'qon xonlik va amirliklarida madaniy hayot gullab-yashnaydi. Xususan, Buxoro amirligida yetuk sozanda va hofizlarning samarali ijodi o'laroq "Shashmaqom" uzil-kesil shakllanadi. Tarixiy manbalardan bizga bir qator Buxoro Mug'anniylari – Hofizi Kalon, Habib Udiy, Hofiz Xoja Go'yanda, Hasanali Hofiz, Soleh Setoriy, Tora Hofiz, Shahin Buxoriy, Usta To'la, Islimxon Hofiz, Zuhridin Burhon Tanburiy, Sulton Hakim Mavrigixon, Mahdumi Xandon, Yusuf Mavlud Dutori, Xo'ja Navro'z Tanburiy, Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'ani<sup>5</sup> kabi ko'plab sozanda va hofizlarning nomlari yetib kelgan. Bizga ma'lumki, ota Jalol amir saroyida Shashmaqomning puxta bilmdoni, yetuk hofizi bo'lgan hamda Shashmaqomchilar guruhiga rahbarlik qilgan. Ota G'iyos esa mohir tanburchi bo'lib sozandalar ansamblini boshqargan. Amir saroyida ansambl ijrosida Shashmaqomning cholg'u qismlaridan chalinar, keyin Nasr qismiga o'tib, salobatli asarlar ijro qilinadi va birin-ketin yengillashib, oxirida o'ynoqi ufarlar ijro qilingan.

XX asrning 40–50-yillaridan boshlab, Toshkent Davlat Konservatoriyasi qoshida cholg'ularni o'rganish va takomillashtirish maqsadida, A.I.Petrosyans boshchiligidagi eksperimental laboratoriya tashkil etilib, unda o'zbek xalq cholg'ulari qayta ishlay boshlandi. O'zbek milliy cholg'ulari xromatik tovush qatoriga moslandi hamda bu Ovroqpa musiqasi ijrochiligiga moslanib, milliycha nola, qochilirimlar, ohanglarni ishlatish qat'iy man etildi. Bu esa milliy ijrochilikdagi sozlarning parda tuzilishini yo'qolib borishiga sabab bo'ldi.

XX asrning allomalaridan biri Abdurauf Fitrat ham o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida cholg'ular haqida ma'lumotlar berib, ansambl ijrochiligi xususida teran fikrlarni berib o'tadi: "*Bizning bu kungi musiqa ustozlarimiz cholg'ularning bir-biriga munosabati to'g'risida ham katta yanglishiliqlar ko'rsatdilar. Bir tanbur bilan bir dutor topilg'och, darhol bir g'ijjak bilan bir chang qo'shadilar. Holbuki, bir g'ijjak tovushi ikki tanburning tovushini yeb qo'yadi. Birgina tanburni bir g'ijjak bilan bir changga topshirish u bechorani bo'g'ib o'ldirishdan boshqa narsa emasdir. Bizning burung'i ustodlar masalani butunlay boshqacha qo'yg'alar:*

1. Uch tanbur, bir rubob, bir dutor, bir g'ijjak, bir balabon, bir qo'shnay, bir chang, bir doyra;
2. Ikki tanbur, bir qubuz, bir dutor, bir nay, bir doyra;
3. Ikki tanbur, bir qubuz, bir doyra (dutor ham qo'shilsa bo'ladi);
4. Hech bo'lmaganda bir tanbur, bir dutor, bir doyra.

<sup>2</sup> Akbarov. Musiqqa lug'ati. – Toshkent: 1986-y. 7-b.

<sup>3</sup> Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi (1-kitob). – T.: 1965-y. 86-b.

<sup>4</sup> Ibrohimov O. "Amir Temur va musiqa". Maqolasidan.

<sup>5</sup> To'rayev F.J. Buxoro mug'anniylari. – T.: 2009-y. 248–250-b.

*Burung'i ustodlar shu, yo shunga yaqin bir tartib bilan musiqa chalg'onlar. Musiqamizning katta kamchiliklaridan bittasi uning tarqoqligidir. Musiqamizda birlik yo'q. Bir kuy Xivada boshqa, Toshkentda boshqacha chalinadir. Hozirgi texnikumlarimiz ham shu chizig'dan chiqolmay yuradilar*<sup>6</sup>.

Yuqoridagi fikrlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Ansambl ijrosida sozandalar o'zaro ohang mutanosibligini his qilgan holda ijroga yondashishlari asosiy vazifadir. Bunda sozandalardan shakl va ijro mohiyatini tushinish, uslublarni ajrata olish (yakka ijro va jamoaviy ijro), badiiy mazmuni idrok qilish talab qilinadi. Ansambl ijrosida har bir sozning o'z o'rnini bor va buni eshituvchiga yetkaza olish sozandalardan alohida mahorat talab etadi. Ya'ni ijroda doyra ham, chang ham, dutor va tanbur ham bir xil balandlikda eshutilishi asosiy masaladir. Zero, sozlarning ijrodagi tovush balandligi turlicha bo'lib, bunda yuqorida ta'kidlanganidek, ijrochilardan va ansambl rahbaridan yetuk did hamda mahorat talab etiladi. O'zbek milliy ansamblarining o'ziga xos jihatlardan biri shundaki, ansambl orkestrlarga o'xshab dirijyor yo'q. Bu esa ijro davomida sozandalardan yanda mas'uliyat hamda bir-birini his qilib ijro qilishni talab qiladi.

XX asr boshlariga kelib, xalqimizning musiqa san'atiga bo'lgan qarashlari ham tobora ijobiy tomonga o'zgarib bordi. Turli hududlarda badiiy jamoalar tuzilib, xalq orasida tez-tez konsert dasturlari qo'yila boshlandi. 30–50-yillarda musiqa sohasi keskin rivojlandi va voha ahlining zabardast, o'ta didli musiqa ilmining o'ziga xos namoyandalari o'z faoliyatlarini boshlaydi. Bu fikrimizga, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, musiqa ustasi, mohir xalq sozandasi, tashkilotchi va murabbiy usta Ro'zimatxon Isaboyev (Namangan 1885–1964) tanburchini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Ular tuzgan ansambl tarkibida: Inomjon, Bahridin, Sharif hoji g'ijjakchilar, Mallavoy changchi, Ergashvoy tanburchi, Toshmirza surnaychi kabi sozandalar faoliyat olib borishgan. O'z o'rnida vohaviy maktablarning musiqiy ta'limini izchil bir yo'lga qo'yish borasida ijodiy ishlar barpo etila bordi.

1919-yilda To'xtasin Jalilov boshchiligida xalq cholg'ulari ansambl tashkil qilinib, 1923-yilda Moskva shahrida o'tkazilgan butun Rossiya qishloq xo'jalik savdo ko'rgazmasida ishtirok etib muvaffaqiyat bilan qaytishgan. Shundan so'ng yigirma to'rt nafardan iborat havaskorlik to'garak ijro dastasi o'z faoliyatini boshlaydi. 1921-yilda Abdurauf Fitratning tashabbusi bilan "Sharq musiqa maktabi" ochiladi. Aynan shu maktabda o'z davrining yetuk ustozlari jam bo'lib, talabalarga tahsil berishadi. Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'ani, Domla Halim, Hoji Abdulaziz, V.Uspenskiy, Levicha Hofiz kabilar shular jumlasidan. Xuddi shu maktab tarbiyalanuvchilari o'zbek mumtoz musiqasining bugungi kungacha saqlanib qolishida muhim ahamiyat kasb etdilar.

<sup>6</sup> Abdurauf Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T.: 1993-y. 35-b

<sup>7</sup> Azizboyev S. Ansambl sinfi. – T.: 2018-y. 8-b.

<sup>8</sup> Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. – T.: 2005-y. 64-b.

1927-yil O'zbekiston radiosi qoshida xalq cholg'ulari ansambl tashkil etiladi. Bu ansambl mumtoz musiqa sohasining mohir sozandalar majmuasi edi. Ansambl ijrochilari: naychilar Dadaali Soatqulov, Saydali Kalonov, qo'shnaychi Xayrulla Ubaydullayev, changchilar Nig'matjon Do'stmuhammedov, Faxriddin Sodiqov, dutorchilar Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar Rixsi Rajabiy, Mahsudxo'ja Yusupov, g'ijjakchilar Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, doyrachi Dadaxo'ja Sottixo'jayevlardan iborat edi<sup>7</sup>. Ularning asosiy maqsadi, mumtoz musiqa merosi namunalari ijro etish hamda magnit tasmlarga muhrlash edi.

1959-yilda maqomchilar ansambl tashkil etildi. Unga Yunus Rajabiy rahbar qilib tayinlandi. 1972-yilda Toshkent davlat konservatoriyasi huzurida "Sharq musiqasi" kafedrasini tashkil etildi. An'anaviy ijrochilikdan tahsil berish uchun Faxriddin Sodiqov taklif qilindi. U talabalarga chang, dutor, g'ijjak, qo'shnay cholg'ularidan tahsil bera boshladi. Ayni paytda talabalar maqom ansambliga ham rahbarlik qildi. Talabalar bilan birgalikda Shashmaqomning Mushkilot bo'limidan ko'plab maqom kuylarini ijro etishdi. Faxriddin Sodiqov ansambl ijrochiligida yangicha uslubni olib kirdi. Buni T.S.Vizgo shunday ta'riflaydi: *"Bu yangilikka tembrlar rango-rang taqqoslanishlari orqali erishiladi. Koloritni sezishda tug'ma iste'dod egasi F.Sodiqov monodik maqom ijrochiligi an'anasi ichida go'yo partituraning yozib chiqqandek"*<sup>8</sup>.

F.Sodiqov ansambl ijrochiligida yangi davrni olib kirdi hamda bu uslub asosida yangi bir ansambl ijrochilari yetishib chiqdi. Aynan shu maktab tarbiyalanuvchilari respublika bo'ylab ustoz-shogird an'anasini davom ettirishdi. Hozirgi kunda ham O'zbek milliy musiqa san'ati institutida Faxriddin Sodiqov nomida ustozlardan tashkil qilingan maqomchilar ansambl o'z faoliyatini olib bormoqda. F.Sodiqovdan keyin uning yaqin shogirdlaridan biri Abdurahim Hamidov talabalarga ansambl dan tahsil berdi. Abdurahim Hamidov rahbarligida talabalar ansambl Shashmaqomning Mushkilot bo'limidagi barcha maqom va xalq kuylarini magnit tasmlariga muhrlashdi. Bugungi kunda talabalarga ansambl darslari aynan mana shu yozuvlar orqali olib borilmoqda.

Mustaqillikdan keyin milliy musiqa hamda maqom san'atiga bo'lgan e'tibor yil sayin oshib bordi. Turli xil badiiy jamoalar tuzildi, musiqa va san'at maktablarida milliy ichrochilikka bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Bugungi kunda prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev xalqning ma'naviyatini oshirish masalasini birinchi o'ringa qo'ydi va bunga milliy mumtoz musiqa va maqomlarimiz bilan erishish mumkinligini ko'rsatib berdi. Prezidentimiz tomonidan maqom san'ati va milliy musiqaga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Maqomni rivojlantirish, xalq orasida targ'ib qilish va o'rgatish hamda kelajak avlodga yetqazish masalalari qo'yildi. Ular tomonidan 2017-yil 17-noyabrgadi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Maqom markazi tuzildi va uning negizida maqom ansambl tashkil qilindi. Har bir viloyatda namunali maqom ansamblari tashkil etilib, bugungi kunda faoliyat yuritib kelmoqda.

## MUSIQIY TERAPIYA

**Annotatsiya.** Maqolada, musiqa insonning kundalik hayoti, turmush tarzida nechog'lik ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z ketadi. Musiqaning turlari bor. Mana shu turlarning inson salomatligiga qanday ta'siri bor? Musiqiy terapiyaning mohiyati nimalardan iborat? Mana shu savol atrofida maqola mavzusi yoritib beriladi.

**Калит сўзлар:** musiqa, mumtoz kuy, ashula, shovqinli musiqa, tibbiyot, shifobaxsh, salomatlik.

## МУЗЫКАЛЬНАЯ ТЕРАПИЯ

**Аннотация.** В статье говорится о том, насколько важна музыка в повседневной жизни и образе жизни человека. Есть виды музыки. Как эти виды влияют на здоровье человека? В чем суть музыкальной терапии? Это тема статьи.

**Ключевые слова:** музыка, классическая мелодия, пение, шумная музыка, медицина, целительство, здоровье.

## MUSIC THERAPY

**Abstract.** The article talks about how important music is in a person's daily life and lifestyle. There are types of music. How do these species affect human health? What is the essence of music therapy? This is the topic of the article.

**Key words:** music, classical melody, singing, noisy music, medicine, healing, health.



Insonning ekologik noxush omillardan o'zini himoyalashida musiqaning o'zni alohida. Musiqani tanlab eshitgan kishi miriqib dam oladi. Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asaridagi "Og'riqni qoldirish" faslida yozilishicha, tibbiy vositalar qatorida yoqimli ohang, ayniqsa, uyqu keltiradigan musiqalar bosh miya uchun foydali bo'lib, tanadagi og'riqlarni davolashga ham qodir ekan. Ulug' olim o'z asaridagi "Uyqu va bedorlik" tahliliga bag'ishlangan qismida musiqaning umidsizlik va tushkunlik girdobida qolgan xastalarni tinchlantiruvchi vosita ekanligini ma'lum qiladi. Tabobat sultoni "Tib qonunlari"da mumtoz musiqa foydasi haqida atroflicha fikr bildirgan.

Shovqinli musiqalar odamning miyasiga go'yoki tosh bilan urgandek ta'sir etib, oxir-oqibat kasalliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, shovqin tufayli yurak ishlash maromi buzilib, urishi tezlashishi, qon bosimi ortishi va nafas olish buzilishi mumkin. Shovqinning ta'siri natijasida ko'zning ko'rish qobiliyati, ranglarni ajratish xususiyati bir qadar pasayadi. Shovqin-suron bolalar, qolaversa, qariyalar organizmiga katta ziyon etkazadi. Shuningdek, yoshlarda darsni o'zlashtirish, biror narsani eslab qolish qobiliyatining zaiflashuviga ham olib keladi.

Restoran, choyxona, qahvaxona va shunga o'xshash joylarda o'tkaziladigan o'yin-kulgi, ko'ngil-ochar tadbirlarda musiqachilar maxsus uskunalar yordamida tovushni o'ta kuchaytirib yuborishadi. Hosil bo'lgan shovqin-suronga bardosh berish ko'pchilikning sog'lig'iga zarar yetkazadi. Hatto, cholg'u asboblarni chaluvchilarning o'zi uchun ham bu holat xavfli sanaladi. Ularning ko'pchiligida eshitishning pog'ona kuchi yuqorilashib, oxir-oqibat qulog'i og'ir yoki kar bo'lib qolish holatlari ham uchraydi. Musiqa va ashulaning baland qo'yilishi umuman tinglovchiga

huzur-xalovat bag'ishlamaydi. Aksincha uning asabiga tegadi, sog'lig'ini yomonlashtiradi.

Stress omillar, shuningdek, kuchli musiqaviy stress organizm muvozanatini buzadi. Masalan, kuchli shovqin aqliy mehnat davomida diqqat-e'tiborni bir joyga yig'ish, o'qish-yozish yoki biror narsani fahmlab olishga to'sqinlik qiladi. Bunda kishi aniq fikr yurita olmaydi. O'qigan narsasining mohiyatini tushunmaydi, tez asabiylashadi. Shuning uchun ham o'quv maskanlari, kutubxonalar, ilmiy-tekshirish institutlari, yana boshqa ishxonalar shovqin-suron manbalaridan uzoqroqda bo'lishi hamda yashil daraxtzorlar quchog'ida bo'lishi shovqin stressidan himoyalashda maqsadga muvofiqdir.

Inson organizmidagi barcha tizim va a'zolarining me'yoriy ishlashi uchun dastavval undagi ichki muhit (gomeostaz) barqaror bo'lishi kerak. Gomeostaz vujudagi qon va limfalarining tarkibi va miqdori bilan belgilanadi. Musiqaviy stress omillari immun tizimiga, oksidlanish va qaytarilish xususiyatlarini belgilovchi fermentlar miqdori va faolligiga, aminokislotalar, yog' kislotalari, shakar hamda gormonlar va boshqa biologik faol moddalar tabiatiga kuchli ta'sir etadi. Shu boisdan yuzaga keladigan o'zgarishlar esa organizmdagi barcha a'zo va tizimlar faoliyati bilan bog'liq noxush holatlarni keltirib chiqaradi.

Musiqaning tinchlantiruvchi shifobaxsh xususiyatlari azaldan ma'lum. G'azabni musiqa sadolari bilan davolashgan. Insonning shaxs sifatida shakllanishiga musiqaning ijobiy ta'sir qilishini o'z vaqtida Aristotel ham qayd qilgan. Musiqaning shifobaxsh xususiyatlari, uning qanday ritmga ega ekanligiga bog'liq. Masalan, milliy mumtoz kuylar yangraganda, ruhiyatga orombaxsh ta'sir ko'rsatadi. Betxoven yoki Motsartning jonga oro beruvchi kuylari inson tanasi

biologik ritmlarga juda yaqin bo'lib, ijro etilganida u bilan uyg'unlashib ketadi.

O'zbek sozandalarining mumtoz kuylari, ayniqsa, "Ushshoq" singari qadimiy kuy nolalari eshitilganida bosh miya yarim sharlari po'stlog'idan yozib olinadigan biopotensiallar (elektroensefalogramma) yuqori chastotali qo'zg'atuvchi ritmlar ( $\beta$ -ritm)dan tinch-osoyshta holat ritmi ( $\alpha$ -ritm)ga aylanar ekan. Qachonki, bosh miyadagi nerv markazlari faoliyatida bunday ritmlar ko'paysa, kishi jahlidan tushadi, tinchlanadi. Mashhur olim, akademik Bexterev musiqa odamga jismoniy tetiklik va kuch-quvvat bag'ishlashini hamda qon aylanish jarayonlariga ijobiy ta'sir etishni alohida ta'kidlagan. Taniqli jarroh, akademik Petrovskiy og'ir va murakkab amaliyotlar payti yaxshi musiqalarni eshitib ishlagan.

Turli xil rok musiqalar, tez chalinadigan kuylar, ayniqsa, ular baland ovozda yangraganda tanadagi barcha me'yoriy ritmlarni buzadi, natijada, hayotiy jarayonlar o'z izmidan chiqib ketadi. Oxir-oqibat kimningdir boshi og'riydi, kimningdir qon bosimi ko'tariladi yoki yurak urishi tezlashadi. Ayniqsa, katta yoshdagilarda bu narsa tez-tez ro'y berib turadi. Kuchli shovqin-suronning hazm a'zolari faoliyatiga salbiy ta'siri ma'lum. Dastavval shovqin tufayli hazm qilish faoliyati buziladi, qorin dam bo'ladi, jig'ildon qaynaydi. Oshqozon-ichak tizimining me'yoriy harakat funksiyasi shovqin tufayli izdan chiqib, ich ketishi yoki qotishi mumkin. Bunday o'zgarishlar hazm a'zolari faoliyatini boshqarib boradigan asab markazlari ishida musiqaviy stress ta'sirida odatdagi nerv jarayonlari qo'zg'alish va tormozlanishi, ularning bir-biri bilan almashinuv faoliyati buzilishi tufayli ro'y beradi.

Inson salomatligiga musiqaning salbiy va ijobiy ta'sirini hisobga olgan qadimgi tabiblar har bir bemorning mizojiga qarab musiqalarni tavsiya etganlar. Masalan, ingichka tovushlar ruhiyatga keskinlik, past va yo'g'on tovushlar esa xotirjamlik baxsh etilishi aniqlangan. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, yurak-qon tomir tizimi, oshqozon-ichak yo'llari yallig'lanishi, nafas a'zolari xastaliklari, surunkali bronxitlar, hatto, peshob yo'li dardlarida musiqa terapiya samarali ta'sir ko'rsatadi. Chiroyli kuy tinglaganda kishi kayfiyati ko'tariladi. Bemor odamning musiqa ta'sirida sog'ayishi ham ko'pchilikka ma'lum.

Lekin miyani rivojlantirishda musiqaning ahamiyatini aksariyatimiz eshitmaganmiz.

Bu qanday ro'y beradi? Fransiya va Portugaliya olimlari hamkorligida xuddi shu xususda o'tkazilgan tadqiqot natijalari ilm ahlini lol qoldirdi. Endilikda psixologlar bog'cha va maktablardagi musiqiy ta'lim qo'shimcha tarzda emas, balki majburiy ravishda olib borilishi kerak, degan fikrni aytishmoqda. Bir guruh olimlar to'qqiz oy mobaynida musiqa va rasm darslarining bola tafakkuriga qay darajada ta'sir qilishini kuzatdilar. Tajribada umuman musiqa bilan shug'ullanmagan 8-9 yoshdagi o'ttiz ikki nafar bola ishtirok etdi. Nevropatolog, psixolog va pedagoglar bu bolalarning o'qish qobiliyati, nutq idroki, yurish-turishi va bosh miyasining rivojlanishini tahlil qildilar. "Bolalarning musiqaga bo'lgan qiziqishi tug'mami yoki bu qiziqish musiqa darsining ta'sirida yuzaga kelganmi?" Olimlar asosan shu ikki masalaga e'tiborni qaratishdi. Olti oy o'tgach, natijalar kutilganidan ham ortiq bo'lib chiqdi. Qisqa muddat ichida musiqa darslarida doimiy qatnashgan o'ttiz ikkita bola xuddi shu sohada boshqa tengqurlarini ortda qoldirishdi. Demak, musiqa darslari miya taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish barobarida, bolalarning fe'l-atvori yaxshilanishiga ham hissa qo'shar ekan.

Xullas, tajribada ishtirok etgan bolalar o'qishda, talaffuzda, dars mavzularini eslab qolishda va musiqa bilimini o'zlashtirishda yuqori natijaga erishdilar. Ruhshunos olimlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'ldiki, yaxshi musiqa insonning asab tizimini muloyim qiladi, ovqat hazm qilish a'zolari ishini me'yorga soladi, qon aylanishini tezlashtiradi. Shuningdek, ajoyib musiqalarni tinglash qon bosimini me'yorlashtiradi, nafas yo'llari faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, darmonsizlik, uyqusizlikni ham davolaydi. Ayniqsa, mehnat unumini oshirishda musiqaning ahamiyati muhim.

Xalq orasida faqat mumtoz musiqalar shifobaxshdir, degan tushuncha bor. Aslida esa ustoz ko'rgan yoshlar ijrosida me'yorga yetkazib aytilgan estradabop, jaz, opera, simfonik musiqalar ham ruhiyat uchun yoqimli bo'ladi. Kayfiyatingiz va ruhiyatingiz talab qilganini tinglasangiz, bunday kuylar sizga orom bag'ishlab, nafaqat noxush o'ylardan, balki xastaliklardan ham forig' etadi.

## MO'G'ULCHAI BUZRUK TALQINIGA DOIR

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, Mo'g'ulchai Buzruk sho'basining Yunus Rajabiy hamda Ari Boboxonov nota to'plamlaridan o'rin olgan namunalari turli ijrochilik talqinlari kesimida qiyosiy tahlil qilinadi. Shu asosda sho'baning ikki namunasi qiyosiy tahlilida yuzaga kelgan umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, muayyan natijalar qayd qilinadi.

**Kalit so'zlar:** daromad, miyonxat, dunasr, avj, furovard, namud, Uzzol namudi, Muxayyari Chorgoh namudi, xat, nimxat.

## ОБ ИНТЕРПРЕТАЦИИ МОГУЛЧАИ БУЗРУК

**Аннотация.** В данной статье сделан сопоставительный анализ различных исполнительных интерпретаций из нотных сборников шуйбе Могулчай Бузрук Юнуса Раджаби и Ари Бабаханова. На основе этого сопоставительного анализа определены общие и отличительные черты шуйбе.

**Ключевые слова:** даромад, миёнхат, дунаسر, аудж, фурувард, намуд, намуди Уззол, намуди Мухайяри Чоргоҳ, хат, нимхат.

## ABOUT THE INTERPRETATION OF THE MOGULCHAI BUZRUK

**Abstract.** This article makes a comparative analysis of various performance interpretations from the musical collections of shu'be Mogulchai Buzruk Yunus Radjabi and Ari Babakhanov. Based on this comparative analysis, the common and distinctive features of shu'be were determined.

**Key words:** daromad, miyonhat, dunasr, audzh, furovard, namud, namudi Uzzol, namudi Mukhayari Chorgoh, khat, nimkhat.

Xalqimizning bebaho milliy-ma'naviy boyligi bo'lgan mumtoz maqomlar asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga "ustoz-shogird" an'anasi o'laroq meros o'tib, bugungi kunga qadar yetib keldi. Shuningdek, ma'lumki, XX asrga kelib maqom turkumlari nota tizimi vositasida ham bir necha bor yozib olingan bo'lib, ular bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qiladi. Bunga, masalan, Buxoro Shashmaqomining turli tuzuvchi-mualliflar tomonidan nashr ettirilgan nota to'plamlari yaqqol misoldir.

Bu kabi holatlar, odatda, maqomlarda muhim o'rin tutib kelayotgan ijrochilik talqinlari, aytim yo'llarida esa bir ashulani aruzning har xil vaznli bahrlari bilan "o'qilgan" g'azallar asosida notaga olinishi tufayli yuzaga kelgani ayon. Shularni inobatga olgan holda Shashmaqom tarkibidagi Buzruk maqomi ikkinchi guruh sho'baloriga mansub Mo'g'ulchai Buzrukni ikki xil nota nashri – akademik Yunus Rajabiy tomonidan 1966-yili chop ettirilgan "Shashmaqom" 1-jildi hamda Ari Boboxonov tomonidan 2010-yilda Germaniyada nashr ettirilgan "Der Shashmaqam aus Buchara" nota to'plamlaridagi namunalari misolida solishtirib ko'ramiz.

Ma'lumki, "Mo'g'ulchalar ko'proq Saraxbor sho'baloriga nazira sifatida ishlangan ashula yo'llaridir" [1.89]. Biroq Saraxborlar ijro sur'ati va mazmun jihatidan vazmin hamda salobatli ruhda namoyon bo'lsa, Mo'g'ulchalar nisbatan jadalligi va ma'lum qadar tantanavorligi bilan ajralib turadi. Bu o'rinda Mo'g'ulchalarda qo'llangan yorqin sinkopa xususiyatli doyra usuli ahamiyatli bo'lib, u Savt usulining ma'lum variantidir:



Y.Rajabiy notaga olgan Mo'g'ulchai Buzruk shu xarakterga mos holda Munisning *ramali musammani mahzuf* bahridagi "Aylagil" radifli g'azali bilan aytiladi. Bunda g'azalning yetti baytiga muvofiq kelgan sho'baning yetti xati "d" asosiy tayanch pardasidan tuzilgan mukammal tovushqator negizida "o'qiladi".

Mazkur tovushlar uyushmasi Y.Rajabiy nota yozuvidagi Buzruk maqomi lad asosining tovushqator ko'rinishidagi ifodasidir. Lekin A.Boboxonov qalamiga mansub nota to'plamida Mo'g'ulchai Buzruk bir pog'ona pastdan, ya'ni "c" tayanch tovushidan boshlanadi.

O'zaro farqli holatlar Mo'g'ulchai Buzrukning shakliy tuzilmasida ham ko'zga tashlanadi. Inchunin, Y.Rajabiy nota to'plamida ushbu asar to'rt taktli cholg'u muqaddimasi bilan boshlansa, A.Boboxonov nota yozuvida cholg'u muqaddimasi berilmagan. Umuman olganda, mazkur to'plamdagi boshqa ashulalarda ham cholg'u muqaddimasi bilan bir qatorda ashulalar orasidagi cholg'u qismlari ham kuzatilmaydi.

Har ikki namunaning daromadi asosida Saraxbori Buzrukda bayon etilgan kuy mavzusini ajratib olish qiyin emas. Zero, sakkiz taktdan iborat bo'lgan daromad kuy tuzilmasining oktava oralig'idagi rivoj yo'nalishi hamda yuqorilama va pastlama ohang harakatlari o'zaro o'xshashdir.

Keyingi ikki xat Y.Rajabiy to'plamida miyonxatga to'g'ri keladi. Ikki she'riy baytni o'z ichiga olgan bu miyonxat davomida "g1" tovushi yarim tayanch parda vazifasida keladi. Kuy yo'nalishi jihatidan daromadga nisbatan katta o'zgarish kuzatilmaydi. Uchinchi xat davomida esa bifunksional xususiyat yuzaga chiqadiki, bunda miyonxat va dunasr sifatlari o'zaro payvandlanadi.

A.Boboxonov nota to'plamidagi miyonxat kuy


jihatidan Y.Rajabiynikidek bo'lsa-da, lekin she'riy matni g'azal matla'sining takrori – daromad she'riy matni bilan bir xil. Undan keyin keladigan furovard qismi esa A.Boboxonov to'plami uchun xarakterlidir. Odatda, ashulaning yakunida keladigan furovard bu joyga qanday qilib tushib qolgani bizga qorong'i. Uning kuy tuzilmasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u o'zidan keyin kelgan xatdan yuqori pardalarda berilgan. She'riy matni esa g'azalning ikkinchi xatiga mos keladi.

Y.Rajabiy yozuvidagi Mo'g'ulchai Buzrukning avj qismi Uzzol namudi bilan boshlanadi. Bunda kuy “d2” tovushiga tayangan holda harakatlanib, kvarta-kvinta miqyosidagi ohang sakramalarini namoyon etadi. Shu asnoda yangi sifatlar ila yanada yorqin ko'rinish kasb etadi.

A.Boboxonov to'plamida ham avjning boshlanishi o'laroq Uzzol namudi ishlatilgan. Ammo shunisi e'tiborliki, Y.Rajabiy to'plamida kelgan Uzzol namudi Talqini Uzzol daromadiga, A.Boboxonov to'plamidagi Namudi Uzzol esa ko'proq Nasri Uzzol daromadiga asosiy manba sifatida tayanadi.

Namudi Uzzolning kvarta yuqoridagi ko'rinishi bo'lgan navbatdagi xat, Y.Rajabiy to'plamiga muvofiq, “g2” pardasiga tayanadi va yakunida hanglar vositasida yana “d2” tovushida muvaqqat to'xtaydi. A.Boboxonov to'plamida “Miyonxati Namudi Uzzol” deya maxsus belgilangan mazkur xat, dastlabki quyi tayanchga muvofiq holda, bir ton pastda (c2) keladi.

Namudi Uzzolning mazkur xatda “Miyonxati Namudi Uzzol” bo'lib kelishida bir jihatga e'tiborni qaratishimiz lozim ko'rinishi. Namudi Uzzolning kuy tuzilmasiga diqqat qiladigan bo'lsak, unda ikkita muhim ohang, o'ziga xos muhim unurni ajratib olishimiz mumkin. Nota qo'shish bular kuy tuzilmasining boshlang'ich qismida kelgan pastga kvarta ohang sakrash hamda o'rta qismida kelgan yuqoriga seksta (ba'zan kvinta) ohang sakrashidir. Yanada tushunarliroq bo'lishi uchun Buzruk maqomidan Nasri Uzzolning boshlang'ich kuy tuzilmasidagi Namudi Uzzolning nota misolini



keltiramiz:

Shu ikki jihat orqali biror ashula davomida namudi Uzzolni ajratib olishimiz oson bo'ladi. Bunda eng muhimi, “uzzol” atamasining tabiatiga mos keladigani pastga kvarta sakrash hisoblanadi, chunki “uzzol” iborasi “pastga tushish”, “sakrash” ma'nolarida ishlatiladi [2.108].

Endi Mo'g'ulchai Buzrukning to'rtinchi xatida kelgan

namudi Uzzolni ko'radigan bo'lsak, unda ana shu birinchi, ya'ni asosiy jihat yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Shunday bo'lsa-da, mazkur xatda ikkinchi jihat orqali namudi Uzzolni ajratib olish qiyin bo'lmaydi.

Keyingi xat – namudi Muxayyari Chorgohdir. Muxayyari Chorgoh namudi Dugoh maqomining Nasri Chorgoh sho'basidan olingan bo'lib, Mo'g'ulchai Buzrukda namudi Uzzoldan so'ng – beshinchi xatda keladi. Mazkur holat Shashmaqom sho'balari uchun mantiqiy bog'lanma sifatida xoski, shu boisdan ham “*Namudi Uzzol bilan Namudi Muxayyari Chorgoh maqomlarda ko'pincha birin-ketin keladi*” [2.185].

A.Boboxonov to'plamida esa, Muxayyari Chorgoh namud emas, avj deb berilgan. Maqomshunos olim Is'hoq Rajabov ta'rifiga ko'ra “*namudlar ko'pincha maqom sho'balarning boshlanishidagi kuy jumllaridan olinadi va ular boshqa sho'balarning avji sifatida foydalaniladi*” [2.182-183]. Demak, namudlar maqom qismi yoki ashula yo'llarining boshlang'ich kuy jumllaridan olinib, ijrodagi ashulaning usuli va parda-ohangi mazmuniga moslashtirilgan holda qo'llanilishi ko'zda tutiladi. Avjlar biroz boshqacharoq, “*ular ma'lum sho'balardan olinmagan, balki bastakorlik tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan*” [2.183].

Muxayyari Chorgohning ohangi Nasri Chorgoh sho'basidan olinganini inobatga olsak, uni avj o'rnida kelgan namud deyilishi maqsadga muvofiq ko'rinishi. Mazkur xatda tayanch pog'ona “f2” (ikkinchi to'plamda “e2”)ga o'zgaradi.

Navbatdagi xat – Muxayyari Chorgoh namudining kvarta yuqoridagi ko'rinishi, A.Boboxonov ta'rifiga ko'ra, namudning miyonxati. Aslida mazkur xat har ikkala namunada ham yuqori avj belgisi, binobarin, o'zaro bir xil ma'no yuklamasida namoyon bo'ladi. Shuningdek, har ikkisida ham ikkinchi nimxat tushirim qismiga tayyorlov bo'lib, avj hamda furovard o'rtasida o'ziga xos bog'lovchi ko'prik vazifasini bajaradi. Shu asnoda daromad kuy ohanglariga ulanib kelgan furovard davomida dastlabki tayanch paradaga qaytish vazifasi mantiqiy amalga oshadi.

Ushbu qiyosiy tahlillardan ham ko'rinish turibdiki, Mo'g'ulchai Buzrukning Y.Rajabiy nota namunasi bilan A.Boboxonov nota yozuvida bir qator umumiy va farqli jihatlar bor. Umumiylik, jumladan, kuy mavzui, doyra usuli, aruz bahri va qo'llangan namudlarida yaqqol sezilarlidir. Ayni vaqtda, mazkur sho'baning parda asosi, ilk kuy bayoni va rivoji jarayonida ma'lum qadar o'zgacha yondashuv va farqli holatlar borligi ham ma'lum bo'lmoqda. Bu kabi tafovutlar, ayniqsa, har ikki namunaning turlicha sifat ko'rinishiga ega lad asoslariga tayanish sabablarini aniqlash ishlari atroflicha tahlilni talab etadi. Qolaversa, bu kabi qiyosiy izlanishlar o'z salmog'i bilan alohida tadqiqot mavzusidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov O. Maqom asoslari. – Toshkent: “Turon-iqbol”, 2018-y.
2. Rajabov I. Maqomlar. – T.: “San'at”, 2006-y.
3. Shashmaqom (1-tom). Buzruk. Yozib oluvchi Yu.Rajabiy. – T.: 1966-y.
4. Der Shashmaqom aus Buchara. Notaga oluvchi A.Boboxonov. – Berlin: 2010-y.



## III BO' LIM

# SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

Oygul AXMEDOVA,  
O'zMMSI professori v.b., filologiya fanlari nomzodi

## BAKSHICHILIK SAN'ATINI TA'LIM TIZIMIDA O'QITISH MASALALARI

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda davlatimiz tomonidan baxshichilik san'atiga berilayotgan e'tibor hamda bu sohada mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan ilmiy-amaliy izlanishlar nazariy jihatdan o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** nomoddiy madaniy meros, folklor, baxshi, doston, ijrochi, urf-odat, marosim, badash.

## ВОПРОСЫ ОБУЧЕНИЯ ИСКУССТВУ БАХШИЧИЛИК В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В статье теоретически изучается внимание, уделяемое фольклорному искусству нашей страны и научно-практическим исследованиям, проводимым специалистами в этой области.

**Ключевые слова:** нематериальное культурное наследие, фольклор, бахши, дастан, исполнитель, традиция, церемония, бадаш.

## ISSUES OF TEACHING THE ART OF BAKSHICHILIK IN THE EDUCATION SYSTEM

**Abstract.** In the article the attention paid to the folklore art of our country and the scientifically – practical researches carried out by specialists in this field are theoretically studied.

**Key words:** intangible cultural heritage, folklore, bakhshi, doston, executive, tradition, ceremony, badash.



O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, yangilanib, xalq madaniyati, ma'naviyatini o'z mazmunida ifodalab kelayotgan bebaho merosimiz hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning respublikamizdagi ijodiy tashkilot xodimlari, adabiyot, san'at ahliga qarata aytgan quyidagi: *"Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi"*, – degan gaplari bevosita folklorga ham taalluqlidir [1].

Darhaqiqat, milliy qadriyatlarni hamisha qadrlash, ularni har tomonlama o'rganib, ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylantirish folklorshunoslikning ustuvor vazifalaridan biridir.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 27-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida milliy madniyatni yanada rivojlantirish

Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida" PQ-3990-son qarori ham ayni paytda baxshichilik san'atini har tomonlama zamonaviy tendensiyalarga tayangan holda tadqiq etishni belgilab bermoqda. Ushbu qarorlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, baxshichilik san'ati sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim jarayoniga o'qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, soha mutaxassislarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish, ta'lim tizimida malakali baxshilarni tarbiyalash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-sentyabrdagi "Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti faoliyatini tashkil etish



to'g'risida"gi 536-son qarorining chiqqanligi hamda institutda baxshichilik va dostonchilik ta'lim yo'nalishini ochilishi ham ayni muddaodir.

Ayni paytda baxshichilik va dostonchilik san'atining tarixi, baxshilar va dostonchilar ijodini mukammal o'rganish, bu borada fundamental tadqiqotlar olib borish, xalq og'zaki ijodi yodgorliklarini to'plash, nashr etish yuzasidan yana ko'pgina chora-tadbirlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezilmoqda. Baxshichilik va dostonchilik san'atini rivojlantirish, baxshi-shoirilar ijodining o'zbek madaniyati va san'atidagi o'rni hamda ahamiyatini yanada oshirish masalasi ham kun tartibida turibdi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi 304-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan 2018–2022-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"ning 5-6-7-8-bandlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm va Qashqadaryo, viloyatlaridagi ayrim bolalar musiqa va san'at maktablari qoshida baxshichilik va dostonchilik yo'nalishi bo'yicha ochiladigan sinflar uchun o'quv reja va dasturlar asosida o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish ham lozimligi qayd etilgan.

Darhaqiqat, qadim davrdan to bugungi kunimizgacha jonli ijro holda yashab kelayotgan epik ijod namunasi bo'lgan xalq dostonlarini, turli davrlardan epik ijodkor baxshilardan yozib olingan namuna epik matnni har tomonlama keng va bugungi kun talablari asosida o'rganish dolzarb vazifalardan biri sifatida maydonga chiqdi. Bu borada folklorshunoslarimiz olib borayotgan izlanishlar, mustaqillik davrida bu sohada erishayotgan yutuqlarimiz dunyo miqyosida kengroq targ'ib etib borilmoqda. Shu munosabat bilan sinkretik san'at bo'lmish baxshichilik xususiyatlarini o'zida jamlagan muayyan ishlar haqida to'xtalmoqchimiz.

Bugungi kunda baxshi san'atiga alohida e'tibor qaratilayotganligining nihoyatda katta ma'nosi bor. **"Baxshi"** – bu san'atkor maqomini to'la ma'nosida tiklash, rivojlantirish yangi ma'naviy yuksalishlarga sabab bo'ladi. Yangi O'zbekistonda baxshi san'atiga yangicha munosabat yuzaga keldi. O'zbek xalq dostonlarida kuy, badiiy so'z bilan uyg'un ahamiyat kasb etadi. Hatto, aytish mumkinki, kuy har bir dostonning, uning tarkibidagi har bir qo'shiqning ruhini belgilaydi. Butun asarni ilhomchi sifatida qo'llab-quvvatlab boradi. Baxshi – ham shoir, ham aktyor, ham sozanda, kuy ijodkori va ijrochisi, u o'zini eshitib turgan tinglovchilarning ruhiyatini o'zi ijro qilayotgan asar jarayonida e'tiborga olib, davradagilarning mayllarini aks ettirishga intilib, shu jarayonda badihani yuzaga keltiradi. Demak, baxshi xalq hayotini nihoyatda yaxshi biladigan, xalqning xos fazilatlarini o'zi kuylayotgan qahramonlar siymosida jonlantirayotgan katta ijodkor sifatida zo'r ahamiyat kasb etadi. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, yangi o'zbek adabiyotining paydo bo'lishi va rivojlanishida baxshilar muhim hissa qo'shganini ko'ramiz. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan shoir kabi dostonchilarning o'zlari yaratgan dostonlar, ularning qahramonlari yangi o'zbek adabiyotining taraqqiy etishiga sezilarli ta'sir etgan. Xalq hech qaysi davrda o'z san'atining so'nishiga yo'l qo'ymadi.

XX asrning 70–80-yillaridan boshlab yurtimizda ko'plab folklor-etnografik ansambllari maydonga chiqdi. Shu bilan bir qatorda bir qancha yangi baxshilar ham o'z ijodi bilan tanildi. Qodir baxshi, Shoberdi baxshi va boshqalar ijodida an'anaviy dostonlar yo'lini davom ettirish ham, o'z individualligini namoyon qilishga intilish ham baravar tarzda ko'ringanini anglash mumkin.

Baxshichilik va dostonchilik san'atini rivojlantirish hozirgi davr talablaridan biridir. Negaki, dostonlarda xalqimizning azaliy orzu-armonlari, yuksak tafakkur salohiyati, mardlik, hur fikrlik, erkinlik, bunyodkorlik, halol mehnat, iymon-e'tiqod g'oyalari ilgari surilganligi bilan ham ularning tarbiyaviy ahamiyati tobora ortib borayapti.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin ko'pgina dostonlar, xalq kitoblari ilk bor nashr ettirildi. **"Alpomish"** dostoni yaratilganligining 1000 yilligi keng nishonlanishi munosabati bilan professor T.Mirzayev bu dostonning Berdi baxshi, Po'ltan va Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li variantlarini 1999-yilda alohida kitoblar holda to'la nashr ettirdi. U folklorshunoslik amaliyotida birinchi marotaba

**"Alpomish"** dostoni Fozil Yuldosh o'g'li variantining matnini rus tiliga qilingan ilmiy-adabiy tarjimasini birgalikda akademik nashrga tayyorlab, chop ettirdi. T.Mirzayev va Z.Husainova xalq baxshisi Rahmatulla Yusuf o'g'li repertuaridagi **"Go'ro'g'li"** turkumiga kiruvchi dostonlarni to'la nashrga tayyorladilar va uning asosiy qismi **"Go'ro'g'lining tug'ilishi"** (1996), **"Avazxon"** (1997), **"Go'ro'g'li dostonlari"** (2006) nomi bilan nashr etildi. 2006-yilda esa Rahmatulla Yusuf o'g'li repertuaridagi **"Go'ro'g'li"** dostonlari to'la holda nashr etildi. Bundan tashqari, 2006-yilda M.Jo'rayev va Q.Eshchonovlar tomonidan o'zbek eposining qadimiy namunalaridan biri **"Ediga"** (Tulumxo'ja) dostoni, 2007-yilda esa **"Rustamxon"** dostoni (nashrga tayyorlovchi: J.Eshonqul) nashr etildi.

Keyingi yillarda baxshilar ijodi yanada rivojlanayotgani sezilmoqda. Mana shu muhitda Abdunazar Poyonov ijrosidagi filologiya fanlari doktori, professor Jabbor Eshonqulov yozib olib, dotsent Ro'zimurod Choriyev bilan hamkorlikda nashrga tayyorlab, nashr ettirgan **"Alpomish"** (2018) dostoni singari ham an'anaviy, ham baxshining badihago'yilgini yaqqol aks ettirgan namunalar ham yuzaga keldi.

Endi dostonning sinkretik xususiyatlarini mujassam etish yo'lidagi tadrijiylikni ko'rsatuvchi misollarni eslasak. Ma'lumki, **"Alpomish"** dostoni (Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti, tuzuvchi va matnni nashrga tayyorlovchi: T.Mirzayev, tarjima va sharhlar muallifi: M.Abdurahimov) o'zbek va rus tillaridagi nashri (1999) tarkibida, san'atshunoslik doktori Fayzulla Karomatlining **"O'zbek dostonlari musiqasi va uning "Alpomish" dostonida namoyon bo'lgan xususiyatlari"** tadqiqoti (rus tilida) va **"Nota ilovalari"** ham berilgan edi. **"Alpomish"** dostoni qoraqalpoq versiyasiga mansub – Qiyas jirov Qayratdinov qo'biz jo'rligida

ijro etgan varianti matni va nota (Suren Gabrielyan qog'ozga tushirgan) matnlari T.Mirzayev va F.Karomatli tomonidan 1999-yil nashr etilgan. O'zbek dostonlarining sinkretik xususiyatlarini uyg'unlikda namoyish etuvchi ish sifatida, Botir Matyoqubov va Seydat Tamay Turkiyada O'zbekiston xalq baxshisi Qahhor Rahimov yaratgan va ijro etgan "Temur va Boyazid" dostoni matni (turk va o'zbek tillarida), nota matnlari, musiqiy nomalarning tahlili bilan birgalikda kitob qilib chiqarganlarini ham (2019) aytib o'tishimiz joiz.

Mustaqillikning 27 yillik bayrami arafasida "Mustaqillik baxshilari" kitob albomi chop etiladi.

O'zbekiston xalq baxshilari haqida zarur ma'lumotlar to'planib, ularning portretlari tayyorlandi hamda joylardagi 312 ta bolalar musiqa va san'ati maktablariga yetkaziladi.

Taniqli baxshilar ijrosida **"Alpomish"**, **"Go'ro'g'li"**, **"Kuntug'mish"**, **"Avazxon"**, **"Oshiq G'arib va Shohsanam"**, **"Tohir va Zuhra"** singari baxshichilik san'ati durdonalari haqida teleko'rsatuv va radioeshittirishlari muntazam ravishda efirga uzatib kelinmoqda. O'zbek baxshichilik san'atining taniqli namoyondalari faoliyati va ijodiga bag'ishlangan hujjatli film yaratiladi.

Baxshi shunday katta ijodiy imkoniyatiga – badihago'ylik salohiyatiga ega. U doimo xalqni o'ylaydi. Baxshi kerakli paytda davrning eng katta gapini qisqa, yorqin tarzda odamlarga yetkazishi mumkin. Demak, bugunning baxshisi eng murakkab holatlarda ham butun olam ahlini o'ylantirayotgan masalalar mohiyatini odamlar ko'ngliga badiiy tarzda yetkaza olishi kerak.

Baxshi eng kerakli paytda, eng kerakli so'zni aytib xalqni yaxshi, ezgu ishlarga safarbar eta oladi. Bugun baxshi san'atini yanada rivojlantirish xalqimizning eng go'zal ma'naviy, ijodiy boyliklarini qaytadan hayotga kiritish demakdir. Bunda dostonning sinkretik san'at sifatidagi barcha xususiyatlari o'z samarasini berishiga ishonamiz.

**"Alpomish"**, **"Go'ro'g'li"**, **"Kuntug'mish"** kabi an'anaviy dostonlar ulug' she'riy epopeyalar, lekin ularni bugungi kun uchun ma'naviy o'lchov sifat mezoni sifatida baholab, an'anadagidek oylab kuylab bo'lmaydi. Bunday ijroga auditoriya ham topilmaydi. Zero, bular epik xotirada saqlanib qolgan, asli hayotda esa o'tib ketgan voqealardir. Mabodo, ijodi eng gullab-yashnagan, ilhomi jo'shib-toshgan paytidagi Jumanbulbul yoki Yo'ldoshbulbul tirilib kelib, do'mbirasiga bulbul kelib qo'nadigan mahorat bilan doston kuylaganida ham, bugunning tinglovchi-tomoshabinini (omma) uchun u qiziqarli bo'lmaydi. An'anaviy eposning qizig'i – uni tushunadigan,

qadrlaydigan tinglovchi-tomoshabin va u mansub bo'lgan hayot bilan birgalikda o'tib ketgan. Shuning uchun xalq shoirlarining so'nggi namoyandalardan biror dostonning boshi yoki oxirini chala-chulpa eshitib qolgan, dostonning kitob nusxasini o'qib o'rgangan ba'zi hamyurtlarimizning xalq dostonchiligini tiriltirish borasidagi ijodiy urinishlari zoye ketayapti. Ya'ni bugungi kun odami uchun anglashimli, u istagan shaklga o'tkazish bilangina voqelikda folklorning ma'naviy ahamiyatini saqlab qolish, zamonaga xizmat qildirish mumkin.

Folklor janrlari taqdiri turlicha kechgan va kechmoqda. Bugungi kunda yozib olingan va nashr etilgan ulkan folklor merosiga egamiz. Bu faqat meros emas, yangicha shakllarda harakatdagi badiiy-estetik hodisa, o'lmas ijod hamdir. Folklorning kelgusi taqdiri bevosita ana shu ijodni, umuman, mavjud xazinani turli yo'llar bilan bugunga xizmat qildirish, avlodlarga yetkazib berishga bog'liq. Zero, Ergash Jumanbulbul o'g'li: **"O'zbeklarda so'zga sinchi ko'p bo'lar"** [2.B.112.], – deb bejiz aytmaydi.

Buyuk dostonchimiz xalqimiz orasida so'zning sinchilari ko'p ekanligini nima uchun alohida ta'kidlab aytadi? Shuning uchun-ki, so'zning sinchisi buzg'unchi so'zni qabul qilmaydi, inkor qiladi, o'zining va boshqalarning ma'naviy shikastlanishiga yo'l qo'ymaydi. Xalqimiz madaniyatining hayotbaxsh sarchashmasi bo'lgan baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish, uning milliy madaniyatimiz va san'atimizdagi o'rni va ahamiyatini yuksaltirish, yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, vatanga sadoqat, tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalash uchun yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish ham kun tartibiga chiqdi.

Bu fazilatga biz bugungi kunda alohida e'tibor berishimiz kerak. Mamlakatimizda sog'lom, ma'nan yetuk, har tomonlama uyg'un rivojlangan, estetik barkamol shaxsni tarbiyalashga harakat qilinayotganining ham sababi shu. Yoshlarimiz estetik barkamol bo'lsa, unga "Ommaviy madaniyat" hech qachon o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Binobarin, folklorning faqat iste'molchining emas, ijoddoshni ham tarbiyalash tajribasidan o'rnak olishimiz kerak. Yurtimiz bo'ylab hali ham folklor buloqlari qaynab yotibdi. Jahon hamjamiyati bizning durdonalarimizga ixlos va havas bilan qarayotgani, o'rganayotgani hech kimga sir emas.

Xulosa o'rnida aytib o'tishni istardikki, mamalakatimizda sog'lom avlod ma'naviyatini shakllantirish va tobora boyitib borish yo'lida olib borilayotgan ezgu ishlar samarali bo'lishini ta'minlashga, qaysi sohada ishlashimizdan qat'i nazar, barchamiz baravar burchlimiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san'at va madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil, 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi//. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2017-yil, 4-avgust.
2. Bulbul taronalari (5-tom). – Toshkent: "Fan", 1973-y. 112-b.

# MADANIY-OMMAVIY TADBIRLAR IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARINING TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

**Annotatsiya.** Maqolada, madaniy-ommaviy tadbirlarning gumanitar fanlar obyektiga ta'siri, bu jarayonni yanada samarali qilish muammolari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, yoshlar, madaniy-ommaviy tadbirlar, subyekt, obyekt, ong, transformatsiya, kreativ, faollik.

## КУЛЬТУРНО-МАССОВЫЕ МЕРОПРИЯТИЯ КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ И ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

**Аннотация.** В статье рассматривается влияние культурно-массовых мероприятий на объект гуманитарного знания, проблемы повышения эффективности этого процесса.

**Ключевые слова:** культура, молодежь, культурно-массовые мероприятия, субъект, объект, сознание, трансформация, созидательное, активизм.

## CULTURAL EVENTS AS AN OBJECT OF RESEARCH IN THE SOCIAL AND HUMAN SCIENCES

**Abstract.** The article discusses the impact of cultural events on the object of humanitarian knowledge, the problems of increasing the efficiency of this process.

**Key words:** culture, youth, cultural events, subject, object, consciousness, transformation, creative, activism.

Ilmiy izlanish tadqiqot obyektini aniqlash, uning etimologik talqinini bilish, ichki va tashqi aloqalari, funksiyalari haqida ma'lum bir gnoseologik tasavvurlarga ega bo'lishni taqozo qiladi. Fransuz faylasufi R.Dekartning ta'kidlashicha, obyekt o'rganiladigan tashqi olam, voqea va predmetlardir. Ular inson aql-idroki, diqqatiga, nazariga tushgach, gnoseologik qiziqish uyg'otadi. Fikrni o'ziga qaratib, ong, tasavvur, idrok kabi bilish jarayonlarini yuzaga keltiradi. *"Bilish uchun: ikki sharoit zarurligini hisobga olish darkor, birinchisi – bilish subyektini, ya'ni o'zimiz, ikkinchisi – bilish obyektini, ya'ni narsalar. Bizning bilishimiz to'rt narsa aql, xayol, hissiyot va xotira orqalidir"* [1], – deb yozadi faylasuf.

Bilish jarayoni uchun subyekt va obyektning bo'lishi shart, birinchisining ikkinchisiga munosabati gnoseologik ahamiyatga ega. Demak, bilish jarayoni subyekt va obyektning muqarrarligini, eng muhimi subyektga gnoseologik qiziqish bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun insonning aql-idrokini, bilish qobiliyatini yuqori baholagan R.Dekart: *"Fikrlayapman, demak, mavjudman"* [2], – deganida subyekt qobiliyatlariga urg'u bergan. Ha, bilish qobiliyati obyekt bilan tanlash, uning immanent xususiyatlarini ochib berish, funksiyalarini klassifikatsiya qilish imkonini beradi. Bilish obyektini inson ixtiyoriy tanlaydi, uning immanent xususiyatlari va funksiyalarini klassifikatsiyalashni ham ixtiyoriy amalga oshiradi. Ammo bu obyektning tashqi olamda, bilish subyektidan tashqarida ekanini rad etmaydi. Obyekt o'zi uchun mavjud bo'lishi mumkin. Masalan,

koinot, sayyoralar, havo, daryo va okeanlar insondan, uning aqlu idrokidan tashqaridadir. Biroq shunday tadqiqot obyektlari borki, ular inson faoliyatining, odamni, ijtimoiy hayotni o'zgartirishga qaratilgan sa'y-harakatlarining mahsulidir. Bunday obyektlarga madaniyat va san'at jarayonlari, artefaktlar va ijodiy asarlar kiradi. Ushbu obyektlarda subyekt va obyekt munosabatlari uyg'unlashadi, shuning uchun ularni o'rganadigan tadqiqotchi subyektga ham, obyektga ham diqqatini qaratishi zarur.

*"Madaniy-ommaviy tadbirlar"* tushunchasi va ilmiy etimologik talqini haqidagi tushunchalar empirik tajribalarni intuitiv ta'riflardan iborat, shu paytgacha ular haqida ma'lum bir ilmiy qarashlar, tahlillar deyarli uchramaydi. Ba'zi mutaxassislar, ayniqsa, amaliyotchilar ilmiy-etimologik ma'no izlashni quruq metafizika mushohada, u amaliyotga hech nima bermaydi, deb hisoblashadi. Aslida har bir ilmiy tadqiqot obyektini belgilab olgach, asosiy tushunchaga ilmiy ta'rif berishni, ushbu tushunchaning etimologik ma'nosini ochib berishni talab qiladi. R.Dekart ilmiy tadqiqotchilarga: *"Avval so'zlar mohiyatini aniqlang, ana shunda siz kishilarni ular yo'l qo'yadigan xatolarning yarmidan xalos qilasiz"* [3], – deb maslahat beradi. Demak, ilmiy tadqiqotchi obyektini aniqlab olgach, diqqatini asosiy tushunchalarga, ularning ilmiy-etimologik talqinlarini ochib berishga qaratishi zarur.

"Madaniy-ommaviy tadbirlar" tushunchasi uchta: *"madaniyat"*, *"ommaviy"* va *"tadbir"* so'zlari

birikmasidan yasalgan. Bu hol ana shu uchta so'z ma'nolariga diqqatni qaratishni taqozo etadi. "Madaniyat" so'zining etimologik ma'nosi haqida G'arb va rus tadqiqotchilari, u lotincha "culture" so'zidan olingan, "yer haydash", "bola yetaklash", "tarbiyalash" degan ma'nolarni anglatadi, degan fikrlarni bildirishadi [4]. Rus faylasufi N.A.Berdyayev "kultura" so'zi "kult" degan so'z bilan bog'liq, deb yozadi. Ruscha "kult" so'zi sajda qilinadigan narsa ma'nosini anglatadi [5].

Madaniyatning universal va polifunksional xususiyati uni inson va jamiyat hayoti, ijtimoiy borliq, moddiy va ma'naviy boyliklar majmui sifatida talqin qilishga olib kelgan. Bu talqinda jon bor. Madaniyatga butun ijtimoiy borliq, inson faoliyati mahsuli, ifodasi sifatida qarash uning chin ijtimoiy ahamiyatiga muvofiq keladi. Biroq bizga "culture" so'zining emas, balki "madaniyat" so'zining ilmiy-etimologik ma'nosi kerak. Falsafa fanlari doktori, professor V.A.Alimasov: "Madaniyat" so'zi arabcha, u ma'dan, kon, boylik degan ma'nolarni beradi. Aslida esa, Madina nomidan kelib chiqqan", – deb yozadi. U fikrini asoslash uchun Alisher Navoiyning, "**Xamsat ul-mutahayyirin**" asaridagi "Yuz na'at anga kim xulqi karim o'ldi fani, ya'niki karam koni rasuli madaniy", degan misrani keltiradi. "Madaniyat" so'zi arablar orqali kirib kelgan, uning etimologik ma'nosi esa musulmonlar sig'inadigan shahar – Madina nomidan kelib chiqqan" [6], – deb hisoblaydi. Qanday bo'lmasin, "madaniyat" so'zining ilmiy-etimologik ma'nosi e'zozlanadigan boylik, ma'naviy ma'dan, degan ma'noni beradi. Madaniy-ommaviy tadbirlar esa ushbu boylikni, ma'danni targ'ib etish usulidir.

"Ommaviy" degan so'z ko'pchilikka, xalqqa, to'plangan kishilarga taalluqli degan ma'noni anglatadi. Uning o'zagini "omma" so'zi tashkil etadi. Ommaviylik esa ana shu to'plangan kishilarga qaratilgan voqea, xislat, tadbirlarning belgisidir. U ko'pincha shaxs, individ yoki guruhga taalluqlilikdan farqlash uchun ishlatiladi. Ommaviy harakatlarning ijtimoiy-falsafiy va psixologik jihatlarini o'rgangan G.Lebon yozadi: "Insonlarning nasldan naslga o'tuvchi xislatlari orqali butun bir millatning tafakkuri shakllanib boradi. Biroq kuzatuvlar natijasiga ko'ra, insonlar ma'lum bir maqsadda to'planib, bir guruhga birlashsa, nafaqat millatga xos bo'lgan, balki qaysidir ma'noda farqlanib turadigan yangi psixologik xususiyatlar shakllanishi ham mumkin ekan. Ommaviy yig'ilishlar insonlar hayotida doim muhim rol o'ynagan, ammo hozirda bu har qachongidanda, ahamiyatli bo'lib turibdi. Davrimizning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, olomonning ongsiz harakati bugunga kelib, shaxslarning ongli harakatiga o'zgardir" [7]. Demak, ommaviylik millat, xalq fazilatlarini ifoda etuvchi, olomon ongsiz harakatining ayrim shaxslar (liderlar, yetakchilar, tashabbuskorlar) ning ongli harakatiga o'tayotganini anglatuvchi belgidir. To'g'ri, G.Lebon "omma" so'zini "olomon", "avom" so'zlari bilan aynanlashtirib yuboradi. Ammo uning ommaning shakllanish genezisi haqida fikrlari e'tiborlidir. U yozadi: "Barcha insonlarning g'oya va hislari mushtaraklik kasb eta boshlagan nuqtada,

insonning tafakkurga ega bo'lgan shaxsiyati yo'qolib boradi. Ommaviy ong vaqtinchalik bo'lsa-da, aniq bir shaklga kiradi va faqatgina ma'lum bir xususiyatlarni ifodalaydi. Tafakkur tarzi bir xil shaklga kirgan odamlar jamoasini tashkiliy omma yoki psixologik omma deb atash mumkin" [8].

Demak, fikrlash, tafakkur tarzining bir xilligi omma yoki ommaviylikning belgisidir. Madaniy-ommaviy tadbirlarning ijtimoiy falsafiy va psixologik ahamiyati ham shundandir. Shu bois tadbirlar ommaviy, tarbiyaviy, ma'rifiy xususiyat kasb etadi. "Tadbir" so'ziga o'zbek tilining izohli lug'atida: "Ma'lum bir tashkiliy, ma'rifiy, madaniy-tarbiyaviy xarakterga ega bo'lgan, kishilar, resurslar va vositalar yordamida uyushtiriladigan choralar, sa'y-harakatlar, ishlar nazarda tutiladi" [9], – deb ko'rsatiladi. Tadbir amaliy xususiyatga ega, unda uyushtirilganlik, birgalikda harakat qilish, umumiy fikr, qiziqish va tasavvurni shakllantirish muhimdir. Yuqoridagi ilmiy va etimologik talqinlardan kelib chiqib, "madaniy-ommaviy tadbirlar" so'ziga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: madaniy-ommaviy tadbirlar kishilar, aholi, xalq va millat uchun e'zozli bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash, targ'ib etish, yoyishga qaratilgan maxsus sa'y-harakatlar majmuidir. Xalq, millat, omma ongi va tafakkuriga pozitiv ta'sir etuvchi, ularda pozitiv taassurotlar uyg'otuvchi maxsus uyushtirilgan sahna, ko'cha, maydon, qir-adir, harakatlarini madaniy-ommaviy tadbirlar, deyish mumkin.

Madaniy-ommaviy tadbirlar yadrosini madaniyat, madaniy voqelik tashkil etadi. Substansional mohiyatiga muvofiq madaniyat pozitiv, ong, tafakkur va turmush tarziga pozitiv ta'sir etuvchi voqelikdir [10]. Madaniy voqeliklarning ushbu xususiyati tadbirlarga ijtimoiy mohiyat, inson va jamiyat taraqqiyoti uchun dolzarflik, hayotiy muammolarni hal etishda ratsional-intellektual va instrumental ahamiyat baxsh etadi. Har qanday tadbir yoki sa'y-harakatlar emas, balki pozitiv mohiyatga ega, hayotiy, ma'naviy, psixologik muammolarni ratsional-intellektual va instrumental hal eta oladigan choralar madaniydir. Mana, nima uchun "madaniy-ommaviy tadbirlar" kategoriyasining yadrosini "madaniyat", "madaniy" so'zi tashkil etadi. "Ommaviy" – degan so'z tadbirlarning qanday obyektlarga, auditoriya va retsiyentlarga qaratilganini, ushbu obyektlarning tashqi, tashkiliy belgilarini anglatadi. Uyushganlik, bir fikrdalik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hissiy-emotsional hamjihatlik kabilar ommaviylik shakllanganini ko'rsatuvchi belgilardir.

"Madaniy" ham, "ommaviy" ham o'zi, o'zi uchun (san'at, san'at uchun degan g'ayrihayotiy shiorni eslang) bo'la olmaydi. Ular dialektik uyg'unlikda, turli ijodiy faoliyat turlari va shakllarini sinkretlashtirgan tarzda yaxlit voqelikka aylanadi. Ularning substansional va ekzistensial mohiyati insonga, jamiyatga va taraqqiyot manfaatlariga qaratilgani bilan izohlanadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar ularni o'rganganida gumanistik jihatlariga ko'proq e'tibor beradi. Ushbu yondashuv tufayli ularni pozitiv voqelikka aylantiradi. Madaniyat va san'atda "o'zi, o'zi uchun izlanish",

“o‘zi, o‘zi uchun yashash” odati uchrab turadi. Bunday yondashuv shaxsda destruktivlikni shakllantirishi mumkin [11]. Destruktivlikni ba‘zan ommaviy harakat, ayniqsa, “anglanmagan ijtimoiy birlik”ni (G.Lebon) ham keltirib chiqarishi mumkin.

Hissiy-emotsional ko‘tarinkilik yoshlarda deviant xulq-atvorni keltirib chiqarishi tadqiqotchilar tomonidan ko‘p kuzatilgan [12]. Shunday ekan, ommaviy tadbirlarni madaniylashtirish madaniyatshunoslik, san‘atshunoslik va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar uslubiyati kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun ilmiy-nazariy va empirik muammo bo‘lib qolaveradi. Bundan tashqari, ijtimoiy-gumanitar fanlarga kiruvchi pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, tarix, teatrshunoslik va san‘at tarixi va nazariyasi, estetika ham madaniy-ommaviy tadbirlardan o‘ziga obyekt (predmet) topishi mumkin. Masalan, sotsiologiya (madaniyat sotsiologiyasi, san‘at sotsiologiyasi) madaniy-ommaviy tadbirlarning kishilar, omma ongiga, badiiy-emotsional odamiga qanday ta‘sir etayotganini so‘rovnomalar, ekspress savol-javoblar, sotsiodinamik kuzatuv, hatto, eksperimentlar orqali aniqlash mumkin.

Bunday sotsiologik kuzatuv tadbirning ijobiy yutuqlari bilan kamchiliklarini aniqlash, vositalar samaradorligini oshirish yo‘llarini topish, auditoriya qiziqishining qondirilishini o‘lchashga yordam berishi mumkin. Mazkur fanlarning tadqiqot obyekti (predmeti)ni keng ijtimoiy hayotdan, shu jumladan, madaniy-ommaviy tadbirlardan topish mumkinligini tasdiqlaydi. Ijtimoiy gumanitar fanlar obyekti (predmeti)dan o‘ziga taalluqli, ilmiy tadqiqot usullari va gnoseologik maqsadlariga muvofiq keladigan jihatlarni qidiradi. Agar tarix, madaniyat va san‘atning ijtimoiy-tarixiy bosqichlardagi vazifalari va genesisini, morfologik shakllanish bosqichlarini o‘rgansa, pedagogika ularning inson tarbiyasiga, unda gumanistik qarashlar, fazilatlar va qadriyatlarining shakllanish xususiyatlariga e‘tibor qiladi.

Falsafa va estetika go‘zallik fenomenining inson

badiiy-estetik qarashlariga ta‘siri, inson va borliq o‘rtasidagi aloqalarning estetik voqealardagi ifodasi muammolari bilan qiziqadi. Madaniyat va san‘at uchun falsafiy-estetik yondashuv nafaqat ilmiy metodologik, shuningdek, perspektiv, strategik ahamiyatga ham egadir. Madaniy-ommaviy tadbirlarning turli fanlar uchun tadqiqot obyekti (predmeti) bo‘lgani ularning ijobiy belgisi, keng qamrovli voqelik sifatida barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning gnoseologik maqsad bo‘lishi mumkinligidan darak beradi. Gnoseologik maqsad subyekti tadqiqotchidir, biroq madaniy-ommaviy tadbirlarda u obyekt (predmet) sifatida ham qaralishi mumkin. Masalan, madaniyat va san‘at menejerining, tashkilotchi-rejissyorining ijodiy izlanishlari va usullari tadqiqotchi e‘tibordan chetda qolmaydi. Tadbirlar morfologiyasi va rejissurasini, g‘oyaviy ahamiyati va ekzistensial xususiyatini o‘rganmoqchi bo‘lgan tadqiqotchi menejer, tashkilotchi-rejissyor tajribasini, qo‘llagan badiiy-estetik usullarini tahlil qiladi, ochib beradi.

Biz uchun madaniy-ommaviy tadbirlarni o‘rganuvchi maxsus fanlar (madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi, ommaviy bayramlar rejissurasi, teatr dramaturgiyasi, madaniyat markazlari ssenariyasi, ommaviy tadbirlarni badiiy bezash, musiqa estetikasi, notqlik san‘ati, sahna harakati, raqs, xor, o‘yin-tomoshga san‘ati) va ularning ilmiy-nazariy xulosalari, tavsiyalari muhimdir. Madaniy-ommaviy tadbirlarda foydalanadigan usul va vositalariga qat‘iy talablar yo‘q, ularda oddiy improvizatsiyadan tortib, to yuz-ikkiz yuz (hatto, ulardan ham ko‘p) ijrochining ommaviy harakatini uyushtirishga qaratilgan sahna, ko‘cha, maydon tomoshalarigacha uchraydi.

Ommaviylashish, ya‘ni menejer, rejissyor-tashkilotchilar xatti-harakatlarining auditoriyaga, tomoshabin obyektlarga ko‘chishi madaniy-ommaviy tadbirlarning ham maqsadi, ham mezonidir. Ularni o‘rganuvchi fan va nazariyalar, metodikalar madaniy-ommaviy tadbirlarning ushbu fundamental qonunini unutishi mumkin emas.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Декарт Р. Сочинения в 2 томах (том 1). – Москва: «Мысль», 1989 г. Стр.113–316.
2. Декарт Р. Избранные сочинения (том 1). – М.: «Гослитиздат», 1973 г. Стр. 364.
3. Клакхон К. Человек в зеркале. – СПб.: «Лань», 2003 г. Стр.6-7.
4. Бердяев Н. Смысл истории. – М.: «Мысль», 1990 г. Стр.162–170.
6. Boboyev H., Xamrov T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2001-y. 6-7-b.
7. Lebon G. Omma psixologiyasi. – T.: “Yoshlar matbuoti”, 2021-y. 3–16-b.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: “O‘zbekiston davlat milliy ensiklopediyasi”, 2003-y. 238-b.
10. Кармин А.С. Основы культурологии. – СПб.: «Лань», 1997 г. Стр.4-5.

## JAHON DUBLYAJ SAN'ATI TARIXI METAMORFOZALARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, kinematografiyada ovozning paydo bo'lishi, turli mamlakatlarda olib borilgan izlanishlar, eksperimentlar, dublyaj san'ati va kinoning rivojlanishida yangi, asosiy bosqich ekanligi, shuningdek, rejissyor, aktyorlar kasbida talablar yuksalishi xususida so'z ketadi.

**Kalit so'zlar:** dublyaj, aktyor, rejissyor, ovozoperator, film, kinoprokat, kinoteatr.

## МЕТАМОРФОЗЫ ИСТОРИИ МИРОВОГО ДУБЛЯЖНОГО ИСКУССТВА

**Аннотация.** В этой статье представлены исследования, проведенные в премьеры разных странах, о процессах появления звука в кинематографе, а так же о экспериментах вначале создание дубляжа. Искусство дубляжа особенно касается тем, что это новый, главный этап в развитии кинематографа, в тоже время, о том как возник рост требований к профессии режиссера, актеров дубляжа.

**Ключевые слова:** дубляж, актёр, режиссёр, звукооператор, фильм, кинопрокат, кинотеатр.

## METAMORPHOSES OF THE HISTORY OF THE WORLD DUBBING ART

**Abstract.** This article presents studies conducted in examples of different countries on the processes of the appearance of sound in cinema, as well as on the experiments in the creation of a dummy. The art of dubbing is especially concerned with the fact that it is a new, major stage in the development of cinema, at the same time, about how there was an increase in requirements for the profession of director, dubbing actors.

**Key words:** dubbing, actor, director, sound engineer, film, film distribution, cinema.



28-dekabr, 1895-yil. Parij shahridagi Kaputsino bulvari №14, "Grand" kafening "Hind" salonida o'ttiz uchta tomoshabin ilk marotaba bilet olib, kinematografning dunyoga kelishiga guvoh bo'lishadi. Lion shahrida faoliyat ko'rsatgan aka-uka Lyumerlar injinerlarning ixtirosi oldiniga Parij, Fransiya va tez orada butun dunyoni zabt etadi. Kinematografiyaning butun dunyoga keng yoyilishida katta xizmat qilgan birinchi kinooperatorlar Charl Muasson va Fransis Dublie (Rossiya imperiyasi, jumladan, Turkiston o'lkasi), Feliks Megish (AQSh), Gabriel Veyr (Lotin Amerika, Yaponiya, Hitoy), Marius Seste (Hindiston, Avstraliya)larni e'tirof etish kerak.

Lyumerlarning operatorlari fortepiano jo'rligida, kinoproektorning muruvvatini burash orqali turli ovozsiz epizodlar namoyish etilar ekan, xorijiy tillarni bilgan yordamchilar ekrandagi bo'layotgan voqealarni sharhlab borishardi. Albatta, bu sharhlashlar ovozi kinoning o'rnini bosa olmasdi. Lekin bu holat kinematografiyaning paydo bo'lgan paytdan boshlab, ovozi filmlarga katta ishtiyoq va talab borligidan dalolat edi. XX asrning boshlariga kelib film tarjimasida va sharhlarni maxsus artistlar – konferanslar olib borishadigan bo'ldi. Konferanslar o'z mahorat va tajribalaridan kelib chiqib, film voqealarini

tushintirishga, izoh berishga, qaysidir ma'noda boyitishga harakat qilishar edi. Hatto, ekranda fasllar o'zgarsa, vaqt o'tsa shuni ham izohlashgan. Masalan, "Qish kirib keldi" yoki "Oradan yillar o'tdi..." degan iboralarni ham ishlatishgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida suratga olingan filmlar hali to'raligicha kinosan'atining talablariga javob bermasdi. Ssenariydan tortib, rejissura, operator ishlari saviyasi ancha past edi. Rassomlar esa kartondan dekoratsiyalar qurib, ko'proq teatr sahnasini eslatadigan maydon tayyorlashgan. Aktyorlik san'ati ham teatrdan unchalik farq qilmasdi. Mashhur "Stanislavskiy sistemasini" endi paydo bo'layotgan bir paytda, ko'plab teatrlarda haligacha eski usulda, rollarni bo'rttirib o'ynalardi. Kinoda ham asosan bo'rttirilgan, turli xatti-harakatlar, "jest"lar bilan boyitilgan obrazlar yaratilgan. Bunday ijro bilan tomoshabinlarga so'zsiz filmlarning voqeasi, mazmun-mohiyatini yetkazishga urinish bo'lgandi.

Yuqorida takidlanganidek, kinematograf dunyo bo'ylab juda tez tarqala boshlaydi. Jumladan, har tomonlama rivojlanib kelayotgan Yaponiyaga kinematograf, kino paydo bo'lgan yildan ko'p o'tmay, ya'ni 1896-yilda kirib keladi. Yaponiya boy tarixga, o'zigaxosma'naviy-madaniy qadriyatlariga ega bo'lgani

uchun Amerika va Yevropa ma'naviy dunyosini, madaniy koloritini, ulardagi munosabatlarni unchalik qabul qilishmasdi. Filmlardagi voqealarni tushinish va qabul qilish uchun qadimdan kelayotgan so'z san'ati – deklamatsiyaga asoslangan, yaponlarga xos unikal, o'ziga xos madaniy fenomen, benshi-kasuben nutq san'ati imkoniyatlaridan foydalaniladi. Benshi-kasuben san'ati, asosan "Xo" va "Kabuki" teatr tomoshalarida muallif tomonidan hikoya qiluvchi, izoh beruvchi funksiyani bajaradi. Teatr orqali jonli ijro san'atiga ko'nikkan yapon tomoshabinlari rangsiz, ovozsiz, tushunarsiz xarakterlardan iborat filmlarni unchalik xush ko'rishmaydi, qolversa, ko'pchilik oddiy xalq o'qishni ham bilmagani uchun ekrandagi titrlarni ham o'qishmaydi.

Lekin asta-sekin bensilar film davomida o'z mahoratlarini ko'rsatib ekranda bo'layotgan voqealarni izohlar bilan gapirib berishadi. Hatto, bugungi kundagi dublyaj aktyorlari singari bir necha bensilar ekrandagi personajlarga alohida ovoz bera boshlaydilar. Dialoglarni jonli ovozlantirishadi va ba'zi hollarda esa dialoglarga erkin munosabatda bo'lib, ekspromt va improvizatsiyadan foydalanib, ko'plab so'zlarni, gaplarni o'zlaridan qo'shishadi.

Masalan, ekranda oy shu'lasida tog' peyzaji ko'rinsa, benshi tabiatni kuylovchi lirik she'rni deklamatsiya qiladi. Bunday holatning ahamiyatli tomoni shundaki, ba'zan bensilar shunchalik taniqli bo'lishadiki, filmlarning afishasiga aynan ularning nomlarini katta qilib yozishadi va tomoshabinlar uchun aynan bensining mashhurligi film tanlashda muhim rol o'ynaydi. Bensilarning ijodiy xizmatlari ovozli kinoning paydo bo'lishiga qadar qariyb qirq yil davom etadi. Bir paytlar Yaponiyada bensilarning soni yuzlab bo'lgan bo'lsa, bugun deyarli yo'qqa chiqi. O'n nafardan ortiq emas. Yaponiya kinematografiyasi o'z rivojlanish yo'lida turli metamorfozalarni, qarama-qarshilikni yengib o'tadi. Bu borada taniqli yapon kinoshunosi Tadao Sato shunday mulohaza qiladi: *"Shunday qilib, yapon kinosida yangilik va eskilik orasidagi munosabatlar, kurashlar avj oladi va qanday natija bilan yakunlanishi no'malum edi. Bunday vaziyatda tashabbus shaxslarga, o'zlariga ishongan rejissyorlar zimasi qo'yiladi"*.<sup>1</sup>

Kinoning tinimsiz rivojlanishi, texnikaning yangilanishi, rejissyor, operator va aktyorlarning mahorati oshishi va eng muhimi tomoshabinlarning saviyasi ko'tarilishi natijisida, ovozli kinoga katta ehtiyoj seziladi. Nihoyat, 1927-yil Gollivudning eng yirik kinokompaniyalaridan hisoblangan "Warner Bros" ("Warner Bros") studiyasi tomonidan katta tavakkal bilan "Vita-fon" ovoz yozish uskunasi suratga olingan birinchi ovozli film "Djaz qo'shiqchisi" ("The Jazz Singer") ekranlarga chiqadi. Shunday qilib, 1927-yil 6-oktyabr ovozli kinematografiyaning tug'ilgan kuni, deb tan olinadi.

"Djaz qo'shiqchisi" filmi katta muvaffaqiyat qozonib, tomoshabinlarning olqishlariga sazovor bo'ladi. Bu muvaffaqiyatdan ruhlangan studiya rahbarlari ovozli filmlarni ommaviy tarzda ishlab chiqishni yo'lga qo'yishadi. Lekin kutilgandek ovozli filmlarni ishlab

chiqishda, ba'zi bir muammolarga duch kelishadi. Ma'lumki Gollivud filmlarining asosiy tomoshabinlari Yevropa mamlakatlarida bo'lgani uchun til muammosini hal qilish kerak edi. Bu muammoni hal qilish uchun studiya rahbarlari tomonidan juda qiziq bir qaror olinadi. Bu qarorga ko'ra, bir filmni uchta versiyada, turli aktyorlar bilan suratga olish talab qilinadi.

Birinchi variant, har bir film uchun uchta versiya suratga olinadi. Masalan, "Katta uy" ("The Big House", 1930-y.) filmida original ingliz variantida bosh qahramonni aktyor Chester Morris, ispan tilida ("El Presidio", 1930-y.) Xuan de Landa, fransuz tilida ("Volte dans la prison", 1931-y.) Sharl Buaye o'ynagan.

Ikkinchi variant, barcha uch versiyada bosh rollarni ijro etish uchun turli tillarni biladigan aktyorni taklif etish. Masalan, "Anna Kristi" ("Anna Christie") filmida mashhur Greta Garbo ingliz va nemis tillarida bosh rol ni o'ynagan.

Uchinchi variant, bosh rolga tanlangan aktyorlar, operator orqasida mel bilan doskaga yozilgan matnni navbatma-navbat turli tillarda ijro etishadi. Aynan shu usulda "Tungi sharpa" ("Spuk um Mitternacht", 1930-y.) filmida taniqli amerikalik komiklar Cten Lorel va Oliver Hardi rollarini o'ynashgan.

1933-yil hokimiyatga yangi Prezident Franklin Ruzveltning kelishi jamiyatda katta o'zgarishlarga olib keladi. Iqtisodiy krizisga uchragan banklar, kinematografga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Mamlakatdagi o'n olti mingdan kinoteatrdan besh mingtasi butkul yopiladi. *"Filmlar ishlab chiqish va prokat, foyda o'rniga zarar keltira boshlaydi. Kinoda ovoznining paydo bo'lishi ham kinosanoatga o'z ta'sirini ko'rsatadi"*.<sup>2</sup>

AQSh va Yevropa o'rtasida filmlar import-eksport qilish jarayonlari ko'p hollarda, amerikaliklar foydasiga hal bo'lardi. AQSh kinosining Yevropa prokatidagi gemoniyasi XX asrning 20-yillari o'zining kulminatsiyasiga ko'tailadi. Taniqli kino tarixi mutaxassisi S.Komorov bu borada shunday fakt ni misol qilib keltiradi: *"... 1925–1928-yillarda AQShdan Fransiyaga 550 film import qilinadi, Fransiyadan AQShga esa atiga 5ta film sotiladi. Lekin Fransiyada bu davrda 70 ga yaqin film suratga olinadi"*.<sup>3</sup>

Gollivud uchun XX asrning 20-yillarining so'nggida Yevropa davlatlari prokat bo'yicha eng serdaromad maskan hisoblangan. Shuning uchun filmlar, avvalo Yevropa tillariga (fransuz, nemis, ispan, italyan) dublyaj qilinadi. Dublyaj uchun Yevropadan emigratsiya qilingan aktyorlar taklif etilgan. Yevropada AQSh filmlariga talablar ortishi bilan ko'plab filmlarni dublyaj qilishga to'g'ri keladi. Lekin Gollivud studiyalari uchun bunday katta hajmdagi ishlarni amalga oshirishga yevropalik tillarni yaxshi biladigan dublyaj aktyorlarini topishlarida muammo bo'ladi. Bu paytga kelib, Gollivud studiyalarining Yevropa davlatlaridagi o'z filiallari ancha rivojlangan bo'lib, dublyaj qilishga imkoniyatlari paydo bo'ladi. Shunday qilib, Yevropa mamlakatlarida turli tillarda mahalliy aktyorlar bilan Gollivud filmlarini dublyaj qilish yo'lga qo'yiladi. Aynan

shu yillari filmlarni xorijga prokat qilishning yana bir varianti yo'lga qo'yiladi. Kino ixtirolarining vatani hisoblangan AQSh kinosining bilimdonlaridan biri, taniqli kinoshunos va tarjimon German Vaynberg ilk marotaba kinematografiyada subtitrlardan foydalanadi.

Taniqli rejissyor Mikelanjelo Antonioni Rimda chop etiladigan mashhur kino jurnali "Cinema"da xorijiy filmlarni dublyaj qilishda, o'z maqsadi yo'lida, matnlarni almashtirilishga jiddiy e'tiroz bildiradi: *"Bunday osonlik bilan hech qanday mas'uliyat his qilmasdan dialoglarga o'zgartirishlar kiritilishi va hatto butunlay boshqa matndan foydalanishlari san'atga xiyonat qilishdir..."*

1930-yillar Italiya kinosi o'zining yuksalish, yangilanish davrini yashaydi. Birin-ketin dublyaj studiyalari yuzaga keladi: *"Fotobox"*, *"Fono Roma"*, *"Italiya Acustika"*, *"MGM Romana"*. Bu studiyalarning faoliyati haqida *"Fotobox"* studiyasining badiiy direktori shunday xotirlaydi: *"Ish hajmi ko'pligidan har qanday sharoitda ishlashga to'g'ri kelardi. Bizdan imkoni boricha tempo-ritmni pasaytirmasdan, tezkor ishlashimiz talab qilinardi. Ba'zi hollara dialoglarni yo'l-yo'lakay tarjima qilishga to'g'ri kelardi. Bunday kutilmagan holatlar bizlardan katta sabr va mehnat talab qilardi. Texnika ham muammo yaratib turardi"*.

Ikkinchi jahon urushining tugashi bilan Rim shahrida dunyoda ilk marotaba "Kinodublyaj aktyorlarining tashkiloti" (Organizzazione Doppiatori Cinematografici) tashkil etiladi. Yevropada Italiyadan keyin professional dublyaj studiyasi Germaniyada tashkil etiladi. Ikkinchi jahon urushi natijasida g'olib davlatlar tomonidan bir necha qismga bo'lingan Germaniyada dublyaj filmlari ko'paya boshlaydi. Shunday qilib Myunxenda AQShning "Kinoeksport assotsiatsiyasi" (Motion Picture Export Association, MPEA) Gollivud filmlarini nemis tiliga dublyaj qilishni boshlaydi. Britaniya filmlarini esa inglizlar o'zlariga tegishli bo'lgan Gamburg shahrida yangi ochilgan dublyaj studiyasida qaytadan ishlab chiqarishadi.

Fransuzlar esa qadimgi Kalmut qasrida dublyaj studiyasini tashkil etib, Fransiyada ishlab chiqilgan filmlarini nemis tiliga dublyaj qilishni boshlaydi. Shunday qilib, birgina Germaniyada nemis tomoshabinlarni zabt etish niyatidan Yevropa davlatlari orasida ijodiy raqobat boshlanadi. SSSR tomonidan tashkil etilgan DEFA (Deutsche Film-Aktiengesellschaft) kinostudiyasi Germaniyadagi eng yirik dublyaj studiyasiga aylantiriladi va sovet filmlari, jumladan, o'zbek filmlari ham aynan shu yerda nemis tiliga tarjima qilinadi. Shuni ham ta'kidlash mumkinki, Ikkinchi jahon urushidan so'ng, nemis kinosi ham tezkorlik bilan rivojlana boshlaydi. *"1950-yil Sharqiy Germaniya – GDRda 1600 kinoteatr faoliyat ko'rsatadi. Birgina shu yilning o'zida "Qotilaar oramizda" ("Die Mörder sind unter" DEFA, 1946) filmi 5 milliondan ziyod tomoshabinni to'playdi"*<sup>4</sup>.

Fransiyada ham Ikkinchi jahon urushidan so'ng, bir qator hukumat qarorlari qabul qilinib, dublyaj

san'atining rivojiga katta yo'l ochiladi. Masalan, 1945-yil qabul qilingan hukumat qarorida Fransiya davlatida barcha filmlar faqat fransuz tilida namoish etilishi ko'rsatilgan. 1947-yil esa barcha xorijiy filmlar dublyaj qilinishi shart bo'lgan qonun qabul qilinadi. Bugungi kunda Fransiya dublyaj maktabi jahondagi eng rivojlangan, deb tan olindi. 1990-yillarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasida shunday faktor o'rta tashlandi. Fransiyada shu yillari 2000 dan ortiq dublyaj aktyorlari faoliyat ko'rsatgan va dublyaj qilingan filmlarda fransuz tilida gapiruvchi 60 million tomoshabindan olingan umumiy daromad 100 million dollarni tashkil etgan.

**Xitoy Xalq Respublikasi** 1931–1945-yillar orasida okupatsiya qilgan Yapon harbiylari tomonidan tashkil etilgan *"Chanchun"* kinostudiyasi asosida 1949-yilning boshidan dublyaj studiyasi tashkil etiladi va xorijiy filmlar ilk marotaba Xitoy tilida dublyaj qilinadi. Oradan ko'p o'tmay mashhur *"Shanhay"* kinostudiyasi tashkil etiladi. Ko'p mamlakatlarda bo'lgani singari Xitoyda ham oldiniga ancha arzonroq va qulayroq bo'lgan filmlarni subtitrl qilishga kirishiladi. Lekin Xitoy xalq Respublikasida bir qancha avtonom minatqalarning bo'lishi (Tibet, Ichki Mongoliya, Sinszyan Uyg'ur) xitoycha o'ziga xos ierogliflarni o'qishlari mushkulroq bo'ladi.

1957-yil *"Shanhay"* kinostudiyasidan ajralib, alohida mustaqil *"Dublyaj studiyasi"* tashkil etiladi va hozirgacha mamlakatda dublyaj qilinadigan ko'p sonli filmlarning uchdan ikkisini aynan shu studiya tashkil etadi. Qolgan kam sonli xorijiy filmlarni dublyaj qilish *"Chanchun"*, *"Pekin"*, *"Bai"*, *"Emei"* va *"Chjan syan"* studiyalari zimmasiga tushadi.

**Hindiston Respublikasida** dublyaj jarayonlarining rivojlanishi Xitoydagi jarayonlarga o'xshash bo'lib, ko'p sonli nufuzga ega turli tillada gaplashadigan (21 ta til) fuqarolardan iborat mamlakatda filmlarni dublyaj qilish juda ham mushkul edi. Qolaversa, subtitrlash ham katta muammolarga duchor bo'lardi, chunki milliarddan ortiq fuqarolarning ko'pchiligi savodsiz bo'lib, o'qishni bilishmasdi. Hindiston kino san'ati Xitoydan farqli bo'lib, o'zining dunyo miqyosidagi "Bollivud" kinostudiyalari tizimiga ega edi. Hind kinematografiyasining o'ziga xos tomoni shunda ediki, mamlakatning 95% aholisi asosan hind filmlarini tomosha qilishni afzal ko'rishardi. Hind tomoshabini, o'zining dunyoqarashi, fikrlashi doirasi va qiziqishi bilan o'ziga yaqin va yaxshi tanish bo'lgan hind filmlarni tomosha qilishardi.

SSSR filmlarining eng muvaffaqiyatlisi 1927-yil Leningradda izlanish olib borgan fizik-professor A. Shorin laboratoriyasidagi ijobiy natijalardir. *"5-oktyabr, 1929-yil Leningradda, Nevskiy prospektida birinchi ovozli kinoteatr ochiladi. Bu kinoteatrd A. Shorin laboratoriyasida tayyorlangan ilk eksperimental qisqametrarli ovozli filmlar namoyish etiladi"*<sup>6</sup>.

Kinematografiyada ovoz yozish tarixi muammolarini o'rganishda kinoshunos E. Yefimov shunday fikr bildirad: *"Ovoz va tasvirni sinxron bo'lishi, bir-birini to'ldirishda tabiiylikni e'tiborga olish lozim. Badiiy*



*mukammallik juda muhimdir. Filmida musiqa, nutq, turli shovqinlarning mujassamligi, bir-biriga mutanosibligi e'tibordan qochmasligi kerak*<sup>8</sup>.

1980-yillari SSSR kinoprokatida yiliga 150 ta xorijiy film dublyaj qilingan bo'lib, jahondagi eng kuchli va yirik dublyaj mamlakatiga aylangan. Sovet dulyaj maktabining matn moslovchilari, aktyorlarning

yuksak mahorati jahon kinosida tan olingan. SSSRning parchalanishi natijasida, sobiq sotsialistik respublikada kinofilmlar ishlab chiqish va dublyaj qilinish jarayoni bir muncha pasayadi. Bugungi kunda mustaqil davlatlar o'z imkoniyat va tlablaridan kelib chiqib, xorijiy filmlarning dublyaj qilish studiyalarini rivojlantirib kelishmoqda.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Blain Brown. Cinematography: Theory and practice. – New York: 2002.
2. Meliqo'ziyev I. Cinematographer's ability in the creation of graphic image in uzbek historical films. International journal of advanced science and technology, 29 (05), 1554-1567.
3. Ikbal Melikuziev. (2020). CINEMATOGRAPHER'S ABILITY IN THE CREATION OF GRAPHIC IMAGE IN UZBEK HISTORICAL FILMS. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(05), 1554–1567. Retrieved from <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10078>
4. Ikboljon M., & Tirkashaliyevich K.S. (2019). Creative researches of young cameramen on the creation of graphic image in modern uzbek feature films. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 5230–5236. doi:10.35940/ijeat. A2948.109119
5. Abul-Kasimova X. Кино и художественная культура Узбекистана. – Ташкент: “Fan”, 1991 г.
6. Меликузиев И. Возможности кинооператора в создании графического образа в узбекских исторических фильмах. Международный журнал передовых наук и технологий 29 (5), 1554–1567.
7. Меликузиев И.М. КИНОИСКУССТВО УЗБЕКИСТАНА: ВЧЕРА И СЕГОДНЯ
8. Тагао Сато. Кино Японии. – Москва: «Радуга», 1988 г. стр.7.
9. Комаров С. История зарубежного кино (том 1) – М.: «Искусство», 1965 г. стр. 93.
10. Комаров С. История Зарубежного кино (том 3). «Искусство» – Москва: «Прогресс», 1981 г. стр.177.
11. Лебедев Н. Краткая история советского кино. – М.: «Искусство», 1969 г.

## OMMAVIY TADBIRLAR MENEJERIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**Annotatsiya.** Maqolada, menejer sifatleri va unga qo'yiladigan talablar, ommaviy tadbirlar menejeri kimlar ekanligi, ommaviy tadbirlarga rahbarlik qilish, ommaviy tadbirlar menejeri kasbining plus va minuslari, ommaviy tadbir menejerining majburiyatlari va malaka talablari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** menejer, ommaviy tadbir, rahbar, liderlik, madaniyat, san'at, tomoshabin, majburiyat, kasb.

## ТРЕБОВАНИЯ К МЕНЕДЖЕРУ ПУБЛИЧНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

**Аннотация.** В статье описаны качества менеджера и его требования, кем является ивент-менеджер, ведущий публичных мероприятий, плюсы и минусы профессии публичный ивент-менеджер, обязанности и квалификационные требования к публичным ивент-менеджеру.

**Ключевые слова.** Менеджер, публичное мероприятие, лидер, лидерство, культура, искусство, аудитория, приверженность, профессия.

## PUBLIC EVENT MANAGER REQUIREMENTS

**Abstract.** The article describes the qualities of a manager and his requirements, who is a public event manager, leading public events, the pluses and minuses of the public event manager profession, the obligations and qualification requirements of a public event manager.

**Key words:** manager, public event, leader, leadership, culture, art, audience, commitment, profession



Ommaviy-madaniy muassasalarda menejerlik faoliyatini yo'lga qo'yish juda muhimdir. Sababi ommaviy tomoshabinlar uchun madaniy tadbir, festival, sayil va konsert, shoularni tashkil etishda menejerlarga ehtiyoj katta. Menejerlar ijodiy foyilay nuqtayi nazaridan tarbiyalash, kasbga yo'naltirish ham maxsus ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak. Menejer, shubhasiz, shaxs bo'lishi kerak, ya'ni aqlli, ma'lum bir hayotiy pozitsiyaga ega, o'zini jamiyatning fuqarosi sifatida his etuvchi, Yangi O'zbekistonni, iqtisodiyotning yangi turini yaratishda faol tashabbuskor qatlam vakilidir. Yosh mutaxassis rahbarlar – O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida belgilangan ma'lumotli shaxsning asosiy fazilatleri, shuningdek, zamonaviy sivilizatsiyalashgan menejerga xos sifatlarga ega bo'lishi kerak. Bu:

✦ dunyoni, ijtimoiy voqelikni, o'z kasbining o'rni va ijtimoiy ahamiyatini ilmiy asoslarini tushunish;

✦ O'zbekiston jamiyati va odamlarining qadriyatlarini, ularning tarixini, milliy g'ururini bilish va hurmat qilish, ularni birlashtirish;

✦ O'zbekiston jamiyati va uning fuqarolari duch keladigan muammolarni hal qilishga ijobiy ijtimoiy hissa qo'shish istagi;

✦ gumanizm, demokratik hayotning qadriyatleri haqidagi qoidalarini tushunish, inson huquqlari, ularning erkinligi, axloqiy me'yorlar;

✦ irqiy, milliy, etnik, diniy, ijtimoiy, jinsidan qat'i nazar, axloqiy yetuklik va barqarorlik, halollik va odoblilik, odamlarga, ularning huquqlari va erkinliklariga hurmat;

✦ faoliyatda nafaqat moddiy va pul natijalariga, balki ijtimoiy ahamiyatga ega, axloqiy, ma'naviy narsalarga intilish;

✦ huquqiy savodxonlik, barcha kasbiy vazifalarni faqat qonun doirasida, qonunlarni buzmasdan hal qilish;

✦ o'zlarining erkinliklarini nafaqat qonun bilan cheklangan, balki axloq va vijdon bilan chegaralangan holda erkin tushunish;

✦ odamlar tomonidan hurmatga muhtojlik;

✦ formulaga muvofiq erkinligini tushunish, ya'ni "Mening erkinligim va huquqlarim boshqa shaxsning huquq va erkinliklari buzilishi mumkin bo'lmagan joyda boshlanadi";

✦ sog'lom turmush tarzi va unga yetakchilik qilish istagi haqida bilim [1].

Shuni ham unutmaslik kerakki, ommaviy-madaniy muassasalar menejerlari faqat iqtisodiy ishlar bilan shug'ullanmaydi. Ular aholining madaniy ehtiyoji, zamonaviy san'atadagi talabi va ommaviy mediaga qiziqishini o'rganib chiqadilar. Ya'ni odamlar bilan ko'plab suhbat qiladi va ommaga kerakli tomoshalarni madaniy muassasalar sahnasida tomoshabiniga yetkazib beradi. U bu vaziyatda boshqaruvchi bo'lib, jamoadagi odamlarni iziga ergashtira olishi, nazorat qilishi va boshqarishi muhimdir. Boshqaruv funksiyalarini bajarishda va jamoat ishlab chiqarishda zamonaviy menejer:

👉 rahbar – boshqaruvchi;

👉 rahbar – diplomat;

👉 rahbar – murabbiy, tarbiyachi;

👉 rahbar – inson;

👉 rahbar – innovator sifatida maydonga chiqadi.

Menejer aniq topshiriqlarni topshirishida o'ziga berishi kerak bo'lgan quyidagi oltita yordamchi savollar mavjud:

👉 nima qilinishi kerak?

👉 buni kim qilishi kerak?

👉 nima uchun u qilishi kerak?

👉 u qanday qilishi kerak?

👉 bu nimani yordamida qilishi kerak?

👉 buni qachon qilish kerak?

Vakolatlarni samarali topshirish mehnatni tegishli ravishda tashkil qilishni ko'zda tutadi. Rahbar tomonidan vazifalarni topshirishni rejalashtirish va ularni bajarilishi va muddatlarga rioya qilinishi ustidan nazorat varaqalari yordamida nazorat qilib borishi mumkin. Boshqaruv faoliyatining natijaliligi uchun vaqtini ratsional sarflanishi nuqtayi nazaridan menejer mehnat jarayonini tashkil qilinishi muhim ahamiyatga ega [2].

Davlatimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan qator-qator dasturlarning asosiy mohiyati ulkan maqsadlarga yo'naltirilgan. Madaniy-ommaviy tadbirning tashkilotchi rahbari, ya'ni menejeri, avvalo, o'z oldiga maqsad va vazifalarni to'g'ri qo'yishi zarur. Madaniy-ommaviy tadbirni tashkil etish vazifasini olishi bilan menejer ishni nimadan boshlaydi?

Madaniy-ommaviy tadbirni to'g'ri tashkil etishda, turli uslub va vositalarning to'g'ri tanlanishi katta ahamiyat kasb etadi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun bajariladigan har bir ish jarayoni, jumladan, madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlash, avvalo, zarur mavzularni to'plash, maxsus rejalar tanlash, ijodiy guruhni shakllantirish kabi masalalarni hal etishni talab qiladi. Belgilangan tadbirni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qanchalik samarali metodlar topilsa, uni amalga oshirish jarayoni shunchalik oson bo'ladi. Shuning uchun madaniy-ommaviy tadbirlar menejeri zarur malaka va tajribaga ega bo'lishi, tadbir tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarni, metodlarini bilishi va ularni tanlash hamda foydalanish yo'llarini mukammal o'zlashtirmog'i kerak.

Hozirgi vaqtda ommaviy-madaniy muassasalarda to'liq rahbarlik qilayotgan menejerlar nihoyatda kamchilikni tashkil qiladi. O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasidagi menejerlar ko'pincha loyiha, konsert, madaniy xizmatlar sohasida ma'lum vaqt ishlaydilar. Bu tabiiy hol. Chunki ijod inson omili bilan bog'liq bo'lganligi uchun u o'zgarib turadigan jarayon. Ijodda ko'proq menejerlar ijodkorlarning xohishi bilan ham yollanma ishchi bo'lib ishlashi mumkin. Shu nuqtayi nazardan ijod sohasida menejerlarni to'liq rahbar, deb ham tan olishimiz biroz qiyin. Chunki ayrim ommaviy-madaniy muassasalar ham odatda menejerlar faoliyatidan foydalanishda uzoq vaqt emas, ma'lum muddat yollanma menejer sifatida ham foydalanadi. Rahbar emas, vositachilik ham menejerlikda g'oyatda muhim.

Ommaviy-madaniy muassasalarda menejerlik

faoliyatida ham menejer ichki muhitni jiplashtiruvchi kuch sifatida nomoyon bo'lishi kerak. Menejer rahbar bilan birgalikda jamoani oldinga qo'yilgan maqsad yo'lida birlashtiradi va oldinga siljib harakat qilishiga yordam beradi. Motivatsiya beradi va muassasa taraqqiyoti uchun qarorlar qabul qiladi. Ommaviy-madaniy muassasalarda qaror qabul qilish va uni bajarishni tashkil etish menejmentning asosiy ish jarayonlaridan biri hisoblanadi. Qabul qilingan qaror boshqaruv mohiyatini, sifati va ahamiyatini belgilaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Ommaviy-madaniy muassasalarda menejer faoliyatining eng muhim ishi bu ish unumdorligi hisoblanadi. Unumdorlik esa, o'tkazilgan tadbirlarning soni va qamrab olish maydoni nuqtayi nazaridan hisoblansa, samarasi esa tomoshobinlar soni va ishtirokida bilinadi. Ularning darajasi aholiga yuqori saviyadagi ijodiy xizmatlarni ko'rsatish orqali baholanadi.

Ommaviy tadbirlarni shartli ravishda ikki turga ajratishimiz mumkin:

1) Ommaviy davlat va ijtimoiy tadbirlar.

2) Ommaviy korporativ tadbirlar.

Ommaviy tadbir menejeri (tadbir menejeri, prodyuser) tashkilotchi, ko'p vazifali tadbir bo'yicha mutaxassis bo'lib, u yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan tadbirni boshqaradi.

Professionalar quyidagi tadbirlar o'tkazish kerak bo'lganda taklif qilinadi:

👉 sport musobaqasi;

👉 forum, biznes uchrashuvi;

👉 reklama, ko'rgazma;

👉 trening, master-klass;

👉 kontsert, marosim;

👉 chiqish safari;

👉 xalqaro konferensiya;

👉 oilaviy bayram;

👉 korporativ yoki shahar bayrami [3].

Ommaviy tadbirlar menejeriga qo'yiladigan talablar ham mana shu tadbirlar xususiyatidan kelib chiqadi. Ammo shu bilan birga, ommaviy tadbirlarni uyushtiradigan va boshqaradigan menejerlarga qo'yiladigan umumiy talablar ham mavjud.

Hozirgi vaqtda yangi lavozim keng tarqalmoqda: voqea-menejeri (event-menedjer, ingl. event – voqea) – ommaviy tadbirlarni tashkil qilish bo'yicha menejer. Bir necha yillar oldin korporativ bayramlar, mahsulotlar taqdimoti va brendni ilgari surish kabi tadbirlarni tashkilot xodimlari amalga oshirilardi. Endi bunday darajadagi tadbirlarni o'tkazish nafaqat mahsulotni reklama qilish yoki brendni, balki kompaniyani bozorda joylashtirish vositasini ilgari surish bo'lganligi sababli, tadbir-menejerlari yo'nalishi rivojlanib bormoqda.

Bunda biz tadbir-menejerini 10 yil avval ko'pchilik ishonganidek, "rahbar" yoki "ommaviy ko'ngilochar" sifatida emas, balki korporativ yoki tijorat tadbirlarini yuqori professional darajada tashkil etishga mas'ul mutaxassis sifatida tavsiflaymiz. Ya'ni axborot shu texnologiyalari, rivojlanish darajasining jadallashishi bilan bunday tashkilotni maxsus o'qitilgan shaxs yoki

hatto, jamoa boshqarishi kerak, degan tushuncha paydo bo'ldi.

Tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bilan tajribaga ega bo'lgan menejment, reklama va PR sohalarida ishlagan kishilar shug'ullanadilar.

Ommaviy tadbirlarni boshqarish har doim yuqori hissiy yuklama bilan birga keladigan faoliyatdir. Aslida, noto'g'ri tuzilgan ish jadvaliga, va mijozlarning tez-tez sodir bo'ladigan fors-major holatlariga injiqliklari va tashvishlariga dosh berish qiyin. Shu sababli, ommaviy tadbir menejeri hayotga ishtiyoqli odam bo'lishi, bir vaqtning o'zida ko'p vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi va har qanday voqeaga ijodiy yondashishi kerak.

Bu kasb kasbiy mahorat va shaxsiy fazilatlarini doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi. Ommaviy tadbir menejerining asosiy vazifalari oflayn va onlayn tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish, joylarni rejalashtirish, pudratchilarni qidirish, loyihalash va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning ishini nazorat qilishdir.

Ommaviy tadbir agentliklari faoliyatini tahlil qilganda, biz, faoliyatning bir nechta asosiy yo'nalishlarini kuzatamiz:

- *bolalar tadbirlarini tashkil etish;*
- *korporativ/biznes/bayram tadbirlari (odatda bitta agentlik ushbu 3 tur bilan shug'ullanadi);*
- *sport va madaniy tadbirlar.*

Ushbu turdagi faoliyat bilan shug'ullanadigan aksariyat tashkilotlar, bir tomondan, kadrlar etishmasligini boshdan kechirmoqda (bunday idoralarning bir qator rahbarlarining e'tirofiga ko'ra, shuningdek, joylashtirilgan bo'sh ish o'rinlari tahlili bo'yicha), boshqa tomondan, biz ushbu kasbiy faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan odamlarning rezyumelarining ko'pligini kuzatamiz.

Ommaviy tadbir menejeri insonning turli hodisalarni idrok etish qonuniyatlarini va ularning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini hisobga olishi, shuningdek, ularni boshqarishga qodir bo'lishi kerak. Natijada, biz nafaqat tadbirning ishlab chiqilgan rejasini (mutaxassis oldida turgan ikkinchi vazifa), balki har bir bosqichda tadbir ishtirokchilarining xatti-harakatlarini bashorat qilishni, keyin esa mohir va samarali boshqaruvni tashkil eta olamiz. Xuddi shu nuqtayi nazardan, ommaviy tadbir menejeri tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda, shu jumladan, odamlarning ommaviy yig'ilishlarida xavfsizlikni ta'minlash haqida mas'uldir.

Yetakchilik va tashkiliy qobiliyatlarning mavjudligi va yetarlicha yuqori darajada rivojlanishi, shuningdek, to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Gap turli xil harakatlar natijalarini, turli muammoli vaziyatlarning paydo bo'lishini oldindan bilish va o'z vaqtida kerakli tuzatishlarni kiritish qobiliyati haqida bormoqda. Ayniqsa, menejer, tadbir g'oyasini ishlab chiqqandan keyin ish jadvalini amalga oshirish ketma-ketligini, ya'ni algoritmini yaxshi tasavvur qilishi shart.

Ommaviy tadbir menejeri yaxshi rivojlangan kommunikativ malakaga ega bo'lishi kerak. Mutaxassis ushbu vakolat doirasida tadbirni tayyorlash va o'tkazishda ishtirok etuvchi xodimlarni

boshqarish, o'z jamoasi bilan samarali hamkorlik qila olishi kerak; pudratchilar va subpudratchilar bilan muzokaralar olib borish va ularning muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo'lish ham kerak. Agar biz xalqaro loyihalar haqida gapiradigan bo'lsak, u holda menejer hech bo'lmaganda, suhbat darajasida ingliz tilini yaxshi bilishi kerak.

Ommaviy tadbir menejerining ish majburiyatlari ko'pincha quyidagilarni o'z ichiga oladi: tadbirga maqbul byudjetni topish uchun tashkilotning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda byudjetlashtirish, tender hujjatlarini tayyorlash, homiylik loyihalarini yuritish, shular jumlasidandir.

Shunday qilib, bizga ma'lum bir sohada oddiy mutaxassis emas, balki muvaffaqiyatli ishlashi uchun jiddiy tayyorgarlik talab qilinadigan universal mutaxassis kerak. Aynan tizimli universitet ta'limi tadbir bo'yicha mutaxassislarning malaka darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin va tadbir xizmatlari sektorining professionallashuv sari xarakterlanishiga hissa qo'shadi.

Ommaviy tadbirlar menejeri kasbining plus va minuslari	
Pluslar	Minuslar
Talab. Kasb mashhur, <u>shuning uchun</u> tadbir mutaxassislari hech qachon bo'sh qolmaydi. Ular ma'lum bir kompaniyada mustaqil ravishda yoki jamoaning bir sifatida ishlashlari mumkin.	X. Stress. Tadbirlarni boshqarish juda ko'p vaqt va kuch talab qiladigan mashaqqatli ish. Mutaxassislik tartibsiz ish jadvaliga ega bo'lgan eng stressli kasblardan biridir.
Imkoniyatlar. Tadbir menejeri qiziqarli odamlar bilan uchrashadi, yangi do'stlar topadi, tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiradi va munosib pul topadi;	X. Qiziqishlar tafovuti. Tashkilotchining qarashlari har doim ish beruvchining fikriga to'g'ri kelmaydi. Siz boshqa odamlarning talablariga moslashishingiz, ma'lumotlarni qayta-qayta yozishingiz harakat jarayonida o'zgartirishingiz kerak.
<i>Ko'p vazifalarni bajarish. Tadbir menejerining asosiy faoliyati marketing, PR, reklama va sotish bilan bog'liq. U moliyani boshqaradi, ko'pincha oddiy va vaziyatdan ajratilgan byudjetni taqsimlaydi, chiqishning ahamiyatsiz yo'llarini izlashga majbur qiladi.</i>	

**Mutaxassisning majburiyatlari.** Vazifalar doirasi tadbirning yo'nalishi va xususiyatlariga bog'liq. Demak, sport musobaqalari, korporativ ziyofatlar yoki aksiyalarni o'tkazishga universal yondashuv yo'q.

Tadbir menejerining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- 👉 *mijozlar bilan aloqa;*
- 👉 *mutaxassislar uchun texnik shartlarni tuzish, masalan, ziyofat zalini gullar bilan bezash;*
- 👉 *turli formatdagi voqealar konsepsiyasi, ssenariylarini ishlab chiqish;*
- 👉 *xarajatlarni rejalashtirish, byudjetlashtirish, nazorat qilish;*
- 👉 *homiylarni tanlash, ular bo'yicha takliflar ishlab chiqish;*
- 👉 *pudratchilarni qidirish;*
- 👉 *ommaviy axborot vositalarida voqealarni yoritish uchun materiallar tayyorlash;*
- 👉 *reklama va PR kompaniyalarini o'tkazish;*
- 👉 *barcha masalalarni tadbir ishtirokchilari bilan muvofiqlashtirish;*

- ▶ *tadbirlar uchun joylarni qidirish, bron qilish;*
- ▶ *binolarni bezatish;*
- ▶ *ijrochilar, yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bilan shartnomalar imzolash;*
- ▶ *bosma mahsulotlarni tayyorlash – bukletlar, chiptalar, broshyuralar;*
- ▶ *taklifnomalarni tarqatish;*
- ▶ *oflayn va onlayn tadbirlarni o'tkazish, har bir bosqichni nazorat qilish, hisobot berish [4].*

Har bir tadbir menejeri ma'lum darajada qattiq va yumshoq ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Kasbiy ko'nikmalar tashkiliy qobiliyat va qobiliyatlarni o'z ichiga oladi:

- ★ *mantiqiy va ijodiy fikrlash;*
- ★ *taym menejment rejimida ishlash;*
- ★ *to'g'ri qarorlarni tezda qabul qilish;*
- ★ *har qanday murakkablikdagi muammolarni hal qilish;*

- ★ *voqealar bozorini yaxshi bilish;*
- ★ *reklama va marketing sohasidagi yangi tendensiyalar texnologiyalarni kuzatish va ulardan foydalanish;*

- ★ *ko'p bosqichli jarayonlarni boshqarish.*

*Shaxsiy fazilatlar (yumshoq ko'nikmalar) faollik, tashabbuskorlik, xushmuomalalik va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:*

- *to'g'ri gapirish;*
- *har qanday odamga yondashuvni oson topish;*
- *nizolarni tezda hal qilish.*

O'zbekistonda so'nggi yillarda ommaviy-madaniy muassasalarda menejerlarga talab va ehtiyojning

ortishini inobatga olib, bir qator tashkiliy ishlarni tahlil qilish asosida ommaviy-madaniy muassasalardagi menejerlarning faoliyati haqida quyidagi tavsiyalarni umumlashtirishga harakat qildik:

- ▶ *ommaviy-madaniy muassasalarda tashkil etiladigan badiiy-ijodiy tadbirlar, festivallar, konsertlar, tomoshalar, spektakllar, ko'rgazmalar, tanlovlar, mahorat darslarida menejerlar faoliyatidan ko'proq foydalanish;*

- ▶ *ommaviy-madaniy muassasalarda menejerlar uchun faqat ijtimoiy buyurtma emas, davlat tomonidan ham buyurtmalarni yo'lga qo'yish va sohada reklama-marketing faoliyatini kuchaytirish;*

- ▶ *menejerlik kasbini ommalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;*

- ▶ *ommaviy-madaniy muassasalar faoliyatini yanada muvofiqlashtirish va kasbiy yo'riqnomalar bilan ta'minlash, menejerlar uchun vacant lavozimlar sonini oshirishni ta'minlash [5].*

Mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasi uchun menejerlar tayyorlash tizimi yildan-yilga jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Eng asosiysi, madaniyat va san'at menejmentini o'rgatadigan yangi darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni yaratishda ham yangi jadallik va innovatsion metodlarda yangiliklar amalga oshirilishiga ehtiyoj katta. Amalda mazkur kasb rivojlangan, ammo nazariy jihatdan aniq nazariyada sayqal topmaganligi ham haqiqat. Shu sabab, madaniy-ommaviy muassasalar bilan ta'lim muassasalarining aloqalarini, tajriba almashish, mahorat darslarini faollashtirish kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergashev Sh. Yangi O'zbekiston ommaviy tomosha muassasalarida zamonaviy menejment masalalari. – Toshkent: MDI.2023-y. 90-b.
2. Sattorqulov O., Rahmatov K. Menejment fanidan o'quv-uslubiy majmua. – Guliston: "Iqtisodiyot", 2017-y. 440-b.
3. Xolmo'aminov M., Qo'ldashev T. Ommaviy tadbirlar menejeriga qo'yiladigan talablar. "Xalqaro madaniyat va san'at menejmenti: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plamidan. – T.: "Donishmand ziyo", 2023-y. 304-b.
4. O'sha manba
5. Ergashev Sh. "Ommaviy-madaniy muassasalarida menejmentning ahamiyati". Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining "Axborotnoma" ilmiy-amaliy jurnali. 2023/1(13). 103-bet.

## O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATIDA NAQSHLAR

**Annotatsiya.** "O'zbek xalq amaliy san'atida naqshlar" nomli maqolada, O'zbekiston amaliy bezak san'atida naqshlar semantikasi o'zbek xalqining o'tmishdagi qadriyatlar dunyosi bilan chuqur aloqadorlik tuyg'usi bilan o'zaro bog'liqligi hamda amaliy san'at turlarida autentik qatlamlari an'alarini tiklash jarayoni ko'p jihatdan texnologik usullar, naqsh kompozitsiyalari va bezak turlarini tiklash, saqlab qolishda namoyon bo'lishi haqida so'z yuritiladi. Mazkur maqolaning maqsadi, o'zbek xalq amaliy san'ati tarixi va an'alarini saqlashga va kelajak avlodga yetkazishda munosib hissa qo'shishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** autentik, semantika, kompozitsiya, tumor gul, shabaqa, kadj bayt, palak, stilizatsiya, julxirs, kursi, lavh, epigrafika, kufiy, panno, frizlar, gravirovka.

## УЗОРЫ В ПРИКЛАДНОМ ИСКУССТВЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

**Аннотация.** В статье «Узоры в узбекском народно-прикладном искусстве» семантика узоров в прикладно-декоративном искусстве Узбекистана взаимосвязана с чувством глубокой связи с миром прошлых ценностей узбекского народа, процессом восстановления традиции аутентичных пластов в видах прикладного искусства во многом восстанавливает и сохраняет технологические приемы, узорные композиции и виды декора. сказано, что оно проявляется в пребывании. Цель данной статьи - способствовать сохранению истории и традиций узбекского народного творчества и передаче их следующему поколению.

**Ключевые слова:** аутентичный, семантика, композиция, цветок-талиман, стилизация, табличка, эпиграфика, кувический, панно, фризы, гравюра.

## PATTERNS IN APPLIED ART OF THE UZBEK FOLK

**Abstract.** In the article "Patterns in Uzbek folk applied art" - the semantics of patterns in the applied decorative art of Uzbekistan are interrelated with the sense of deep connection with the world of past values of the Uzbek people, and the process of restoring the traditions of authentic layers in the types of applied arts, in many ways, restores and preserves technological methods, pattern compositions and types of decoration. it is said that it manifests itself in staying. The purpose of this article is to contribute to preserving the history and traditions of Uzbek folk art and passing it on to the next generation.

**Key words:** authentic, semantics, composition, stylization, epigraphic, panno, friezes, engraving.



"Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"<sup>1</sup>.

O'zbekiston madaniyati, qadimiy tarixi va tabiiy manzaralari kabi juda boy va xilma-xil. U turli xalqlarning madaniy an'alarini, qorishmalarini o'z ichiga oladi. Ular musiqa, san'at, hunarmandchilik, raqs va milliy liboslarda o'z ifodasini topgan. O'zbek xalqining an'alarga boy madaniyati ko'p asrlar davomida rivojlanib, sharqona madaniyatlardan o'ziga xos va noyob xususiyatlari bilan farq qiladi.

Bugungi kunda amaliy san'at turlarining takomillashayotgani, buyumlar bezaklarida an'ana va innovatsiyaga asoslangan naqshlar tizimidagi

o'zgarishlar vorisilikni saqlovchi, rivojlantiruvchi badiiy madaniyatning asosiy sohasi sifatida o'ziga xos o'rinni egallamoqda.



<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev. 2021-yil, 19-yanvar ma'naviyatni yuksaltirish bo'yicha yig'ilishidagi nutqidan. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/01/19/selector/>

O‘zbek xalq amaliy san’atida, xususan kulolchilik, kandakorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik, gilamdo‘zlik, zargarliklarda qo‘llaniladigan naqshlar semantikasi o‘ta murakkab sanaladi. *Bodomgul, anorgul, qo‘chqorak, zomucha gul, qilichak, kordi osh, kadj bayt, toji xo‘roz gul, tabadoniy, iris nusha, tumor gul, shabaqa* va shu kabi ko‘plab naqsh turlari nafaqat XIX asrda, balki bugungi kunda ham barcha hunarmandlar tomonidan qo‘llanilib kelinmoqda. An’anaviy amaliy san’at buyumlaridagi naqshlar jiddiy o‘rganilsa, har bir naqshning o‘ziga xos g‘oyaviy mazmunini anglash mumkin. Misol tariqasida, “*kordi osh*” naqshi oshxona pichog‘i ma’nosida kelsa, “*pat boylami, qushlar*” tasviri – donishmandlik, oqillik; “*bodom*” – hayot va unumdorlik ramzidir. “*Palak*” – “*falak*” so‘zidan olingan bo‘lib, koinot va zaminning o‘zaro mushtarakligi ma’nosini ifodalaydi (1-rasm). Palaklar atrofiga tikilgan oy tasvirida olamning yorug‘ jamoli ma’nosi mujassam. Ular hayot va tiriklik ramzi yashil, zangori, pistoqi ranglarda jilolangan. So‘zanalar hoshiyalaridagi nilobi “*ilon*” nusxalar insonni, oilani, uyni qo‘riqlovchi najotkor timsolida berilgan. Xonadonlarga fayz-u shukuh, tarovat baxsh etuvchi so‘zana va palaklar gulidagi ranglarda hayotga muhabbat, go‘zallikka tashnalik aks etgan. Bundan tashqari xalq amaliy san’atida, xususan, kashtachilikda asosiy kompozitsiyalar ham mavjud bo‘lib, ular buyumning yanada sermazmun bo‘lishiga xizmat qiladi (2-rasm).



novdalar yoki butalar shaklida bo‘ladi. Buxoro, Nurota, Samarqand, Qashqadaryoda ko‘proq qo‘llaniladi. Erkin kompozitsiyada esa, o‘simlik naqshini markaziy maydon bo‘ylab erkin joylashtirish nazarda tutiladi. Buxoro, Nurota, Samarqandda qo‘llanilgan.

Umuman olganda, Zamonaviy O‘zbekiston amaliy bezak san’atida naqshlar semantikasi o‘zbek xalqining o‘tmishdagi qadriyatlar dunyosi bilan chuqur aloqadorlik tuyg‘usi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Amaliy san’ati turlarida autentik qatlamlarni saqlab qolish, an’analarni tiklash jarayoni ko‘p jihatdan texnologik usullar, naqsh kompozitsiyalari va bezak turlarini tiklash, saqlab qolishda namoyon bo‘ladi. XX asrning oxiri XXI asr boshida naqshlar majmuasidagi davomiylik saqlanib qoladi. Jahon iqtisodiyotining faol globallashuv jarayonida xalq amaliy san’atidagi naqshlar guruhi milliy va madaniy o‘ziga xoslikni yo‘q bo‘lib ketishdan himoya qiluvchi ma’naviy immunitet vazifasini bajarmoqda [1].

Amaliy san’atning tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulg‘ayib

borgan sari amaliy san’at ham yuksala bordi. Yashash uchun kurash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun ehtiyoj kuchayib borish jarayonida qo‘l mehnatidan aqliy mehnat ajralib chiqa boshladi. Ov qurollari, uy-ro‘zgor buyumlariga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib bordi. Avvalo tosh o‘ymakorligi, suyak o‘ymakorligi, keyinchalik esa yog‘och o‘ymakorligi ham sekin-astalik bilan o‘z rivojini topdi. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san’at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, o‘zbek amaliy bezak san’ati turlarining shox-butoqlari insoniyatning bolaligi, ya’ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz.

O‘lkamiz zaminidagi qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishi-cha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan va asrlar osha hozirgacha davom etib kelmoqda. Amaliy san’atga bu qadar chuqur falsafiy yondashish natijasida shartlilik, stilizatsiya – ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o‘zbek milliy bezak san’atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo‘lgan-ki, hozirda jahonga mashhur me’morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san’atlarning ajoyib darajada uyg‘unligidan va mujassamligidan iboratdir.

Xalq amaliy bezak san’ati kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o‘zbek xalq amaliy san’atikishilarnibadiiyaxloqiy,umuminsoniytarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi. Yaqin o‘tmishda o‘zbek amaliy bezak san’atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak uymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, bo‘yrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo‘zik, gilamdo‘zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o‘ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san’atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarida nom qozongan ustalarning xizmati butun jahonga dong‘i ketgan [2].

**Gilamdo‘zlik** – qadimiy xalq gilamdo‘zlik an’analari ko‘p avlodlarning ixtirochilik urinishlari natijasida rivojlanib, nihoyatda uzoq va keng ildizga ega. Qishloq joylarida asosan ayollar tomonidan uyda to‘qilgan gilamlar oddiy, lekin mukammal texnikada ishlab chiqilganligini anglatadi. Shu tariqa ranglar, shakllar, nozik naqsh kombinatsiyalari va ijodiy bezaklarni mukammal yorqinligini namoyish etmoqdalar. O‘zbekistonda gilamdo‘zlik va kigizdo‘zlik xalq hunarmandchilikning qadim turlaridan biri hisoblanadi va yarim ko‘chmanchi (chorvadorchilik) tarzda hayot kechiruvchi yung mahsulot (asosan qo‘y va tuya)lariga juda boy mahalliy qabilalarning asosiy mashg‘uloti bo‘lgan.



Qo'lda gilam to'qish nihoyatda sermashaqqat ish. To'quvchidan qunt, did va mahorat talab qiladi. Mo'g'ullardan oldingi davrda turkiy qabilasi bo'lmish og'uzlarning gilamdo'zlik buyumlari dong chiqargan. Temuriylar davrida eroniy va turkiy an'anaga uyg'unlashtirilgan gilamdo'zligi hamda XVI asrdan boshlab Movarounnahrda dashti qipchoq o'zbek qabilalarining gilamdo'zlik buyumlari keng tarqalgan. Ushbu turkiysimon xalqlari gilamdo'zlik an'analari tarixiy mutanosibli, O'zbekiston milliy gilamdo'zligining etnomadaniyati asoslarini tashkil etadi. O'zbekistonning Farg'ona vodiysi, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida saqlanib, gilamdo'zlik markazlar (ayollar shug'ullanuvchi) sifatida faollik qilmoqda. Gilamlar (uzun va qisqa yungli hamda yungsiz gilamlar – julxirs, gajariy, koxma, okelen, terma, taqir gilam va b.) va gilamdo'zlik buyumlari (bo'g'jumu, joynamoz, napramach, xo'rjin, to'rva, jabduk, o'tov jihoz (kur, baskur)lari va b.). Turli shakldagi, bezak-naqshli gilam buyumlari uy-ro'zg'or sharoitida qo'llanib, ularning ko'pligi sovg'alar uchun mo'ljallangan.



**Kulolchilik** – azaldan kulolchilik ishi odamlarni eng o'ziga xos hunari, deb hisoblanar edi. Bugungi kunda ham O'zbekistonning ba'zi shahar va qishloqlarida mashhur kulolchilik ustaxonalari ishlamoqda. O'zbekiston kulolchilik san'atining eng boy merosini saqlab qolgan maskan hisoblanadi. Chunki zamonaviy an'anaviy va noan'anaviy kulolchilik san'ati (XIX asrda tarixan shakllangan) vakillarida mahalliy madaniyatning tarixiy qatlamlariga qiziqishlari kuzatilmoqda. O'zbekistonda qadimdan har vohaning hunarmandchilik markazlari vujudga kelib shakllangan.

Ishlab chiqarish uslubi bo'yicha kulolchilik ikkita asosiy turlarga bo'lingan – sirlangan va sirlanmagan. Sirlanmagan kulolchilik qadim tarixga ega. VIII asr oxiri IX asr boshida Movarounnahr shaharlarida sirlangan kulollik keng tarqalgan. IX–XVIII asrlarda ushbu uslub badiiy kamolikka va yuqori texnologik sifatga ega bo'ldi. XX asrdan hozirgi O'zbekiston hududlarida asosiy maktablar va markazlar tashkil topdi: a) Samarqand-Buxoro maktabi, Toshkent, Samarqand, Urgut, Buxoro, G'ijduvon, Shahrisabz, Kitob, Kattaqo'rg'on, Denov markazlari bilan; b) Farg'ona maktabi Rishton va G'urumsaroy markazlari bilan; v) Xorazm maktabi Xonqa, Modir qishlog'i, Kattabog', Chimboy markazlari bilan.

Har bir markaz o'ziga xos mahalliy xususiyatlarini saqlagan. Ularda hozirgi vaqtda sopol idishlarning yassi (kosalar, laganlar), baland, ya'ni yuqoriga qarab yo'naltirilgan (ko'zalar, xumlar) turlari va uy-ro'zg'or buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Farg'ona va Xorazm kulolchiligida an'anaviy moviy rangdagi ishkorli sir tayyorlash yo'lga qo'yilgan, ammo ular o'ziga xos bezak-naqshlari va buyumlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi (namoyandalari M.Turovov (G'urumsaroy), I.Komilov (Rishton), R.Matchonov (Xorazm) va b. Buxoro-Samarqand sopol buyumlari jarangdor nafis bo'lib chiqishida qo'rg'oshinli sir va sarg'ish-yashil, jigarrang bo'yoqlar muhim o'rin egallaydi (namoyandalari Alisher va Abdulla Narzullaevlar (G'ijduvon), Namoz va No'mon Obloqulovlar (Urgut), X.Haqberdiev (Samarqand). Qashqadaryo (Kasbi) kulolchiligida hozirgi kunda faqat sirlanmagan buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Badiiy kulolchilik san'ati har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda va targ'ib etilmoqda. Uning yanada rivoj olishi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

**Yog'och o'ymakorligi** – yog'och o'ymakorligining shuhrati O'zbekistonda hech qachon susaymagan. O'simliklarga oid naqsh va arabeskalar, shuningdek, "Mutlaqcheksizlik" nomli ornamental texnikasiorqali har qanday yuzani bezash an'anaviy yog'och o'ymakorlik san'atining eng mashhur turidir. O'ymakorlikda ko'proq chinor, tut, yong'oq, qayrag'och, olcha yoki o'rikdan foydalanilar edi. O'zbekiston amaliy san'atida yog'och o'ymakorligi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Chunki uning ustalari nafaqat maishiy buyumlar, balki ular me'moriy qism (ustun, eshik, darvoza va b.) bilan bir qatorda uy jihozlarni bezash ham keng tus olishiga faollik qilishgan.

Yog'och ustun, eshik darvozalar va boshqa me'moriy qismlarni keng ishlatilishi o'zbek xonliklari





poytaxtlari bo‘lish, Xiva, Buxoro, Qo‘qon, Samarqand va Toshkentlarning me‘morchiligida ko‘rish mumkin. Yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshligining yetuk markazlaridan biri Xiva bo‘lib, Xiva yog‘och ustalarining san‘ati lchan-qal‘a majmuasi inshootlari ustunlari va eshiklari (jumladan, Juma masjid yodgorligi intererdagi o‘ymakor ustunlar)dir. Xiva yog‘och o‘ymakorlik maktabining mashhur namoyandalaridan biri Polvonovlar sulolasi, ular orqali XIX–XX asr boshida Xiva ko‘pgina o‘ymakor ustun va eshiklar bajarilgan. Qo‘qonning taniqli ustalaridan biri Q.Haydarov o‘zining ijodida Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi maktabi an‘analarini saqlab, noyob buyumlarni yaratgan. Uning ijodida eshik, panno, frizlar, ustun kabi me‘morchilik qismlari, o‘ymakor stol, kursilar, lavhlar, qalamdonlar kabi turli maishiy buyumlar o‘rin olgan. XIX–XX asrlarda Toshkent yirik yog‘och o‘ymakorligi markazidan biri bo‘lgan. Toshkent ustalari ijodida yirik me‘moriy inshootlari badiiy bezagi va maishiy o‘ymakorlik salmoqli o‘rin olgan. Toshkentlik mashhur ustalari – S.Xo‘jaev, M.Qosimov, A.Fayzullaev, H.Qosimov, N.Ibrohimovlar an‘analarini 1990-yildan A.Azlarov, sulola ustasi M.Ibrohimova, S.Rahmatullaev, H.Hasanov va b. O‘zbekiston hududida asosan to‘rtta yog‘och o‘ymakorligi maktablari (Qo‘qon, Samarqand, Toshkent, Xiva) mavjud bo‘lib, ular o‘z uslublari va yo‘nalishlari bilan farqlanadi [3].

#### **Misgarlik san‘ati** – XIV

asrda Temuriylar hukmronligi davrida o‘zbek milliy hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish yanada rivojlangan. Sohibqiron Amir Temur boshqa davlatga yurishlari vaqtida chet ellardagi hunarmand ustalarni Samarqandga olib keltirgan. Shu bois o‘sha davrga mansub metall buyumlarda chet ellik ustalar nomini uchratish mumkin. Masalan, Ermitaj muzeyida yetti xil metallardan quyilgan afsonaviy qozon o‘simliksimon naqsh va yuksak badiiy husnixat yozuvi bilan naqshlangan bo‘lib, uni tabrizlik rixtagar Abdulaziz ibn Sharofiddin yasagan. Ispan elchisi Klavixo Amir Temur qabulida va ziyofatida ko‘rgan ajoyib idishlarni yuksak darajada bajarilganligi haqida o‘zining esdaliklarida yozib o‘tgan.

Mis kandakorligining eng ko‘hna markazlaridan biri navqiron Buxoro hisoblanib, u yerdagi mahalliy ustalarining yasagan idishlarda naqshlarga hamohang tarzda chekilgan husnixat yozuvli bezaklar nafisligi bilan kishini hayratga soladi.

XIX–XX asr boshlarida buyumlarga kesma usulida zarb berilgan naqsh bezaklar mujassamligida husnixat alohida o‘rin oldi hamda yozuvlar o‘simliksimon naqshlarga o‘xshatib zarb qilindi. Ayniqsa, G‘ijduvon misgarlik buyumlarida kashkul, satil, sharbat kosa,

mis kosa, tog‘ora, qurol va shamdongacha bo‘lgan buyumlarga husnixatli yozuvlar asosiy bezak sifatida o‘z aksini topdi. Shuningdek, Buxoro mis kandakorligi maktabiga xos epigrafikaning o‘ziga xos yagona uslubini to‘la namoyon qildi. Tarixiy manbalardan ma‘lum bo‘lishicha, Buxoro xonligi davrida naqqoshlar hamisha xattotlik uslubidan foydalanib, ular ko‘zalarning qorni, bo‘yni yoki dastasini, barkashlarning keng sathini husnixat yozuvi bilan bezaganlar. Bu uslub, ayniqsa, o‘sha davrda kashkul buyumida “kufiy” uslubida o‘yma husnixatlar bilan bezak tushirgan usta Mullado‘st Muhammad ishlarida to‘la namoyon bo‘lgan. O‘sha davrda Buxoro kandakorlik maktabining vakillari Hakim Buxoriy, Do‘stmuhammad Rizo singari ustalar mis buyumlarni nafis baytlarni ko‘p marta bezak sifatida chekib qo‘llaganlar. Aynan shu davrda Buxoro mis kandakorligida Buxoroning me‘moriy obidalarini mispatnis, mislagan gravirovka, ya‘ni chekma naqsh bezaklari asosida naqsh bezash keng tus oldi.

XX asr boshidagi Buxoro mis kandakorligi namunalari “kufiy” husnixat yozuvli naqshlaridan ilhomlangan qo‘qonlik hunarmand usta Ali Nazar mis buyumlarini “kufiy” uslubdagi naqsh bezaklari bilan boyitgan. Xususan, O‘zbekiston amaliy san‘ati va hunarmandchiligi tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasi namoyishiga qo‘yilgan usta Ali Nazar ijodiga mansub “Misko‘za” – gumbazsimon qopqoqdan iborat bo‘lib, qorin qismida katta hajmda ishlov berilgan husnixat yozuvli bezaklari bilan ajralib turadi. 1919-yilda qizil misdan tayyorlangan ko‘zani naqsh bilan bezashda Alisher Navoiyning ijodiga mansub g‘azal baytini “kufiy” uslubida bezab ishlagan. Lagan, patnislar, baland va yuqoriga qarab yo‘naltirilgan qizil misko‘zalar, misqozon, shamdonlar singari mis buyumlarida aks etgan rang-barang tarixiy obidalar, naqshinkor husnixat yozuvlarini ko‘rgan har bir inson misgarlik san‘atini rang-barangligini his etishi, undan bahra olishi shubhasizdir. Yuksak did bilan ishlangan mis buyumlarida bezak qismlarining aniqliligi, naqshlarning badiiy joylashishi, shakl va mazmunining birligi bilan bilan o‘zbek misgarlari ishini jahonga tanitib kelmoqda [4].

Dunyoda qanday hunar bo‘lmasin, albatta, uning ustalari va shogirdlari bo‘ladi. Naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, pichoqchilik, bo‘yrachilik, gilamdo‘zlik, yogoch o‘ymakorligi kabi hunarlarning o‘ziga yarasha ustalari bor. Har bir hunarmand ustaning shogirdi bo‘ladi. Agar ustaning shogirdi bo‘lmasa, uni xuddi mevasiz daraxtga o‘xshatish mumkin. Chunki o‘z hunarini ustalarimiz avlodan-avlodga an‘ana tariqasida o‘tkazib kelganlar. Shuning uchun ham Alisher Navoiy quyidagi misralarni yozib qoldirgan:

**“Hunarni asrabon netkumdir, oxir,**

**Olib tuproqqamu ketgumdir, oxir”** (“Farhod va Shirin”) [5].

Asrlar davomida orttirilgan madaniy boyligimiz, xususan, o‘zbek milliy xalq amaliy san‘atining ganchkorlik, naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, zardo‘zlik, kashtachilik, kandakorlik, pichoqchilik, bo‘yrachilik kabi turlarining o‘ziga xos bajarish



texnologiyasi, haqiqiy asl nomlari, o'ziga xos maktablari, uslublari, yaratgan ustalarning nomlari asta-sekin yo'qolib ketish xavfi ostida qoldi. Shuning uchun xalqning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan va yaratib kelinayotgan o'zbek xalq amaliy bezak san'atini ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash, ulardan amalda foydalanish, yoshlarga o'rgatish orqali ularning estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash hozirgi davrimizning muhim vazifalaridan biridir<sup>2</sup>.

Bu muhim vazifani bajarishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati muhimdir. Chunki bu bugungi kunning talabidir. Zamondan kelib chiqqan holda amaliy san'at aslini saqlagan holda rivojlantirmoq, zamonga hamohang tarzda kelajak avlodga yetkazmoq lozim. Yuksak did bilan ishlangan san'at asarlari buyumlaridagi bezak qismlarining aniqliligi, naqshlarning badiiy joylashishi, shakl va mazmunining birligi bilan o'zbek amaliy san'atini jahonga tanitib kelmoqda.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xurshida Xayitboboyeva. Mustaqillik davri O'zbekiston amaliy san'atida an'ana va innovatsiya (dissertatsiya ishi). – Toshkent: 2022-y.
2. Xamidova Z. O'zbekistonda san'at turlari va ularning rivojlanishi. <https://www.bukharamuseums.uz/uz/maqolalar/item/ozbekistonda-sanat-turlari-va-ularning-rivojlanishi>
3. "O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi" <http://ich.uz/uz/ich-of-uzbekistan/national-list/domain-5/460-yoghoch-oymakorligi>
4. Ismat Yusupov, Gulchexra Abrarova & Umida Usanova (2020). Ma'danga bitilgan naqshlar. *Oriental Art and Culture* (V), 63–67.
5. Sayfullaeva G.I., Rashidova N.N. & Egamova F.I. (2021). O'zbek xalqining amaliy san'ati tarixi va xalq hunarmandchiligi fanini o'qitishning asosiy vazifalari. *Scientific progress* 2 (7), 138–141.
6. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – T.: "Mehnat" (1991).
7. Bulatov S.S. & Gulyamov K.M. Amaliy sanat. – T.: Iqtisod-moliy, 2014-y.
8. Bulatov S. S. Naqqoshlik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2010-y. 22-23.
10. Xolmuratovich M.X. & Ravshanovich J.R. Amaliy va badiiy bezak san'ati. UO'K, 2020-y. 76, 075.
11. Abdirasilov S.F., Nazirbekova Sh.B. & Maxkamova S.B. (2016)., (11 (68)), 32.
12. Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 142–156. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23>

<sup>2</sup> Bulatov S.S. Rangshunoslik. – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2009-y. 135-136-b.

## TEATR REJISSYORINING GRIMYOR BILAN ISHLASH SAN'ATI

**Annotatsiya.** Maqolada grim san'atining o'ziga xos xususiyatlari, obrazni ijod maydoniga keltirishda grimyor va rejissyorning vazifalari nimalarda aks etishi haqida so'z ketadi.

**Kalit so'zlar:** grim, teatr, aktyor, rejissyor, san'at, obraz, qiyofa.

### РАБОТА ГРИМЁРА С ТЕАТРАЛЬНОМ РЕЖИССЁРОМ

**Аннотация.** В статье речь идёт об особенностях искусства гримма, каковы задачи гримёра и режиссёра по выводу образа в творческое поле.

**Ключевые слова:** грим, театр, актер, режиссер, искусство, образ, внешность.

### WORK OF A MAKE-UP MAKER WITH THE THEATER DIRECTOR

**Abstract.** The article talks about the features of the art of makeup, what are the tasks of the makeup artist and director in bringing the image into the creative field.

**Key words:** make-up, theater, actor, director, art, image, appearance.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qarorida: "Yosh ijodkorlarga ta'lim-tarbiya berish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali olib borish, aholining o'sib borayotgan madaniy ehtiyojlarini qondirish va madaniy xizmatlar sifatini keskin oshirish imkonini bermayapti"<sup>1</sup>, – deb qayd etilgan. Bu esa Prezidentimiz tomonidan san'at sohasiga e'tibor kuchaytirilganligining, grim san'atiga esa alohida e'tibor berilayotganligining asosidir. O'zbekistonda ilk bor 2019-yil O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Grim" bo'limi ochildi. Hozirgi kunda teatr va kino sohasida professional grimga ehtiyoj kuchayib bormoqda.

Institutda teatr san'ati talabalari uchun "Grimyorni rejissyor bilan ishlashi" fani mavjud bo'lib, bu fanni o'qitishda birinchi vazifa – ularda yuqori malakali, ijodkor mutaxassislarni tayyorlashdir. Bu bo'lajak grimyorlarning kelajakda teatr va kinoda rejissyorlar bilan ijodiy hamkorlikda yuqori darajadagi did va badiiy tafakkurga ega asarlarda obraz yaratish qobiliyatiga ega bo'lishlariga yordam beradi. Grimyorni o'qitish jarayonida, grim san'atining nazariy va amaliy tomonlari haqida mukammal ta'lim beriladi va bo'lajak aktyorlar o'qish jarayonida grimyorni rejissyor bilan ishlash uslublari, nazariy va amaliy tomonlarini o'rganib boradilar.

Teatr san'atida bundan tashqari o'qish jarayonida grimyor rejissyor bilan trening mashqlari bo'yicha mustaqil ravishda o'z ishlarini tayyorlab boradi.

Aktyorlar bilan ishlashda grim san'ati sohasining keng qamrovli soha ekanligi hisobga olinib, faqat eng asosiy bilimlar mukammal darajada o'rgatiladi. Masalan, grimyor teatr rejissyori, musiqali teatr rejissyori, estrada teatr rejissyori, kino rejissyorining ijodiy faoliyatlaridagi muhim farqlari va o'xshashliklarini, ish yuritish yo'nalishlarining nozik tomonlari pedagog tomonidan misollar orqali tushuntiriladi. Grimyorni teatr rejissyori va kinorejissyori bilan o'zaro bog'liqlikda ijod qilishi uchun bu san'atning xususiyatlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishi darkor.

**Grim san'ati tarixi.** Teatr grimining ilk shakli diniy marosimlarda mavjud bo'lgan, ushbu jarayonda faqat inson tanasi bo'yalgan va marosimiy niqob kiydirilgan. Ov niqoblari hayvonlarning qiyofasini ifodalagan. Tomosha uchun sahnaga o'xshagan qurilma qurilib, uni maxsus parda bilan bekitishgan. Urug'chilik davrida teatr san'ati bilan shamanlar shug'ullangan. Shaman niqob va bosh kiyimi orqali oliy ruhning tashqi qiyofasini yaratgan. Ular go'yoki yuklatilgan vazifani bajarishgan. O'zbek teatr san'atida mohir grimyor, O'zbekistonda ximat ko'rsatgan madaniyat xodimi Sur'at Jalilov grim san'atida o'z maktabini qoldirgan. Hozirgi kunda bu san'at bilan uning davomchisi dotsent Feruza Jalilova, O'zDSMI talabalariga grimning sir-asrorlaridan saboq berib kelmoqda.

"Grim" fransuzcha "grime", italyanча "grumo" so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi "inson yuzida ajin qilish" deganidir. Teatr san'atida esa grimyor aktyor yaratayotgan obrazga qarab, badiiy qiyofa hosil etishdir. Grimyor badiiy asar, pyesa, ssenariyning badiiy xususiyatlari, qahramonlarning fe'l-atvori, ko'rinishi, xarakteri, aktyor va rejissyorning ijodiy maqsadiga qarab turli obrazlarni yaratadi. Ko'pincha rassom va rejissyor hamkorligi eskiz va maketlardan boshlanadi. Liboslar ko'rinishi, nur bilan yoritilishi, sahnaning rang ifodasi, kartinalarning joylashishi,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 28.11.2018-yildagi PQ-4038-son qarori.

mizansahnalar yaratish maket va eskizlarda aks ettiriladi. Sahnada jihoz va ashyolarning joylashishi aktyor ijrosiga yordam berishi kerak. Rassomning barcha izlanishlari asarning mag'zini tasvirda ifodalashga qaratiladi. Mo'jizakor sahnaning imkoniyati keng. Rassom va rejissyor hamkorligida mana shu imkoniyatlardan unumli foydalanib, san'at asari yaratiladi.

Grim bilan ishlashda birinchi o'rinda grimyor rassom bilan hamkorlikda ishlaydi. Grimyor – tasvirlar orqali sahnaviy obraz ustida ishlaydi. Grimyor asar ishtirokchilarini ijtimoiy kelib chiqishi, ular kim, qaysi tabaqadan, qanday liboslarda ekanligini rejissyor bilan birgalikda dramaturgik asarlardan foydalanib, obrazni tashqi ko'rinishini ishlab chiqadi va ishlanyotgan obraz eskizlari chiziladi. Grimyorning tasviri spektakldagi tashqi ifoda va ichki teranlikni ifoda etishi kerak. Grimyor va rejissyor g'oyalarining uyg'unligi kutilgan ijodiy natijalarga olib keladi.

Buning uchun grimyor, albatta, spektakl har bir repetitsiya jarayonida qantashishi shart. Sababki, repetitsiya jarayonida obrazlarning vazifalari o'zgarishi mumkin, hattoki, obrazlar butunlay o'zgarib ketishi mumkin. Shuning uchun ham grimyor har bir repetitsiya va pragonlarda qatnashish shart.

Grimyor rejissyor bilan ishlaganda quyidagilarni bilishi va ulardan foydalana olishi zarurdir:

- *rolga yondashuv usullari;*
- *rolida xarakter yaratish;*
- *rejissyor bilan hamkorlikda rolning yechimini hal etish;*
- *grim orqali xarakter topish;*
- *pyesa ustida birgalikda ishlash;*
- *asarning badiiy yaxlitligi;*
- *dunyo teatr san'ati tajribalari va usullaridan foydalanish.*

Mo'jizakor sahnaviy badiiy asarning yaxlitligini yaratishda grim katta ahamiyat kasb etadi. Grim nozik san'at hisoblanadi. Grim ustida ishlash portret yaratuvchi rassom yoki haykaltarosh ijodini eslatadi. Grimning asosiy maqsadi, aktyorning tashqi qiyofasi orqali ichki mohiyatini ochishdir.

Demak, fanning asosiy maqsadi, o'zbek teatr maktabi, grim san'atining turli janrlari, rol ustida ishlash usullarini mukammal o'rgatishdir. Talabalarda yuqori darajadagi did va badiiy tafakkurni shakllantirish, badiiy yechimni kutayotgan muammolarni mustaqil ravishda hal etish ko'nikmasini shakllantirish, mashqlar, etyudlar hamda parchalar jarayonini mahorat darajasiga olib chiqish, ularni asar tanlash, tahlil qilish, zamon va makon ustida ishlash, xarakter ustida ishlash, rolda badiiy yaxlitlikka erishish, mavjud zamonaviy jahon teatr turlari imkoniyatlaridan xabardor etishdan iboratdir.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalilova F. Soch turmaklash san'ati. 2015-y.
2. Jalilova F. Grim. 2018-y.



# IV BO' LIM

## PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

Feruz MANSURBEKOVA,  
O'zDSMI "Vokal" kafedrasida dotsenti

### OLIV O'QUV YURTI TALABALARIDA VOKAL IJROCHILIK KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI VA USULLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, o'zbek vokal san'ati ta'limida talabalarining vokal ijro ko'nikma malakalarini shakllantirishda mavjud tamoyillardan oqilona foydalanish asosida bir qator pedagogik yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** vokal ijrosi, ta'lim, kompetensiyalar, mehnat bozori, akademik vokal, o'zbek vokal maktabi.

### ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВОКАЛЬНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОГО НАВЫКА СТУДЕНТОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье мы рассмотрим ряд педагогических подходов, основанных на рациональном использовании существующих принципов формирования у учащихся вокально-исполнительских навыков при обучении узбекскому вокальному искусству.

**Ключевые слова:** вокальное исполнительство, образование, компетенции, рынок труда, академический вокал, школа узбекского вокала.

### PRINCIPLES AND METHODS OF IMPROVING THE VOCAL-PERFORMING SKILL OF HIGHER EDUCATION STUDENTS

**Absrtact.** In this article, we will consider a number of pedagogical approaches based on the rational use of existing principles for the formation of students' vocal and performing skills when teaching Uzbek vocal art.

**Key words:** vocal performance, education, competencies, labor market, academic vocal, uzbek vocal school.



Oliy ta'lim tizimini insonparvarlik g'oyasi asosida isloh qilinishi kasbiy ta'limni uslubiy yo'nalishga yo'naltirishni oldindan belgilab beradi: o'quv va tarbiyaviy faoliyatni ma'naviyatlashtirish, talabalarining qiziqishlari, ehtiyojlarini qondiradigan ijodkorlikni, o'z-o'zini rivojlantirishni rag'batlantiradigan muhitni yaratish; ularning har birining imkoniyatlari, shaxsning faolligini rag'batlantirmoqda. Zamonaviy talabalarni tarbiyalash va o'qitish uchun ularning orzularida namoyon bo'ladigan shaxsiyatning ekzistensial mohiyatini tushunish va qabul qilish asosida "samara" beradigan munosabat, qadriyat yo'nalishlari, motivatsiyalar, hayot strategiyalari kontseptual yondashuvlar va uslubiy ko'rsatmalardan foydalanish muhimdir. Qayd etilgan toifalar kasbiy musiqiy-pedagogik ta'lim tizimida, xususan, o'qituvchi va talabalarining ta'lim faoliyati asosiy umumiy tamoyilga – samarali o'qitish va o'rganishga erishishga qaratilgan vokal ta'limi jarayonida o'zining munosib o'rnini topadi.

Vokal ta'limining mavjud muhim uslubiy va empirik tajribasi har safar bo'lajak mutaxassislarini musiqiy-estetik yondashuv asosida kasbga tayyorlash yangi va yangi talablarni qo'yadi. Bu talablar vokal metodologiyasining turli jihatlariga taalluqlidir.

Xususan:

- asarni o'zlashtirishda turli usullaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi;
- vokal texnikasini, qo'shiqchilik ovozini shakllantirishni, individual ijro uslubini, kasbiy ahamiyatli fazilatlarini, vokal va pedagogik mahoratni shakllantirish;
- tovushni ifodali yo'naltirish orqali qo'shiqchilik tafakkurini, emotsionalligi, vokal va ovozli-nutq madaniyatini, vokal san'atiga estetik munosabatini rivojlantirish;
- ish jarayoning ishonchligini ta'minlash, vokal uslubiy kompetentsiya, ijodiy rivojlanish va boshqalar.

Muhokamamiz asosida, professional oliy maktab talabasi bizga kasbiy tayyorgarlik jarayonida nimani o'rganishi kerakligi, qaysi kasbiy kompleksni o'zlashtirishi, ya'ni talaba qayd etilgan pozitsiyalardan o'z-o'ziga "hisobot" qilishi kerakligi haqida ko'rsatmalar ochiladi.

Ko'plab taniqli vokal o'qituvchilari, xususan, L.B.Dmitriyev, V.A.Bagadurov, I.K.Nazarenko, G.P.Stulova va boshqalar ushbu masalaga ilmiy yondashdilar. Xitoylik tadqiqotchi Ni Chjen bu sohadagi vokal maktablarining tushunchalariga tayanib: "*Vokal xonandasi madaniyati darajasini aniqlashda musiqa ilmi va madaniyat mohiyati uning ijro faoliyatining professional darajasida aks etishidadir*" [1.b.1], – deydi. O'z navbatida A.G.Sentsova, L.L.Polishchuk vokal xonandasi ijro madaniyatini shakllantirishdagi o'zni haqida fikr bildiradilar [2.b.377–380].

Vokal ijrochilik madaniyati jarayonini tahlil qilishda tadqiqotchi T.D.Smelkovaning so'zlariga ko'ra, bu hodisa: "*ijrochilarning professional qobiliyatlari to'plami, shu jumladan, yuqori xonandalik mahorati va sahna madaniyati, vokal xonandasi tomonidan yaratilgan tasvirning badiiy yaxlitligi*", – bilan belgilanadi. Ushbu asosli fikrlarga tayanib, biz zamonaviy vokal va ijrochilik madaniyatini milliy madaniy va tarixiy ijrochilik an'analarning xonandalar professional saviyasi, asarlarning shaxsiy talqini bilan uyg'unligi sifatida tavsiflashimiz mumkin [1.2].

O'zbek zamonaviy vokal ijrochilik madaniyati, o'z navbatida, milliy madaniy xususiyatlar hamda o'zbek opera an'analarning boy merosini aks ettiradi. Jahon vokal ijrochilik madaniyati turli mamlakatlar madaniy an'analarning o'zaro ta'siri va integratsiyasi, ijro maktablari hamda ijrochilarning ijodiy o'zaro ta'siridan shakllanadi. O'zbek vokal ijrochilik madaniyati vokal san'ati rivoj topgan mamlakatlar qatori umumjahon vokal san'ati madaniyatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, bu opera xonandalarining jahonga mashhur opera spektakllariga qo'shgan hissasidan dalolat beradi.

Yagona jahon vokal ijrochilik madaniyatining shakllanishiga turli mamlakatlar va xalqlar madaniyatining integratsiyalashuvi, globallashtirish texnologiyalarining rivojlanishiga umumiy tendensiyalar hech qanday chegaraga ega bo'lmagan san'atni rivojlanishiga olib keladi. Demak, jahon opera amaliyoti ma'lum darajada raqobatbardosh vokal xonandalarini tayyorlash va tarbiyalash uchun shart-sharoitlarni talab qiladi. Bularning barchasi vokal sinfining o'quv jarayonini ma'lum bir tartibga solishni, innovatsion pedagogik texnologiya va yondashuvlarni joriy qilishni talab qiladi.

Jahon sahna madaniyatidagi o'zgarishlar, so'nggi o'n yilliklarda klassik asarlarni sahnalashtirishning ta'lim tendensiyasi, ularni ommalashtirish istagi (masalan, Alisher Navoiy nomidagi katta akademik opera va balet teatridagi spektakllarga ommaviy madaniyatning ta'siri) bilan bog'liq bo'lib, zamonaviy ta'lim maskanida o'zgarishlarni talab qiladi.

Zamonaviy opera spektakllari ko'pincha sahna matnini talqin qilish erkinligi, harakat vaqtini

zamonaviy dunyoga uyg'unlashtirish, shuningdek, jamiyatning dolzarb muammolariga javob beradigan yangi rejissura nuqtayi nazarini bilan ajralib turadi. Yangi opera muhiti qaysidir ma'noda opera xonandalarining mumtoz tayyorgarligiga muammo tug'diradi hamda ulardan zamonaviy sahna madaniyatini yanada yuqori darajada egallashni talab qiladi. Shunga qaramay bo'lajak akademik vokal xonandalari o'quv rejasida aktyorlik va sahna mahorati darslari yetarli darajada kiritilmagan. Biroq bu mashg'ulotlar davomida olingan sahna tajribasi ijrochining kelajakdagi kasbiy faoliyatining haqiqiy qiyofasiga qanchalik mos kelishi muhokama talab etadigan savol bo'lib qolmoqda.

O'z kreativ tafakkuri, ma'lumotlarni tezkor qidirib topish va tahlil qilish kabi xususiyatlar bizning fikrimizcha, zamonaviy akademik vokal xonandasi professional madaniyat o'chog'iga qorishish ketish uchun talab etiladigan fazilatlaridir. Talabada ushbu fazilat va xususiyatlarni shakllanishida, avvalambor, o'qituvchi xayrixohlik qilishi zarur.

Talaba ta'lim olish jarayonida maksimal darajada vokal-ijroviy madaniyat xususiyatlar tushunchasiga ega bo'ladi. Ushbu jarayonda ustoz tom ma'noda olganda, taqlid qilinishi kerak bo'lgan obyekt emas, balki talaba, ya'ni o'z yo'nalishini izlayotgan bo'lajak xonandaga yo'l ko'rsatuvchi shaxs sifatida faoliyatini tashkillashi darkor. B.Kornetov o'z tadqiqotida ta'kidlaganidek, XX asr zamonaviy ta'lim tendensiyasi asosida o'qituvchi va talaba umumiy g'oya mualliflari sifatida hamkorlik pedagogikasi tamoyillari asosida faoliyatini yo'lga qo'yadilar.

Ta'kidlashimiz joizki, shunga qaramay pedagog vokal xonandasi uchun taqlid manbai bo'lib qolmoqda. To'g'rirog'i, umumiy vokal va ijrochilik madaniyati doirasida vokal ta'limiga zamonaviy yondashuvda asosiy e'tibor ijro uslubini to'liq nusxalashdan yosh musiqachining individual talqin qilish fazilatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Binobarin, o'zbek akademik vokal maktabi doirasida o'qituvchining shaxsiy namunasi vokal ijrochilik madaniyatini shakllantirishning muhim qismidir.

Taniqli pedagog L.G.Archajnikovning yozishicha, aynan ijrochi o'qituvchining shaxsiy namunasi bo'lajak vokal xonandasining madaniyatini shakllantiradi. Bu talabani musiqa san'ati sohasiga uyg'unlashtirish, sahna san'ati o'qituvchisi bilan birgalikda, uni "musiqiy madaniyat dirijyori" sifatida tavsiflaydi. Shu sabablarga asosan o'zbek pedagogikasi xonanda musiqiy ijtimoiylashuvda shaxsiy chegara o'rni bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. E.S.Kurdina ta'kidlashicha, shaxs "mutlaq qadriyat sifatida ijtimoiy taraqqiyot manbai" bo'ladi va uning asosiy sifatlarini tashkil etuvchi badiiy ta'lim manbai musiqadir. Bunda shaxsning mustaqil va yaxlit fikrlashi muhim rol o'ynaydi. Shaxsning kasbiy vazifalarni bajarishdagi samaradorligi ta'siri yosh mutaxassisni ishga joylashtirish bilan bog'liq turli sohalarda aks etadi.

Vokal xonanda uchun asarni notadan o'qish, vokal apparatini o'zlashtirish va asosiy akkompaniment, ya'ni jo'rovovlik qobiliyatlariga ega bo'lish qobiliyati "qat'iy" talablarga misol bo'lishi mumkin. Ushbu qat'iy

talablar majburiy ravishda talabalik jarayonidagi imtihonlardayoq sayqallanib boradi.

“Yumshoq” ko'nikmalar – bu xodimning jamoaga qo'shilmasligi, ijtimoiylashishi mumkin bo'lmagan narsadir, shaxsiy va psixologik fazilatlar ish muhitida shunday namoyon bo'ladi. Ushbu yengil ko'nikmalar pedagogikada azaldan qayd etilgan va ular kompetensiyalar deb nom oldi. Mutaxassisning kasbiy hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lishiga va pedagogik hamda ijrochilik faoliyatini amalga oshirishga imkon beradigan kompetensiyalarni shakllantirish A.E.Fyodorovning tadqiqotida batafsil ko'rib chiqilgan. U ta'limga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni “bilimlarni ulashish bilan dominant ta'lim paradigmasini bosqichma-bosqich qayta yo'naltirish, kompetensiyalar majmuasini o'zlashtirish uchun sharoit yaratish ko'nikmalarini shakllantirish” sifatida tavsiflaydi.

O'znavbatida E.Ya.Kogan kasbiy kompetensiyalarni egallash jarayonini mutaxassisning kasbiy muammolarni keyingi hal qilish uchun har tomonlama fikrlash qobiliyati nuqtayi nazaridan tavsiflaydi. S.A.Ostaninaning ta'kidlashicha, zamonaviy ta'lim paradigmasi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni qo'llashda “biluvchi” shaxsdan kasbiy qiyinchiliklarga “tayyorlangan” shaxsga o'tadi va o'z

kasbiy sohasidagi muammolarni hal qilish qobiliyati qo'shiladi.

Tadqiqotchilar A.E.Fyodorov, S.E.Metelyev, A.A.Solovyov va E.V.Shlyakovalar pedagogikadagi kompetensiyalarning beshta yo'nalishini ajratib ko'rsatadilar: *ijtimoiy muloqot va jamoada ishlash bilan bog'liq kompetensiyalar; boshqa madaniyatlarga, dinlarga bag'rikenglik bilan bog'liq kompetensiyalar; og'zaki va yozma nutqni bilish darajasini belgilovchi kompetensiyalar; yangi texnologiyalarni tezda o'zlashtirishga yordam beradigan kompetensiyalar; o'rganish va o'rgatish istagiga ta'sir qiluvchi kompetensiyalar* [1].

Musiqachining yuqori texnologiyali muhitga integratsiyalashuvining bir qismi sifatida axborot texnologiyalarini egallashi O.V.Mxitaryan tomonidan o'rganilib, professional o'zini o'zi rivojlantirish musiqachining axborot muhitiga moslashish qobiliyatiga bevosita bog'liqligini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi pozitsiyalardan kelib chiqqan holda zamonaviy akademik vokal ta'lim maydoni ijrochi kasbining mansab kompetensiyalarining rivojlanish dinamikasiga, zamonaviy bilimlarning barcha sohalarining globallashuv tendensiyasiga va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga javob berishi kerak, degan xulosaga kelamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чжу Т. СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ В ФОРМИРОВАНИИ ВОКАЛЬНО-ИСПОЛНИТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В ВУЗЕ. // Современные проблемы науки и образования. 2022 г. №1 URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=31429>
2. Артемова Е.Г. Основные тенденции в развитии современной оперной режиссуры (на примере московских театров). // Наука, общество, культура: проблемы и перспективы взаимодействия в современном мире: монография. – Петрозаводск, 2021 г. Стр. 87–100.
3. Гиматдинова Э.Р., Гилязов Р.Г. Современные тенденции развития вокального искусства. // Музыкальная культура XXI века: Теория, исполнительство, образование: материалы I Всероссийской научно-практической конференции. 2020 г. Стр. 326–331.
4. Трифонова И.А. Академическое вокальное искусство как социокультурный феномен: диссертация кандидата философских наук: 24.00.01 // Трифонова Инна Александровна; [Место защиты: Тюмен. гос. ун-т]. – Тюмень: 2011 г. Стр.183.
5. Мансурбекова Феруза Гайратовна (2020). ВОПРОСЫ ОБЪЕКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ И НАУЧНОГО ТВОРЧЕСТВО В ПОДГОТОВКЕ ТВОРЧЕСКИХ ЛИЧНОСТЕЙ. European Journal of Arts, (1), 144-147.
6. Mansurbekova Feruza Gayratovna (2022). ZAMONAVIY TA'LIMDA VOKAL KO'NIKMALARINING ISTIQBOLLARI. Science and innovation, 1 (Special Issue 2), 828-831. doi: 10.5281/zenodo.7377721
7. Мансурбекова Феруза Гайратовна. (2022). YOSHLARDA XOR SAN'ATI HAQIDAGI DASTLABKI BILIM VA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING ENG SAMARALI USULLARI. Conferencea, 112–118. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/800>
8. Васильченко Ольга Анатольевна 2022. НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКИ. Conferencea. (Jun. 2022), 269–273.
9. Васильченко Ольга Анатольевна (2022). МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК НЕОБХОДИМЫЙ АСПЕКТ ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (12), 1393-1397.
10. Murodova D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 1(1). 196–199.
11. Насритдинова М.Н. (2022). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСЦЕЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С ПАТОЛОГИЕЙ, СВЯЗАННЫХ С ГИПОКСИИ, ПОСРЕДСТВОМ ИСКУССТВ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 385–393.
12. Насритдинова М.Н. (2022). МУСИҚА ИНСОНИАТГА НИМА УЧУН КЕРАК? Science and innovation, 1 (Special Issue 2), 577–580.

## СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ СФЕРА КАК ФАКТОР ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ ОПТИМИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖИ

**Аннотация.** В статье раскрыты ключевые положения социально-культурной деятельности, рассматривающие вопросы социально-культурного развития молодежи в контексте последних научных знаний. Применение новых методик информационного контента изучается в статье на основе знакового и культурологического подхода, формирующего использование индустриальных, техногенных и информационных ресурсов социально-культурной сферы с позиции технологий социально-культурного творчества.

**Ключевые слова:** социально-культурная деятельность, социально-культурная сфера, технологии, социальное развитие личности, социально-культурная активность.

## IJTIMOYIY-MADANIY SOHA YOSHLARNING IJTIMOYIY- MADANIY RIVOJLANISHINI OPTIMALLASHTIRISH SHAROITIDA INNOVATSION FAOLIYAT OMILI SIFATIDA

**Annotatsiya.** Maqolada, yoshlarning ijtimoiy-madaniy rivojlanish masalalarini so'nggi ilmiy bilimlar kontekstida ko'rib chiqadigan ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy qoidalari ochib berilgan. Axborot tarkibining yangi usullaridan foydalanish maqolada ijtimoiy-madaniy ijod texnologiyalari nuqtayi nazaridan ijtimoiy-madaniy sohaning sanoat, texnogen va axborot resurslaridan foydalanishni shakllantiradigan muhim va madaniy yondashuv asosida o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-madaniy faoliyat, ijtimoiy-madaniy soha, texnologiya, shaxsning ijtimoiy rivojlanishi, ijtimoiy-madaniy faoliyat.

## SOCIO-CULTURAL SPHERE AS A FACTOR OF INNOVATIVE PRACTICE IN THE CONDITIONS OF SOCIO- CULTURAL DEVELOPMENT OPTIMIZATION OF YOUTH

**Abstract.** The article reveals the key positions of socio-cultural activities which address the issues of socio-cultural development of youth in the context of the latest scientific knowledge. The application of new methods of informational content is studied in the article on the basis of knowledge and cultural approach, which forms the use of industrial, technogenic and information resources of socio-cultural sphere from the standpoint of socio-cultural creativity technologies.

**Key words:** socio-cultural activity, socio-cultural sphere, technology, social development of the person, socio-cultural activity.

В современных условиях определение ближайших и долгосрочных перспектив в Узбекистане требует инновационных действий и современных координат, основанных на интеграции науки и практики. 12 января 2023 года Шавкат Мирзиёев выступил на пленарном заседании саммита «Голос глобального Юга», прошедшего в онлайн-формате. «Мы должны широко вовлечь нашу талантливую молодёжь в разработку национальных и международных программ в области изменения климата, рационального использования водных ресурсов, альтернативной энергетики, цифровизации и других приоритетных направлениях», – подчеркнул Шавкат Мирзиёев.

Серьезным и главным генератором социально-экономического развития Узбекистана должно стать внедрение инновационных социально-культурных

общественных практик, с целью повышения эффективности работы с молодежью. В современном обществе именно инновации в социально-культурной сфере формируют среду, которая способствует научно-техническим, технологическим и информационным нововведениям, обеспечивая ускорение и повышение эффективности инновационных решений.

Инновация – это внедрение новшества, обладающее высокой эффективностью и результативностью. Как отмечает Яковец Ю.В. «Инновационную деятельность можно определить достаточно просто – это внесение в разнообразные виды человеческой деятельности новых элементов, которые повышают ее эффективность» [8]. Инновация является результатом интеллектуально-творческой деятельности человека.



Социально-культурная сфера в Узбекистане как фактор инновационной практики в условиях оптимизации социально-культурного развития молодежи, обусловлена реализацией многокомпонентной и многоступенчатой основой социального развития личности. Актуальность исследования в этом направлении подтверждена поиском инновационных технологий творческого саморазвития личности молодежи на основе использования культурных ценностей. Возможности социально-культурной практики определены поиском условий реализации культуры творчества и творческой индивидуальности. Это позволяет достичь значение новых уровней и граней социальной адаптации молодежи к обществу и искусству.

Социально-культурная сфера связана с использованием различных инновационных технологий, позволяющих реализовать личности свой творческий и индивидуальный социально-культурный потенциал. Инновационные социально-культурные практики формируют основы новых знаний о мире, искусстве, культуре, технике. Это делает возможным реализацию технологий в социально-культурной сфере в системе проектов, которые формируют исследовательские, интеллектуальные, познавательно-творческие процессы у молодежи, определяющиеся реализацией социокультурной компетенции и активизацией мыслительной деятельности.

Инновационные модусы социально-культурной практики в условиях современного социально-культурного развития личности формируют новую парадигму исследований социально-культурного процесса, связанного с организацией и унификацией определенных требований, предъявляемых к формированию досуговой компетенции молодежи. Важнейшим направлением здесь выступает комплекс знаний на основе усвоения ценностно-ориентационных категорий, формирующих систематизацию культурологических теорий и гипотез о возможностях инновационного развития человека.

Сегодня готовность к инновационной деятельности есть комплексное отражение уровня сформированности инновационного компонента профессиональной деятельности специалиста. Современное профессиональное образование направлено на развитие у выпускников широких универсальных компетенций, которые помогают им научиться понимать происходящие процессы и быть конкурентоспособными [7].

Молодежь – это социальная категория, которая отличается открытостью ко всему новому, креативному, мобильному и нестандартному, а также динамичными формами социального поведения. Возможности молодежи в системе культуры саморазвития опосредованы требованиями общества к волонтерским направлениям, а также к социальным инициативам в области культуры и искусства.

Использование в этой форме социально-культурных потребностей и интересов молодежи должно быть реализовано в условиях индивидуальности, духовности, творческого мышления. Система инновационных ценностей современного социально-

культурного пространства сегодня направлена на культурные проекты и форумы, региональные и государственные гранты для молодых, которые позволяют им стремиться к социальному успеху.

Возможности применения социально-культурных проектов и программ для формирования инновационного мышления молодежи опосредованно социально-культурным заказом на современную личность, мыслящую креативно, свободно и умеющую осуществлять свои социально-культурные полномочия в условиях различных региональных конкурсных систем.

Отсюда, важно подчеркнуть, что культурологические ценности социально-культурной среды должны совмещать мировоззренческие нормы и креативные формулы на уровне применения инновационных знаний, умений, навыков в системе досуговедения. Поэтому использование социально-культурных и творческих интересов молодежи выявляется в условиях интеграции фандрейзинга, благотворительности, волонтерства, селф-менеджмента, что позволяет реализовать на различных уровнях условия, качественно расширяющие уровни творческого менталитета молодежи.

Благотворительность сегодня имеет большое значение в системе организации различных направлений социально-культурной сферы, так как позволяет интегрировано соединять различные уровни и степени культурных индивидуальных инициатив, опосредованных как межкультурным взаимодействием, так и социально-культурной направленностью на общественно-значимые результаты.

Индивидуализация и интеграция личности в среду предусматривает социально-культурные технологии на особых условиях, связанных с использованием инновационных технологий, основанных на мультимедиа и цифровых информационных контентов, которые формируют различные досуговые компетенции личности в системе он-лайн. Информационные технологии – это особое направление в развитии досуговой культуры личности, которые формируют креативный потенциал мышления и поведения, способствуя новым эмоциональным реакциям молодежи на культурные изменения в социально-культурной среде.

Различные компьютерные программы и определенные культурные контенты, связанные с игровыми компьютерными технологиями, сегодня обеспечивают массовое внедрение в сознание молодежи новых социальных культурных ориентиров, которые влияют как на игровые, так и на социальные компоненты личностных новообразований.

Волонтерство сегодня имеет новые форматы, которые связывают потенциал молодежи с особыми условиями их развития. Это определяет не только высокие требования к волонтерам, но и способствует их профессионализации и специализации в различных профессионально востребованных областях: знание иностранного языка, знания технологии туристических коммуникации, межкультурных коммуникаций, умение оказывать первую медицинскую помощь, умение организовывать

массовые мероприятия. Волонтерам сегодня предлагают различные учебные образовательные и познавательные творческие обучающие семинары, лагерные сборы, которые способствуют не просто накоплению ценного социально-культурного опыта, но и формируют интеллектуальные формы освоения действительности на основе привлечения к самым главным, общественно-важным событиям государства. Современные волонтеры направлены на оказание определенных услуг, которые реализуют индивидуальные и творческие компетенции личности, расширяют социокультурные навыки на основе понимания основных направлений развития государственной культурной политики.

Кроме этого, применение мультимедиа направлено на формирование ценностно-смыслового восприятия действительности в условиях новых технологий, обеспечивающих усвоение различных ценностей с позиции социально-культурной интеграции смыслов, деятельности и поведения современного человека. Отсюда, поведенческие стандарты личности связаны с определенными коммуникациями, предполагающими мобильность, вариативность, полифункциональность, технологичность, информационность, креативность, социальность и коммуникативность.

Стратификация общества подчинена определенным маргинальным системам, которые задают тон в развитии социально-культурной активности молодёжи. Современная молодёжь – это молодёжь, которая формирует новое поле, связанное с исследовательскими, интеллектуальными, многофункциональными значениями, позволяющими ей быстро ориентироваться в различных ситуациях. Поэтому познавательная направленность социально-культурной активности личности сегодня должна быть связана не только с интенсификацией интеллектуальной активности, но и опосредована уровнями и формами социальной культурной интеграции личности в общество.

Использование мобильных систем позволяет личности быстро ориентироваться в современной социально-культурной ситуации, мгновенно меняя решения и принимая новые, которые способствуют в конечном итоге активизации социального и умственного потенциала, что определяет не только многоцелевое и многокомпонентное их развитие в условиях современного общества, но и позволяет личности познавать мир на основе новых ситуационных решений. Отсюда, ситуационные технологии сегодня очень востребованы в условиях различных кейс-программ и квест-технологиях, имеющих не просто ситуативные контенты, но и инновационные креативные практики, связанные с поэтапной формой освоения действительности.

Социально-культурная сфера – это совокупность художественно-эстетических, творческих и зрелищных организаций, соединенная с массовыми услугами, при использовании государственных целевых и внебюджетных фондов обеспечения [4].

А.А. Сукало отмечает, что информационные, субкультурные, корпоративные и иные сети форми-

руют новые стили и формы проявления активности индивидов и социальных групп. Важным обстоятельством является глобальное культурно-цивилизационное противостояние, интенсивное использование инновационных досуговых технологий, которые представляют собой сложный конгломерат субкультур, творческих и досуговых индустрий [6].

М.П. Камаева, Л.А. Малинина выявили, что ориентир на постоянно развивающуюся инновационную деятельность, на творческую способность к импровизации определяет потребность социально-культурной сферы в менеджерах социально-культурной деятельности. По их мнению, данная профессия требует развития предприимчивости, креативности, умения воплощать творческие идеи и брать на себя ответственность, создавать успешный и достойный имидж, владеть коммуникативными компетенциями, действовать в конфликтных ситуациях [2].

Использование социально-культурного развития различных инновационных технологий, в первую очередь, связано с реализацией воспитательного, педагогического и межкультурного потенциала различных молодежных проектов, вовлекающих молодёжь в мир ценностных ориентаций в области искусства, культуры и творчества.

Так, исследователь И.Ф. Симонова выявила следующие инновационные стратегии социально-культурной сферы: использование современных маркетинговых стратегий продвижения продуктов и услуг; использование видов рекламных стратегий; внедрение современных технологий социально-культурного проектирования; систематическое изучение культурно-досуговых потребностей и степени их удовлетворенности (целевые, потенциальные аудитории); реализация системы поощрений населения за участие в культурно-досуговой деятельности [5; с. 227].

Кейсы сегодня определены ситуационным мышлением, их применение востребовано в условиях развития информационных технологий. Результаты выполнения кейса связаны с культурологическими знаниями широкого характера, контролирующими сферу досуга населения. Это позволяет выявить проблемы, которые могут быть решены посредством осуществления новых социально-культурных проектов, определить возможности и ограничения проектирования, имеющиеся ресурсы с точки зрения возможности их использования в предполагаемом проекте, а также основные риски.

К.А. Бовыкин отмечает, что глобализация обеспечивает взаимопроникновение и взаимообусловленность различных компонентов мирового сообщества. В условиях глобализации размываются и перестают быть единственной истиной вековые культурные ценности, меняются человеческие идентификации, формируется иное социальное образование. В таких условиях синтез «глобализационных» подходов, синтез между национальным и глобальным, приводит к тому, что определённые нации будут принимать свою, уникальную форму в целом общего и глобального самоощущения [1].

Отсюда, инновационное социально-культурное развитие личности есть процесс накопления знаний и социально-культурного опыта на основе поиска уникальных практик. Эти практики реализуются через системы формообразования и проектные технологии, формирующие полярность интересов молодежи в системе социально-культурной сферы. Социально-культурное развитие – это самый сложный психолого-педагогический и социально-культурный процесс, опосредованный различными целевыми и мотивационно-потребными установками личности, а также требований общества к социально – культурному мировоззрению на основе определенных ценностных артефактов. Индивидуализация и социализация сегодня находятся в теснейших интеграционных взаимосвязях на основе включения личности в самые сложные социально-культурные процессы аккультурации и инкультурации.

Различные творческие галереи и инновационные площадки для молодежи в неформальной обстановке обеспечивают общение в условиях развития личностной состоятельности в творчестве, предоставляют возможность утвердиться в своем профессиональном выборе, определиться с траекторией творческого становления. Молодежь – это общий уровень тех новых граней творческой активности в субкультуре, которая формирует основы для стабильности на фоне происходящих изменений.

Комплекс социально-культурных тематик и проблем, которые динамично решаются на протяжении последних лет, имеют фундаментально-теоретический, прикладной, научно-творческий характер, позволяющий определять наиболее актуальные сферы развития социально-культурной активности молодежи в области культуры, искусства и образования, учитывая специфику региона. Это практики искусства, дизайна, архитектуры, флористики, IT-технологий, живописи.

Существенный рост социально-культурной активности молодежи в сфере трансфера знаний и коммуникаций обоснован формами культурной и социальной деятельности, участия в творческих проектах, программах театрального, музыкального и изобразительного искусств. Значительный динамизм и новые импульсы для совершенствования и развития социально-культурной активности молодежи в многоступенчатом профессиональном обучении связаны со сферами народного художественного творчества, социально-культурной, библиотечно-информационной деятельностью, культурологией, педагогикой и психологией, музейным и философским направлением.

П.А. Петров выявил, что социально-философский анализ феномена глобализации обеспечен конкретизацией содержания разных форм глобализма как социального явления, определения однополярной глобализации, социальных, экономических и политических проблем как следствия экономических монополий [3].

Глобальные изменения в экономике, культуре, политике определяют направленность социальных

измерений социально-культурной активности личности на основе вовлечения в социально-значимую деятельность. Формирование социально – культурной сферы сегодня связано с использованием законодательных инициатив, формирующих особые требования к развитию социально – культурных инноваций в сфере образования, воспитания, развития и комплексного обеспечения образовательного процесса в учебном учреждении.

Социально-культурная форма творческого познания молодежи определяется изменениями, происходящими в области высшего образования, позволяющего интегративно соединять творчество, познание, научные инициативы молодежи с проектной деятельностью. Отсюда, области креативного знания позволяют формировать определенные стандарты, которые связывают инновационное мышление молодежи на основе вовлечения ее в акции, применения технологий мультимедиа, технологий внедрения туристических проектов в молодежную среду, технологий использования социально-нравственных и мировоззренческих ценностей в системе организации свободного времени молодежи.

Постоянная основа внедрения интеграционных схем познавательной направленности для молодежи сегодня меняется в сторону мультимедийных технологий, обеспечивающих введение и применение культурологических схем и деятельностных моделей, формирующих инициативы в области культуры и искусства.

Важно подчеркнуть, что социально-культурная сфера – это интеграция деятельности и поведения личности в системе применения умений анализировать, обобщать, синтезировать основы социально-культурных процессов, которые непосредственно влияют на мировоззренческие установки человека.

Последние исследования в области социально-культурной деятельности доказывают, что многие ученые отмечают тот факт, что формы и методы работы с молодежью сегодня в основном связаны с применением мультимедийных и информационных программ, ориентирующих на новые поведенческие стандарты, которые в конечном итоге должны привести к социально-культурной активности личности.

Социально-культурная деятельность – это деятельность, связанная с освоением ценностей, а также социальной работой, позволяющей реализовать творческие инициативы личности на основе применения определенных навыков организации свободного времени молодежи. Важно отметить, что государство непосредственно влияет на образовательные и воспитательные цели, которые ставят высшие учебные учреждения, способствуя развитию адаптационных и интеграционных начал личности в системе позиционирования своих талантов и способностей. Интеграционные процессы в управлении высшим профессиональным образованием в Республике Узбекистан получили в настоящее время большое развитие. Наибольшей

популярности достигли: процесс интеграции вуза с наукой и производством; вариативные формы развития социального партнерства в системе высшего образования; взаимодействие вузов с образовательными учреждениями разных уровней [8].

Основная сфера применения знаний в условиях свободного времени делится на три части: спортивная, художественно-образовательное творчество, социально-культурная сфера. Основы применения креативных программ в системе ресурсной базы экономических сфер СКД, определены формообразующими параметрами потенциального социально-культурного знания. Поэтому, социальное развитие личности в этом направлении коррелирует с глобализационными и трансформационными процессами на основе усвоения ценностно-нормативного поля творчества.

Культура – это форма освоения пространства, базирующаяся на различных направлениях деятельности и поведения людей, поэтому ее основы должны изучаться в условиях полного осознания молодежью культуротворческих систем. Кроме этого, социально-культурная активность личности должна быть раскрыта в том направлении, которое позволяет личности применять фоновые и базовые знания о мире на основе культурных архетипов и артефактов, направленных на категориальный каркас науки социально-культурной деятельности.

Культурологические основы социально-культурной сферы пересекаются с аксиологическими знаниями о ней в контексте инновационных режимов, поддерживающих ресурсные основы СКД. Поэтому так важно использовать мультимедиа в системах оценивания качества социально-культурного про-

цесса, определяя его направленность на реальные режимы развития человека. Важно подчеркнуть, что основа творческого саморазвития молодого человека сегодня связана с использованием труда, учебы, профессии, творчества и определяется его досуговыми интересами в сфере кино, искусства, развлечений, познания. Все эти направления возможно сочетать с профессионализацией и специализацией творческих профессий, так как основы знаний специалиста СКД должны быть опосредованы талантами и умениями, связанными с искусством.

Подводя итог вышесказанному, важно подчеркнуть, что культурологическая база социально-культурной сферы определяется сегодня важными реформами, направленными на внедрение медиаполитики государства в условиях социально-культурной модернизации, информационных и междисциплинарных систем, опирающихся на научные принципы социально-культурной деятельности. Важным фактором модернизации является медиаобразование, применение аудиовизуальных коммуникаций и медиатехнологий в социально-культурной деятельности, а также развитие медиапространства. Модернизация социально-культурной сферы в условиях прогнозов дальнейшего развития общества, представляет собой эволюционное преобразование путем усложнения развития личности и ее потребностей. Используя принципы преемственности в условиях обновления методологических подходов социально-культурной сферы, можно отметить, что самоорганизация человека сегодня подчинена альтернативному синергетическому прорыву в новые формы развития.



#### Использованная литература:

1. Бовыкин К.А. Идентичность человека в условиях глобализации. // Диалог культур в контексте образовательной деятельности: сборник материалов Всероссийской научно-практической конференции. – Набережные Челны: 2020 г. Стр. 23–28.
2. Камаева М.П., Малинина Л.А. Формирование имиджа конкурентноспособного менеджера социально-культурной деятельности. // Наука, общество, культура: проблемы и перспективы взаимодействия в современном мире: сборник статей III Международной научно-практической конференции. – Петрозаводск: 2020. Стр. 104–107.
3. Петров П.А. Концепции глобализации в социальной философии. // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Гуманитарные и общественные науки. – Ташкент: 2018 г. №1. Стр. 80–89. DOI: 10.18721/JHSS.9109
4. Социально-культурная сфера в XXI веке: тенденции, проблемы, перспективы. // Под ред. канд. экон. наук, доц. Е.Я. Морозовой. – СПб.: Изд-во «Инфо-Да», 2017 г. Стр.376.
5. Симонова И.Ф. Социально-культурное проектирование: технология предварительного проектного исследования: учебное пособие. – СПб.: Научное издание, 2020 г. Стр.330.
6. Сукало А.А. Информационно-технологический ресурс модернизации современных социокультурных практик. // Вестник Санкт-Петербургского государственного института культуры. 2018г. № 3 (36). Стр. 96-100.
7. Юлдашева М.Б. Особенности развития стратегии профессионального образования в сфере культуры. Вестник института искусств и культуры Узбекистана “Уз ДСМИ хабарлари”, №4 2020 г.
8. Яковец Ю.В. Эпохальные инновации XXI века. – М.: «Экономика», 2004 г. Стр.437.

Давлат МУЛЛАДЖАНОВ,  
кандидат искусствоведения, доцент кафедры «Инструментального исполнительства и  
Музыкально-теоретических дисциплин» ГИИКУз

## ЗНАЧЕНИЕ КОНЦЕРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНЧЕСКИХ КОЛЛЕКТИВОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО ИНСТИТУТА ИСКУССТВ И КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** Данная статья раскрывает значение учебного процесса студенческих коллективов, а также деятельность высококвалифицированных педагогов-руководителей – оркестра народных инструментов и хора «Нихол» Государственного института искусств и культуры Узбекистана. Анализируется концертно-исполнительская деятельность коллективов, способствующая развитию духовно-нравственных, профессиональных качеств студенческой молодежи.

**Ключевые слова:** музыка, искусство, хормейстер, дирижёр, композитор, студенческий коллектив, оркестр, хор, репертуар, обработка, аранжировка.

## O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI TALABALAR IJODIY JAMOLARINING KONSERT FAOLIYAT XUSUSIDA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining xalq cholg'ulari orkestri va "Nihol" xor talabalar jamoalarining o'quv jarayonidagi ahamiyati, ularning yuqori malakali o'qituvchi-rahbarlari faoliyatiga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy, kasbiy fazilatlarini yuksaltirishga xizmat qilayotgan ushbu jamoalarning konsert va ijro repertuarlari tahlil qilingan.

**Kalitli so'zlar:** musiqa, san'at, xormeyster, dirijyor, bastakor, talabalar jamoasi, orkestr, xor, repertuar, qayta ishlash, aranjirovka.

## THE IMPORTANCE OF CONCERT ACTIVITIES OF STUDENT COLLECTIVES OF THE STATE INSTITUTE ARTS AND CULTURES OF UZBEKISTAN

**Abstract.** This article reveals the importance of the educational process of student groups, as well as the activities of highly qualified teacher-leaders - orchestra of national instruments and the choral "Nikhof" of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan. The concert and performing activities of groups that contribute to the development of spiritual, moral, and professional qualities of student youth are analyzed.

**Key words:** music, art, conductor, choirmaster, composer, student group, orchestr, choir, repertoire, processing, arrangement.

Одной из приоритетных задач в Новом Узбекистане является интеллектуальное, гармоничное развитие молодого поколения. «*Действительно, воспитание молодежи в духе национальных и общечеловеческих ценностей остается для нас вопросом, никогда не теряющим свою актуальность и значимость*» [1. 44]. Именно вопросам образования и воспитания уделено внимание в Государственном институте искусств и культуры Узбекистана (ГИИКУз.). Работа со студенческими коллективами соответствует требованиям времени.

Музыка – это вид искусства, который влияет на формирование профессиональных, духовных, морально-этических качеств человека любого возраста, особенно молодого поколения. В связи с этим правительство Узбекистана уделяет большое внимание

интеллектуальному, высокодуховному развитию молодежи. Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев подчёркивает: «*Нынешняя стремительно меняющаяся жизнь ставит перед нами все новые непростые вопросы, и, принимая меры для их решения, мы еще раз убеждаемся в том, что это зависит, в первую очередь, от образования и воспитания молодежи, формирования ее мировоззрения на основе современных знаний, духовности и просвещения*» [2. 365].

Как известно, музыкальное исполнительство соприкасается с вопросами духовности и просветительства, в котором чрезвычайно важен творческий опыт известных исполнителей. Именно об этом весьма чётко и конкретно высказался глава нашего государства в своём выступлении: «*Если мы сможем объединить знания, жизнен-*

ный опыт, дальновидность старшего поколения с энтузиазмом, смелостью и целеустремленностью нашей молодежи, то обязательно достигнем поставленных перед собой целей» [3. 2].

В ГИИКУз согласно Учебному Плану создан ряд студенческих, творческих коллективов. Свои глубокие знания в обучении и воспитании студенческой молодежи отдают ведущие специалисты Узбекистана, это Народные, Заслуженные артисты и научные деятели искусства и культуры, Хафизы, а также сплоченный профессорско-преподавательский состав. Активная концертная деятельность студенческих коллективов разных кафедр заслуживает внимания и достойного уважения.

В данном случае, привлекает сфера деятельности кафедр Инструментального исполнительства и Вокала. В частности, на кафедре «Инструментальное исполнительство и Музыкально-теоретические дисциплины» функционирует, получивший определенную известность, студенческий коллектив – оркестр узбекских народных инструментов под руководством доцента Собирджона Туратова. Важным представляется то, что в работе с коллективом продолжают осуществляться традиции «Устоз-шоғирд». Свидетельством вышесказанному является педагогическая деятельность профессорско-преподавательского состава.

Ретроспективный взгляд, обращенный на работу кафедры свидетельствует о преемственности поколений, что весьма важно в процессе обучения и воспитания гармонично развитой личности, уважения старшего поколения, соблюдение и развитие творческих традиций, поддержка выпускников – молодых специалистов на местах работы по всему региону. Первоначально студенческий оркестр узбекских народных инструментов



формировался под руководством талантливого музыканта, мудрого наставника, профессора Карима Азимова. Далее коллективом руководил видный общественный деятель, профессор Уразали Ташматов. В настоящее время, продолжая традиции старшего поколения, интересные творческие концерты студенческого оркестра проходят под руководством Собирджона Туратова и его младшего коллеги Жавохира Туратова, также выпускника этой кафедры.

Следует отметить, что оркестр представляет собой своеобразную «учебно-творческую лабораторию», призванную, наряду с учебным процессом активизировать концертную деятельность, которая приводит «музыкантов (студентов Вуза – М.Д.) в мир новых музыкальных открытий, эстетических переживаний, знаний» [4]. Велика роль оркестрового класса в процессе воспитания молодого современного человека, имеющего духовно-нравственные качества для учебы и последующей работы в оркестре.

За годы учебы, наряду с профессиональным образованием, в студенческом оркестре приобретаются навыки дирижирования, концертирующего исполнителя. Концертная деятельность студенческого коллектива очень важна в Учебном Плане. Воспитывается и развивается ряд качеств, такие как: артистизм, исполнительское мастерство, профессиональное изучение музыкального текста, творческая выносливость, эмоциональная сдержанность, освоение этики, правил сценического движения, умение «слышать» своих коллег по оркестру, дружеское отношение в коллективе, взаимоподдержка, качество творческой уверенности в себе, слабые стремятся за сильными, развивая талант музыканта-исполнителя.

Систематические концертные выступления студенческой молодежи, положительно влияют на процесс образования. Рассматривая учебно-исполнительский репертуар оркестра, следует отметить, насыщенность в жанровом и стилевом направлениях. Концерты расширяют музыкальный кругозор, творческое отношение, формирование музыкального мышления. Изучение произведений композиторов Узбекистана – Мутаваккила Бурханова, Манаса Левиева, Фархада Алимова, Хабибуллы Рахимова, Фаттаха Назарова, Анора Назарова, Нодима Нарходжаева, Дилором Амануллаевой, Мухаммада Атаджанова и других, помогает молодежи развивать узбекскую музыкальную культуру. В свою очередь, произведения мировой классики – Вольфганга Моцарта, Иоганнеса Брамса, Иогана Штрауса и других. Аранжировки народных песен развивают интонационный кругозор студента, который приобретает профессиональные исполнительские навыки игры на узбекских народных инструментах.



География концертной деятельности студенческого коллектива весьма широка. Многие годы

концерты проводятся в учебных учреждениях Ташкента, Чирчике, Янгиюле, Карши, Сырдарьинской и Джиззакской областях, в Президентской школе и Детских и специализированных школах искусств, в Государственном педагогическом университете, в Военном госпитале, в домах по линии «Меҳрибонлик» и в стенах родного института. Так, например, в мае 2023 года, в плане обмена опытом состоялась поездка педагогов в Каршинскую специализированную школу искусств. Педагоги ГИИКУз увлеченно и интересно рассказали о своей педагогической, исполнительской, научной деятельности, провели с учащимися мастер-классы. Заслуженный артист Узбекистана, доцент Камил Шерматов исполнил ряд произведений на кануне, Собир и Жавохир Туратовы дирижировали оркестром данной школы искусств, автор этих строк провел мастер-класс, раскрывая тему «Роль и значение музыкально-теоретических дисциплин в общем профессиональном музыкальном образовании». Отраднo, что в этом учебном учреждении успешно работают выпускники ГИИКУз.

На кафедре Вокала ГИИКУз., которой заведует Заслуженный работник культуры Узбекистана, доцент, Саодат Музаффарова, имеется студенческий хоровой коллектив – «Ниҳол» («Росток»), Лауреат Международных и Республиканских конкурсов. Многие годы руководителем данного коллектива является маститый, талантливый хормейстер, профессор Кадыр Мирзаев, посвятивший всю свою творческую жизнь развитию хорового исполнительства в Узбекистане. Совместно со своим Устозом К.Мирзаевым, продолжая традиции кафедры активную работу ведет доцент Феруза Мансурбекова, обучая студенческую молодежь хорошему исполнению. Регулярно проводятся концертные выступления, как в стенах родного Вуза, также в учебных учреждениях Республики. Следует отметить важную работу в хоре пианистов-концертмейстеров Натальи Беляновой и Жанны Пак.



В исполнительском репертуаре студенческого хора «Ниҳол» звучат произведения разных жанров, стилей, эпох. Особую ценность в образовательном процессе, являясь его основой по классу хорового пения, представляют произведения композиторов Узбекистана. Это – романсы и переложения песен для хора народов Востока Мутаваккила Бурханова, дуэты из оперы «Проделки Майсары» Сулеймана Юдакова, многочислен-

ные песни и аранжировки для хора Батыра Умеджанова, авторские произведения Дилором Амануллаевой, Фархада Алимова, Мухаммада Атаджанова. Наряду с этим изучается фольклор народов мира, произведения композиторов европейской, русской классической музыки – Антонио Вивальди, Вольфганга Моцарта, Сергея Рахманинова, Георгия Свиридова и многих других.



С процессом обучения в Вузе одновременно проходит и воспитание музыканта-исполнителя, будущего профессионала, руководителя хорового коллектива. Вместе с тем, ежегодно осуществляется насыщенная концертная деятельность. Особо отметим ряд крупных мероприятий 2023 года, активным участником которых был студенческий хоровой коллектив «Ниҳол». Концертные выступления состоялись на Открытии и Торжественном закрытии I Международного театрального фестиваля «Turksoy» в ГИИКУз. В программе прозвучали «Умид» Энмарка Салихова (на слова А.Мухтарова), «Қомузчу» киргизская народная песня в обработке Батыра Умеджанова.

Отраднo, что на юбилейном концерте, посвященном 90-летию со дня рождения Батыра Умеджанова, состоявшемся в концертном зале «Туркистон», мастерски руководимая К.Мирзаевым известная а`cappella «Алла», была исполнена хором «Ниҳол».

Наряду с объединённым хоровым коллективом «Ниҳол», активно развивая хоровое искусство, выступают курсовые студенческие хоры. Так, на концерте «Устозлар йўли – Нурли йўл» («Путь учителя – Светлый путь») посвященном памяти Заслуженного деятеля искусств Узбекистана (2008) и Каракалпакстана (2001), Заслуженного артиста Узбекистана (1983), орденoносца «Меҳнат шухрати», профессора, композитора Бахрулло Лутфуллаева в октябре 2023 года, под руководством орденoносца «Дўстлик», доцента Дилбар Маликовой, студенты проникновенно исполнили его авторские произведения «Алла» и «Ёр сендек» (газель Алишера Навои).

Новизной в деятельности студенческих коллективов ГИИКУз – оркестра узбекских народных инструментов и хора «Ниҳол», стало проведение

совместных концертных выступлений, а также участие в них педагогов-вокалистов. Два коллектива разных кафедр объединены в один мощный, взаимодополняющий состав. Это отчетные, тематические концерты, посвященные Государственным праздникам, а также в связи с проведением Международных и Республиканских театральных фестивалей, научных конференций в родном Вузе.

Отрадно, что хор «Нихол» неоднократно выезжал с концертами в Самарканд, Гулистан, Чирчик. Оркестр также многократно выезжал в Янгиюль и Чирчик. При таких поездках возлагается большая ответственность на руководителей студенческих коллективов Мирзаева К.Т., Мансурбекову Ф.Г., Туратова С.Т. не только за качество исполнения программы, но за здоровье каждого студента. В таких поездках проявляется взаимоуважение, солидарность, сплоченность коллектива и руководителей.

В заключении следует обратить внимание на мобилизирующее начало руководителей студенческих коллективов, стимулирующих студенче-

скую молодежь к профессиональному росту, достижению поставленных целей и задач образовательного процесса. Именно в коллективе ведется подготовка эрудированных, интеллектуально развитых музыкантов, умеющих «слушать и слышать», владеющих культурой извлечения звука голосом или на народном музыкальном инструменте, набором исполнительских приемов, постигающих искусство коллективного исполнительского мастерства, приобретает умение подерживать внимание и эмоциональное чувство зрительного зала.

Деятельность студенческого коллектива, это искусство ранее созданных традиций коллективного исполнительства, развивающие категории прекрасного, возвышенного, увлеченно стремящегося к новым творческим достижениям. Помимо этого, значение концертной деятельности студенческих коллективов института особенно важно, так как их творческая деятельность в дальнейшем будет способствовать развитию музыкального искусства и культуры Узбекистана.

#### Список использованной литературы:

1. Мирзиёев Ш.М. Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития страны и благополучия народа. // Уверенно продолжим путь национального развития на новом этапе. «Ўзбекистон», – Тошкент: 2017 г. Стр.48.
2. Мирзиёев Ш.М. Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития страны и благополучия народа. // Уверенно продолжим путь национального развития на новом этапе. Том 1. – Т.: «Ўзбекистон», 2018 г. Стр.368.
3. Мирзиёев Ш.М. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. «Народное слово», № 275-276 (7746-7747) от 30 декабря 2020 года. Стр.2.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogika-orkestrovo-ansamblevogo-ispolnitelstva/viewer>
5. Кадыров Р.Г. Музыкальная педагогика. – Т.: “Musiq”, 2012 г. Стр.87.
6. Mirzayev Q. Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti (Darslik). – Т.: A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti bosmaxonasi, 2008-y. 344-b.
7. Toshmatov O‘., Beknazarov X. Cholg‘ushunoslik (Darslik). – Т.: “Turon-iqbol”, 143-b.
8. Хомяков Т.А. Дирижерская практика учащихся в самодеятельных оркестровых коллективах. Методика и Практика учебно-воспитательной работы в ССУЗах искусства (Бухара. Август. 1979). ОКМП. – Т.: 1980 г. Стр.65.
9. Turatov J. Orkestr sinfi. “Donishmand ziyosi”, – Т.: 2023-y. 158-b.
10. Malikova D. “Ustozni yod etib”. “Teatr” jurnali, 2023-yil, №5. 10-11bet.



**М.С. МАСЛОВ,**  
кандидат социологических наук,  
заместитель декана факультета дополнительного профессионального образования  
(г. Барнаул, Российская Федерация)

**Т.А. ИОРДАН,**  
декан факультета дополнительного профессионального образования  
(г. Барнаул, Российская Федерация)

## ДОПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ИННОВАТИКА В МЕНЕДЖМЕНТЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА

**Аннотация.** В связи с изменениями современного общества и постепенного перехода к такому понятию как общество 5.0, где во всех сферах жизни общества появляется спрос на специалистов умеющих внедрить цифровые технологии в своей профессиональной деятельности, умению креативно мыслить. Показана перспективность развития новых теоретических форм и практик современных цифровых и коммуникационных технологий в системе дополнительного профессионального образования.

**Ключевые слова:** дистанционное образование, информационные технологии, сетевое обучение, информационная культура.

## QO‘SHIMCHA KASBIY TA‘LIM: MADANIYAT VA SAN‘ATNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR

**Аннотация.** Zamonaviy jamiyatdagi o‘zgarishlar va jamiyatning barcha jabhalarida raqamli texnologiyalarni o‘z kasbiy faoliyatiga tatbiq eta oladigan, ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan mutaxassislariga talab mavjud bo‘lgan jamiyat 5.0 kabi konsepsiyaga bosqichma-bosqich o‘tish munosabati bilan, qo‘shimcha kasbiy ta‘lim tizimida zamonaviy raqamli-kommunikatsiya texnologiyalarining yangi nazariy shakllari va amaliyotini rivojlantirish istiqbollari ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** masofaviy ta‘lim, axborot texnologiyalari, tarmoqli ta‘lim, axborot madaniyati.

## ADDITIONAL PROFESSIONAL EDUCATION: INNOVATION IN THE MANAGEMENT OF CULTURE AND ART

**Abstract.** Due to the changes in modern society and the gradual transition to such a concept as society 5.0, where in all spheres of society there is a demand for specialists who are able to introduce digital technologies in their professional activities, the ability to think creatively. The prospects of the development of new theoretical forms and practices of modern digital and communication technologies in the system of additional professional education are shown.

**Key words:** distance education, information technologies, network training, information culture.



Актуальность исследования состоит в том, что наступает новая эпоха, эпоха общества 5.0, это новый подход к прогнозированию возможного технологического развития дополнительного профессионального образования. Идет глобальная трансформация образовательного процесса под влиянием инноваций в технологиях и технике, в приоритете – цифровые технологии. В связи с этим повышение квалификации и профессиональная переподготовка становятся одними из важнейших и центральных сфер человеческой деятельности, теснейшим образом связанной со всеми другими сторонами общественной жизни.

По многим причинам исследование рынка труда на современном этапе формирования цифрового общества показывает, что сложился контингент работников культуры и искусства, остро нужда-

ющихся в дополнительном образовании, акцент ставится на освоении новых цифровых технологий среди библиотечных, музейных работников, специалистов социально-культурной деятельности. Традиционная система образования по причине географической изолированности, социальной незащищенности и невозможности посещать образовательные учреждения в силу физических особенностей или занятости производственными и личными делами в очной форме не может предоставить широкому кругу людей пройти профессиональную переподготовку или повысить свою квалификацию. В связи с этим, возникает необходимость осуществить поиск, апробацию и внедрение альтернативной формы получения образования, адекватной зарождающемуся информационному российскому обществу. Она должна в полной мере

обеспечивать право на получение образования, обозначенное в Конституции (Стр. 42) и в Законе Российской Федерации «Об образовании» (Раздел 1, Стр. 5) [1].

Дистанционное обучение объективно создает дополнительные условия для развития интеграционных процессов теории и практики. Современные информационные технологии становятся одним из важнейших инструментов модернизации системы дополнительного профессионального образования – от управления до обеспечения доступности образования [2].

Теоретическая и практическая значимость исследования заключаются в разработках авторов в области формирования современной образовательной среды в условиях цифровизации и применения электронных образовательных ресурсов, которые проводятся на факультете дополнительного профессионального образования Алтайского государственного института культуры [3]. Разработка и применение электронных образовательных ресурсов направлены на повышение эффективности деятельности преподавателя и слушателя в условиях постановки инновационных целей и содержания образовательного процесса.

Из целого ряда образовательных ресурсов ФДПО АГИК остановился на образовательных Web-ресурсах системы дистанционного обучения Moodle и вебинарных систем Pruffme, Webinar. RU. Использование вебинарных систем, как альтернатива «живого» общения с педагогом, обосновано эмоциональными и профессиональными особенностями специалистов социально-культурной сферы, а также содержанием дисциплин учебного плана. Обосновывается данный выбор более широкими дидактическими возможностями образовательных информационных технологий. Среди важнейших преимуществ их использования следует назвать представление информации на основе гипертекстовой технологии, в наибольшей степени соответствующей особенностям ее восприятия и осмысления слушателями по выбранным программам.

При организации работы ФДПО и разработке программ акцент ставится на инновационные технологии, которые возможно внедрить в современных музеях, библиотеках, клубах и других учреждениях культуры. Также в процессе переподготовки к каждой группе прикреплен преподаватель-тьютор, который ведет работу над развитием у обучающихся навыка самостоятельного планирования деятельности, выбора ими, с учетом индивидуальных особенностей, темпа и ритма учебных зна-

ний: слушатели устанавливают порядок освоения учебных курсов – пошаговый или модульный. Подобные возможности обеспечены технически и не препятствуют реализации педагогического потенциала, что является ключевым механизмом социализации личности и формирования деловых компетенций. Преподаватель выступает не как руководитель, а в качестве консультанта. Примерами реализации подобной концепции являются курсы повышения квалификации и программы профессиональной переподготовки по направлениям: «Менеджмент библиотечно-информационной деятельности», «Музеология и охрана объектов культурного и природного наследия», «Социально-культурная деятельность» и др.

Вопросы организации и осуществления документооборота, в том числе его автоматизации, разрабатывались и совершенствовались в рамках различных проектов. Для реализации дополнительных профессиональных программ наиболее актуальным становится создание подразделений маркетинга и цифровизации, которые будут заниматься только вопросами дистанционного обучения, взаимодействуя с другими, уже существующими в рамках вуза, структурами [4].

Высокий уровень качества дистанционного обучения на факультете дополнительного профессионального образования предполагает наличие разн. представительств позволяющих сочетать цифровые технологии дистанционного обучения с кейс-технологией в рамках единой системы дистанционного обучения. Такое сочетание обусловлено еще и тем, что в ряде случаев, сетевое обучение невозможно проводить из-за отсутствия технических возможностей.

Таким образом, дистанционное обучение в рамках профессиональной переподготовки является достойной альтернативой основным образовательным программам и оптимальным способом получения образования для специалистов-практиков, учитывая их профессиональную направленность.

Современные формы и подходы к дистанционному формату позволяют достичь результатов уровня очного обучения. Практическое исследование, проведенное в рамках работы ФДПО АГИК, подтверждает высокий уровень качества реализуемых программ дополнительного профессионального образования, который соответствует профессиональным образовательным стандартам, где обучающиеся и преподаватели находятся в постоянном взаимодействии, организованном при помощи информационно-коммуникационных технологий.

#### Использованная литература:

1. Федеральный закон от 29 декабря 2012 г. № 273-ФЗ «Об образовании в Российской Федерации».
2. Аракелян М.М. СДО: от потребности до внедрения. // Справочник по управлению персоналом. 2012 г. № 3. Стр. 10–17.
3. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании. – М.: 2009 г. Стр.192.
4. Ибрагимов И.М. Информационные технологии и средства дистанционного обучения. – М.: 2005 г. Стр.336.

## TASVIRIY SAN’ATNING RANGTASVIR FANI ORQALI TALABALAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, rangtasvir fani o’rganishdan maqsad kelajakda tasviriy san’at o’qituvchisini rangtasvir fanining nazariyasi va amaliy ko’nikmalarini chuqur egallash, ularning ijodiy qobiliyatini shakllantirish va qolaversa, olingan bilim va malakalariga asoslangan holda o’zining kuzatishlari, badiiy tasvir yaratish oldidan qilinadigan izlanishlarida, ayniqsa eskizlar, ular asosida katta ko’lamdagi san’at asarlarini yaratishda rangtasvirning o’rni beqiyosligi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** gamma, eskiz, motiv, akvarel, tempera, guash, moybo’yoq, mato, grunt, konstruktiv, tus-soya, plastika, grizayl, monumental, kompozitsiya, portret, natyurmort, axromatik, xromatik, spektr, perspektiva, mo’vqalam, kolorit.

## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ЖИВОПИСЬ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

**Аннотация.** В данной статье раскрыты цель обучения живописи, которое состоит в том, чтобы развить у будущего учителя изобразительного искусства овладеть теорией и практическими навыками живописи, формировать свои творческие способности, а кроме того, на основе полученных знаний и умений, в своих наблюдениях, а также в исследованиях перед созданием художественного образа, особенно эскизы, на основе которых даются сведения о ни с чем не сравнимой роли цвета в создании масштабных художественных произведений.

**Ключевые слова:** гамма, эскиз, этюд, мотив, темпера, гуашь, акварель, ткань, фон, конструктив, оттенки, пластика, гризайль, монументальность, композиция, портрет, натюрморт, ахроматика, хроматика, спектр, перспектива, кисть, колорит.

## DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS THROUGH PAINTING OF FINE ART

**Abstract.** This article reveals the goal of teaching painting, which is to develop a future teacher of fine arts to master the theory and practical skills of painting, to form their creative abilities, and in addition, based on the knowledge and skills gained, in their observations, as well as in research before creating an artistic image, especially sketches, on the basis of which information is given about the incomparable role of color in the creation of large-scale artistic works.

**Key words:** gamma, sketch, study, motif, tempera, gouache, watercolor, fabric, background, constructive, shade, plastic, grisaille, monumentality, composition, portrait, still life, achromatic, chromatic, spectrum, perspective, brush, coloring.

“Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqar-  
masligimiz kerak:

mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy  
etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivoj-  
lanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab  
baholanadi. Shu ma’noda, madaniyat – bu xalqimiz,  
jamiyatimiz qiyofasidir.

Biz O’zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga  
kirishgan ekanmiz, buni avvalo, milliy madaniyatimizni  
rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim”<sup>1</sup>.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-  
yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli Farmoni bilan  
tasdiqlangan “2017–2021-yillarda O’zbekiston  
Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor  
yo’nalishi bo’yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy

kadrlarning raqobatbardosh va umumjahon talablariga  
mos qilib tayyorlash lozimligi haqida to’xtalib o’tilgan.

Demak, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash  
bugungi kunda ustozlar oldida turgan vazifalardan  
biridir. Jamiyatning yuksalib rivojlanishi ilmiy, bilimli  
insonlarning ilmiy salohiyatiga bog’liqligi hech  
birimizga sir emas. Shuni ta’kidlash joizki, eng avval,  
ijodkor va qobiliyatli talabalarni aniqlay olishimiz  
kerak. Bunda har bir ilmiy xodim uchun, iqtidorli  
talaba uchun, qobiliyatini, mahoratini maksimum  
darajada namoyon etuvchi sharoitni yaratish lozim  
bo’ladi. Bu imkoniyat va sharoitdan kelib chiqib,  
ilmiy xodim, talaba o’z ustida ishlaydi va ijod qiladi.  
Ilmda samarali mehnat qilib, kashfiyotlar bilan boyitib,  
olimlar safini kengaytiradi. Boshqalardan ko’ra  
ko’proq ijodga intiladigan talabalarga e’tibor berish  
dankor. Aslida ijodiy qobiliyatning tug’ma belgilari har  
qanday odamga, har qanday normal bolaga xosdir.  
Faqat uni ochish, shakllantirish va rivojlantirish kerak.  
Biroq ijodiy jarayon mohiyati hamma uchun bir xildir.

<sup>1</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida  
madaniyat va san’at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga  
bag’ishlangan yig’ilishdagi nutqi. 2017-yil, 25-dekabr. <https://president.uz/oz/lists/view/1378>

Ijod elementlari kundalik hayotiy vazifalarni yechishda ko'rinadi, yana ularni oddiy fikrlash jarayonida ham ko'rish mumkin.

Ijodning yagona ta'rifi hozircha yo'q, biroq u haqida aniq tushuncha hosil bo'lgan. Talabalarni ijodga undash uchun ularga stimullar berilishi olishimiz lozim. Ular o'sha stimullar asosida o'z ustida ishlaydi. Yangi-yangi kashfiyotlar yaratadi. Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o'zining *"Buyuk didaktika"* asarining IV bobida *"Hammani hamma narsaga o'rgatish mumkin"*, degan g'oyani ilgari surgan. Shu fikrga asosan, biz o'rganuvchida xohishni hosil qilishimiz kerak bo'ladi. O'qitish san'atini yaxshi bilgan kishi inson ongini xohlaganicha rivojlantirishi mumkin. Buning uchun o'qituvchida yoki o'rgatuvchida pedagogik mahorat bo'lishi lozim, degan xulosaga kelamiz. Talabalardagi shijoat, mahoratni ko'ra bilgan mohir ustoz ularga pedagogik jihatdan yondashib, yo'l-yo'riqlar ko'rsatib bora olsa, talabalarda ijodkorlik asta-sekin shakllanib, rivojlanib boradi [1.92].

Tasviriy san'atda rangtasvir fani ixtisoslashgan maktablar hamda oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlar qatori muhim hisoblanadi va ular orasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi. Tasviriy faoliyatning nazariyasini muntazam o'rganish, tasviriy san'at ta'limini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy shartlaridandir. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin [2.49]. *"Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, u bamosolli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qaerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi"*, – deya ta'kidlagan Leonardo da Vinchi. *"Ayniqsa, rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi"*, – deydi ulug' rassom [3.124].

Rangtasvir haqqoniy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslangan. Rangtasvirni o'rganish – bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, hajmi, fazoviy tuzilishi usullarini izlash yo'lidir. Shularga bog'liq holda har bir talaba buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbat, hajmni mukammal tasvirlay olishi zarur. Qalamtasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyg'unlashuvi bu haqiqiy rangtasviridir. Tasvirda qalamsurat mukammal bo'lishi lozim, aks holda turli bo'yoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, hajmini savodli ifodalab bermaydi. Havo perspektivasiga bog'liq holda ranglarning nozik o'zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rang-barang surtmalar ham o'z-o'zidan fazoviy kenglikni ifoda eta olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to'g'ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada ham jozibali ko'rsatadi. Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o'ri ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Rangtasvirni rassomlar shunday ta'riflaydilar: *"Bu yuz foiz qalamtasvir va yuz foiz rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir"*.

Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o'ri beqiyosdir. Ammo mohir rassom, qalamdan foydalanmasdan ishni bo'yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog'liqligini his etadi. Ya'ni buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to'g'ri qo'yilishi ishni bir butunlikda yakunlanishi ko'p jihatdan ijodkorga bog'liqdir. Rassom qalamtasvirni puxta o'zlashtirib olgandagina (qog'ozga to'g'ri joylashtirish, narsa va buyumlarning fazoviy joylashuvi, perspektiva qoidalariga amal qilish, nisbatlarni to'g'ri topish, metodik ketma- ketlikda ishni tushirish va h.k.) rangtasvirda ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishini tahlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bo'lmasin, baribir bu ishni sifatli, deb bo'lmaydi [8–11]. Shuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvohlik beradiki, ta'limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o'zlashtirish, keyingi o'rganish mashq jarayonlari uchun zamin yaratadi. Yosh rassom Eduardo Fioletti Venesiyaga o'qishga kelganida, *"rangtasvirni mukammal egallash uchun nima qilish kerak"*, degan savoliga ustoz rassom Tintoretto: *"Rasm chizish!"* deb javob bergan. *"Rassom bo'lish uchun yana qo'shimcha nimalarni maslahat berar edingiz"*, degan Fiolettining qayta savoliga Tintoretto: *"Rasm chizish va yana rasm chizish!"* deb javob qilgan-u, rasm chizish rangtasvirga nafislik va mukammallik ato etishini haq, deb bilgan [4.257].

Buyuk haykaltarosh Mikelanjelo qalamtasvirda (rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik) *"har qanday ilmning ildizi va negizini ko'rgan"*. *"Qalamtasvir doimo bizga yo'l ko'rsatib turuvchi qutb va kompas bo'lib, turli bo'yoqlar ummonlarida cho'kayotganlarga najot berish omilidir"*, – deya ta'kidlagan Sharl Lebrun. *"Shunday narsa mavjudki u hamma san'at turlarining asosi hisoblanadi, bu – qalamtasvir. Kimki qalamtasvir san'atini mukammal egallasa, u rangtasvirni ham haykaltaroshlikni ham o'zlashtira oladi"*, – deb aytgan Karachchi. *"Har qanday shaklni ajoyib nafis qiluvchi ranglar emas, balki aniq chizilgan qalamtasviridir"*, – degan Titsian. *"Qalamtasvirga asoslanmagan rangtasvir, san'at emas, balki rangli dog'larning tartibsiz yig'indisidir"*, – deya doim takrorlagan V.Ye. Makovskiy. *"Qalamtasvirni puxta bilmagan ijod ham qila olmaydi"*, – deb ta'lim bergan P.P.Chistyakov. I.Ye.Repin kunora 2-3 soat qalamtasvir bilan shug'ullangan va uni *"rangtasvirning asosi"*, deb hisoblagan. A.V.Vasnesov, P.P.Chistyakovning ta'lim berish tizimini yodga olib, *"uning sevimli mashg'uloti qalamtasvir edi"*, deb eslaydi. A.Ashbening Myunxendagi rassom-pedagog maktabida, hattoki, san'at Akademiyasini tamomlaganlar ham ta'lim olar, ta'lim berish faqat qalamtasvir bo'yicha bo'lib (shaklning konstruktiv tuzilishi, tus-soya, yorug' munosabatlari aks etgan tasvir, grizayl), u uzoq vaqt o'tkazilgan, shuning natijasidagina shaklni konstruktiv qurish va tus munosabatlarini puxta egallanib, so'ng ranglar bilan tasvirlashga o'tilgan. Mashhur rassomlarning ko'pchiligi, avvalambor, yetuk

qalamtasvir ustalaridir. Bular qatoriga K.P.Bryullov, I.I.Shishkin, V.Ye.Makovskiy, V.A.Polenov, I.Ye.Repin, M.A.Vrubel, V.A.Serov, K.A.Korovin, M.Nabiev, R.Ahmedov, B.Jalolov, A.Mirzaev, A.Ikromjonov kabi mohir mo'yqalam sohiblari kiradi [11–19].

Talabalarning uzluksiz mashqlari natijasida ranglardagi nozik o'zgarishlarni farqlashga, kuzatuvchanlikni rivojlanishiga rang-baranglikni sezishga hamda tasviriy vositalarni mohirona egallashlariga zamin yaratiladi. Tajribali rassomlarning ranglavhalarini kuzatganlarida ularning nihoyatda nafis va jozibali tasvirlanganiga havas bilan qaraydilar [10–24]. Shuning uchun talabalar mohirona tasvirlash malakasiga ega bo'lishlari uchun doimo tinmay mashq qilishlari natijasida ko'zlangan maqsadga erishadilar [12-2].

D.N.Kardovskiyning fikricha, agar biz rangtasvir bu – qalamtasvirning rangda davom etishi, deb aytsek shaklning rangda talqin etilishi, qalamtasvirdan boshlanadi va ijod jarayonida u bir necha marotaba to'g'rilanadi, ranglar bilan sayqallanadi. Qalamtasvir mahoratini puxta egallash, betakror rangtasvir asarlari yaratish garovidir. P.P.Konchalovskiy rangtasvirda qalamtasvirning mohiyatini ko'rib, shunday yozgan: *“Rangtasvirning haqiqiy usuli – bu shaklni mutlaqo aniq yetkazib berish yo'li bilan beriladigan bo'yoq surtmadir”*.

Haqqoniy san'atda asosiy badiiy qiyofa, bu qalamtasviridir. U jism shaklini qayta ishlab chiqadi, voqea va insonlar haqida ma'lumot beradi. Qalamtasvirda tasavvur, kompozitsiya g'oyalari mujassamlashgan. Kompozitsiya, avvalo, qalamtasvirda paydo bo'ladi (plastik g'oya) va qayd etiladi. Hattoki, haykaltarosh va me'morlarning dastlabki g'oyalari qalamtasvirdagi qoramadan boshlanadi. Rassomlarda esa plastika haqidagi fikr, kompozitsiya to'g'risidagi umumiy o'ylar doimo qalamtasvirda paydo bo'ladi. Qalamtasvir san'atining haqiqiy ustasi bo'lish va uni to'g'ri tushunish turli yo'nalishdagi rassomlarga: grafik rassom, me'mor, sahna bezakchisi, monumentalchi rassom va boshqalarga juda muhimdir. Agar kino yoki teatr rassomi qalamtasvir sir-asrorlarini mukammal egallamagan bo'lsa, uni haqiqiy ijodkor, deb bo'lmaydi. Hattoki, haqqoniy qalamtasvir chizish maktabida tarbiyalangan rassomlar tasviriy san'atning har qaysi turi bo'yicha yaratgan ijodiy mahsulining qiymatiga qarab tasviriy, madaniy darajasi qadrlanadi.

Agar bezatuvchi rassom-pedagog yoki monumentalchi kabi ixtisosliklardagi rassom haqiqiy qalamtasvir asoslarini puxta o'rganmay turib asar yaratishni boshlasa, u dastgohli san'at asarini chala yaratilishiga, tasvirda soxta manzaraning paydo bo'lishiga, haqiqiy inson qiyofasini to'laqonli aks etmasligiga sababchi bo'lib, tasvirlanayotgan voqea va hodisalarni asl mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Rangtasvirda mohirona ijod qilish uchun yosh rassom-pedagog qalamtasvirdan nazariy bilim va amaliy malakalarni puxta o'zlashtirishi lozim. Qo'yilmani turli ranglarda bajarish ham mas'uliyatli vazifadir, chunki rangtasvirda rang va tus munosabatlari

yaxlit bir butunlikka asoslanadi. Shakl hajmini tasvirlashda tusning o'rnini to'g'ri tushunmaslik turli chalkashliklarga olib keladi. Demak, eng muhimi qalamtasvirda ishni tus jihatdan yaxlit bir butunlikka erishib yakunlash hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida rangtasvirga o'tishga qulay imkon yaratadi.

*“Rangtasvir – tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo'laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug'lik kuchini va har bir bo'laklarni o'zaro taqqoslash natijasida, bo'yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to'laqonli ifodalash mumkin”*, – deb aytgan edi K.F.Yuon. Manzara etyudlarida, masalan, osmon va suvni tasvirlashda asosan ranglarning och to'qligi va to'yinganligi orqali munosabatlarni ko'rsatishga erishiladi. Turli-tuman boshqa faoliyatlarda (portret, natyurmortda) tus va ranglar kuchining aniq munosabati haqqoniy tus munosabatlar qurilishini aniqlaydi. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar I.Nyuton, M.Lomonosov, Gelmgol'slar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M.V.Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan.

Isaak Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likni ko'p rangli ekanligini isbotlagan. Ektranda spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton Quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o'tkazib, uning yo'lga uch qirrali prizma qo'ygan. Natijada ektranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik yig'indisi hosil bo'lgan. Ektranda spektr ranglari paydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg'aldoq, yashil, zangori, havorang va binafsharanglar.

Nyuton ranglarni fizika fani nuqtayi nazaridan o'rgangan bo'lsa, nemis shoiri va san'atshunosi I.V.Gyoteni ranglarning kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri ko'proq qiziqirtgan. U *“Ranglar haqidagi ta'limot”* nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratgan. Iliq (sarg'ish, qizil) ranglar kishida kayfichog'lik tuyg'usini, sovuq (havorang, yashil) ranglar esa ma'yuslik tuyg'usini uyg'otishi haqida yozgan. XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgol's rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati – rang tusi, rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash zarurligini ko'rsatdi. Ilmiy izlanishlar va amaliyot jarayonida qator qonun-qoida ishlab chiqilgan bo'lib, talaba o'zining o'quv jarayonida va ijodiy ishida ularga amal qilishi shart.

Tabiatdagi ranglar o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga: axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli) xillarga bo'linadi. Axromatik ranglarga oq, kulrang va qora ranglar kiradi. Boshqa ranglar esa xromatik ranglarni tashkil qiladi. Ular o'zaro aralashtirilganda esa yana bir qancha tusdagi ranglarni hosil qiladi. Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak uning jozibadorligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinmaganligi, deganda

kulrangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushunish kerak. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havorang, zangori, ko'k, binafsharanglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagi esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishga sabab qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatasa, havorang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi [13–637].

Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo'lib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari (texnikasi)ni bilishni taqozo etadi. Bo'yoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy e'tiborini qaratishi kerak. Shunda rangning tabiatdagi ko'rinishi va tasvirdagi ko'rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin. Chunki narsaning rangi bizdan uzoq-yaqinligiga qarab o'zgarib ko'rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko'rinishiga ta'siridandir. Qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to'g'ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi, deb hisoblasak o'rindir. Akvarel bo'yog'ida ishlash ham o'z navbatida jiddiy o'qib o'rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg'ulotdir. Buning uchun amaliy ishning o'zi kifoya qilmaydi. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o'rganib borishni taqozo etadi. Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rinni egallaydi.

Akvarel – rangtasvirning eng nozik turlaridan biri. Qadimdan akvarel nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko'pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel lotincha so'z bo'lib “*suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo'yoqlar*” ma'nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo'yoq moddasi o'simlik yoki ma'danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni va biriktiruvchi modda sifatida olcha elimi, gliitsirin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo'lgani uchun bo'yoqqa suv qo'shib suyultirib ishlatiladi. Akvarelda oq rang ishlatilmaydi. Uning o'rnini oq qog'ozning o'zi o'taydi. Qog'oz oppoq, yetarli darajada qalin va yuzasi g'adir-budir bo'lishi zarur. U agar juda silliq bo'lsa, sathida ranglar yetarli darajada yopilmaydi. Narsa va buyumlar tasvirlarini bo'yash jarayonida umumiydan xususiyga yoki aksincha, xususiydan umumiyga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi [14].

Xulosa qilib aytganda, malakali rangtasvirchi har qanday buyum va narsaning shartli rangini ko'ra bilishi va mohirona tasvirlay olishi zarur. Shundagina tomoshabin asarning haqiqiy borliqdagi ko'rinishini tomosha qilishga muyassar bo'ladi. Aynan shartli rang haqqoniy rangtasvirning asosiy tasvir usuli bo'lib hisoblanadi. Tajribali rassomlar yorug'lik ranglari ta'siridagi tabiatda sodir bo'layotgan nozik o'zgarishlarni ham bo'yoqlar vositasida mohirona tasvirlaydilar. Agar biz tungi oy nurida tasvirlangan bir qator asarlarni ko'zdan kechirsak, hammasida ko'kimtir yashil tuslar yig'indisini ko'ramiz. Quyosh botishi yoki oqshom vaqtida, sun'iy elektrda yoritilgan asarlarda sarg'ish olovrang yoki qizg'ish koloritni ko'rish mumkin. V.Serov, I.Repin, M.Nabiyev, O'.Tansiqboyev, R.Ahmedov, A.Mo'minov, I.Haydarov, P.Benkovlarning ko'plab asarlarida sun'iy elektr yorug'ligi, quyosh botishi, oydin kecha yoki bulutli havoda buyum va narsalardagi shartli ranglarni yuqori malakada tasvirlanganligini guvohi bo'lamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Najiyeva S. (2022). Talabalar ijodiy faoliyati va mahoratini shakllantirishning pedagogik ahamiyati. *Jamiyat va innovatsiyalar*, 3(4/S), 91–96. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp91-96>
2. Abdirasilov S., Tolipov N. “Rangtasvir” (darslik) – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo”, 2019-y.
3. Talipov N.Kh. “IS GRAPHICS IMPORTANT IN PAINTING?” ISSN: 2249-7137, Vol. 11, Issue 1, January 2021-y. 984–990-b. <http://dx.doi.org/10.5958/2249-7137.2021.00117.8>
4. Talipov N.X., Aliev N.S. “THE IMPORTANCE OF PERSPECTIVE IN TEACHING ART TO FUTURE FINE ARTS TEACHERS”. ISSN: 2278-4853., Vol 10, Issue 2, February, 2021-y. 102–108-b. <http://dx.doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00051.3>
5. Bulatov S.S., Jabbarov R.R. *Philosophical and psychological analysis of works of fine arts (monograph)*. Science and Technology Publishing House, 2010.
6. Nozimovich T.N., Ibrahimovna, Y.N. & Ravshanovich J.R. (2020). Development Of Student's Creative Abilities In The Fine Arts In The Higher Education System. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2 (07), 232–238. DOI: <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue07-30>



# V-BO' LIM

## KUTUBXONASHUNOSLIK

Soyibnazar DAVLATOV,  
“Kutubxona-axborot faoliyati” fakulteti dekani,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

### SHAYBONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA KUTUBXONALAR

**Аннотация.** Mazkur maqolada, Shayboniyxon hukmronlik qilgan davrda uning saroyida kutubxona bo'lib, unda o'z qalamiga mansub asarlari ham, uning ishtirokida tuzilgan to'plamlar ham saqlanishi haqida ma'lumotlar ayrim kutubxonalarda, Shayboniyxonning Samarqanddagi madrasasida qo'lyozmalar avaylab saqlanganligi, shular orasida ancha-muncha nodir qo'lyozmalar ham bo'lganligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kutubxona, kitob, qo'lyozma, madrasa, masjid, madaniyat, ilm-fan, san'at hattot, muqovasoz.

### БИБЛИОТЕКИ В ЭПОХУ ПРАВЛЕНИЯ ШАЙБАНЫЕ

**Аннотация.** В данной статье анализируются библиотека, которая находилась во дворце Шайбанихана, рассматриваются произведения самого правителя, сборники, составленные с его участием, которые сохранились в библиотеке, рассказывается о рукописях, бережно сохраняющиеся рукописи Шайбанихана в Самарканде и о ценных рукописях, которые находятся среди них.

**Ключевые слова:** библиотека, книга, рукопись, медресе, мечеть, культура, наука, искусство, каллиграф, обложка.

### LIBRARIES DURING THE REIGN OF SHAYBONIY

**Abstract.** In this article, there was a library in Shaibani Khan's palace during his reign, where both his own works and the collections created with his participation were kept. Manuscripts were carefully kept in some libraries, in Shaibani Khan's madrasa in Samarkand, among them many it was analyzed that there were some rare manuscripts.

**Key words:** library, book, medrese, manuscript, culture, education, science, editor, even, hattot, coverless.



XV–XVI asrlarda Sirdaryodan tortib, Markaziy Afg'onistongacha bo'lgan juda katta hududda Shayboniyxonning ulkan saltanati tashkil topdi. Shayboniyxon shayboniylar sulolasining asoschisi bo'lib, bu yerda ham temuriylar davrida bo'lgani kabi madaniyan'analarsaqlanibqolganedi. Movarounnahrda she'riyat va adabiyot, ilm-fan va san'at ancha rivoj topdi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida ko'plab shoirlar yashab ijod qildi, Markaziy Osiyo adabiy hayotining antologiyasi hisoblangan Hasan Buxoriy Nisoriyning “Muzakkir al-ahbob”, Mutribiyning “Tazkirai Shuaro” nomli kitoblari yuzaga keldi. O'zbek (turkiy) tilida ko'plab tarixiy asarlar yaratildi, Muhammad Solihning “Shayboniyнома” nomli qahramonlik dostoni, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” va boshqa ko'pgina asarlari shular jumlasidandir. Zayniddin Vosifiyning “Badan alviya”, Fazlulloh ibn Ro'zbxon Isfahoniyning “Mehmonnomayi Buxoro”, nomli memuarlari dunyoga keldi. Agar shayboniylar davrida ilm-fan unchalik rivoj topmagan bo'lsa-da, tibbiyot sohasida bir qadar siljishlar bo'ldi [1].

Madaniyatning rivojlanishi kutubxonalarning yanada o'sishini taqozo etdi, lekin bu kutubxonalarni hajm va mazmun jihatidan oldingilariga tenglashtirib bo'lmadi.

Bu davrda saroy kutubxonalari bilan bir qatorda madrasalar, masjidlar qoshida hamda xonadonlarda ham kutubxonalar rivojlandi. Shayboniyxon (1451–1510) va uning vorislari adabiyotga va ilm-fanga bir muncha homiylik qildilar. Hirotilik taniqli va iste'dodli shoirlar, xorazmlik Muhammad Solih va hirotilik Kamoliddin Binoiy Shayboniyxon saroyiga xizmatga o'tdilar. Shayboniyxon o'z davriga yarasha anchagina ma'lumotli kishi edi. Uning o'zi o'zbek va fors tillarida she'rlar bitgan, o'zbek tilida “Bahr ul-Xudo” nomli asar yozgani ma'lum. Shayboniyxon hattotlikka katta e'tibor berdi, uni ko'pgina boshqa masalalar ham qiziqtirardi. “O'zining butun harbiy hayotiga qaramasdan, deb yozgan edi L.A. Semyonov, – u qaysi shahar va qishloqda bo'lmasin, qayerda to'xtamasin, olimi-u ulamolar, so'fiylar va shoirlar bilan suhbatlashishni yoqtirardi”.

Shayboniyxon hukmronlik qilgan davrda uning saroyida kutubxona bo'lib, unda o'z qalamiga mansub asarlari ham, uning ishtirokida tuzilgan to'plamlar ham saqlanardi. Masalan, “Tavorixi guzida” (Tanlangan asarlar, talabalar kitobi) shular jumlasidandir. Ayrim kutubxonalarda, Shayboniyxonning Samarqanddagi madrasasida qo'lyozmalar avaylab saqlangan, shular

orasida ancha-muncha nodir qo'lyozmalar ham bo'lgan. Shayboniyxonning vorislaridan uning amakivachchasi, shoir Ubaydullaxon Ubaydiy (1533–1589) ayniqsa, katta kutubxonaga ega bo'lgan. Bu kutubxonadagi noyob qo'lyozma hisoblangan **“Kulliyoti Ubaydiy”** nihoyatda chiroyli bezatilgan bo'lib, bizning kunlarimizgacha yetib kelgan va hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Shuni ham aytish kerakki, ayrim kutubxonalar huzurida turli asarlarni boshqa tillardan o'zbek tiliga tarjima qilish ishlari ham keng ko'lamda olib borilgan. Bu sohada Buxorodagi Abdulazizxon kutubxonasi ajralib turgan, kitoblar o'sha davrning mashhur hattotlari Mirali Hiraviy va Ahmad al-Husayniy ishtirokida tayyorlangan.

Abdullaxon II kutubxonasi ham ma'lum darajada mashhur bo'lgan, bu kutubxonada uzoq yillar mashhur hattot Mir Husayn al-Husayn boshchilik qilgan. Yirik kutubxonalarda tajribali musavvirlar va muqovasozlar ham ishlashar, kitoblar o'sha vaqtlarda ancha keng taraqqiy etgan Markaziy Osiyo mo'jaz san'ati namunalari bilan chiroyli qilib bezatilgan. Ko'pgina yirik asarlar, chunonchi, **“Fathnoma”**, **“Tarixi Abdulxayrxoniy”**, 1521-yilda Alisher Navoiy asarlarining ro'yxati ana shunday original tarzda bezatilgan va 1562–1563-yillarda muqovalangan. **“Tavorixi guzida”** va boshqa asarlar ham shunday miniatyuralar bilan bezatilgan hamda ishlangan [2].

Abdulazizxon (1509–1550) shayboniylardan Ubaydullaxonning o'g'li, Xorazm hokimi (1538–1539). Otasining vafoti (1539)dan so'ng mamlakatda ikki hokimiyatchilik yuzaga kelib, Abdulazizxon Buxoro xoni (1540–1550) edi. Abdulazizxon o'z hukmronligi davrida davlat va aholi manfaatlarini ko'zlab, qator islohotlarni amalga oshirgan. Jumladan, ayrim soliq, tanob puli va boshqa to'lovlarni bekor qildi. Boshlagan ishlari oxiriga yetmasdan olamdan o'tdi. Bu ishlarning davomiyligi Abdullaxon II davrida amalga oshirilib, Buxoroda ko'pgina madrasalar va kutubxonalar, Bahovuddin Naqshband qabristonida xonaqolar qurdirdi. Shayboniylar davrida bo'lgani kabi, joniylar sulolasi davrida ham Buxoro xonligida musulmon dini xalq hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu vaqtda aniq va tabiiy fanlar birmuncha tanazzulga uchradi. Ulug'bek va uning Samarqanddagi rasadxonasida ishlagan Ali Qushchi kabi shogirdi mutafakkirlar yetishib chiqmadi. Shunga qaramasdan ilohiyotchilar orasida o'zining olimlik faoliyati bilan shuhrat qozongan Oxund Muhammad Sharif singari shaxslar bor edi. Manbalar taniqli olim, shoir va faylasuf Yusuf Qorabog'iyning ham nomini, yirik qonunshunos, **“Yashiringan narsalar haqida risola”** nomli mashhur asar muallifi Nasriddin Buxoriyning nomini ham saqlab qolgan.

Ashtarxoniylar sulolasi davrida esa madaniyat rivojlandi, adabiy yozma yodgorliklar yaratildi. Sayido

Nasafiy, Turdi va boshqa ko'pgina shoirlar xalq orasidan yetishib chiqdi. 1692-yilda 200 nafar adabiyot arbobi to'g'risidagi she'riyat antologiyasi tuzib chiqildi. Joniylar davlatida qo'lyozma kitoblarni bezatish ishlari takomillashdi, bu vaqtda ko'plab xususiy kitob to'plamlari va kutubxonalari paydo bo'ldi. Samarqand va Buxoroda yuqori sifatli yozuv qog'ozi paydo bo'lganligini, bu ish Abdulazizxon (1645–1680) hukmronlik qilgan davrda mukammal darajaga yetganligini, bu esa ma'lum darajada adabiyotning rivojlanishi va keng tarqalishiga sabab bo'lganligini quvonch bilan aytib o'tish kerak.

Ma'lumki, Buxoroda qo'lyozma kitoblar to'plash bilan Abdulaziz va uning ukasi shoir Subhonqulixon ham qiziqardi. Ularning davrida Buxoroda shifoxona (dor ush-shifo) qurilgan, uning huzurida tibbiyot va ilmiy kitoblarga ega bo'lgan kutubxonalar ham shuhrat qozongan. Subhonqulixon hukmronligi davrida ancha-muncha qo'lyozma to'plamlarni o'z ichiga olgan jamoat kutubxonasi ochilgan. U o'zining ancha batafsil yozilgan **“Ixnna attab Subhoniyy”** (Subhonqulixon tibbiyotini jonlantirishi) nomli tibbiy asarini yaratishda mazkur kutubxonadagi adabiyotlardan har tomonlama foydalangan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida Subhonqulixonning kutubxonasi bir nechta kitob va o'sha davrga oid tibbiy qo'lyozmalar saqlanadi, ularni xonning o'zi tuzib chiqqan yoki unga bag'ishlangan. Kutubxonalar huzurida qo'lyozma kitoblarni ta'mirlaydigan ustaxonada musavvirlar, hattotlar va shikastlangan kitoblarni asl holiga keltiruvchi va tiklovchi mutaxassislar ish olib borishgan. Mo'jaz san'at maktabi mavjud bo'lib, unda o'z davrining mashhur ustalari Mahmud murzib, Abdulla og'a va boshqalar ishlaganligi ma'lum.

Kutubxonalar tez-tez bo'lib turadigan saroy to'ntarishlari, bosqinchilik va o'zaro urushlardan zarar ko'rar, masjid va madrasalar buzilar va yozma yodgorliklar yo'q qilinar yoki tashib ketilardi. Biz yuqorida 1448-yilda bo'lgan qo'zg'olon vaqtida Samarqand saroy kutubxonasining yo'q qilingani haqida gapirgan edik. 1451-yilda, Abdulloh hukmronligi davrida poytaxtga yana Abulxayrxon va Abusaidxon to'dalari bostirib kiradi. Buxorodagi kutubxonalar urush va yong'inlardan shikast ko'rish bilan bir qatorda bosib olingan shaharlardan olib kelingan kitoblar va qo'lyozmalar bilan to'ldirib borilar edi. Masalan, 1560-yilda kutubxonalar Ubaydullaxon va Abdumo'minxonlar hukmronligi vaqtida ikki marta talangan. Keyinchalik Mashhad shahridan keltirilgan qo'lyozmalar bilan to'ldirilgan. Shundan keyingi yillarda ham ma'naviy madaniyat boyliklari xazinalarini talon-taroj qilish davom etdi. Buxorodagi o'zaro urushlar vaqtincha to'xtatilgandan keyin ham kitob omborlaridagi kitoblarning qoldiqlari, amir Nasrulloxon hukmronligining oxirida Shahrisabz, Kitob va Hisor kutubxonalaridagi kitoblarning qoldiqlari Qarshi shahriga tashib keltirilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Очерки по истории государственности Узбекистана. – Ташкент: “Шарқ”, 2001-г. Стр.97.
2. Oxunjonov E.O. Vatan kutubxonachilik tarixi (1-qism). Qadimiyat, ilk o'rta va o'rta asrlar: o'quv qo'llanma. – T.: “Adolat”, 2004-y.
3. O'zbekistonning yangi tarixi (birinchi kitob). Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – T.: “Sharq”, 2000-y. 26–53-b.





Bu janr 2010-yilda Rossiyaga kirib keldi. «Азбука аттикус» nashriyoti mutaxassislari birinchilardan bo'lib kitoblarni harakatlantirishda buktreylerdan foydalandilar. Aliksey Movrinning «Поголовси» asariga ishlangan buktreyler eng birinchi va eng qimmat (10 000 dollarga) baholangan. Hozir buktreyler yaratish bo'yicha «Eksmo» nashriyoti etakchilik qilmoqda. Nashriyotning saytida foydalanuvchi kitobxon kitoblar haqidagi yangiliklardan xabardor bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda birinchi marta 2019-yil 2–4-oktyabr kunlari mamlakatimizda ixtisoslashgan “Tashkent book fest – 2019” I Xalqaro kitob ko'rgazma-yarmarkasi tashkil etilib, unda Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlarining 20 ga yaqin va 30 dan ortiq mahalliy nashriyotlar, 15 mingdan ortiq soha mutaxassislari, keng jamoatchilik vakillari hamda yoshlar ishtirok etdi. Mazkur tadbirda buktreylerlar namoyishiga katta o'rin berildi.

Buktreylerda kitobning muallifi haqidagi reklama davomiyligi 2-3 daqiqadan oshmasligi kerak, deb hisoblanadi (aks holda u oxirigacha tomoshabinni charchatadi). Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish kitoblarni targ'ibot qilish uchun ko'proq imkoniyatlar beradi. Faqat eng zamonaviy vositalarini qo'llab, kutubxona buktreylerini yaratish hayot haqiqatidir

#### **Buktreylerni yaratishning maqsadi:**

- kitob haqida hikoya qilish;
- kitob haqidagi rolik tomoshabinni qiziqtirish, kitob o'qishga etaklash;
- yangi kitobxonlarni kashf etishga yordamlashish.

#### **Buktreylerni yaratish vazifalari:**

- foydalanuvchi e'tiborini kitobga qaratish;
- kitobxonlar qiziqishlari bo'yicha auditoriyasini tashkil etish;
- yozuvchining shaxsiy brendini namoyish etish orqali kitobxonda yozuvchining ijodiga qiziqish uyg'otish;
- kitobxonda bir nechta adabiyotlarni o'qish istagini paydo qilish.

#### **Buktreylerini tuzish bosqichlari:**

- kitobni tanlash;
- buktreylerni namunalarini korish;
- buktreylerni sarlavhasida kitobning asosiy g'oyasini aks ettirish;
- rasmlar va video materiallarni to'plash.
- rolik uchun qaydlar ketma-ketligini yozish;
- audio materiallarni diktafonga yozish;
- audio materiallarni rolikda (montaj qilish) umumlashtirish;
- buktreyler materiallarni tahrir qilib, ko'rib chiqish;
- buktreylerni kichik guruhda ko'rsatish.
- muhokama qilish, foydalanuvchi fikr-mulohazasini o'rganish.

#### **Buktreyler uchun video suratga olish:**

- buktreylerni Movie Maker, Kinostudiya, Windows Live videomontaj dasturida video yozish;

- buktreylerni Power Point dasturida yaratish;
- matnlar, illyustratsiyalar, musiqiy materiallarni ajratish;

- buktreyler mazmunini aniqlash;
- musiqiy, suratli materiallarni, matnlarni ajratish.

Power Point dasturida buktreylerni yaratish. Power Point dasturida buktreylerni yaratish haqida hikoya qilinadi: Power Point buktreyler kitoblarni o'qish uchun harakatlantiruvchi “lokomativ” vazifasini o'tashi mumkin. Kitob haqida hikoya qiluvchi rolik yaratish kitobxonlarni o'qishga jalb etishning zamonaviy reklamasidir.

Grafik dastur, video dastur va musiqa yordamida buktreyler yaratish. Sifatli grafikalar, shuningdek, professional videoni faqat “buktreyler” deb nomlangan buktreyler qilish uchun bir necha narsalar bor. Bu ko'p hollarda Power Point dasturi video tahrirlash uchun Camtasia Studio yoki Vegas Pro kabi paketlardan foydalanilsa ham yaxshi bo'ladi.

#### **Matnli buktreylerni sinflashtirish. Kitobni ko'rgazmali taqdim etish usullari:**

- o'yin xarakteridagi kichik filmlar;
- tematik sitatali, rasmlari, fotosuratli, slaydlarni yig'ish;
- animatsiyali (kitob mazmuni bo'yicha multfilmlar);
- aralash (turli ko'rgazmali usullardagi) poliklar;
- kitob mazmuni bo'yicha taqdimot qiluvchi;
- kitobxonga kitob kayfiyatidan kelib chiqib hissiy (эмоционал) ta'sir etish;
- matnning umumiy konseptual goyasini ochib berish.

Buktreylerda kitoblar marketingi va reklamasini. YouTube kabi mashhur ijtimoiy tarmoqlarda video almashish “Oxirgi” versiyasi, bu bizning buktreyler hisoblanadi. Har qanday kitobni uning manfaatdor o'quvchisiga yanada yaqinlashtiradi.

Bizning reklama dastlab video versiyada yaratilgan bo'lishi kerak edi. Uni yanada rivojlantirish uchun, ya'ni YouTube tarmog'i yaxshi mos keladi. Siz ham fikrlarni (tashriflar statistikasi) kiruvchi foydalanuvchilar soni avtomatik ko'rishlar sonini o'zingiz uchun qayd etasiz. Buktreyler birinchi joyda taqdimot uchun maxsus vositalar yordamida, tizimga joylanadi. Ba'zi tijorat saytlarida reklamalar ortiqcha vaqt oladi, lekin bu erda u adabiy asarning o'ziga xos xususiyatini ko'rsatishi kerak va istalgan “klip”ni joylashtirish mumkin bo'ladi. Har bir onlayn resurs foydalanuvchi tomon yo'naltirilishi zarur.

Internet tarmog'ida, buktreyler kitob yanada ommalashishiga maksimal darajada hissa qo'shadi. Masalan, “Uzoklar hukmdori” yoki “Garri Potter” kitoblari ko'p miqdorda butun dunyo bo'ylab nashr etilib sotilgan. Demak, buktreyler marketing sohasidagi tashkiliy ishlarga ham yordam bergan. Nashriyot saytiga joylashtirilgan kitoblar haqidagi yangiliklardan xabardor bo'lish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, buktreyler orqali adabiyotlarni targ'ib etishning yana bir maqsadi – kitobxonlarning ma'lum bir yo'nalishdagi adabiyotlarga bo'lgan talablarini qondirishdan iborat. Buktreyler yordamida

kitobxonlarni qiziqtirgan masala yoki muammoga oid, yozuvchi yoki shoirning hayoti va ijodiga oid adabiyotlar haqida ma'lumot beriladi. Bu asardan bexabar kitobxonda yangi qiziqishning paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Natijada kitobxonda adabiyotlardan xabardorlik darajasi oshadi, bilim saviyasi kengayadi, kitobxonning qiziqishini birorta yo'nalishda rivojlantirib borishga yordam beriladi. Bu bilan Buktreyler ishining axborot berish vazifasi amalga oshadi. Bundan tashqari buktreyler ishlarning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, kutubxona va kitobni aholi o'rtasida targ'ib qilishga olib keladi, natijada kutubxonaga yangi kitobxonlar jalb etiladi, kutubxona va kitobxon do'stligi paydo bo'ladi, kitobxon qatnovi, adabiyot o'qilishi darajasi oshadi. Tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish jarayoniga kitobxon jalb etilsa, kitobxonlarning tashabbuskorligi jo'shib boradi, jamoat ishida faol ishtirok etishga bo'lgan qiziqish paydo bo'ladi. Bitta yoki bir necha asarni bir yo'la ko'pgina kitobxonlar orasida targ'ib qilishni buktreyler orqali amalga oshadi, adabiyotning ta'sir doirasi kengayadi. Tadbir ishtirokchilarida shu asar haqida bevosita fikr paydo bo'ladi.

Demak, axborotni ommaga etkazish buktreylerlarning asosiy vazifasi. Axborotni to'plash, ommaga

etkazishning mazkur usuli foydalanuvchini axborot bilan ta'minlash talab va ehtiyojlarni qondirishgina emas, balki jamiyat manfaatlarini ifodalashga, uni targ'ib qilishga xizmat qiladi.

“**Targ'ibot**” so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, “**propaganda**” shaklida rus tiliga o'zlashgan va tarqatmoq – «распространят» ma'nosini bildiradi. Axborotni kitobxon qiziqishini, talab va ehtiyojini hisobga olgan holda to'plash, ishlov berish, umumlashtirish, kitobxonga etkazish, qabul qilish kabi jarayonlar axborot vositasida boshqarish jarayoni bilan boqliq. Matbuotda, aynan bosma asarda berilgan axborot ommani boshqarish, uni aniq maqsad sari yo'naltirishga yordam beradi. Bosma nashrlar orqali jamiyat manfaati, uning mafkurasini, maqsadi ifodalanadi va himoya qilinadi. Jamiyat mafkurasini omma ongiga singdirish, uning mehnat faoliyatini jamiyat manfaatlari va maqsadi sari yo'naltirishda kutubxonalar va kutubxonachilar muhim o'rin tutadi. Har bir berilayotgan matn mazmunida targ'ibot yotadi. Shuning uchun ham buktreyler ommaviy axborot va targ'ibot vositalari sifatida qadrlanadi. Buktreyler orqali foydalanuvchi videoni ko'rib, darhol kitobga qiziqib qoladi. Shunday qilib, asarlarning asosiy mavzusi namoyish etiladi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. В.Д.Черняк., М.А.Черняк. Буктрейлер. // Массовая литература в понятиях и терминах. – Наука, Флинта, 2015 г. Стр. 26-27. ISBN 978-5-9765-2128-5
2. Лев Оборин. Скоро на полках. Colta (15 сентября 2010).
3. Юлия Щербинина. Смотреть нельзя читать. Буктрейлерство как издательская стратегия в современной России. // Вопросы литературы. 2012 г. № 3.24. Збаровскаяю., Н.В. Выставочная деятельность публичных библиотек.
4. Кабко Т. Эта старая новая выставка. // Библиотека. 2008 г. №10. Стр. 42–44.
5. Киселева Л.В. Поисках визуальной культуры. // Библиотека. 2007 г. №4. Стр.41–45.
5. Кулахмедова Л. Сначала книгу надо увидеть. // Библиотека. 2003 г. №1. 34-35.
6. Лазеева Л. Знать закон, ответственность перед законом: деловая игра. // Библиотека. 2005 г. №10. Стр.66-67.

## КОНЦЕПЦИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ ЛИЧНОСТИ: опыт разработки и реализации

**Аннотация.** В данной статье раскрывается концепция формирования информационной культуры личности, сущность концепции формирования информационной культуры личности и предлагаемая трактовка информационной культуры личности.

**Ключевые слова:** информационное общество, информационная культура, информационная грамотность, библиотеки, образовательные учреждения.

## SHAXSIY AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH KONSEPSIYASI: rivojlanish va amalga oshirish tajribasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish konsepsiyasi, shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish konsepsiyasining mohiyati va shaxsning axborot madaniyatini tavsiya etilgan talqini ochib beriladi.

**Kalit soʻzlar:** axborot jamiyati, axborot madaniyati, axborot savodxonligi, kutubxonalar, taʼlim muassasalari.

## THE CONCEPT OF INFORMATION CULTURE FORMATION PERSONALITIES: development and implementation experience

**Abstract.** The concept of the formation of the information culture of the individual, the essence of the concept of the formation of the information culture of the individual and the proposed interpretation of the information culture of the individual are revealed.

**Key words:** information society, information culture, information literacy, libraries, educational institutions.

Необходимость выработки системного представления информационных знаний и умений и разработки концепции подготовки человека к жизни в информационном обществе побудила провести комплекс исследований и разработок по следующим основным направлениям:

Изучение и обобщение отечественного опыта. В результате изучения и обобщения опыта образовательных и библиотечных учреждений по формированию информационных знаний и умений выяснилось следующее. В отечественной практике преобладает моно дисциплинарный подход, в результате которого формирование информационной культуры сводится к обучению основам библиотечно-библиографических знаний, ликвидации компьютерной безграмотности, овладению рациональными приемами работы с книгой и т.п. Имея локальный характер, ни одно из этих направлений не способно решить проблему в целом формирование информационной культуры как целостного явления. Установлено также, что повышение уровня информационной культуры общества серьезно осложняется из-за отсутствия специально подготовленных педагогических и информационно библиотечных кадров и необходимой учебно-методической литературы.

Исследование уровня информационных знаний

и умений различных категорий потребителей информации. Объектом изучения уровня информационной культуры явились такие категории потребителей информации, как студенты, учителя, врачи, юристы, инженерно-технические работники. Замер уровня информационной культуры производился по следующим параметрам: умение самостоятельно сформулировать свою информационную потребность и выразить ее словесно; знание основных алгоритмов поиска информации в зависимости от вида информационного запроса (адресный, тематический, фактографический); умение извлечь информацию из источника и правильно оформить результаты своей информационно-аналитической деятельности. Установлено, что все названные категории потребителей информации обладают недостаточно высоким уровнем информационной культуры, что негативно сказывается на продуктивности их учебной или профессиональной деятельности. Особое внимание при этом уделялось изучению информационной культуры юношества старшекласников, учащихся колледжей и вузов. Результаты исследования показали не только недостаточно высокий уровень информационной культуры учащихся, но и косвенным образом засвидетельствовали низкий уровень информационной культуры учителей школ и преподавателей средних и высших учебных

заведений. Таким образом, в информационных запросах юношества как в зеркале отразились проблемы в информационной подготовке педагогов.

Выявление и оценка состава информационных знаний и умений, которые призваны сформировать учебные дисциплины общеобразовательных учреждений. Цель исследования определить, как общеобразовательная школа формирует и должна формировать информационные знания и умения. Объектом исследования выступили учебные программы по всем предметам общеобразовательных учебных заведений с 1 по 11 класс. Методом контент-анализа из учебных программ были выделены все ключевые слова, характеризующие информационные знания и умения. В результате были получены две базы данных: «Информационные знания» и «Информационные умения», общим объемом около 5 тыс. записей. Изучение полученных эмпирических данных заставило задуматься над вопросом: почему при такой насыщенности учебных программ информационными знаниями и умениями выпускник общеобразовательной школы имеет низкий уровень информационной культуры? Анализ показал, что причины неподготовленности учащихся к решению практических задач информационного характера кроются в следующем: нарушение принципов системности, последовательности, технологичности при формировании информационных знаний и умений, разрыв между теорией и практикой информационного обучения.

В ходе проведенных исследований было установлено, что информационная культура одинаково важна как для учителей, так и для учащихся, а все основные характеристики образования, включая его динамику, существенно зависят от информационной культуры. Наряду с образовательными учреждениями формированием информационной культуры личности традиционно занимаются и библиотеки. Однако в силу разрозненности усилий, отсутствия целенаправленно организованного процесса информационного обучения уровень информационной культуры общества продолжает оставаться неоправданно низким.

*Сущность концепции формирования информационной культуры личности.*

Результатом проведенного комплекса исследований явилась разработка концепции формирования информационной культуры в образовательных и библиотечных учреждениях. Суть концепции сводится к утверждению тезиса о том, что массовое повышение уровня информационной культуры общества возможно лишь при организации специального обучения современных потребителей информации, т.е. при организации информационного образования. Только специальная подготовка и информационное образование гарантируют человеку реальный доступ к информационным ресурсам и культурным ценностям, сосредоточенным в библиотеках, информационных центрах, архивах, музеях мира. При этом наличие специальной информационной подготовки, необходимый уровень информационной культуры личности важны в такой же степени, как наличие компьютеров и каналов связи, непременных атрибутов информационного

общества. Убедена, что ни компьютерная грамотность, ни культура чтения, ни библиотечно-библиографическая грамотность, сами по себе, изолированно, не дают возможности человеку уверенно чувствовать себя в современном информационном обществе. Необходим синтез всех этих знаний, в совокупности образующих информационную культуру личности. Именно эта мысль лежит в основе разработанной нами концепции и технологии формирования информационной культуры личности.

Важнейшими составляющими концепции являются: трактовка понятия «информационная культура личности», определение общеметодологических принципов организации информационного образования; создание модели основы информационной культуры личности для различных категорий обучаемых и обучающихся; разработка условий организации информационного образования.

*Предлагаемая трактовка информационной культуры личности.*

Информационная культура личности одна из составляющих общей культуры человека; совокупность информационного мировоззрения и системы знаний и умений, обеспечивающих целенаправленную самостоятельную деятельность по оптимальному удовлетворению индивидуальных информационных потребностей с использованием как традиционных, так и новых информационных технологий. Является важнейшим фактором успешной профессиональной и непрофессиональной деятельности, а также социальной защищенности личности в информационном обществе.

Информационная культура личности это часть общей культуры человека, состоящая из сплава информационного мировоззрения, информационной грамотности и грамотности в области информационно-коммуникационных технологий.

Особое место в трактовке понятия «информационная культура» занимает информационное мировоззрение. Информационное мировоззрение это система взглядов человека на мир информации и место человека в нем. Информационное мировоззрение включает в себя убеждения, идеалы, принципы познания и деятельности. Эта система выражается в ценностях образа жизни личности, социальной группы и общества в целом в век информации. Информационное мировоззрение тесно связано с мотивацией деятельности человека, которая определяет успешность его информационной подготовки.

Введение понятия «информационное мировоззрение» позволяет обеспечить целостность традиционной книжной (библиотечной) и новой компьютерной информационной культуры. По нашему мнению, использование понятия «информационная культура» позволяет избежать в информационном обществе конфронтации двух полярных культур технократической и гуманитарной.

Преимущества понятия «информационная культура личности»:

- наличие мировоззренческого компонента, обеспечивающего мотивацию информационной подготовки личности;

- *всесторонний охват информационной подготовки личности: синтез традиционной книжной и новой информационной культуры;*
- *адекватность объектам информационной подготовки личности;*
- *органическое единство технократической и гуманитарной культур.*

Общеметодологические принципы организации информационного образования

Эффективная организация информационного образования возможна лишь при соблюдении следующих принципов:

- *культурологического подхода;*
- *системного подхода;*
- *интерактивности;*
- *деятельностного подхода;*
- *технологического подхода;*
- *непрерывности.*

Принцип культурологического подхода базируется на осознании глубокого взаимодействия категорий «информация» и «культура», на представлении о том, что информационная культура есть неотъемлемая часть общей культуры человека. С позиций культурологического подхода информационная культура закладывает мировоззренческие установки личности; формирует ее ценностные ориентации по отношению к информации как элементу культуры; препятствует дегуманизации и замене духовных ценностей достижениями, вызванными жизнью научно-техническим прогрессом и беспрецедентным ростом, и развитием новых информационных технологий в информационном обществе.

Принцип системного подхода позволяет обеспечить целостность представления феномена информационной культуры, преодолеть за счет введения единой методологической базы изолированность при рассмотрении таких его традиционных компонентов, как библиотечное библиографические знания, культура чтения, компьютерная грамотность, реализовать в соответствии с тезисом «целое больше, чем сумма его частей» достижение нового качества в определении содержания понятия «информационная культура» как залога эффективной деятельности по решению проблемы информационной подготовки граждан.

Принцип деятельностного подхода означает, что

формирование информационной культуры личности строится не с позиций библиотекаря, информационного работника, пытающегося объяснить школьнику, студенту, учителю, как устроена библиотека, информационная служба или компьютер, и посвятить его в тонкости библиотечно-библиографической, информационной, компьютерной технологии, а с позиций пользователя, потребителя информации, исходя из тех информационных задач, которые он должен решать в ходе своей учебной, профессиональной или досуговой деятельности.

Принцип технологического подхода позволяет рассматривать формирование информационной культуры личности как педагогическую технологию, включающую определенную совокупность методов и средств, обеспечивающих достижение заданного результата. Он предполагает детальное определение конечного результата и обязательный контроль его точности как основы получения продукции с заданными параметрами. Обязательными требованиями при этом являются массовость и воспроизводимость полученных результатов. Нарушение этих требований и отсутствие хотя бы одного элемента в заданной технологической цепи неизбежно влекут снижение качества результатов.

Принцип интерактивности дает возможность построения единой стратегии и тактики формирования информационной культуры личности с ориентацией на органичное взаимодействие как образовательных, так и библиотечно-информационных учреждений, каждое из которых в соответствии со своей спецификой призвано стать участником информационного всеобуча. Реализация данного принципа открывает перспективы гармонизации совместной работы этих социальных институтов по достижению общей цели формированию информационной культуры личности.

Принцип непрерывности предусматривает использование возможностей всех звеньев системы непрерывного образования (дошкольного, общего среднего, среднего специального, высшего, послевузовского) для формирования информационной культуры личности. При этом на каждом из этих звеньев обучение основам информационной культуры должно быть обязательным и специально организованным.

#### Использованная литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года.
2. Джон Перри Барлоу (3 октября 1947 — 7 февраля 2018) – американский поэт и эссеист, который работал на ранчо в Вайоминге. Автор нашумевшей Декларации независимости киберпространства, кибер либертарианец, ассоциирующийся, как с демократической, так и республиканской партиями США
3. Можяева Галина Васильевна (р. 25 июля 1966, с. Рюхово Унечского района Брянской области) – историк, специалист в области дистанционного образования, директор института дистанционного образования и исполнительный директор САЕ Институт человека цифровой эпохи Томского государственного университета, заведующая кафедрой гуманитарной информатики философского факультета ТГУ
4. Гёрберт Маршалл Маклюэн – канадский культуролог, философ, филолог и литературный критик. Получил широкую известность как исследователь воздействия электрических и электронных средств коммуникации на человека и общество.
5. Гендина Наталья Ивановна доктор педагогических наук, профессор, директор НИИИТСС КГУКиИ
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptsiya-formirovaniya-informatsionnoy-kultury-lichnosti-opyt-razrabotki-i-realizatsii/viewer>

## ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ДИСЦИПЛИНЫ «БИБЛИОТЕЧНО-ИНФОРМАЦИОННОЕ ОБСЛУЖИВАНИЕ: теория и практика» в контексте нового подхода (практико-ориентированного)

**Аннотация.** В статье рассмотрены особенности развития дисциплины «Библиотечно-информационное обслуживание: теория и практика» в контексте нового (практико-ориентированного) подхода с учетом сохранения исторических традиций и требований, предъявляемых обществом к деятельности современного информационно-библиотечного учреждения.

**Ключевые слова:** работа с читателями, библиотечное обслуживание, библиотечно-информационное обслуживание, информационные технологии, информационно-библиотечное учреждение.

## “KUTUBXONA-AXBOROT XIZMATI: nazariya va amaliyot” fanini yangi yondashuv (amaliy yo‘naltirilgan) sharoitida rivojlantirish xususiyatlari

**Annotatsiya.** Maqolada, “Kutubxona va axborot xizmati: nazariya va amaliyot” fanining rivojlanish xususiyatlari yangi (amaliy yo‘naltirilgan) yondashuv nuqtayi nazaridan, tarixiy an‘analarni saqlash va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** kitobxonlar bilan ishlash, kutubxona xizmatlari, kutubxona va axborot xizmatlari, axborot texnologiyalari, axborot-kutubxona muassasasi.

## FEATURES OF DEVELOPMENT OF THE DISCIPLINE “LIBRARY AND INFORMATION SERVICES: theory and practice” in the context of a new approach (practice-oriented)

**Abstract.** The article examines the features of the development of the discipline “Library and information services: theory and practice” in the context of a new (practice-oriented) approach, taking into account the preservation of historical traditions and the requirements imposed by society on the activities of a modern information and library institution.

**Key words:** work with readers, library services, library and information services, information technology, information and library institution.



Важным фактором, оказавшим влияние на изменения, произошедшие в библиотечной сфере в том числе и на процесс подготовки библиотечных кадров явилось активное развитие информационно-коммуникационных технологий и необходимость их активного внедрения в различные сферы деятельности общества. Постановление Президента Республики Узбекистан «Об организации информационно-библиотечного обеспечения населения Республики» от 20.06.2006 г. № ПП-381, а затем и принятие Закона «Об информационно-библиотечной деятельности» от 13 апреля 2011 г. стали инновационными и определили новое направление развития библиотечной системы Узбекистана с активным применением информационных и коммуникационных технологий. Эти законодательные акты способствовали совершенствованию организации библиотечной системы с учетом современных требований, созданию прин-

ципально новых информационных центров, ориентированных на удовлетворение интеллектуальных потребностей пользователей, а также созданию необходимых условий для более широкого и системного информационного обеспечения населения. В новых условиях развития информационно-библиотечной системы специалисты библиотечных учреждений должны обладать определенным набором профессиональных умений и компетенций.

Важную роль в подготовке будущих библиотекарей играет процесс изучения учебной дисциплины «Библиотечно-информационное обслуживание: теория и практика», входящей в состав базовой части профессионального цикла основных образовательных программ бакалавриата, по направлению 60320400 – Библиотечно-информационная деятельность (библиотекведение и библиография) формируется комплекс компетенций, вклю-

чающих необходимые знания, умения и навыки для эффективного и качественного библиотечно-информационного обслуживания пользователей. Эта специальная дисциплина, имеет важную практическую направленность, поскольку нацелена на коммуникацию с пользователем с помощью целого комплекса средств, методов и форм, что и является свидетельством успешного освоения изучаемого предмета.

Для понимания важности данного курса необходим краткий экскурс в историю преподавания данной дисциплины, что позволит увидеть не только изменения, происходящие в контексте политических и социально-экономических реалий, но и выбрать необходимые ориентиры в подготовке библиотечных специалистов.

В советской библиотечной практике существовало понятие «организация пользования библиотекой». В 1917 году Л.Б. Хавкина в пособии «Руководство для небольших библиотек» использовала термин «руководство чтением», который стал основным в процессе библиотечного обслуживания читателей. Теория «руководства чтением» активно развивалась в библиотечной деятельности на протяжении всего XX в. и связано это было с ролью библиотек в обществе как идеологических, так и культурных учреждений, работающих с массами.

В начале XX в. на I-м Библиотечном съезде в 1924 г. было принято «Положение о библиотеках массового пользования» и на смену терминам «культмассовая» и «внешкольная» работа пришёл термин «массовая работа библиотек», который получил широкое распространение в теории и практике.

Поскольку библиотека, вне зависимости от типа и вида, являлась в первую очередь идеологическим учреждением, поэтому многие формы работы были заимствованы из арсенала политической пропаганды, а термины «пропаганда литературы», «работа с читателями», «руководство чтением» рассматривались как очень близкие понятия, предполагающие активное идеологическое

влияние библиотекаря на читательскую деятельность детей и взрослых<sup>1</sup>.

В профессиональной библиотечной терминологии понятие «обслуживание» появилось в конце 1930-х годов. Но только через 30 лет вышел вузовский учебник «Работа с читателями» (1961), а в 1970 и 1981 гг. это название повторили<sup>2</sup>.

В нашей стране становление библиотечного образования на государственном уровне началось в 70-е гг. XX в. В 1974 г. был открыт первый в стране Ташкентский государственный институт культуры (ТашГИК), стала создаваться сеть средних специальных учебных заведений, установлен относительно стабильный перечень библиотечных дисциплин, включающий «библиотековедение», «библиотековедение детских и юношеских библиотек» и «библиографию». В 1980-е гг. началось введение единой библиотечной специальности «библиотековедение и библиография» и ряда специализаций по отраслевому профилю и видам библиотек в том числе и библиотечное обслуживание.

С принятием 29 августа 1997 г. Закона Республики Узбекистан «Об образовании», в Ташкентском Государственном Институте Культуры им. А.Кадыри перешли на двухступенчатую подготовку специалистов<sup>3</sup>. На основании этого Закона началось построение многоуровневой системы библиотечного образования, которая полностью сформировалась к началу 2000-х гг.

Начиная с 2001 г. библиотечный факультет стал готовить бакалавров по направлению «Управление информационно-библиотечной деятельностью»<sup>4</sup>.

В учебный план были включены такие дисциплины как: теория и история библиотечного дела в Узбекистане и за рубежом, общее библиотековедение, обслуживание потребителей информации, психология читателя и чтения, менеджмент и маркетинг в библиотечно-информационных учреждениях, управление библиотечно-информационной деятельностью в Узбекистане, теория и история архивного дела, организация архивного дела, основы делопроизводства и т.д. Помимо этого был введен ряд предметов, направленных на ознакомление студентов с автоматизацией основных библиотечных процессов: моделирование библиотечно-информационных систем, интегральные информационно-поисковые системы, основы ИРБИС, КАРМАТ, электронный каталог, автоматизированное рабочее место библиотекаря и библиографа, рабочая профессия: оператор персональных ЭВМ, документоведение. Преподавание перечисленных предметов способствовало увеличению компетенций будущих библиотекарей.

Современная общедоступная библиотека рассматривается как «культурно-просветительский центр – коммуникационная площадка интеллектуального развития и культурного досуга населения страны», что предъявляет новые требования к подготовке специалистов. Необходимо обучать

<sup>1</sup> Опарина Н. П. Трансформация дисциплины «Библиотечно-информационное обслуживание» в контексте практико-ориентированного подхода к подготовке специалистов информационно-библиотечных учреждений // Материалы Всероссийской научно-практической конференции «Потенциал библиотеки в современном мире: трансформации, перспективы» (Самара, 2021 г.). – Самара: 2021 г. Стр. 201–207.

<sup>2</sup> Столяров Ю. Н. Термин «библиотечное обслуживание» в понятийном аппарате библиотековедения // Библиотековедение, 2021 г. – Ташкент: №4. Стр. 352–360.

<sup>3</sup> Закон Республики Узбекистан «Об образовании» № 464-I от 29 августа 1997 г. // Lex.UZ. URL: <http://www.lex.uz/docs/15622> (дата обращения: 20.12.2019).

<sup>4</sup> Араkelов С.Р. Подготовка кадров для библиотечно-информационных учреждений Узбекистана в Ташкентском государственном институте культуры им. Абдулла Кадыри // Интернет и библиотечно-информационные ресурсы в науке, культуре, образовании и бизнесе: материалы конф. «Central Asia-2004». – Т.: 2010 г. Стр. 246–251.



студентов организации и проведению библиотечных мероприятий, которые имеют свою специфику вне зависимости от того, в каком жанре (форме) они будут представлены. В процессе изучения дисциплины «Библиотечно-информационное обслуживание: теория и практика» у студентов формируются научные представления о развитии данной дисциплины; о формах и методах библиотечного обслуживания; приобретаются профессиональные практические навыки и умения организации разнообразных библиотечных мероприятий. Предусмотрено освоение технологии создания сценария комплексного библиотечного мероприятия, изучение качества и эффективности библиотечных мероприятий.

Достаточно длительное время в ходе преподавания предмета «Библиотечно-информационное обслуживание: теория и практика» использовались труды ведущих зарубежных и российских библиотековедов (Л.И. Алешин, В.А. Азарова, В.М. Беспалов, В.А. Бородина, М.Я. Дворкина, С.А. Езова, Н.Б. Зиновьева, В.С. Крейденко, С.Г. Матлина, И.А. Мейжис, Ю.П. Мелентьева, А.Е. Шапошников и др.). Они внесли значительный вклад в проблематику библиотечно-информационного обслуживания: обосновали появление новой терминологии, активно развивали направления библиотечного обслуживания с позиции создания комфортных условий для пользователя, рассматривали возможности библиотечной терапии и специфику работы с различными категориями пользователей, сформулировали профессио-

нальные этические требования к библиотечному специалисту и т. п. Знаменательным событием стал выход в 2021 году первого учебного пособия преподавателей Государственного института искусств и культуры Узбекистана Носирова У. и Юлдашева И.Ж. «Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti». В учебном пособии рассмотрены цели, задачи, принципы библиотечного информационного обслуживания, роль библиотек в личностной социализации, библиотечном общении, проблемы пользовательского обучения, культура чтение, формирования информационной культуры. Раскрыты актуальные вопросы развития виртуального (электронного) библиотечного сервиса, рассмотрены основные направления развития библиотечного информационного сервиса в XXI веке.

Учебное пособие предназначено для студентов образовательного направления «Библиотечно – информационная деятельность (библиотековедение и библиография)», преподавателей курса «библиотечно-информационное обслуживание: теория и практика» и других библиотечных дисциплин.

Таким образом, особенность развития дисциплины «Библиотечно-информационное обслуживание: теория и практика» связана с *общекультурным, творческим, коммуникативным ростом библиотечной профессии, что приводит к усилению гуманитарной подготовки и переподготовки библиотечных специалистов, работающих непосредственно с пользователями*.



# VI BO' LIM

## YOSH TADQIQOTCHI

Muhayyo MUXTOROVA,  
O'zRFA San'atshunoslik instituti tayanch doktoranti

### MELIS ABZALOV KINOKOMEDIYALARIDA MILLIY VA UMUMBASHARIY QADRIYATLAR IFODASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, o'zbek kino san'atida komediya janrining rivojlanishida o'z o'rniga ega bo'lgan rejissyor Melis Abzalov filmlaridagi o'ziga xos xarakterlar tahlil etilib, filmning badiiy hamda g'oyaviy xususiyatlari, ijodiy komponentlarning yutuqlari hamda bugungi kinematografiyamizda tutgan o'rnini borasida muhim fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** kinematografiya, komediya, janr, rejissyor, aktyor, xarakter, film, xalqona qahramon, umumbashariy.

### ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В КИНОКОМЕДИЯХ МЕЛИСА АБЗАЛОВА

**Аннотация.** В данной статье анализируются особые персонажи фильмов режиссера Мелиса Абзалова, имеющий значительную роль в развитии комедийного жанра в узбекском кинематографе, а также рассматриваются художественные и идейные особенности фильма, достижения его творческих компонентов и значение в нашем современном кинематографе.

**Ключевые слова:** кинематограф, комедия, жанр, режиссер, актер, персонаж, фильм, народный герой, общечеловеческих.

### EXPRESSION OF NATIONAL AND HUMAN VALUES IN THE COMEDIES OF MELISA ABZALOVA

**Abstract.** This article analyzes the special characters of films directed by Melis Abzalov, which has a significant role in the development of the comedy genre in Uzbek cinema, and also examines the artistic and ideological features of the film, the achievements of its creative components and the significance in our modern cinema.

**Key words:** cinematography, comedy, genre, director, actor, character, film, folk hero, human.



O'zbek kinematografiyasining komediya janrida o'ziga xos "pocherk"ka ega bo'lgan rejissyorlardan biri Melis Abzalov ijodida tomoshabinlar ko'nglidan joy olgan ko'plab filmlar mavjud. Jumladan, "Chinor ostidagi duel", "Suyunchi", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Maysaraning ishi", "Chimildiq" kabi komediyaviy janrdagi filmlari yillar davomida tomoshabinlarga qadrdon bo'lib kelmoqda.

Melis Abzalovning "Chinor ostidagi duel" kartinasi katta avlod va yosh avlod o'rtasidagi konflikt, zamonaviy qahramon va uning xarakteriga xos jihatlar birinchi planga olib chiqilsa, "Suyunchi"da halollik, poklik, kattalarga hurmat va izzat, oilaviy qadriyatlar va munosabatlar yengil yumor bilan tomoshabinlarga mohirona taqdim etiladi. Melis Abzalovning filmlarida yana bitta umumiy xususiyat yaqqol ko'zga tashlanadi. "Agar ko'pgina kinolentalarning voqealar yuz beradigan

joyi shaharning ko'p qavatli uylari, zavodlari, obod dahalari bo'lgan bo'lsa, M. Abzalovning "Chinor ostidagi duel" (1978-yil), "Suyunchi" (1982-yil) filmlarining qahramonlari boshqa muhitda harakat qiladi. Mazkur filmlarning personajlari – o'zbek qishlog'ining asl vakillari. Odatdagidek, filmlarning asosini komediya vaziyatlari tashkil qiladi. Komediya va ta'sirli yengil istehzo qissaning umumiy negiziga birlashib, faqatgina ko'ngilochar xarakterga ega bo'lmaydi. Shu bilan birga voqealar tarbiyaviy xususiyat kasb eta boshlaydi. Mana shu "boshqa muhit" o'zining oddiyligi, soddaligi bilan tomoshabinlarga yaqinroq bo'lib olish imkonini beradi. Hatto, qahramonlarning gap-so'zlari, xatti-harakati, yurish-turishi va atrofdagilar bilan munosabati eng nozik cho'qqiga olib chiqiladi va to'liq ma'noda tarbiya vositasiga aylanadi.

Melis Abzalov keyingi yillardagi komediyaviy janrdagi filmlarida ijtimoiy muammolarni birinchi planga olib chiqish barobarida, milliy va umuminsoniy qadriyatlar

<sup>1</sup> Karimova N.G'. O'zbekiston badiiy kinematografiyasining shakllanishi va taraqqiyoti (can'atshunoslik fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi avtoreferati). – T.: 2019-y. 39-b., 108-b.

ifodasini ham aks ettirishga intiladi. Jamiyatda mavjud va ko'plab insonlarni qiynayotgan muammolar komik tarzda ekranga ko'chadi. Rejissyorning *"Kelinlar qo'zg'oloni"* (1985-yil) filmi Said Ahmadning shu nomli asari asosida suratga olingan. Yozuvchining bu asari 14 mamlakat teatrlarida sahnalashtirilgan bo'lsa, aynan shu nom bilan kino varianti O'zbekiston va Laos xalq demokratik Respublikasida ham ekranlashtirildi.

Film qahramonlari Farmonbibi boshqaruvidagi katta oila vakillari. Bir qarashda Farmonbibi (Tursunoy Jafarova) qattiqqo'l, zolim, yakka hukmron bo'lishni istovchi xarakter egasi sifatida namoyon bo'lsa-da, aslida rostgo'y, aql-farosatli, mehribon ona, shu bilan bir vaqtda adolatparvar qaynona ekanligi film davomida ham ochilib boradi. Yetti o'g'il va yetti kelin bilan bir uyda, qirq bir nabiraning turli injiqliklari va erkaliklariga sabr bilan ularni tarbiya qilish Farmonbibidan juda katta mehnat va kuch talab qiladi. Qolgan oila vakillari ham Farmonbibi joriy etgan *"oila qoidalari"*ga allaqachon ko'nikkan edilar. Toki kenja o'g'li Nigoraga uylanmagunga qadar. Bu oilaga o'zi bir *"toza havo"* va odatiy turmush tarziga zid o'laroq, yangilik zarur edi. Zero, shusiz ham allaqachon farzandlar o'rtasiga nizo tusha boshlagan, ularning oilalaridagi xotirjam hayot qora tuman ichida yo'qola boshlagandi. Kenja kelin Nigora (Dilorom Egamberdiyeva) mana shu tuman ichiga bir chaqmoq misol kirib keladi. O'z talablarini qo'ya boshlaydi hamda bir so'zligi, tirishqoqligi va yangicha dunyoqarashlari, zamonaviy fikrlari bilan bu oiladagi *"eskilik sarqiti"*ga qarshi isyon ko'taradi. Natijada, qolgan ovsinlarini ham o'z tomoniga og'dirib oladi.

Nigora qaysar, o'jarligi ostida aslida zamonaviy qahramon – sportchi, musobaqalarga borgan, bir so'z bilan aytganda *"dunyo ko'rgan"* qiz ekanligi ham ayon bo'ladi. Va u tushib qolgan *"feodal jamiyat"*ga ko'na olmasligida ham aynan shu omillar sabab, u tor fikrli insonlar orasida yashay olmaydi. Shuningdek, Dilorom Egamberdiyeva ijrosida Nigora obrazi biroz shoshqaloq, dumbulroq, betgachopar qiz sifatida ham gavdalanadi. O'zidan kattalarga tap tortmay gap qaytarishi, hurmatsizlik qilaverishini shunchaki o'jarlik, deb oqlab bo'lmaydi.

Rejissyor filmdagi ifoda etilgan voqealarni bir qarashda odatiy, bir oilaning ichki muammolari sifatida shakllantirilsa-da, ammo har bir obraz misolida bir muammoni kulgili tarzda olib chiqishga, har bir qahramon timsolida kishilarning xarakteridagi qusurlarni komik holda tanqid ostiga olishga intiladi. Va buni shunday achchiq kulgi bilan berib ketadiki, tomoshabin goh kuladi, goh kuyadi, gohida esa o'z aksini ko'rgandek bo'ladi. Bunda, albatta, dialoglarning mohirona yozilganligini ham e'tirof etish lozim. Aynan komik xolatlarda qahramonlar xarakteriga va dialoglarga qurilganligi kuzatiladi. *"Xususlan, M.Abzalovning "Chinor ostidagi duel", "Suyunchi", "Kelinlar qo'zg'oloni" filmlarining personajlari ba'zida kulgili, ularning xarakterida xalq folklor ildizlari seziladi. S.Ahmad va*

*R.Muhammadjonov dramaturgiyasiga tayanilganligi rejissyorga go'yoki tanish materialda yangi bo'yoqlar, milliy kinematografiyada tadqiq qilinmagan xarakterlarni yaratishga imkon berdi. 1970-yillar qahramonlari o'tmishdoshlaridan farqli atrof muhitda o'z o'rnini his qilmaydi, shuning uchun voqelikning "interyer"ini anglash bilan birga, o'z dunyosini o'ylab topadi"*<sup>2</sup>.

Rejissyor aytmoqchi bo'lgan muhim g'oyalar filmning yakunida ochila boradi. Qamalib qolgan g'oyaga yordam so'rab kelgan ayol va Farmonbibi suhbat. O'n besh ming (film suratga olingan vaqtda katta pul sanalgan) uchun o'g'li o'z vijdonini sotishni, oilasi va ota-onasi sha'niga dog' tushirishni, farzandlariga harom luqma yedirishni istamaydi. Biroq o'sha davrda bunday ko'z bo'yamachilik va jinoyatlar ming afsuski, ko'plab uchrab turardi. Mana shu kichik epizod bilan filmda halollik, odob axloq, poklik, kasbga sodiqlik kabi xislatlar birinchi planga olib chiqiladi. Shuningdek, Farmonbibi uydan ketib qolgan vaqtda kelinlarning asl xarakteri ochiladi. Ulardagi bir-biriga nisbatan hurmatsizlik, o'zaro kelishmovchilik, oddiygina tushlik tayyorlash epizodida ko'rsatib ketiladiki, bunday etti o'g'il va etti kelinning turli xarakterini birlashtirish uchun Farmonbibi qanchalar kerak ekanligi, uning qattiqqo'lligi nechog'lik zarur ekanligi, o'sha qattiqqo'llik bo'lmasa bu oila parokanda bo'lishligi o'z aksini topadi.

Kinoning bugungi kunga qadar o'z qimmatini yo'qotmay, tomoshabinlar tomonidan hamon yaxshi kutib olinishida Dilbar Ikromova, Klara Jalilova, Noila Toshkentboyeva, Luiza Qosimova, Rixsi Ibrohimova, Gulchehra Sa'dullayeva, Nabi Rahimov, Dias Rahmatov, Obid Yunusov, Rashid Malikov, Jamshid Zokirov, Soat Sharipov, Tesha Mo'minov, G'oyib Iskandarov, Muhammadjon Rahimov, Naima Po'latova kabi aktyorlar ansamblining o'z rollariga mas'uliyat bilan yondashganliklari, qahramonni ruhiyatini to'liq his etgan holda ijro etganliklari katta ahamiyatga ega.

Teatr aktyorlarini kinoda mahorat bilan rol ijro etishlarida Melis Abzalovning teatrda ishlaganligi, aktyor bilan ishlashni yaxshi o'zlashtirganligi, Gruziya kinokomediyasining mahoratli rejissyori Georgiy Daneliyadan saboq olganligi qo'l kelgan. Melis Abzalov ustozidan kinokomediyani qanday ishlash uslubini, milliy komediya qanday bo'lishi kerakligini o'rgangan. Chunki 1970-yilgacha Gruziya kinokomediyalari jahon miqyosiga chiqib ketgan edi. Aynan Georgiy Daneliya tomonidan suratga olingan *"33"*, *"Kuzgi marafon"*, *"Afoniya"*, *"Mimino"*, *"Omadli jentlmenlar"* (*hamkorlikda*), *"Kin-dza-dza!"* kabi komediyaviy janrdagi filmlarda yangi ruhiyat paydo bo'lgandi. Georgiy Daneliya komediya, melodrama, satira kabi lirik unsurlarning barchasini bir filmda qorishtirib ma'yus kinokomediyalarni birinchilardan bo'lib tomoshabinlarga taqdim etdi.

Melis Abzalovning keyin suratga olgan boshqa komediyalari ham o'zining ma'yusligi, shunchaki kuldirish vositasigina emas, tagida chuqur bir alam va achchiq haqiqatlar borligi bilan ajralib turadi. Rejissyorning komediyalari tomosha qilinar ekan ham kulging, ham yig'laging keladi. Ayni shu jihat gruzin kinokomediyalarida ham kuzatiladi. Komediya bugungi

<sup>2</sup> Karimova N.G'. O'zbekiston badiiy kinematografiyning shakllanishi va taraqqiyoti (san'atshunoslik fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi avtoreferati). – T.: 2019-y. 39-b., 108-b.

ayrim rejissyorlar suratga olayotgani kabi shunchaki kuldirish vositasigina emas, balki kishini chuqur mulohazaga tortadi, o'ylantiradi, achintiradi, oddiy insoniy muammolarni ham umuminsoniy miqyosga olib chiqadi. Melis Abzalov gruzin kinokomediya ayoni shu narsani milliy kinokomediya shaklida o'zbek kinosiga olib kirdi. Melis Abzalovning ustozlari bilan hamkorlikda va uning yo'nalishida suratga olgan *“Chinor ostidagi duel”* filmi o'zbek tomoshabiniga taqdim etilgan ana shunday ma'yus kinokomediya debochasi bo'ldi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy *“Maysaraning ishi”* (*“Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi”*) asari bilan o'zbek adabiyotida komediya janriga asos solgan bo'lsa, Eduard Akopov ssenariysi asosidagi *“Maysaraning ishi”* filmi bilan Melis Abzalov o'zbek kino ixlosmandlariga klassik ruhiyatdagi musiqiy komediya taqdim etdi, deyish mumkin.



Rejissyor 1989-yilda suratga olgan ushbu film voqealarini o'tgan zamonga olib o'tish uchun qahramonlarni ham *“tush”*ga olib kiradi. Kartina boshalanishidanoq *“Nasriddin Buxoroda”* filmining muhiti va kayfiyati seziladi. Odamlar panoh izlab boradigan xalq peshvolarining o'zi ayollarga suyaksizligi, kambag'al xalqni pisand qilmasdan ulardagi bor narsalarni insofsizlarcha tortib olishga urinishlari har ikkala filmda kuzatiladi. Shuningdek, muhit, odamlar kayfiyati, xarakteri, liboslar, grim va shunga o'xshash boshqa detallar ham shular jumlasidandir.

Bu filmda badavlat qozining yuzsizlarcha o'zgalarning zavjasini tortib olishi, bunda atrofidaqilarning xayrixohligi, ammo Maysaradan qozining o'zi ham, atrofidagi kishilar ham yaxshigina adablarini yeyishi bilan bog'liq voqealar aks etadi.

Maysara (Sayram Isayeva) obrazi shu qishloqda nohaqliklarga uchragan kishilarga o'zining aqlliligi, zukkoligi va ayyorligi bilan yordam berib keladigan o'z davrining zamonaviy qahramon ayoli. Aktrisaning yuz mimikasi, holatlari, so'zlash ohangi, nozlanib qadam tashlashlaridan, hatto, paranni ichida ham uning kim ekanligini anglab olish mumkin bo'ladi. Sayram Isayeva mimikalardan ustalik bilan foydalana olishi, raqs mahorati filmdagi Maysara obrazini ijro etishda qo'l kelgan.

Shuni ham aytib o'tish kerak-ki, tojik aktrisasi Sayram Isayeva Komil Yormatovning *“Nodirabegim”* filmidagi Nodirabegim roli bilan o'zbek kinosiga kirib kelgan

bo'lsa-da, Maysara obrazi bilan o'zbek tomoshabinlari e'tirofi va e'tiboriga erishdi.

Rejissyor *“Maysaraning ishi”* filmida ko'tarilgan ko'plab muammolarni qahramonlar tiliga ko'chirib o'tadi. Xususan, Maysaraning: *“Bu o'lgur chachvonda nafasim siqilib o'lay dedim, bu chachvonni o'ylab topganni uyi kuysin”*, – degan so'zlari o'sha davr ayollarining chachvon yopishga majburliklarini, bu ularga noqulaylik tug'dirishini ko'rsatib ketadi. Shuningdek: *“Bu dunyoga bir balo bo'lganmi, shariat peshvolarini Xudo ikki qo'llab urib qo'yipti. Hamma bemazagarchiliklar o'shalardan chiqyapti! Bu qanday bemazagarchilik o'zi? Shariatni pesh qilvolib bilganlarini qilishadi. Tavba!”* – deb Maysaraning tilidan beriladigan so'zlarda ham o'z davri qozilarining nohaqliklari-yu, vijdotsizliklari kabi muammolar aniq va lo'nda qilib ochib beriladi.

Mullado'st (Obid Yunusov)ning ijrosi o'ziga xos xokisor va kambag'al xizmatkorning kayfiyatini ochib bera olgan. Yoshi o'tib qolgan, ammo yuragida yoshlik zavqi bo'lgan, biroq nochorlik va ilojsizlikda yashagan xizmatkorning haqiqiy xarakteri *“Maysarajon”* qo'shig'ini aytish epizodida ochiladi. Mullado'stning oqo'ngil ekanligi uchta kazo-kazolarning birdan Maysaraga ishi tushib qolganligida bu ishga nisbatan shubha bilan qarashi va bundan Maysarani ogohlantirishida namoyon bo'ladi. Obid Yunusovning rolga jiddiy yondashganligi, uning har bir harakatida sezilib turadi. Hatto, raqslarni ijro etish, beli og'rib qolish kabi ko'plab epizodlarda kishining unga biroz rahmi ham keladi.

Mullado'st va Maysara ijrosidagi duet qo'shiq ham ularning suhbatlari tarzida kuylangan bo'lib, filmda har bir aktyorga o'ziga mos ovoz tanlangan. Sayram Isayeva va Obid Yunusov tandemi filmda eng komik vaziyatlarni ko'rsatishga xizmat qilgan.

Filmda qo'shiqlarga alohida urg'u berilgan bo'lib, har bir qahramonning qo'shig'i uning xarakteri, rejalarini ifodalaydi. Xususan, Qozi (Ato Muhammadjonov) ning ham qo'shig'i orqali xarakteri va rejaları ochilib boradi. Xalqning dardini tinglaydigan, o'zgalarning nohaqliklaridan himoya qilishi kerak bo'lgan Qozining o'zi noinsof va vijdotsiz, o'zgalar xasmini ham nazardan qoldirmaydigan, jirkanch maqsadi yo'lida hech nimadan tap tortmaydigan shaxs ekanligi filmda juda katta fojiani ko'rsatib bergan. Xalqning adolat izlab borgan insonning o'zi adolatsiz bo'lsa, xalq dardini yana kimga aytsin?! Qozilarning ahvoli shu bo'lsa, qolganlar adolatni qayerdan izlasin? Mana nima uchun bu jamiyatga Maysara kabi insonlar zarur edi?! Mana nima uchun Maysara ayol kishi bo'lishiga qaramasdan nochor xalqning himoyasi uchun yelka tutishga majbur bo'ldi?! Ayol bo'lganligi uchun ham bunday adolatsizlikka qo'lga biror qurol olib emas, aqlini ishga solib ayyorligi, zukkoligi bilan kurashdi.

Tojik aktyori Ato Muhammadjonovning ijro mahorati o'zbek tomoshabinlariga Ota (*“Alvido, g'o'r yoshligim”*), Amir ibn Mansur (*“Dahoning yoshligi”*), Rais (*“Karaxtlik”*), Sayidali ota (*“Buyuk Amir Temur”*) va boshqa rollari bilan ham yaxshi tanish. Qozi rolini ijro etar ekan, aktyor ijrosida biroz teatronalikka urg'u berilgandek. Buni Qozining: *“Ko'ramiz kim ayyor, sen ayyormi men ayyor. Qani tashla to'ningni Maysaraxon*

*men tayyor*”, – degan qo’shiqni aytuvchi epizodida yaqqol ko’rish mumkin.

A’lamxon (Husan Sharipov) hamisha Qozining yonida, uning “oxiridan xashak yeb o’rgangan” ikkiyuzlamachi kishi. Husan Sharipovning komik rollarda yig’ilgan tajribasi bu rolni ham maromida ijro etishiga sabab bo’lgan. Husan Sharipovning ijroga o’zgacha yondashuvi har bir filmida ko’zga tashlanadi. Ushbu filmida, ham ko’zlarini biroz qisib, ayyorona tabassum bilan gapirishlari, qoziga yaltoqlanib uning soyasida kun ko’ruvchi, shu bilan bir vaqtda o’zini ham unutmaydigan ayyor kishi tabiatini ochib bera olgan.

Rejissyor kartinadagi har bir rol uchun aktyorlar tanlab olishda to’g’ri tanlov qilganligi film dinamikasini ta’minlagan. Hidoyatxon obrazi ham alohida e’tirofga loyiq rollardan bo’lib, aktyor Baxtiyor Nazarovning Hidoyatxon xarakterini ochishda ustalik bilan yondashganligini ko’rish mumkin. Otasining davlati bilan kun kechiruvchi, ammo ko’proq ayollar tarbiyasida bo’lgan bu yigitning biroz ayolmand xarakterga moslashib qolganligidan bilish mumkinki, boyning farzandlar tarbiyasiga vaqti yo’q. Hidoyatxon esa, otasining pullarini o’zining kayfu safosiga ishlatishni orzu qilgan, nochorlik va pulsizlik nima ekanligini bilmaydigan bir obraz. Yurishlari, qadamini katta-katta tashlab, ayollarga xos qadam tashlashlari ham o’zgacha ijro etilgan. Hidoyatxon filmidagi xarakterli rollardan biri. Uning tabiati, *“Bu dunyoda hamma o’g’ri... Balli kalla”*, deb aytiladigan qo’shiq davomida ochiladi. Baxtiyor Nazarovning raqslari, mimikalari, xarakatlari, chakkasiga gul taqib yurishlari, o’ziga ifor surtib olishlari, dovdirab, emaklashlari... hammasi uning xarakterini ochib beradi.

Cho’ponni qishloqdan chiqib ketishi, boshidan o’tkazayotganlari musiqa bilan ochiladi. Qo’shiq va musiqaning o’rni bu filmida juda katta bo’lib, xarakterlarni ochishda, vaziyatlarni izohlashda, voqealarga munosabat bildirishda to’liq foydalanilganligi bilan musiqali komediya talablariga mos tushadi.

Qo’chqorvoy roli (Dias Rahmatov) ham ramziy bir ma’noga ega komik qahramonlardan biri. U hamisha adolat tarafdori bo’lishiga, Maysaraga ko’mak berishiga qarmasdan o’zini ko’rga solib o’tiradi. Bu rol epizod bo’lishiga qarmasdan, filmida o’zining katta tag ma’nosiga ega. O’sha davrda aslida ko’r bo’lmasada, odamlarning qiyinchiliklariga, adolatsizlikka qarshi sovuqqonlik bilan, o’zini hech narsa ko’rmaganga solib o’tiruvchi insonlarning jamiyatda mavjudligini ko’rsatgan.

Cho’ponning uyida Maysara va Qozining suhbatlari epizodi: bu ikki aktyorning ijro mahorati yuksak darajaga chiqadi. Ikki ayyor, hamisha o’zgalarni mot qilib kelgan insonning qiyofalarini ochishda aktyorlar ijrosi beqiyos bo’lgan. Ayniqsa, Maysaraning tangalarni sanab olishi va ikki aktyorning bir-biriga ko’z va ohang bilan so’z o’yini tarzida suhbatni davom ettirishlari, ikkisi ham *“Meni chuv tushirolmaysan”* qabilida o’zini oqlashga urinishlari ham komik vaziyatni, ham chuqur mulohazaga tortadigan kayfiyatni uyg’otadi.

Kartinada rassom Nozim Abbosovning mehnatlari alohida seziladi. Boyning uyi, viqor berib turuvchi

hashamatli jihozlar, detallar hammasi o’sha davr muhitini berishda xizmat qilgan. Yoki cho’ponning uyida ham aravalarning turishi, loysuvoq, paxsadevorlar tomoshabinni o’z davri muhitiga olib kiradi.

Musiqiy komediyaning asl ruhiyatini berishda ijro etilgan qo’shiqlar Turob To’la qalamiga mansub bo’lib, Luiza Zokirova, Ma’mura Qurbonova, Farruh Zokirov, Rustam Ilyosov, Mansur Mamirov kabi xonandalar qo’shiqlarni har bir obrazning xarakteriga moslashtirilgan ovozlarda maromiga yetkazib ijro etishgan. Kartinada yana Go’zal Mansurxo’jayeva (Oyxon), Farhod Mahmudov (Cho’ponali), Dilorom Egamberdiyeva (Nodira), Furqat Fayziyev (Tohir) kabi yosh aktyorlar ham o’zlarining nohaqlikka qarshi isyon ko’taruvchi zamonaviy yosh qahramon rollarini his etgan holda ijro etishgan.

Film bir ko’rishda komik kayfiyat uyg’otsa-da, ammo tagzaminida o’z davridagi ko’plab insonlarni, bo’layotgan adolatsizliklarni tanqid ostiga olib ketadi. Kazo-kazo insonlarning o’z boyligi-yu mansabidan foydalanib, o’zgalar mulkini talon-taroj qilishlari, o’zlariga berilgan vakolatni o’z manfaati yo’lida ishlatishlari, ming afsuski, bugungi kunda ham ba’zi joylarda uchrab turgan muammolardan biri sanaladi. Filmning boshida *“Ey, musulmonlar!”* deb boshlanuvchi g’azaldan anglashiladiki, adolatsizlik avjga chiqqan, musulmonlar ana shu adolatsizlikka sabr qila-qila sabr kosalari allaqachon to’lgan. Rejissyor film yakunida olg’a surilgan asosiy fikr: Boyning, A’lamning, Xudoyorxonning xalq oldida izza bo’lishlari, shu kungacha qilib kelgan qing’ir ishlarining fosh bo’lishi adolatning kun kelib qaror topishini ko’rsatib beradi. Bir jihatdan har qanday jinoyatga jazo muqarrar ekanligi ko’rsatib o’tilgan bo’lsa, o’zini o’ldirishga tayyor yurgan Nodiraning taqdiri bilan so’nggi chora o’lim emasligini, aksincha, biroz aqlni ishlatib, birlashib zulmdan qutulish mumkin ekanligini ham ko’rsatib o’tiladi. O’z davrida Nodira kabi qizlarning ko’pchiligi uchun yagona yo’l o’zini o’ldirish kabi boshi berk ko’cha sanalgan edi. *“Oyxonni qo’lga kiritish operatsiyasi”* esa ana shunday boshi berk ko’chani ham chiqish yo’li bor ekanligini tomoshabinlarga yetkazib beradi. Melis Abzalovning ushbu filmi tomoshabinlarga yanada qadri qilgan jihat ham aynan adolatning tiklanishi, tiklanganda ham tomoshabinlarga kulgi yo’li bilan yetkazilishida.

Melis Abzalovning filmlaridagi o’ziga xoslik va originallik ularning umrboqiy bo’lishiga xizmat qiladi. Rejissyor Nortoy (*“Chinor ostidagi duel”* filmida), Shermat (*“Suyunchi”* filmida), Nigora kelin (*“Kelinlar qo’zg’oloni”* filmida), Maysara (*“Maysaraning ishi”* filmida), Tirkash buva (*“Ta’ziyadagi to’y”* filmida) yoki yana bir qancha shunga o’xshagan qahramonlari orqali nohaqliklarga javoban o’zining ichki tug’yonlarini, noto’g’ri ishlarga nisbatan ichki isyonlarini ifodalab beradi. Milliy va umumbashariy qadriyatlar rejissyorning komediyalarida kulgi bilan shunday qorishib ketadiki, ularning ifodasi yaqqol ajralib turmaydi. Aynan shu jihatlari bilan ham rejissyorning filmlari yillar davomida o’zining qimmatini, tomoshaviyiligini saqlab qolgan.

## ZAMONAVIY IJTIMOYIY-MADANIY JARAYONLARDA O'ZBEK TEATR SAN'ATINING O'RNI

**Annotatsiya.** Bugun biz bunyod etayotgan yangi hayot, yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlashda teatr san'ati muhim ahamiyatga egadir. Maqolada, zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda o'zbek teatr san'atining o'rni haqida so'z yuritiladi. Keltirilgan ma'lumotlar asosida teatrnin bugungi kundagi ahamiyati, amalga oshirilgan ishlar, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni xususida tahliliy fikrlar aytib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** teatr san'ati, ijtimoiy-madaniy jarayonlar, ijtimoiylashuv, integratsiya, tarbiya, madaniy aloqalar, renessans.

## В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССАХ МЕСТО УЗБЕКСКОГО ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА

**Аннотация.** Искусство театра играет важную роль в укреплении духовных основ новой жизни и общества, которое мы создаем сегодня. В статье говорится о месте узбекского театрального искусства в современных социокультурных процессах. На основе предоставленной информации были высказаны аналитические мнения о значении театра сегодня, проводимых работах и его роли в жизни общества.

**Ключевые слова:** театральное искусство, социокультурные процессы, социализация, интеграция, образование, культурные связи, ренессанс.

## IN MODERN SOCIO-CULTURAL PROCESSES THE PLACE OF UZBEK THEATRICAL ART

**Abstract.** The art of theater plays an important role in strengthening the spiritual foundations of the new life and society that we are creating today. The article talks about the place of Uzbek theatrical art in modern sociocultural processes. Based on the information provided, analytical opinions were expressed about the significance of the theater today, the work being carried out and its role in the life of society.

**Key words:** theatrical art, sociocultural processes, socialization, integration, education, cultural connections, renaissance.

*Inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Shavkat MIRZIYOYEV

*“Jahondagi eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida olijanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda. Hozirgi kunda shiddatli zamon, hayotning o'zi barchamizning oldimizga o'ta muhim va murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, el-yurtimizni turli xavf-xatarlardan asrash, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlariga ehtirom ruhida barkamol insonlar etib tarbiyalash, jaholatga qarshi*

*ma'rifat bilan kurash olib borish dolzarb vazifaga aylanmoqda”<sup>1</sup>.*

San'atkorlar millatning kayfiyati, ruhiyati bilan ishlaydigan ko'ngil odamlari, ruhiyat odamlari hisoblanadilar. Bugunning vazifasi ham, maqsad-muddaosi ham bitta. Tarixiy va shiddatli davrning ko'lamdor ma'naviyatini, madaniyatini, ma'rifatini, san'atini xalqqa yetkazish, xalqimiz ongu tafakkurida, ruhiyatida olib borilayotgan madaniy islohotlarning mazmun-mohiyatini yana ham jonlantirishdan iboratdir. Mustaqillikdan so'ng o'zbek teatr san'atini yanada rivojlantirishga uning jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlashga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbek Milliy Akademik drama teatrnin 100 yillik yubileyida quyidagi jumalarni keltirib o'tadi: “Ma'lumki, dunyodagi har qaysi xalq, har qaysi davlatning ma'naviy taraqqiyot darajasi avvalo uning madaniyati, san'at va adabiyotida, jumladan, teatr san'atida yaqqol namoyon bo'ladi. El-yurtimiz bu davrda qanday qiyinchilik va mashaqqatlarni, quvonchli va tashvishli kunlarni boshidan kechirgan bo'lsa, ularning barchasi o'zbek madaniyatining ko'zgusi bo'lmish ushbu

<sup>1</sup> “Prezident O'zbekiston teatr san'ati xodimlariga tabrik yo'lladi”. 2021-yil, 26-mart. Xs.uz rasmiy sayti.

*teatr faoliyatida, uning sahnasida namoyish qilingan asarlarda o‘z aksini topgan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz*<sup>2</sup>.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Madaniyat sohasini rivojlantirish uchun yurtimizda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ularni hisobga olgan holda, madaniyat sohasida tub burilish yasaldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. 2021-yilning 20-yanvar kuni “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonun 8 bob 53 moddadan iborat bo‘lib, madaniy faoliyatning qay tartibda olib borilishi va madaniyat tashkilotlarining ishlash mexanizmlari batafsil yoritilgan. Madaniyat vazirligi tomonidan tartibga solinadigan va rivojlantirish belgilangan jihatlar ham aniq qilib yozilgan. Jumladan, madaniyatshunoslikni, teatrshunoslikni, san‘atshunoslikni, musiqashunoslikni va madaniy faoliyat sohasidagi boshqa ilmiy yo‘nalishlarni rivojlantirish, oliy ta‘lim tashkilotlarida hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlanishini takomillashtirish yuzasidan choralar ko‘radi<sup>3</sup>.

O‘zbek teatr san‘atining jahon bilan hamnafas bo‘lishi, xalqaro tajriba almashinuvi hamda integratsion jarayonlari jadal rivojlanmoqda. Jumladan, joriy yilning 22–26-may kunlari TURKSOY shafeligida ilk bor O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti mezbonligida I Xalqaro “Turk dunyosi talabalar teatr festivali” bo‘lib o‘tdi. Festivalni ochib berish hamda tashkilotchilarga omad tilash maqsadida, Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov ham tashrif buyurdi. Festivalga qardosh mamlakatlarning teatr guruhlaridan tashqari bir qator soha mutaxassisleri ham tashrif buyurdi. Ulardan biri taniqli turk dramaturgi va teatrshunosi Yetkin Yuksal Turkiyaning “O‘zbekistan festival izlenimlari” nomli maqolasi mashhur “Tiyatro” gazetasida chop etildi. Ro‘znomada ijodkorning festival to‘g‘risidagi taassurotlari o‘rin olgan.

Ushbu festivalda qardosh o‘lkalar qatori Ozarbayjon davlat madaniyat va san‘at universiteti talabalari oliygoh rektori Jayron Mahmudova bilan birgalikda muvaffaqiyatli ishtirok etishdi. Kuni kecha, rektor Jayron Mahmudova va festival ishtirokchisi bo‘lgan talabalar Ozarbayjonning mashhur Mədəniyyət TV telekanalining festivalga bag‘ishlangan sonida ishtirok

etib, mamlakatimiz, shu jumladan, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti haqida o‘zlarining iliq fikrlarini bildirib o‘tdi. Bundan tashqari efir davomida talabalar tomonidan o‘zbek milliy raqslari ham ijro etildi.

Mustaqilligimizdan so‘ng, respublikamizda madaniy islohotlar ham jadal rivojlandi. Demokratik fuqarolik, odil jamiyat qurish maqsad qilib olindi. Madaniyat komil insonni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Bu borada ulkan tarixiy va jahonshumul ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

✦ *qadimiy tariximizning haqqoniy, chuqur va har tomonlama o‘rganilishi, tarixiy mavzulardagi sovet davrida taqiqlangan asarlarning chop etilishi xalqimiz milliy-tarixiy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda;*

✦ *sho‘rolar davrida man qilingan yoki cheklangan madaniy qadriyatlar, tarixiy xotira, milliy ong, milliy ruh, diniy e‘tiqodlar, xalq odatlari, davlat tili, xalq ijodi, milliy o‘yinlar, tarixiy me‘morchilik san‘ati ko‘pgina an‘anaviy ijod turlari tiklandi;*

✦ *xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navro‘z, Ro‘za hayiti, Qurbon hayiti kabilar)ning tiklanishi va yangi bayramlar (Mustaqillik kuni, O‘qituvchi va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni kabilar)ning joriy etilishi xalq ma‘naviy hayotiga yangi ruh va mazmun bag‘ishlamoqda;*

✦ *diniy qadriyatlarning tiklanishi, eski masjid va madrasalarning ta‘mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlar nashr etilishiga keng imkoniyatlar yaratilishi respublikamizda vijdon erkinligini ta‘minlamoqda;*

✦ *xalq ijodi, milliy amaliy san‘atimiz jonlanib, rivoj topib, vatandoshlarimiz va xorijliklarni lol qoldirmoqda. Xalq ijodiyoti bo‘yicha respublika va xaqlaro anjumanlarning o‘tkazilishi, ajdodlarimiz merosi, milliy-axloqiy madaniyat durdonalari yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo‘lmoqda*<sup>4</sup>.

Millat madaniyatini yanada yuksaltirish uchun jamiyatda mavjud bo‘lgan salohiyat, layoqat, qobiliyatlardan foydalanish jiddiy ahamiyat kasb etadi. Millatning ichki ma‘naviy imkoniyatlaridan foydalanish bilan bir qatorda millat vakillarining tashabbuskorligi, ijodkorlik faolligini oshirmoq zarur. Eng muhimi, ziyolilar ongi va ruhidagi yaratuvchanlik salohiyatini jonlantirib, uning millat kamolotiga xizmat qildirish darkor. Buni amalga oshirishda esa, albatta, o‘zbek milliy teatr san‘atining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Teatr san‘ati jamoaviy ijodkorlik bo‘lib, bunda jarayonning qat‘iy, tartibli tashkil etilishi va yaxshi boshqarilishi talab qilinadi. Bugungi kunda bu boradagi asosiy ish ijodiy sohada bozor qonuniyatlarini chuqur tushunish va amaliy qo‘llashdan iborat. Boshqaruvga, repertuarni shakllantirishga, tomoshabinlarni jalb etishda yangicha yondashuvlarga asoslangan teatrlarda ijodiy o‘shish mavjud, u yerda tomoshabinlar bor, chet elga ijodiy safarlar mavjud. Yangiliklarni xush ko‘rmaydigan, eskicha dunyoqarashda ish olib borayotgan teatrlarda esa, ijodiy turg‘unlik hukm surmoqda. Uchinchi Renessans poydevorini qurishga kirishgan ekanmiz, respublikamiz teatrlaridagi

<sup>2</sup> O‘zbekistonning ma‘naviy-madaniy taraqqiyoti xrestomatiyasi (Eng yangi davr). Ikkinchi qism. Institutsonal o‘zgarishlar, ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, san‘at va sport sohalarning rivojlanishi. – Toshkent: “Tafakkur”, 2017-y. 320-b.

<sup>3</sup> “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘RQ-668. 20.01.2021. lex.uz.

<sup>4</sup> Qoraboyev U. O‘zbekiston madaniyati. – T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2011-y. 196-b.

tashkiliy-ijodiy jarayonlarga yangicha, zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish vaqti keldi, deb o'ylayman. Zero, davr shiddat bilan o'zgarmoqda. Teatr boshqaruviga maxsus bilimli, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini yaxshi tushunadigan menejerlar kerak. Ijodiy jamoalar tomoshabinlar ehtiyojini hisobga olgan holda loyiha asosida ishlashi, yangi spektakl uchun ketgan sarf-xarajati qoplash bilan cheklanmay, foyda olishi va shu asosda yashashi, rivojlanishi darkor. Zamon ruhiyatiga mos yangi repertuari shakllantirish, milliy madaniyatni yanada mustahkamlovchi spektakllarni yaratish teatr san'atining oldida turgan muhim vazifalardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek milliy teatr san'ati bugungi o'z taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarayotgan davrni boshdan kechirmoqda. Bu taraqqiyot bosqichi 1991-yilda O'zbekiston davlati mustaqillikka erishgan kundan boshlab yuz bera boshlagan. Mamlakatimiz istiqbolining dastlabki kunlaridanoq Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda, madaniyat va san'at masalalariga ham katta e'tibor qaratgan. Milliy teatr san'atiga, ravnaqiga ga'mxo'rlik davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mana shu nuqtayi nazardan mulohaza yuritsak, teatr san'atini rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik ish ekanligiga guvoh bo'lamiz. O'tish davrining o'ziga yarasha iqtisodiy qiyinchiliklariga qaramay, keyingi yillarda birorta teatr o'z faoliyatini to'xtatmagani ham O'zbekistonda barqaror madaniy siyosatni olib borayotganidan dalolat beradi. Holbuki, Sobiq Ittifoqning boshqa mamlakatlarida butunlay boshqacha manzara hukmronlik qilgan.

Davlatning qo'llab-quvvatlayotganining boisi, mamalakatda 36 ta professional teatr va studiyalar faoliyat ko'rsatib, drama, musiqali drama, opera, balet va qo'g'irchoq teatrlari singari xilma-xil teatr turlari tobora rivojlanib nodavlat va xususiy teatlar vujudga kelgan. Xalqning ma'naviy dunyosini yoshlar tafakkurini sara sahna asarlari bilan uyg'otmoqda. Bular jumlasiga, "Kelinlar qo'zg'oloni", "Oltin devor", "Kuyov", "Parvona", "Farmonbibi arazladi", "lymon" spektakllari kiradi.

Mustaqillik yillarida qabul qilingan sohaga oid hujjatlarda bugungi o'zbek teatr san'ati oldida turgan vazifalar va uning istiqboli aniq belgilab berildi. Respublikamizda hozirgi kunda turli yoshdagi tomoshabinlar guruhlariga badiiy-madaniy va badiiy-ma'rifiy xizmat qiladigan 37 nafar davlat teatrlaridan

iborat ijodiy jamoalarining butun bir tizimi ishlab turibdi. Katta tajriba va salohiyatga ega bo'lgan Milliy Akademik teatrimizdan tortib, o'z faoliyatini mustaqillik yillarida boshlagan viloyat qo'g'irchoq teatrlarining mo'jazgina ijodiy jamoalarning sa'y-harakatlari, ijodiy izlanishlarining samarasi o'laroq har bir teatr mavsumida yuzdan ortiqroq sahna asarlari yaratilib, tomoshabinlarga namoyish etilmoqda. "O'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va hozirgi kuni haqida, mumtoz madaniy meroslarga, xalq urf-odatlariga, hayot tarziga boy adabiy va folklor negizlariga tayanib turib yaratilgan, o'zbek teatrlarining ulug' an'alarini davom ettiradigan, xalqimizni, ayniqsa, yosh avlodning ongini ma'naviy-g'oyaviy va badiiy-estetik jihatdan boyitadigan badiiy barkamol spektakllar teatr muxlislariga tortiq qilinmoqda"<sup>5</sup>.

Bugun 35 milliondan ziyod ko'pmillatli xalqimiz rivojlangan davlatlarga xos hayot darajasiga erishish, adolatli, erkin va farovon jamiyat qurishdek ulug' maqsadlar bilan yashamoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ma'naviyat masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishlardan birida davlat rahbari mamlakat mafkurasining asosiy g'oyasi haqida so'z yuritarkan, yangi O'zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'lishini qayd etgan edi. Davlat rahbari bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surayotgani, manfaatlar to'qnashuvi kuchayib borayotganini tilga oldi. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarayotgani, milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortayotgani ta'kidlandi. Qayd etilishicha, faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilayapti.

Yurtimizda xalqimiz madaniyatini yuksaltirish, san'atni yanada ravnaq toptirish borasida yaratilayotgan beqiyos imkoniyatlarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Bularni dildan his qilib, teran idrok etishimiz joiz. Zotan, asrlarga tatigulik bunday ibratli ishlar bilan har qancha g'ururlansak arziydi. Bizdan talab etiladigani esa, milliy madaniyatimizning yanada ravnaq topishi uchun fidokorona xizmat qilishdir. Chunki milliy madaniyati yuksak xalq jahon hamjamiyatida ham mustahkam mavqega ega bo'ladi.

<sup>5</sup>Bayandiyev T., Ikromov X., Ahmadjonova M. O'zbek teatrida milliy g'oya talqini. – T.: 2009-y.



## BOLALAR TEATRI IJODIY JAMOASINING VAZIFALARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, yosh tomoshabinlar teatrining, xususan, bolalar uchun sahnalashtirilayotgan spektakllarning bolalar ma'naviy tarbiyasiga qo'shayotgan ulkan hissasi, ko'rsatilayotgan e'tibori yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** teatr, pyesa, dramaturgiya, tarbiya, ta'lim, san'at, bolalar.

## ОБЯЗАННОСТИ ТВОРЧЕСКОГО КОЛЛЕКТИВА ДЕТСКОГО ТЕАТРА

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о большом вкладе театра юного зрителя в духовном воспитание детей и уделяемое ему внимание.

**Ключевые слова:** театр, пьеса, драма, воспитание, образование, искусство, дети.

## DUTIES OF THE CREATIVE TEAM OF THE CHILDREN'S THEATER

**Abstract.** This article describes the great contribution of the Young audience theater to children's spiritual education, and the attention paid to it.

**Key words:** theater, play, drama, upbringing, education, art, children.

Qariyb bir asr avval tashkil topgan yosh tomoshabinlar teatri faoliyati jihatidan katta mas'uliyatli vazifani o'z ichiga qamrab oladi. Teatr san'ati inson uchun katarsis vazifasini bajaruvchi omil bo'lib, inson qalbini ruhan poklashga intiladi. Bolalar teatrlari esa ularga ilk dastak vazifasini bajarib beradi. O'z zimmasiga repertuar tanlash, bolalarga to'g'ri tarbiya bera olish, aktyorlik mahoratini to'liq namoyon qilish, sahna bezaklarini ham ishonarli, ham qiziqarli tashkil qilish sahnada nafaqat spektakl, balki qizilari bir o'yin tashkil eta olishdek muhim masalarni olib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda teatr ijodiy jamoasi ham boshqa teatrlarga qaraganda bir karra og'irroq vazifalarni bajarib kelmoqda.

A.A.Bryantsev bolalar teatri ijodiy tarkibida faoliyat yuritadigan ijodkorlar haqida shunday yozadi: "Bolalar teatrida pedagogdek fikrlay oladigan sahna san'atkorlari hamda o'zini san'atkordek his eta oladigan pedagoglar birlashib ishlashi kerak"<sup>1</sup>.

Sahnaviy asar orqali singdirilgan tarbiya, bolalar, ayniqsa, o'smir davridagi yoshlar uchun samarali natija beradi. Bolalar teatr dargohiga qadam bosar ekan, o'zlari uchun yangi makon kashf etishadi. Bu makon ular ongida sehrli bir dunyo sifatida yoki zerikarli bir olam sifatida taassurot uyg'otishi esa, teatr ijodkorlarining mahoratiga bog'liq. Xoh teatr rejissyori, xoh rassomi bo'lsin bunday mas'uliyatli vazifa ularning har birini zimmasida turibdi. Zero, yosh tomoshabinlar teatrining boshqa teatrlardan farqi ham ana shunda.

Teatrdagi faoliyat yuritayotgan rejissyor spektaklning har bir jihatiga alohida e'tibor bermog'i lozim. Eng avvalo, tanlangan asari qay darajada tomoshabin

uchun qiziqarli bo'ladi? Bugungi kun talabiga mos kela oladimi? Rejissyor aynan shu savollarga javob topa olishi kerak. Chunki yildan-yilga o'sib kelayotgan avlodning qiziqishlari ham o'zgarib bormoqda. Biz yashayotgan texnika asrida bolalarni qiziqitira olish anchayin mushkul hisoblanadi. Shu boisdan ham ular uchun mos mavzu tanlash spektakl muvafaqqiyatini yarmi hisoblanadi. Rejissyor ijodkorligining o'ziga xosligi shundan iboratki, u ijodiy fikrini o'z shaxsi orqali emas, balki aktyorlar orqali amalga oshiradi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogikada ijodkorning shaxsi bilan ijodkorlik quroli bir-biriga mos keladi. Bunda rejissyorning o'z-o'zini namoyon qilishi juda katta rol o'ynaydi. Bu jihatdan rejissyorning faoliyati bir qator xususiyatlari bo'yicha aktyor, dramaturgning badiiy va ijodiy faoliyatiga yaqindir.

San'atshunos olim Hamidulla Ikromov rejissyorning teatrdagi vazifasi haqida shunday deydi: "Rejissyor va dramaturg hamkorligi", deganda rejissyor dramaturgning yoniga kirib, yoki uning o'rniga o'zi o'tirib asar yozishi nazarda tutilmaydi. Aksincha, rejissyor o'zi ishlayotgan jamoaning alohida xususiyatiga mos repertuar plani, zamon taqozo etayotgan dolzarb masalalar va nihoyat teatrning texnik, ijodiy, moddiy imkoniyatlari nazarda tutilgan holda "Oqib kelayotgan" asarlarga qarab turmasdan, adabiyotning boshqa janrlarida ham ijod qilayotgan qalam sohiblari bilan muloqotga kirishish, ularni teatr ijodiy faoliyatiga tortish va qiziqitirish, ijodkorning kuchli tomonlarini hisobga olib, unga yaqin bo'lgan janr va mavzularda asarlar yaratishga da'vat tushiniladi"<sup>2</sup>.

Rejissyor pedagogik ta'sir ko'rsatish dramaturgiyasini ishlab chiqadi, uni rivojlantirish sohalarni belgilaydi, tarbiyaviy ta'sirlar rejasini tuzib chiqadi, bu reja u yoki bu tarbiyaviy syujetni ko'rishni nazarda tutadi, nihoyat, rejissyor-pedagogning tarbiyaviy g'oyalari

<sup>1</sup> Bryantsev A. Yosh tomoshabinlar teatri. "San'at hayoti" gazetasi, 1921-yil, 13-sentyabr.

<sup>2</sup> Ikromov H. "Bolalar talabi – istiqbol talabi". "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 1980-yil, 25-iyul.

va yo'l-yo'riqlari faol "uzatuvchisi" sifatida aktyorlarni maydonga chiqaradi. Ular ham teatr ijodkorligining, ham pedagogik ijodkorlikning eng muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida "rejissyor" lotincha so'zdan olingan bo'lib, "boshqaraman" ma'nosini bildiradi, deb ta'rif berilgan. Shuningdek, spektakl, film, tele va radio ko'rsatuv va eshittirishlarini, estrada va sirk dasturlarini sahnalashtiruvchi shaxs, o'z ijodiy o'ylari, maqsadi asosida tomoshaning barcha ishtirokchilari – aktyor, rassom, kompozitor, kinoda operator ishini birlashtirib, yangi tomoshaviy voqelik yaratadi<sup>3</sup>, – deyilgan.

Teatr san'atining asoschilaridan biri V.I.Nemirovich-Danchenko rejissyorning uchta fazilatga ega bo'lishini ta'kidlagan edi: *"Rejissyor – pedagog, tashkilotchi. U asarning g'oyasini, maqsadini, badiiy obrazning talqinini to'g'ri va mantiqli tushuntirishni bilishi, o'z mahorati, mehnatga bo'lgan hurmati orqali aktyorlarga, xodimlarga o'rnak bo'lishi kerak. Rejissyor – oyna, u aktyorlarning individual xususiyatlarini, ijodini to'g'ri aks ettirishni bilmog'i kerak. Rejissyor – tashkilotchi, u butun spektakl yoki tadbirni uyushtirishi va tashkillashtirishi kerak"*<sup>4</sup>.

Teatr faoliyati va pedagogik faoliyati maqsadining o'xshashligi ham bu sohalarini bir-biri bilan bog'lanishiga zamin yaratib beradi. Har ikkala holatda ham maqsad kishiga ta'sir ko'rsatishi va kishida muayyan kechinmalar vujudga keltirish sifatida belgilanishi mumkin.

Respublika yosh tomoshabinlar teatrida so'nggi yillarda sahnalashtirilayotgan spektakllarni tahlil qiladigan bo'lsak, rejissyorlarimiz asosan ertak janriga ko'proq e'tibor qaratishgan. Sahnalashtirilgan "Oppog'oy va uning do'stlari", "Zolushka", "Etik kiygan mushuk", "Uchar kema" kabi ertak-spektakllar esa, biz istasak-istamasak chet el madaniyatini bolalar ma'naviyatida qayta targ'ib qilinishiga sabab bo'lib qolmoqda.

Bu xususida san'atshunoslik fanlari nomzodi Baxtiyor Yakubov shunday deydi: *"Oilam bilan tomoshabin sifatida yosh tomoshabinlar teatriga tashrif buyurdim. "Oppog'oy va uning do'stlari" spektaklining namoyishi edi. Spektakl tugagach, oxirgi sahnalarida Oppog'oyni uyqudan uyg'otish uchun shahzoda kelib bo'sa oladi. Bu holat meni biroz ranjitdi. Keyin teatr badiiy rahbariga: "Bu spektaklda bolalarga xos yechim qo'llanilsa, yanada yaxshi bo'lar edi. Ya'ni Oppog'oyni uyg'otish uchun ko'zyosh to'kayotgan do'stlarining bir tomchi yoshidan foydalanish mumkin edi. Shunda spektakldan chiqib ketayotgan tomoshabinlar do'stlik tuyg'usi haqidagi xulosalari bilan teatrni tark etishgan bo'lar edi", – degan taklifimni bildirdim"*<sup>5</sup>.

<sup>3</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (7-jild). – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2004-y. 291-292-b.

<sup>4</sup> Sayfullayev B., Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. – T.: "Fan va texnologiya", 2012-y. 95-b.

<sup>5</sup> Suhbatdan yozib olindi (28.12.2022).

<sup>6</sup> Mamatqosimov J. Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2009-y. 92-b.

<sup>7</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (1-jild). A-Beshbaliq. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2000-y. 182-b.

Darhaqiqat, yosh tomoshabinlar uchun mo'ljallangan spektakl g'oyasidan tortib, har bir syujet voqealari bolalar yoshiga mos holda sahnalashtirilishi lozim. Shu sababdan ham rejissyorga katta mas'uliyat yuklatiladi. Repetitsiya jarayonida esa aynan teatr tashkilotchi pedagogi bu holatlarni kuzatib borishi, kerakli takliflarini berib o'tishi ayni muddaodir.

Turkiya bolalar teatri repertuarida "Rapounzel" spektakli sahnalashtirilgan. Bu asar xorijiy ertak bo'lib, ertak qahramoni Rapounzelni yovuz malika o'g'irlab bir uzun minoraga qamab qo'yadi. Yillar o'tib, bir shahzoda kelib uni qutqaradi. Ammo turk ijodkorlari bolalar teatrida bu ertak mazmunini saqlab qolgan holda kattalarga xos bo'lgan sevgisiz sahnaga olib chiqishadi. Spektaklda tomoshabin faqatgina Rapounzel, otasi qiro, yovuz malika hamda uning ikki yordamchisini ko'rishadi. Spektaklda yovuz malika aslida yovuz emasligi, bu hayotda yomon inson yo'qligi, ammo qachondir inson istaklari amalga oshishi uchun yomon ishlarga qo'l urib qo'yish mumkinligi, inson to'g'ri yo'l bilan ham orzularga erishishi haqidagi g'oyalar yosh tomoshabinlarga singdiriladi.

*"Rejissyorlikka o'rgatib bo'lmaydi, rejissyor bo'lib tug'ilish lozim", – K.S.Stanislavskiyning nechog'lik haq ekanligini mana bir necha asrki, sahna haqiqatlari isbotlab kelmoqda. Yaxshi rejissyor aktyor uchun faqat muallimgina bo'lib qolmay, balki teatrdam ham, hayotda ham uning tarbiyachisidir. Shu ma'noda buyuk aktyor Abror Hidoyatovning: "Aktyor ijodiy muhofaza uchun doim rahbarga, ustozga muhtojdir"*<sup>6</sup>, – so'zlarida aktyor uchun naqadar rejissyorning maslahatlari kerakligi, aktyor va rejissyor bir qushning ikki qanoti ekanligini uqtirgan bo'lsa ajab emas.

Shunday ekan, aynan yosh tomoshabinlar teatri rejissyori bugungi kunda yosh nihollar tarbiyasi uchun, ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida ulg'ayishi uchun qanday vazifalarni bajarishi lozim. Teatrlarimizdagi spektakllar rejissura nuqtayi nazaridan barcha yechimlarga javob bera olishi mumkin, lekin pedagogik jihatidan bolalarga mos kelyaptimi, degan savollarni ham chetlab o'tishi kerak emas.

Aktyor teatr san'atining butun boshli jismi hisoblanadi. Aktyor bor ekan, sahna asari mavjud. Uning harakatlari esa, uni san'at darajasiga olib chiqadi. Yosh tomoshabinlar teatri aktyori bolalar bilan muloqot jarayoniga tez-tez duch kelishadi. Spektakl davomida bolalar aktyorning roli salbiy yoki ijobiylikiga qarab, muomala qilishadi. Qahramon bilan birgalikda sarguzashtlarni boshdan kechirishadi. Aktyor bu kabi hodisalarga tayyor turmog'i kerak.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida aktyor (lot. Actor-ijrochi) drama, opera, balet, qo'g'irchoq teatri, estrada, sirk, kino, radio va televideniya rollar ijrochisi, artist. U o'z tanasi, ovozi, aqli, his-tuyg'ulari, qobiliyati vositasida jonli badiiy obraz yaratadi<sup>7</sup>, deb yozilgan.

*"Aktyor teatrlarning asosiy figurasidir. Aktyorsiz teatr degan tushunchaning o'zi yo'q. Shuningdek, dramaturg, rejissyor, rassom, kompozitor va teatrlarning barcha komponentlari o'z san'atlarini faqat aktyor orqali namoyish eta oladilar. Agarda aktyorlik ijodi bo'lmasa, ularning birgalashib ijod qilishlari ham yo'qoladi.*

*Teatrdan barcha san'atkor aktyor uchun, aktyor ijro qilayotgan obrazning tomoshabinlarga to'laqonli, rang-barang, estetik tomondan go'zal, chiroyli bo'lib yetib borishi uchun ijod qiladilar*<sup>8</sup>.

Yosh tomoshabinlar teatrida bir qancha mahoratli yosh aktyorlarimiz samarali ijod qilib kelishmoqda. Yosh ijodkorlardan Asqar Hikmatov, Barot Hasanov, Baxtiyor Turg'unov, Iskandar Elmurodov, Zaynura Nig'matova, Axmedova Dilnavoz kabilari o'z mehnatlari orqali tomoshabinlar e'tiborini qozonishgan.

Rejissyor Shuhrat Ibragimov tomonidan sahnalashtirilgan **"Etik kiygan mushuk"** spektaklida Barot Hasanov ertakchi elfni gavdalandirgan. Ertakchi elf nafaqat tashqi ko'rinishi, balki aktyorlik mahorati bilan ham bolalarni diqqatini tezda jamlab oldi. Sahna o'rtasida joylashgan quduqdan chiqib kelar ekan, bolalar bilan roli orqali sahnalashtirilgan muloqot tashkil etadi. Bu holat bolalarni yanada qiziqitirib, savollari esa ularni tafakkur qilishga undaydi. Xuddi shunday vaziyat **"Bolakay va Madakaskar"** spektaklida ham qo'llanilgan, ammo bolakay obrazini olib chiqqan Asqar Hikmatov bu rolni ko'p o'ynab charchaganidanmi, tomoshabinlar bilan bolalarcha ishonchli suhbat tashkil eta olmadi.

Tajribali aktyor Abduvohid Sarikov **"Shiroq"** spektaklida bir vaqtda ikki qiyofada namoyon bo'ladi. Uning darvesh qiyofasidagi obrazi yosh tomoshabinlar xayolini qamrab oldi, desak adashmaymiz. Darveshning sahnadagi she'rlari, qo'shiqlari ijrosi uni diqqat bilan tinglashga undaydi. Ikkinchi qiyofasi esa saklar qabilalaridan birining boshlig'i rolidir. Spektakl so'nggida aktyor darvesh niqobini yechganda, yosh tomoshabinlar hayratdan qarsaklar yog'dira boshlashdi. Teatrdan shunday mahoratli aktyorlar borligi quvonarli hol, albatta.

Teatr aktyorlari spektakl muvaffaqiyati uchun ma'lum darajada harakat qilib kelmoqdalar. Ammo ba'zi spektakllarning ssenariy saviyasining keskin darajada pastligi, 40 daqiqaga ham yetmasdan tugab qolishi nafaqat bolalarni, balki uzoq yo'l bosib kelgan ota-onalarni ham noroziliklariga sabab bo'lib kelmoqda.

Teatr dekoratsiyasi san'ati, ssenografiya-tasviriy san'atning teatr san'ati bilan bog'liq sohasi hisoblanadi. Hamda dekoratsiya, liboslar, yorug'lik, sahna texnikasi vositasida spektaklning tomosha obrazini yaratishni namoyon qiladi. Xususan, yosh tomoshabinlar teatrida dekoratsiya orqali spektakl mohiyatini chuqurroq anglab yetish, yaratilgan liboslar orqali qahramonlar xarakteriga ishonish hissi yanada ortadi. Bugungi kunda bolalarni bir muddat jalb qilish mushkul bo'layotgan davrda, ularga qariyb bir soat davomida estetik tarbiya berish ikki barobar mas'uliyat talab qiladi. Teatr san'atida bunday vazifani bajarishda teatr rassomining o'рни beqiyos. Chunki sahna pardalari ochilgandan so'ng, ilk bor yosh tomoshabinlar nigohi sahna bezaklariga tushadi. Ular qanchalik hayotiy tasvirlanganiga qarab, spektakl atmosferasiga tomoshabinlarni olib kirish birmuncha osonroq bo'ladi.

Shu o'rinda yosh tomoshabinlar teatrida sahnalashtirilayotgan spektakllar dekoratsiyasi ayni

talablarga juda mos keladi, desak adashmaymiz. Birgina **"Zolushka"** spektaklida qahramonning yerdagi gullar bilan suhbat davomida Zolushkaga gullarning texnika yordamida silkinib javob berishi, bolalarning qiziqishini tamoman orttiradi. Teatr sharoitidan kelib chiqqan holda ball sahnasi ajoyib tasvirlab berilgan. Sahnaning orqa tomonidan yarim qismi ochiq holatda qasrning ichki zinalari tasvirlangan. Bu holat esa Zolushkaning qochish sahnasi ishonarli chiqishiga zamin yaratib bergan.

**"Oppog'oy va uning do'stlari"** spektaklida parda ochilishi bilan siz ajoyib manzaraga duch kelasiz. Qirolichaning ko'zgu bilan suhbat sahnasi juda chiroyli tasvirlangan. Qahramon ovozigacha berilgan fon va chiroqlar sahnani yanada ta'sirli chiqishini ta'minlagan. Oppog'oyning asosiy sarguzashtlarini rejissyor yetti ginnom kulbasida sahnalashtirgan. Rassom esa bu kulbani mahorat bilan yaratishga intilgan. Sanada berilgan shart-sharoitdan foydalangan holda kulbaning ikkinchi qavatini ham tomoshabinlarga ayni voqealar rivojini to'g'ri anglashlariga mos tarzda yaratib bergan.

Yosh tomoshabinlar teatri tashkil topgandan buyon teatr jamoasi tarkibiga pedagog shtati kiritilgan. Teatr pedagogining asosiy funksiyalari bolalar uchun teatrning tarbiyaviy jihatlarni ochib berish, yosh tomoshabinlar uchun zarur mavzularni rejissyor bilan birgalikda sahnaga olib kirish, spektakldan tashqari ota-onalar, maktab o'qituvchilari bilan suhbatlar tashkil etish, teatr ijodkorlari bilan maktab xodimlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish, spektakl sahnalashtirish jarayonida bolalar uchun kerakli tavsiyalarni berib borish kabilardan iborat. Yosh tomoshabinlar teatri tashkil topgandan so'ngra, rus hamda o'zbek teatr sahnalarida pedagog shtati xodimlari katta ishtiroq bilan faoliyatlarini boshlaganlar. Afsuski, bugungi kunda ularning teatrdagi o'rnini payqash anchayin mushkul. Teatr xodimlari va maktab o'qituvchilari o'rtasida deyarli aloqalar sezilmaydi. Teatrga tashrif buyurayotgan kichik tomoshabinlarni o'qituvchilar spektaklga tayyorlab olib kelyaptimi? Teatr haqida o'qituvchilarning oz bo'lsa-da, bilimi bormi? Bu savollar javobi mavhumligicha qolmoqda.

Texnika davrida teatr bolalar uchun avvalgi davrdan ham ko'proq zarur va muhim. Internet tarmog'i orqali dunyoning narigi tomonidagi boshqa xalqlarning turmush tarzini qiyinchiliksiz kuzatish mumkin bo'lgan bir mo'jizaviy asrda yashamoqdamiz. Har bir yangilikning o'ziga yarasha yaxshi va yomon tomonlari bo'lishi shubhasiz. Yoshlar tarbiyasiga aks ta'sir ko'rsatayotgan ba'zi holatlar ham yo'q emas. Mana shunday holatda ma'naviy immunitetni mustahkamlash uchun teatr eng yaxshi vositadir. Bu mammolarni to'g'ri tushunib, ularga o'z vaqtida chora ko'rish esa, avvalo, teatr xodimlarining vazifasidir. Teatr sahnasida ayni mana shunday vaziyatlarni mohirona ko'rsata bilish, yoshlarni qiynayotgan vaziyatlarga oqilona yechim topish ham ularning qo'lidadir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlamoqchi edimki, yosh tomoshabinlar teatrida faoliyat yuritayotgan rejissyor, aktyor, tashkilotchi pedagog, rassom, badiiy emakdosh kabi ijodkorlardan ijod namuna bilan bir qatorda pedagogik qobiliyat ham talab qilinadi.

<sup>8</sup> Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. – T.: "Fan va ta'lim poligraf", 2019-y. 8-b.

# O'ZBEK ETNOMADANIYATI SINKRETIKLIKI VA UNDA AXLOQIYLIK, ESTETIKLIK VA TARBIYAVIYLIK UYG'UNLIGI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, o'zbek etnomadaniyatidagi sinkretlashuv hodisasida axloqiy, estetik va tarbiyaviy holat va jarayonlar uyg'unligi, ularning munosabatlari yaxlitligi asoslab berilgan. Hozirgi zamonda etnomadaniy sinkretiklikning axloqiylik, tarbiyaviylik hamda estetiklik yaxlitligidagi etnoartefaktlarini zamonaviylik, postmodernistik va texnogen madaniyat bilan birga saqlab qolinishi, keng yoyilishi va rivojlanishiga qaratilgan ilmiy yondashuv va tavsiyalar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** etnomadaniyat, sinkretizm, axloqiylik, tarbiyaviylik va estetiklik.

## СИНКРЕТИЧНОСТЬ УЗБЕКСКОЙ ЭТНОКУЛЬТУРЫ И ЭТИКИ, ЭСТЕТИКИ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ГАРМОНИИ В НЕЙ

**Аннотация.** В данной статье обосновывается гармония нравственных, эстетических и воспитательных условий и процессов, целостность их отношений в явлении синкретизации в узбекской этнокультуре. Выявлены научные подходы и рекомендации, направленные на сохранение, распространение и развитие этноартефактов этнокультурной синкретичности в целостности морали, образования и эстетики наряду с современностью, постмодернистской и техногенной культурой.

**Ключевые слова:** этнокультура, синкретизм, мораль, образование и эстетика.

## SYNCRETICITY OF UZBEK ETHNO-CULTURE AND ETHICS, AESTHETICS AND EDUCATIONAL HARMONY IN IT

**Abstract.** In this article, the harmony of moral, aesthetic and educational conditions and processes, the integrity of their relations in the phenomenon of syncretization in Uzbek ethnoculture is justified. Scientific approaches and recommendations aimed at preserving, spreading and developing the ethno-artifacts of ethno-cultural syncreticity in the integrity of morality, education and aesthetics along with modernity, post-modernist and man-made culture have been revealed.

**Key words:** Ethnoculture, syncretism, morality, education and aesthetics.

Etnomadaniyatdagi estetik, axloqiy va tarbiyaviy jarayonlar uyg'unligi etnos va inson hayotining kommunikativligini mustahkamlaydi. Etnoestetik, etnoaxloqiy va etnotarbiyaviy jarayonlar mazmunidagi kommunikativlikning barqarorligi – bu insonlar o'rtasida etnoartefaktlar almashinuvining inforamatsion tarzda amalga oshirish uchun muhim sharti va sharoitidir. Etnomadaniyatning axloqiy, estetik va tarbiyaviy yo'sinda informatsion tizimni yuzaga keltirishi – uning etnos bilan inson orasidagi munosabatlarning regulyativ tarzda muvozanatga keltirib turishga qaratiladi. Etnoartefaktlar etnoaxloqiy, etnoestetik va etnotarbiyaviy xususiyatlarga sinkretik yoki yaxlit tarzda to'yinib kelgan bo'lib, ular xuddi shu orqali kommunikativ, informatsion va regulyativ funksiyalar sifatida insonlarga o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan.

Etnosan'atda etnogumanizm qaror topishi uchun estetiklik, axloqiylik va tarbiyaviylik kabi ong-amaliyot shakldagi immanent xususiyatlar ham g'oyatda muhim rol o'ynaydi. Etnogumanistika etnosni axloqiy,

estetik va tarbiyaviy qarashlar, jarayonlar asosida saqlab qolishni o'ylaydi, qayg'uradi. Bugungi kun talablariga ko'ra, etnosan'at turlari va ijro amaliyotida etnomadaniy sinkretikaning axloqiylik, estetiklik va tarbiyaviylik singari immanent xususiyatlari yetarli darajada aks etmasa, unda, etnogumanizm haqidagi badiiy-g'oyaviy mazmun destruktivlik ta'siriga tushadi, absurd bo'lib qoladi. Ushbu xavfli jarayonlar mutlaqlashib ketaversa, kimlar uchun "san'at" bo'lib ko'rinayotgan voqelik ijtimoiylashuv va madaniylashuvdagi mavjud bo'lgan, milliy va umummilliy manfaatlar tizimi, tolerantlik va gumanizm qutqarilib, saqlanib qolinishini hech kim kafolat berolmaydi. Bugungi globallashuvdagi etnomadaniy qoliplarning yashovchanligini shartli tarzda tutib turuvchi – sinkretik jarayonlarni, davom ettirish va ularni to'g'ri yo'nalishda uzluksizligini ta'minlash masalalari aktual bo'lib bormoqda.

"Falsafa qomusiy lug'ati" kitobida "sinkretizm" – yunoncha "synkretismos" – birlashtirish, qo'shish ma'nosini bildirilishi o'laroq, biron-bir hodisani

qismlarga bo'linmasligini, rivojlanmaganligini ifodalovchi tushuncha sifatida qayd etilgan [7.B-369]. Sinkretizm haqida ham biroz to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Faylasuf, madaniyatshunos V.Karpushin: *"Madaniyatning sinkretik xarakteri shuni anglatadiki, din animizm, totemizm yoki magik g'oyalar ko'rinishida eng qadimgi jamiyatning ibtidoiy san'ati va axloqi bilan birlashtirilgan hamda bu ijtimoiy ongning barcha shakllari hali ham moddiy ishlab chiqarish – ovchilik va dehqonchilik jarayonidan ajralmaganligidir"*, – deb ta'kidlagan edi [13.B-9]. Tadqiqotchilar E.Ahmedova va R.Gabidulinlar: *"Sinkretizm ibtidoiy madaniyatning ajralmasligi, yaxlitligidir. Sinkretizm – bu madaniy fenomenlar o'rtasidagi farq paydo bo'lgunga qadar yaxlitlikdir. Axloq, san'at, din, huquq kabi fenomenlar ibtidoiy madaniyatda hali mavjud emas edi"*, – deya qayd etib o'tishgan edi [2. B-66.]. Madaniyatshunos A.Doxayeva: *"...etnik madaniyat – bu etnos tomonidan ilgari ishlab chiqilgan qadriyatlarni, shuningdek, etnosning zamonaviy tajribaga moslashgan madaniy tajribasini rivojlantirish singari yangi qadriyatlarni o'z ichiga olgan madaniy sinkretizmdir"*, – deya qayd etgan [5.B-33.].

Falsafa fanlari doktori O.Nishanova: *"...madaniyatda barqaror, muqim narsalar, artefaktlar bo'lishi lozim. Mazkur o'zaksiz, yadrosiz xalq, millat o'zligini namoyon qila olmaydi, u kuchli ijtimoiy-madaniy oqim ta'siriga berilib, etnik belgilarini yo'qotadi"*, – deya ta'kidlagan edi [8.B-133.]. Madaniyatshunos U.Utanova: *"...madaniyat insonning aqlu tafakkuri va amaliy faoliyati jarayonida yaratilgan artefakt (sun'iy dunyo)dir"*, – deya ta'kidlaydi [9. B-138.]. O.Nishanova esa: *"Etnomadaniyatda etnosning mangu, umrboqiy qadriyatlari, an'analari, artefaktlari mujassam. Etnos mazkur qadriyatlari, an'analari, artefaktlari orqali o'zini ham umrboqiy etnik birlik sifatida sezadi, idrok etadi. Yangi avlodlar madaniyatning ustki qatlami ta'siriga qancha berilmasin, etnos o'zining umrboqiy, mangu qadriyatlari, an'analari, artefaktlaridan voz kechmaydi, balki mudom ularni asrashga, rivojlantirishga intiladi"*, – deya ta'kidlagan [8.B-133.]. Artefakt semiotik jihatdan obyekt sifatida o'zgarishi bilan birga, u tarixiy jarayon sifatida ham namoyon bo'la oladi [10.B-188.]. Madaniyatning tarixiylikida kelajak avlod uchun yetkaziladigan axloqiy, estetik va tarbiyaviy jarayonlar aks etadi. Bu esa, etnosning ruhiy-madaniy dunyosiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir. Etnosning ma'naviy-ruhiy olamiga kirmagan, etnopsixologik sintez amaliyotida muvofiqlashmagan artefakt etnomadaniyatda joy ololmaydi [6.B-444–446.].

Etnos artefaktlari etnomadaniy insonning ichki kechinmalari, ideallari, orzu-umidlari, kundalik ish-faoliyati, mehnati, ijodiy qobiliyatlari uyg'unlashib kelishi orqali qaror topib kelgan. O'zbek xalq ijodidagi eposlar, aytimlar, maqollar, topishmoqlar, ertaklar, rivoyatlar, so'z o'yinlari va hokazolar etnomadaniyatning muttasil sinkretlashib boradigan ma'naviy artefaktlaridir.

Etnoartefaktlarning mazmunida axloqiylik, estetiklik va tarbiyaviylik uyg'unligidagi etnogumanizm va xalqchilik ularning yashovchanligini belgilovchi,

endogen tarzda namoyon bo'ladigan muhim g'oyaviy o'zak manbai hisoblanadi. Madaniyat turlari va shakllarining sifat o'zgarishlarini, xilma-xilligini ham artefaktlar ta'minlaydi. Etnomadaniyat etnoartefaktlardagi folkloriy va etnik-praksiologik mazmun bilan to'lib, rivojlanib o'ziga xosligini namoyon etadi. O'zbek etnomadaniyatiga xos ichki hayotiy jarayonlar ham etnobadiiy va folkloriy jarayonlar bilan bog'liq. Ular bir-birini taqozo etuvchi holatda bo'lib, etnomadaniyatning ijodkorlik, jamoaviylik, tarixiylik, og'zaklilik va an'anaviylik kabi immanent xususiyatlari orqali etnoartefaktlarni yuzaga chiqaradi. Etnoartefaktlar yaratilishi va namoyon bo'lishi estetiklik, tarbiyaviylik va axloqiylik sifatida qaror topib kelgan.

Etnomadaniy jarayonlar zamon va makondagi insonlarning ehtiyoji, talabi va hayotiy zaruratiga qarab o'zgarib kelgan. Hozirgi zamon ijtimoiy-madaniy jarayonlar oqimida ba'zi etnomadaniyatlarining o'z artefaktlarini asta-sekin unutilish darajasiga kelib qolishi asnosida ularning borib-borib o'zlari ham yo'qolib ketish darajasigacha kelayotgani insonlarning postindustrial va postmodernistik hayotga ko'p nuqtali (tomonlama), eklektik va notekis tarzda muvofiqlashib borayotgani uchun ham ro'y bermoqda. Binobarin, etnomadaniyatlar sinkretikligi postmodernistik va texnogen madaniyatlarga muvofiqligi bir tekislikda, bir chiziqlikda kechmayapti, ular saqlanib qolish uchun ba'zida institutsional madaniyatlarga ham ehtiyoj va zarurat sezmoqda.

Madaniyatshunos olim, faylasuf V.Alimasov: *"Ma'naviy-axloqiy xislatlar kishilarning turli ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarida, adolat, haqiqat va eziguliklarni qo'llab-quvvatlashlarida namoyon bo'ladi"*, – deya ta'kidlagan edi [3. B-147.]. Etnomadaniyatdagi xalqchilik o'zida tenglik va adolat haqidagi g'oyalarni etnosan'at turlariga, folklorga va xalq marosimlariga tayanib, axloqiy, estetik va tarbiyaviy jarayonlar yaxlitligi orqali, ularni tarannum etib kelgan.

Sharqona axloq, odob, ma'naviyat an'analari qayta tiklash va ulardan inson, yangi avlod tarbiyasida foydalanish o'zbek xalqi an'anaviy madaniyatiga tayanishdir [9. B-110.]. Etnoartefaktlar madaniyat fenomenligi va hayotiylikining umumijtimoiy manzarasida u o'zining arxaik elementlarini yaxshi saqlagan holda, inson va jamiyat munosabatlarining ekzitsensial mohiyatini, yashovchanligini etnomadaniyatning axloqiylik, estetiklik va tarbiyaviylik kabi immanent xususiyatlari asosida ta'minlaydi, belgilab boradi. Shuning uchun ham, milliy madaniyatlar, turli institutsional madaniyatlar imkon qadar etnoartefaktlarni postmodernizm va ommaviylikka tez muvofiqlashtirishgan holda ular o'zlarining keyingi mavjudligi va yashovchanligini ba'zi mezon va normalar andazasida ularni bosqichma-bosqich o'zlashtirishga harakat qilishadi.

Folklorshunoslar: *"Folklor asari xalq orasida ommaviy yashaydi"*, – deya ta'kidlashadi [11.B-18.]. Madaniyatshunos F.Atamuratova: *"Etnomadaniyat milliy tarbiyadagi katta imkoniyat shundaki, uning tarkibiy qismi hisoblangan milliy bayramlar, to'y*

marosimlar, ommaviy sayillar va boshqa bir qator tadbirlarda millat vakillari ommaviy shaklda ishtirok qiladilar. Ana shunday tadbirlarni ommalashtiriladigan har bir urf-odat, an'ana, qadriyat, udum, marosim va kiyimlar nafaqat uning ishtirokchilarida, shuning bilan birga ular orqali butun mamlakat aholisiga yetib boradi. Shuni hisobga olganimizda etnomadaniyatning ana shu imkoniyatlaridan milliy tarbiyani olib borishda foydalanish amaliy ahamiyatga ega bo'ladi", – deya qayd etgan edi [1.B-151.]. Xalq sayillari, to'ylarda o'tkazib kelingan o'zbek milliy kurashi halollik, mardlik, botirlik, jasurlik, epchillik, chaqqonlik, jismoniy baquvvatlik, or-nomusni o'zida namoyon etib kelgan [12.B-44.].

O.Bo'riyev va A.Ochilovlar: "An'anaviy o'zbeklar jamoasi doimo kishilar orasida ma'naviy tamoyillarga asoslangan odob-axloq tizimini yaratgan. Bola tarbiyasiga oid urf-odatlar xalqning umum etnik jihatlarini o'zida mujassam etadi", – deya qayd etishgan [4.B-195.]. Tadqiqotchi M.Murodov: "Bola tarbiyasiga e'tibor xalq donishmandligi – og'zaki ijod namunalari, an'anaviy xalq tarbiya usullarida har tomonlama chuqur ishlangan, oilaviy udumlar, odatlar, an'analarda o'z ifodasini topgan", – deya qayd etgan edi [14.B-23.]. Madaniyatshunos G. Gadjinayev: "Xalq madaniyati etno-axloqiy va etno-estetik ong bilan shu qadar to'yinganki, u ong osti va tarixiy xotira darajasida nazariy va amaliy fanlarga singib ketadi va xulq-atvor tuzilmalariga kiritiladi", – deya ta'kidlagan edi [15.B-120-121.].

Professor U.Qoraboyev: "Asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, an'anaga aylangan: bahorgi – "Qurultoy", "Gul bayramlari", "Navro'z", "Darvishona", "Qo'sh oshi" ("Shoxmoy"), yozgi – "Suv sayli", "Choy momo", kuzgi – "Uzum sayli", "Qovun sayli", "Paxta to'yi", "Anor sayli", "Anjir sayli", qishki – "Yasan-tusan", "Gap-gashtak" kabi marosim va bayramlar dehqonlar hayoti, turmushi, mavsumiy mehnat jarayonida va ma'naviy olamida samarali shakllar bo'lib, ularning mazmuni yoshlarning ekologik ongini ravnaq toptirish, tabiat boyliklarini qadrlash, yil fasllarida vujudga keladigan go'zalliklardan zavqlanish, mehnatni qadriga yetish, insoniylikni ulug'lash kabi vazifalarni bajarishda yaxshi xizmat qilgan", – deya ta'kidlagan edi [16.B-158.].

O'zbek etnomadaniy hayotida o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga nisbatan kattalarning ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-tarbiyaviy mas'uliyati g'oyatda katta. Etnomadaniy hayotdagi mas'uliyatda insonlarning gumanistik va aksiologik qarashlari, axloqiy-estetik ideallikka intilishlari ham uyg'unlashib ketadi. Bu esa kattalar bilan o'sib kelayotgan yosh avlodlarning ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy munosabatlar yaxlitligini ham ta'minlaydi. Ushbu madaniy yaxlitlikning ehtimoldagi kengayib borish tendensiyalari ham kelgusida amalga oshishi mumkin. Etnosning jamoaviy-axloqiy mas'uliyati doim milliy va umumilliy madaniyatdagi ijtimoiy-axloqiy mas'uliyat darajasiga qadar ham namoyon bo'ladi.

O'zbek etnomadaniyatida til hodisasi orqali axloqiy, estetik, tarbiyaviy mazmundagi so'zlar

uyg'unligi ma'lum bir ma'naviy-g'oyaviy yo'nalishdan kelib chiqib, sinkretik tarzda namoyon bo'lib keladi. O'zbek etnomadaniyatida verbal holatlar orqali axloqiy, estetik, tarbiyaviy amaliyotlarni ifodalaydigan etnoartefaktlar sinkretik tarzda xilma-xillashib ketgan. Etnomadaniy hayotdagi insonlar tomonidan bunday etnoartefaktlardan ba'zida madaniy-maishiy ehtiyojlar qondirilishi sifatida foydalanilgan bo'lsa, ulardan ba'zida oiladagi kundalik turmush talablarining ayrimlarini to'la-to'kis bajarish uchun ham qo'llanilib kelinadi.

Marosim va bayramlardagi etno axloqiy, etnoestetik holatlar, qarashlar yaxlit tarzda milliy va umumilliy madaniyat darajasida namoyon bo'lishi o'laroq, ular ijtimoiy-gumanitar soha va fanlarga qayta-qayta muvofiqlashtirilib, ta'lim-tarbiya yoki o'quv jarayonlari uchun tizimlashtiriladi. O'sib kelayotgan yoshlarga (o'zbek milliy madaniyati darajasida) singdirilib kelinayotgan tarbiyaviy, estetik, ma'naviy-axloqiy qarashlar, munosabatlar tizimining birlamchi manbai – etnomadaniyatdagi kompleks sifatida aks ettirilib kelinayotgan etnoartefaktlardir. Etnoartefaktlar milliy madaniyatga turli shakllarda axloqiy va estetik qarashlarni, g'oyalarni qayta-qayta ideallashtirib borishda ham dominantlardan biridir.

O'zbek xalq marosim va bayramlarida insonlarning o'zlari uchun bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishi, o'yin-kulgi o'tkazishi, jamoaviy tarzda tadbirga tashkilotchilik qilish borasida ko'maklashishi shunchaki evdemonistik va gedonistik lahzalar bilan uyg'unligi sifatida o'tmagan, balki ayni holatlar ularning etnik-axloqiy qarashlar kompleksidagi nafosatni, go'zallikni ilg'ab olish sifatida ham kechgan. O'zbek etnomadaniyatida insonlarning axloqiy-estetik munosabatlari va qarashlariga e'tibor ideallik darajasida qaratilgan. O'zbeklar azaldan axloqiy-estetik, ma'naviy jihatdan ideallikka intilib yashovchan xalqdir.

Etnomadaniy hayotda etnoartefaktlar muttasil ravishda yaratilib, ijodiy tarzda sayqallanib turilishi ham talab etiladi. Buning uchun xalq badiiy havaskorlik va tomosha san'ati, folklor ijrochiligi doimiy tarzda e'tibordan chetda qoldirilmasdan rag'batlantirib borilishi, (ijodiy-amaliy tomonlarini) moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi g'oyatda muhim. Ayni zamonda, milliy va umumilliy madaniyat darajasidagi ta'limiy-tarbiyaviy amaliyotlar etnomadaniyatdagi estetik, axloqiy qarashlar va etnopedagogik tajribalar bilan hamkorlikda, uyg'unlikda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Bir so'z bilan aytganda, o'zbek etnomadaniyatining ma'naviy dunyosi va nomoddiy etnoartefaktlarida axloqiylik, estetiklik va tarbiyaviylik bir-birini taqozo etib, ular sinxron tarzda insonga ta'sir etadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, etnomadaniy artefaktlarning axloqiylik, estetiklik va tarbiyaviylik kabi immanent xususiyatlari postmodernizmga xos ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ham destruktivlikdan struktivlikka tomon muttasil ta'sir etib boradi. Shuning uchun ham institutsional madaniyatlar ichidagi etnomadaniy artefaktlarni asrab-avaylab qolish globallashtirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbek etnomadaniyatidagi artefaktlarni asrab qolish va uni ommaviy tarzda keng afkor ommaga tadbiiq etish uchun quyidagi tavsiyalarni qayd etish g'oyatda muhim:

*Maktabgacha ta'lim va o'rta maktab yoshidagi bolalarga etnoartefaktlar bilan ijodiy jarayonlarda yangilik qilish amaliyotlari va uslublarini ishlab chiqish hamda unga doir barcha yondashuvlarni keng miqyosda joriy etish va targ'ibot etish;*

*Media, internet tarmoqlari va teletomoshalarda etnomadaniy hududga xos etnoartefaktlarni targ'ib etish, ichki, o'rta va yuqori inkulturatsiyasini ta'minlash va ularni keng yoyish;*

*Maktabgacha ta'lim va o'rta maktab yoshidagi bolalarga muttasil tarzda, ko'proq etnomadaniy artefaktlarni, shu jumladan, ertak, matal, maqol, doston, marosim va afsonalarni qiziqtirib, ta'sirchan*

*tarzda o'qib berish, tanishtirish va ko'rsatish ularga folkloriy aytimlarni kuylatib borish, xalq tomosha san'ati chiqishlarini namoyish etish orqali yoshlar kreativligini, erkin va pragmatik fikr olishini hamda o'z maqsadlarini to'g'ri yo'lga qo'yishini ta'minlab borish;*

*Maktabgacha ta'lim va o'rta maktab yoshidagi bolalarni etnomadaniy, xalqchil o'yinlarni (masalan, "Hola-hola", "Oila", "Oq terakmi, ko'k terak", "Kim oladi-yo, shuginani-yo" va hokazo) o'yinlarga o'ynatib, bunda etnomadaniyatga, etnogumanizmga xos xalqchilikni, jamoaviylikni, egosentristik qarashlarga qarshi insoniylikni singdirish, xuddi shu asnoda estetiklik, axloqiylik va tarbiyaviylik xususiyatlarni qaror toptirish;*

*Etnomadaniy turizm orqali etnoartefaktlarni tanitish va ayni shu asnoda ularni saqlab qolishini, rivojlanishini ta'minlash g'oyatda muhim.*

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atamuratova F. Mustaqillik sharoitida o'zbek milliy mentalitetida etnomadaniy jarayonlar. Fal. fan. nom. dissert. – Toshkent: 2010-y. 151-b.
2. Ахмедова Э., Габидулин Р. Культура, мировая культура. – Т.: Академия художеств Узбекистана. 2001 г. Стр.304.
3. Alemasov V.A. O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish sharoitida madaniy-ma'rifiy muassasalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Fal. fan. dokt. dissert. – Т.: 2001-y. 277-b.
4. Bo'riyev O., Ochilov A. Qashqadaryo vohasi etnomadaniy qadriyatlari. – Т.: "Yangi asr", 2013-y. 364-b.
5. Дохаева А.Б. Религия в системе этнической культуры чеченцев. 24.00.01 – теория и история культуры. Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. Грозный: 2014 г. Стр.156.
6. Этнопсихологические проблемы вчера и сегодня. – Минск: «Хварест», 2004 г. Стр.495.
7. Falsafa qomusiy lug'at. – Т.: "Sharq", 2004-y. 369-b.
8. Nishanova O.D. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati va funksiyalari. Falafa fanlari doktori disser. – Т.: 2016-y. 215-b.
9. Utanova U.A. Mustaqil O'zbekistonda xalq madaniyatining ravnaqi (falsafiy-madaniy yondashuv). Falsafa fanlari nomzodlik disser. – Т.: 2008-y. 153-b.
10. Крутеева Ольга Владимировна. Народные художественные промыслы урала и их сохранение в современных социокультурных практиках. Диссерт. канд. культуролог. наук. – Челябинск: 2019 г. Стр.144.

## XX ASRNING MASHHUR METSENATI – "MAN AFANDI" VA TURKISTONLIK TALABALAR TAQDIRI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, XX asrda vatanimiz tarixida ilk bora xorijda tahsil olgan talabalarning taqdiri, ularga muntazam ravishda homiylik qilgan Saidnosir Mirjalilovning faoliyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** "Man afandi", "Sharq kechalari", "Ulamo", "Ta'lim haftaligi", "Ko'mak", "NKVD", "Germaniyadagi o'quvchilarimiz".

## ИЗВЕСТНЫЙ МЕЦЕНАТ XX ВЕКА – "МАН АФАДИ" И СУДЬБА ТУРКЕСТАНСКИХ СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о судьбе студентов, обучавшихся за границей впервые в истории нашей страны в XX веке, и деятельности Саидносира Мирджалипова, который регулярно их опекал.

**Ключевые слова:** "Ман Эффенди", "Восточные ночи", "Уламо", "Неделя образования", "Помощь", "НКВД", "Наши студенты в Германии".

## FAMOUS PHILANTHROPIST OF THE XX CENTURY – "MAN AFANDI" AND THE FATE OF TURKESTAN STUDENTS

**Abstract.** This article tells about the fate of students who studied abroad for the first time in the history of our country in the twentieth century, and the activities of Saidnosir Mirjalilov, who regularly took care of them.

**Key words:** "Man afandi", "Eastern Nights", "Ulamo", "Education Week", "Help", "NKVD", "Our Students in Germany".



U 1922–1928-yillarda ta'lim olib, katta orzular bilan yurtiga qaytdi. 1937-yilning 15-sentyabrida hibsga olinganida, u "Yorqin turmush" jurnali tahririyatida adabiy xodim bo'lib ishlagan. Tergovda Maryam: "Men Olmoniyada 1922-yildan 1928-yilgacha o'qidim. 1923-yildan 1924-yilgacha Berlinda, 1924-yildan 1926-yilgacha Darmshtadt shahrida pedagogika maktabida tahsil oldim, 1926-yildan 1928-yilning may oyigacha, ya'ni SSSRga qaytib kelgunimcha Berlinda xizmat qildim", – deydi. U muallimlar tayyorlash seminariyasini tugallagach, hamshira tayyorlash kursida o'qidi. Ham muallim, ham hamshira mutaxassisligiga ega bo'lgan edi. Ammo afsuski, kuch-g'ayratga to'la, olam taniyman, xalqimning koriga yarayman, bilimimni ona yurtim xizmatiga baxshida etaman, deb astoydil bel bog'lab o'qishini tamomlab yurtda xizmat qilayotgan yosh, qo'lida norasida go'dagi bor ayol bir kunda, ko'z ochib yumguncha tuhmat bilan qamoqning sovuq kamerasiga tushib, orzulari poymol bo'ladi. 1938-yilning 9-oktyabr kuni Toshkent shahrida SSSR Oliy Sudining harbiy hay'ati sayyor sessiyasi yopiq sud majlisida Maryam Sultonmurodova josuslikda ayblanib, o'n yil muddatga qamoq jazosiga, besh yil muddatga siyosiy huquqlardan mahrum etilishga hukm etildi va unga tegishli mol-mulkini musodara qilish lozimligi qayd etildi. "Shunisi qiziqki, meni josuslikda ayblaydilar-u, na tergov chog'ida va na tergov davomida mening josuslik faoliyatim nimadan iborat bo'lganini, menga qanday topshiriqlar berilganini tilga olmaydilar. Josusni tutsalarda, uning faoliyati, tafsiloti bilan qiziqmasalar", – deb nola chekadi u Moskvaga yo'llagan maktubida.

(Maqolaning boshlanishi jurnalning 3-sonida).

Haqiqat bir kun kelib, albatta, g'alaba qiladi. Yillar o'tib, Stalin davrining qatli domiga duchor bo'lgan millionlab kishilarning "jinoyatnoma"si qayta ko'ri-la boshlandi. Maryam Sultonmurodova SSSR bosh prokurori nomiga 1957-yilning 10-mayida yo'llagan arizasida tergov jarayonida unga tuhmat qilingani, noto'g'ri ko'rsatma yozib unga o'qitmay imzo chekishga majburlashgani, agar bosh tortsa, farzandlari bilan tahdid qilishganini bayon etgan. "Uydirmadagina iborat mana shu "jinoyatnoma" tufayli yigirma yil davomida azob chekdim, yolg'iz mengina emas, mening farzandlarimdan tortib inilarim, singillarim, onamgacha azob-uqubatlarga giriftor bo'lishdi", – deyiladi maktubda.

1957-yilning 14-oktyabrida haqiqat qaror topdi. Lekin buning uchun o'n to'qqiz yil kerak bo'ldi. Maryamning keyingi hayoti ham oson kechmadi. U ish topishda, insonlar bilan munosabatlarda ham ta'malarga ko'p uchradi. Avvalo, diplomi, hujjatlari tintuv payti olib ketilib yo'qolgani tufayli, keyin esa diplom va hujjatlarini so'rab, Xorazm viloyat davlat xavfsizligi qo'mitasi rahbariga murojaat etib, natijani kutib, ko'p sarson bo'ldi. Keyinchalik esa olib ketilgan hujjatlarni oradan uzoq muddat o'tganligi uchun saqlanib qolinmagani e'lon qilinadi. Maryam o'z dardi bilan o'zi yondi. Dardini faqat oppoq qog'oz tingladi. Unga ko'nglida borini to'kib soldi. Insonlardan yordamini ayamadi lekin unga tuhmat toshlari otilgan, mehnati qadrsizlangan paytlar ham bo'ldi. Maryam Sultonmurodova: "Jonim azobda qoldi. Yuragimni ochib so'zlaydigan kimsam yo'q. Qalbimni qog'ozga to'kib solmoqchiman. Shu niyatda qo'limga qalam oldim. Har kimsa kayfiyatiga qarab men bilan xohlaganicha gaplashishi mumkin ekan-u, men tilimni tiyib indamasligim kerak..."



*Hamma vaqt shunday. Hatto, hamshiralik maktabida ham bir ayg'oqchi bo'lguvchi edi. Qayerga borsam, ro'paramdan chiqaverardi. Nahotki, men shunchalar xavfli jinoyatchi bo'lsam, nainki, meni nazorat qilish uchun butun boshli shtat belgilansa? Nahotki, shunday qilishga haqli bo'lsalar?! Davlat manfaati meni nazorat ostida tutishni talab qildi, deylik, nega ular buni namoyish qiladilar? Nega endi men buni bilib turishim kerak? Yoki meni qo'rqitishmoqchimi? Nega? Agar mening pokligimga zarracha bo'lsa-da ishonchsizlik bo'lsa, meni oqlamasliklari mumkin edi-ku?! Mana shunday xayollar meni qiynaydi jonim azobda qoladi. Men butun umr vijdonli bo'lib yashadim va mehnat qildim. Hayotimda bir bor beixtiyor qoqilgan bo'lsam, nahotki, qayta-qayta yiqitish, qaytib qad rostlay olmaydigan qilib tashlash kerak? Nahotki, menga qo'l cho'zib, to'g'ri yo'lga boshlash mumkin emas? Nega endi mening dildiragan qalbmni iliq so'z bilan, do'stona e'tibor bilan isitish mumkin emas?!" – deya nola qiladi.*

Bu satrlarni o'qib, qalb o'rtanadi. Uning hayoti, chekkan azoblari insonni o'yg'a toldiradi, qalban unga darddosh bo'ladi kishi. Yaxshiyamki dunyoda Maryamlar bor. Aynan ular bu hayotda haqiqiy matonat, iroda kuchini ko'rsatib turadi. Ot bosmagan joylarni toy bosadi, deganlaridek Maryam yetmagan cho'qqilarga uning avlodlari, bugungi izdoshlari yetmoqda. U havas qilgan, intilgan erk zamonida, tinch-osoyshta kunlarda bugun uning avlodlari hayotdan mamnun bo'lib yashamoqda. Aslida, bugungi avlodning ajdodlar oldidagi burchi ham shu emasmi? Bugungi tinch hayotdan rohatlanib, ular yeta olmagan marralarni zabt etish, ular yetmagan manzillarga yetib, ushalmagan armonlarini ro'yobga chiqarish bugungi avlodning eng oliy maqsadi emasmi?!

Bu yillarda xalqimizning ziyoli, zabardast o'g'lonlari ham turli bo'htonlar bilan qamalgani sir emas. Millatning tayanchi, ilm ahli xalqning ko'zini ochadigan, davlatni bir kun mustaqillikka, taraqqiyotga eltishini bilgan sovet davlati qasddan ularni bitta-bitta yo'q qilishga bel bog'lagan edi. Ming afsuski, ular haqsizlik qurboni bo'lishi, jamiyat tarqqiyotini bir necha yillarga kechiktirgan. Bu nohaqliklar bo'lmaganida o'zbeklar orasidan dunyoga mashhur Rokfellerlar, Fordlar chiqishi mumkin edi. Bu davrda ularning turmush o'rtoqlari o'zlarining vafosi, fidoyiligi, irodasi, ornomusi va qahramonligi bilan tarixda o'z nomini qoldirgan. Ularning soni juda ko'p shu bois ham ularning har birining nomi xalqqa yaxshi tanish emas. Shunday sadoqat timsollaridan biri tarjimon, noshir G'ozni Yunusning ayoli Hadicha Aliyeva edi.

G'ozni Yunusni 1937-yil 6-avgustda hibsga oldilar. Uni tuhmat bilan aksilinqilobiy "Milliy ittihad" tashkilotiga a'zolikda aybladilar. Oila boshidagi hamma falokat ayni shu kundand boshlandi. Oradan ko'p o'tmadi. 1937-yilning 14-sentyabr kuni Hadicha opa ustidan ham jinoiy ish qo'zg'atildi. Uy-ro'zg'or ishi bilan shug'ullangan, chalasavod ayolga qo'yilgan ayb: G'ozni Yunusning rafiqasi bo'lganligi edi. NKVD Davlat Xavfsizligi bo'lim boshlig'i muovini chiqargan qarorda: "*Hadicha Aliyeva xalq dushmanining xotini*

*va ko'makdoshi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilsin, Toshkent turmasida hibsga saqlansin"*<sup>1</sup>, – deyiladi.

Eri qamoqqa olingach, bir muddat o'tib yuz bergan voqeani Hadicha Aliyeva quyidagicha eslaydi: "*1938-yilning 20-oktyabrida eshik taqilladi. Ochganimni bilaman, o'n chog'lik militsiya xodimi, bulardan tashqari, yana ikki-uch grajdan kiyimidagi kishilar yo'lakka kirib, eshikni yopishdi. Shulardan biri:*

– *Uyda sizdan boshqa kim bor? – deb so'radi.*

– *Bolalarim... – dedim men tutila-tutila.*

– *Ular qani?!*

– *Choy ichishyapti.*

– *Qayerda?*

– *Ovqatxonada.*

– *Ko'rsating, – deya o'shqirdi, u.*

*Men ularni ovqat qiladigan xonaga boshlab kirdim. Qizlarim sakrab turib (og'zidagi noni bilan) salom berishdi. Salom javobsiz qoldi. "Gap shunday! Sizlar shu bugundan boshlab qamoqqa olinasizlar. Shuning uchun ham har biringiz o'zingiz ko'tara oladigan darajada kiyim-kechak, ko'rpa-yostiq olinglar. Taomlardan hech narsa olmanglar. Ehtimol so'roq qilib, qaytarib yuborishar", – dedi. Ko'ylak, libos va bir donadan ko'rpa-yostiq oldik. Men "Mabodo uchratib qolsam, berarman", – deb erimning kostyumini kiyib oldim. Erim 6-avgustda qamalganda bitta ko'ylakda olib ketilgan edi".*

O'zi bir ahvolada bo'lsa ham turmush o'rtog'ining holidan qayg'urgan ayolning ushu harakati har qanday insonni junbushga keltiradi. Qamoqxonaga borgach, bolalarini ayoldan ajratib boshqa-boshqa kameralarga qo'yishadi. Qayerga olib kelinganini, uni bu yerda nimalar kutayotganini hali to'laligicha anglab yetmagan Hadicha Aliyevaning qorong'i va zax kameralardagi hayoti ham barchamizning diqqatimizni o'ziga tortadi. "*Kirsam, bir kamera ayollar, bulardan yarmidan ko'pini taniyman. Bularning ichida Sobira Xoldorova, Fayzulla Xo'jayevning xotini ham bor edi. Xullas, jamoa jam. Cho'lpon akaning xotini Katenka yugurib kelib, meni quchoqlab oldi (Chunki men Moskvaga borganimda, Cho'lpon akaning uyida turar edim, ular Toshkentga kelishsa, bizlarning uyda turishar edi. Xullas, keldi-ketdimiz juda quyuq edi).*

*Bir kuni tergovga olib borilayotganimda, Ashurali Zohiriyini ham olib ketishayotganiga guvoh bo'ldim. U kishi bilan ko'rishdik, menga sabr-toqat tiladi, "Domladan boshqa hammamiz bir joydamiz", – dedi. Ko'nglim ravshanlashdi. Bir kuni ovqat olib kelgan odam tuynukdan qarab: "Hadicha opa kim?" – deb so'radi. Meni ko'rsatishdi. Galim kelib, tog'orachani ovqatga uzatganimda astagina bir necha bukilgan qog'oz berdi. Sobira Xoldorova darrov qo'limdan oldi. Bu Cho'lpon aka tomonidan menga va men bilan birga bo'lgan o'zbek ayollarini (Katenkaning shu kamerada ekanligini bilmagan) zamon qahramoni qilib ko'rsatib yozgan she'ri edi. Uni o'zining jaranglagan shoirona ovozi bilan Sobira Xoldorova qayta-qayta o'qib berdi. Bizlar rohatlanib tingladik. Bizlarni galma-galdan ikkita-uchta qilib, hammomga kir yuvgani olib borishar edi. Men: "Mabodo et-betda ko'rib qolsam, berarman", deb hamma vaqt erimning kostyumini kiyib borar edim. Bu gal borganda hammomning narigi bo'lmasi eshigi ochilib, kimdir meni chaqirdi, qarasam, erim. Darhol oldiga kirdim. Yigladim, kostyumini berdim, menga tasalli berdi va tez chiqib ketdi. 1938-yilning aprel oylari edi. Bu uchrashuv oxirgi uchrashuvimiz edi".*

<sup>1</sup> "Qor qo'ynida lolalar". Qatag'on etilgan ayollar haqida ocherklar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. "Shahidlar xotirasi" xayriya jamg'armasi. – Toshkent: 2001-y. "Akademiya", 9-b.

Guvohi bo'lganingizdek, ko'rib havas qilgulik go'zal bir oila barbod bo'lib ketdi. Oila boshlig'i G'ozzi Yunus 1942-yili Volog shahrida og'ir xastalikdan vafot etdi. Uning to'ng'ich o'g'li To'lqin G'ozziyevga inistitutni tugatish nasib etmadi. Tegishli tashkilotlar tarafidan aksilinqilobiy millatchilik harakatiga moyil deb topilib, institutdan haydaldi, siyosiy ishonchsiz shaxs sanalib, komsomolga qabul qilinmadi. Oxir-oqibatda SSSR XKSning buyrug'iga asosan, To'lqin G'ozziyev ham hibsga olindi va eng gullagan yoshlik chog'ini tutqungohlarda o'tkazdi. Hadicha Aliyeva bu dunyodan yorug'lik ko'rmay o'tdi. U kabi "xalq dushmani" deya tamg'a bosilgan ayollar, barbod bo'lgan oilalar qancha edi? Ota-onasiz qolgan bolalar, yaqinlaridan ayrilib bag'ri qon bo'lgan onalar nechta edi? Tarixning oqchilmagan qonli sahifalarida yana qanchadand qancha o'sha davrning "Oltin avlodlari" bo'lmish ajdodlarimizning ayanchli qismlari yashiringan?!

20-yillarda xorijga borib ta'lim olayotgan o'zbek qizlarining jasorati ma'rifat muxlislarining olqishiga sazovor bo'ldi. Shunday qizlardan biri Xayriniso Majidxonova edi. Botu 1922-yil noyabr oyi boshlarida bir guruh turkistonlik talabalar qatori o'zbek qizi Xayriniso Majidxonovaning Berlinga o'qishga borishi munosabati bilan yozgan "Kichkina armug'onim" she'rida unga quvonch bilan oq yo'l tilab bunday yozgan edi:

*Qora turmush changalidan qutulib,  
Erk chechagin taqa olgan kuchli qiz,  
Eski odat sanamlarin parchalab,  
Erk-tangriga sajda qilgan ruhli qiz.  
Yo'ling to'g'ri, ortga boqma, keta ber,  
Ilgarilash ashulasin ayta ber!*<sup>2</sup>

Chindan ham yorug' kunlar, erk, ziyoga burkangan yorug' hayot uchun kurash yo'liga chiqqan jangchilar edi aslida, bu qizlar. Ular go'yoki qorong'ulik pardasini ko'tarishga muvaffaq bo'lib, butun opa-singillarni, millatni yorug'likka olib chiqishga bel bog'lagan shijoat ramzi edi. Botu aytganidek, ular to'g'ri yo'lda edilar. Faqatgina bu qizlarga bo'htonlar yog'dirishdi, toptashdi, qorlar qo'ynida qoldirishdi. Cho'lpon ta'biri bilan aytganda: "Lolalar qor qo'ynida qoldi".

Xayriniso ham Berlinda nemis tilini o'rgangach, 1924–1926-yillarda Maryam Sultonmurodova bilan birga Darmshtadt sharqidagi o'qituvchilar seminariysida va bir paytda tibbiyot kurslarida o'qiydi, nemis tili va adabiyotini o'rganadi. Afsuski, keyinchalik unga ham Germaniyada "Ozod Turkiston" nomli aksilinqilobiy-millatchilik tashkilotining a'zosi bo'lgan, 1928-yilda shu tashkilotning topshiriqlari bilan SSSRga josus bo'lib kelgan, SSSRdagi o'sha tashkilot a'zolari bilan muloqotda bo'lgan, degan ayblar qo'yilib qamoqqa olingan. 1938-yil 9-oktyabrda Toshkentda

g'ayriqonuniy ravishda Xayriniso Majidxonova O'zSSR Jinoyat Kodeksining 62, 64 va 67-moddalari bo'yicha aybdor hisoblanib, oliy jazoga – otuvga hukm qilinadi. Hukm shafqatsizlaracha ijro etiladi.

Yoqilgan asarlar, kitoblar, tortib olingan xotirjamlik, baxt, umr, barbod bo'lgan oilalar, yetim qolgan farzandlar, farzand dog'ida kuyib ado bo'lgan ota-onalar, xazon bo'lgan umrlarga to'la bo'ldi u davr. Shuning uchun ham vatanimiz mustaqillikka erishgach, xalqimiz, "Xush kelding, istiqlo!" deb hayqirgani bejiz emas. Bu hayqirishda bir olam dard bor edi. U erksizlikdan ezilib ketgan, istiqlolni kutib, botib ketgan ko'zlardagi dardni ifodalardi go'yo. Zero, ular u kunlarni yaxshi xotirlaydilar. Kimlarningdir oila a'zosi, yana kimlarningdir do'st-u birodarlari o'sha davrning qurboni bo'lgan.

Bugungi yorug' kunlar xalqimiz qachonlardir orzu-umid bilan ko'z tikkan onlar, bugungi erk ular qachonlardir intiq bo'lib, ko'zlari nursizlangan daqiqalar haqqi erishilgan baxt, bugungi biz yashayotgan umr ularning vaqtdan avval uzilgan hayotining davomi, bugungi tinch-osoyshta, qushlari sayrab turgan, mayin shabbodasi bor, o'qlar ovozi eshitilmaydigan mustaqil diyorda ularning izlari bor. Shu kunlarga yetishimizda ularning katta hissasi bor. Faqat ular bu kunlarga yeta olmay erk, ziyo, ma'rifat, xalqim deya jon berdi, o'zga yurtlarda vatan sog'inchi bilan uyga qayta olmay sarson-sargardonlikda umrining katta qismini o'tkazishga majbur bo'ldi. Bugungi nurli kunlar uchun avlodlar ulkan jasorat egalari oldida bir umr ta'zimda. Ularning ilmga, ma'rifatga, ziyoga intilishi bugungi avlod uchun namuna va dalda.

Bugun minglab xotin-qizlarimiz ularning yo'lini davom ettirib, ilm bilan shug'ullanmoqdalar. Bugungi kunda 150,000 dan ortiq xotin-qizlar ilm sohasida band. Ularning 700 dan ortig'i fan doktori va 7000 nafardan ortig'i PhD darajasiga ega. Birgina 2010-yilda turli sohalardagi 109 doktorlik ishi va 648 doktorlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Bulardan 26 doktorlik ishi va 260 nomzodlik dissertatsiyasi. Ushbu raqamlar shubhasiz ilm-fan sohasida izlanish olib borayotgan xotin-qizlarning ulushi o'sayotganidan, ular ma'rifat va ziyoga intilgan, ko'ksida otash bo'lgan, irodali olimlarga xos avlod bo'lib, munosib davomchi bo'layotganligidan dalolat beradi.

Xulosa shuki, yuqorida keltirilgan tarixiy ma'lumotlar va tilga olingan tutash taqdirilar nafaqat ilmga intilgan insonning, balki ilm-fanga intilayotgan yosh avlodni "Man afandi" kabi ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ilm-fan rivoji uchun qo'shilgan ulkan hissa ekanligidan dalolatdir. Ayni mana shu haqiqat asl ziyoli va tadbirkor o'zbek xalqining dunyoni hech bir yerida yo'q karakteridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonboyeva Qunduz Vahobovna. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. "O'zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari (20–30-yillar). Tajriba va oqibatlar. –Toshkent: 1998-yil. UDK: 396/575.1/09/
2. Rajabova Dilora Nazarovna. "Turkiston jadidlarining qarashlarida yoshlar va xotin-qizlar masalalari" 07.00.02. "O'zbekiston tarixi" mutaxassisligi tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – T.: 2003-yil. 105-sahifa. UDK. 342.31(575)(09)+396+37+035.4
3. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – T.: "O'qituvchi", 2002-y. 31-b.
4. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: "Ma'naviyat", 2000-y. 5-b.

<sup>2</sup> "Turkiston" gazetasi. 1922-yil, 29-noyabr.

## ANIMATSION FILM YARATISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR

(Autodesk Maya programma asosida)

**Annotatsiya.** Bugungi kunda kinematografiyada olib borilayotgan yangiliklardan xabardor bo'lish, ayniqsa, kompyuter grafikasini mukammal o'zlashtirish hamda rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ushbu ilmiy izlanishdan ko'zlangan maqsad, animatsiya san'atining zamonaviy tendensiyalar badiiy tahlilida empirik-nazariy metodlar – kuzatish, solishtirma, tizimli-kompleks, nazariy bilimlarni mustahkamlash va tahlil qilishdir. Yangi davr animatsiyasida yuzaga kelgan muammolar yechimiga doir takliflar ishlab chiqish uchun Autodesk Maya dasturi imkoniyatlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** animatsiya, kompyuter grafikasi, Autodesk Maya, topologiya, Quick Rig, Motion Capture, Arnold.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СОЗДАНИИ АНИМАЦИОННЫХ ФИЛЬМОВ

(пример работы программы Autodesk Maya)

**Аннотация.** Сегодняшний день концепция о новациях в кинематографе, особенно о совершенном освоении и развитии компьютерной графики, поднялась на уровень государственной политики. Целью данного научного исследования является закрепление и анализ эмпирически-теоретических методов – наблюдательных, сравнительных, системно-комплексных, теоретических знаний в художественном анализе современных тенденций в искусстве анимации. В целях реализации задачи разработки предложений по решению проблем, в статье рассматриваются возможности программы Autodesk Maya.

**Ключевые слова:** анимация, компьютерная графика, Autodesk Maya, топология, Quick Rig, захват движения, Arnold.

## INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE CREATION OF ANIMATED FILMS

(example of the program Autodesk Maya)

**Abstract.** Becoming aware of the innovations carried out in cinematography today, especially the excellent mastery and development of Computer Graphics, has risen to the level of Public Policy. The purpose of this scientific search is to strengthen and analyze empirical-theoretical methods – observation, comparative, systematic-complex, theoretical knowledge-in the artistic analysis of modern trends in the art of animation. The possibilities of the Autodesk Maya program have been explored to develop proposals for solutions to problems arising in New Age animation.

**Key words:** animation, Computer Graphics, Autodesk Maya, Topology, Quick Rig, Motion Capture, Arnold.



Animatsiya san'ati media olamida eng ko'p vaqt, mehnat va mablag' talab qiladigan ijodiy faoliyat ekanligi barchaga ma'lum. Shu bilan birga bugungi kunda animatsiya elementlarisiz biron loyihani tasavvur qilish qiyin. Kinematografiyada janr sifatida shakllangan yo'nalish endilikda o'z janrlariga ega alohida san'at turiga animatografiyaga aylanib ulgurdi. Bu haqida taniqli rus olimasi Krivulya Nataliya shuni ta'kidlaydi: "В современном искусствознании анимация определяется уже не как вид кинематографа, а как самостоятельное экран-

ное искусство, а в более широком понимании она предстает как феномен современной культуры, область социокультурной деятельности и даже как новое медиа"<sup>1</sup>.

Hozirgi davrga kelib, animatsiyaning turli uslub va janrlari paydo bo'ldi. Masalan, VR texnologiyasi, 3D-ruchka animatsiyasi, Motion Capture, freezlight va boshqa ko'plab turli elementlarni jonlantirish orqali yaratilgan uslublarni sanash mumkin. Ushbu maqolada, aynan Motion Capture texnologiyasi yordamida animatsion film yaratish haqida so'z boradi.

**Motion capture** – real odam yoki obyekt harakatini maxsus sensor (datchik)lar yordamida raqamlashtirib uch o'lchamli modellarga o'tkazish metodi. 1950-yillarda animator Li Xarrison real vaqt rejimida harakatlarni yozib olish uchun ishlatiladigan,

<sup>1</sup> Кривуля Н.Г. «К проблеме жанра и жанровых дефиниций современной анимации». «Художественная культура» – электронное периодическое рецензируемое научное издание; 12017 № 1 (19).

tana kostyumiga birlashtirilgan potentsiometrlar o'rnatilgan birinchi maxsus kostyumni ishlab chiqdi<sup>2</sup>. Keyinchalik, Walt Disney Imagineering va Universal Studios 1968-yilda Disney tematik parki attraksionlari va shoulari uchun, inson figuralarini jonlantirish uchun mo'ljallangan birinchi harakatni suratga olish tizimini patentladi. Ushbu metod hozirgi kunda yuqori sifatli tasvirlarni kinematografiyada, o'yin hamda televideniya qo'llaniladi. Bu metod yordamida **"Uzuklar hukmdori"**, **"Avatar"**, **"Shimoliy Ekspres"**, **"Beowulf"** va boshqa fantastik kinofilmlar suratga olgan.


Motion capture metodidan foydalanish uchun katta yashil fonli studiya, bir qancha kamera hamda maxsus kiyimdan foydalaniladi.



1-rasm. Motion Capture metodi uchun maxsus studiya.

Metodning afzalliklari shundaki, harakatni tasvirga olingandan so'ng bir necha daqiqa ichida dastlabki natijani olish mumkin. Shu bilan birga, harakatlarning realligi, inson harakatining ba'zi xususiyatlari, masalan, og'irlik markazini to'g'ri taqsimlashda yordam beradi. Uch o'lchamli dasturlar orqali tayyor yozib olingan raqamli harakatlardan foydalanish orqali esa 3D modellarning harakatini kuzatish hamda test qilish mumkin. Aynan mana shu metod yordamida Autodesk Maya dasturida amaliy qo'llanma ishlab chiqildi.

Animatsion film yaratish uzoq vaqt talab qilishini yuqorida takidlab o'tilganidek, ushbu davr mobaynida kompyuter grafikasi yordamida qanday bosqichlarni amalga oshirish kerakligi, aynan qaysi bosqichga ko'p vaqt sarflanishini aniqlab olish talab etiladi. Quyida diagramma yordamida zamonaviy talablar asosida 3D animatsiya yaratish bosqichlari o'rganib chiqilgan.



2-rasm. Animatsion film yaratish jarayonida sarflanadigan taxminiy vaqt taqsimoti.

**Model** yaratish bosqichida (modeling) kompyuter rassomlari ikki toifaga ajraladi: birlari asosiy

<sup>2</sup> virtualproductionmalta.com

<sup>3</sup> Цыпцын Сергей . Понимая MAYA (книга первая). Издательство ООО «Арт Хаус медиа», 2007 г. Стр.280–356.

<sup>4</sup> Topology workbook. Volume-01. William Vaughan. Hicory Nut Publishing Clermont, FL 2018. [4-10.B].

qahramonlar, daraxtlar va hayvonlar modelini yaratasa, boshqalari orqa fonda joylashgan binolar, avtomobil, turli xildagi texnikalarni yaratadi<sup>3</sup>.

**Rig** o'rnatish bosqichida tayyor bo'lgan va tasdiqlangan modellarni harakatga keltirish uchun kerak bo'lgan suyaklar (joint) o'rnatiladi.


**Layout** (virtual sahnani animatsiyaga tayyorlash) ushbu bosqichda rasskadrofka yordamida sahnalar rejalashtiriladi, kadr rakursi, chuqurli o'rnatiladi, personaj, makon modellari jamlanadi va animatsiyaga tayyorlanadi.

**Animatsiya** asosiy bosqichida animator uch o'lchamli qo'g'irchoqlarni plastik harakatga keltirib, ularni jonlantiradi.

**Render** bosqichi umumiy renderga tayyorlash, sahnani yoritish, dinamik sozlamalarni o'rnatish hamda montajga (kompoziting) tayyorlash jarayoni sifatida ko'rsatigan.

Quyida "Hukmdor" portretini avtomatik vositalar orqali bosqichma bosqich render qilindi.

Autodesk Maya bu yuqorida sanab o'tilgan bosqichlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan universal uch o'lchamli dastur hisoblanadi. Endi Autodesk Maya foydalanuvchilarga qulaylik yaratish hamda ularni qimmatli vaqtini tejash maqsadida, har bir bosqichni optimallashtirishga urinib ba'zi vazifalarni avtomatik bajarish xususiyatlarini ishlab chiqdi. Bunda model yaratishda sculpting (xaykal, maket yasash)dan so'ng modellar fiziologik, mantiqan harakatlanish uchun to'g'ri polygonal topologiyadan (setka) iborat bo'lish lozim. Topologiya jarayoni esa odatda qo'shimcha bilim va tajribani talab etadi. Maya ushbu jarayonni avtomatlashtirish orqali foydalanuvchiga tayanch topologiyani taklif etadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, har qanday avtomatik buyruq asos bilimlarni talab qiladi. Negaki avtomatik buyruqlar orqali yakuniy natijaga erishib bo'lmaydi. Shu sohada bir qancha yutuqlarga erishgan tajribali mutaxassis William Vaughan yaxshi topologiya ishlab chiqishni xuddi chet tilini o'rganishga o'xshatadi<sup>4</sup>. Shunday ekan, topologiyani chuqur o'zlashtirish hamda yaxshi topologiya yaratish orqali keyinchalik personaj animatsiyasini mukammal plastik harakatlanishiga erishiladi. Shuning uchun aynan topologiya haqida bilimga ega foydalanuvchilar vaqtlarini tejash maqsadida, ushbu funksiyadan foydalanishlari ayni muddao.



3-rasm. Retopologize muharriridan foydalanish.

**"Quick Rig"dan foydalanish.** Quick Rig (ing. "quick" – "tez") model va skeletni avtomatik tarzda bog'lash uchun qo'llaniladi.

Ushbu vosita **“Animatsiya”** panelida joylashgan bo‘lib, agar yuqori aniqlik kerak bo‘lmagan, faqat skelet biriktirilgan model kerak bo‘lsa foydalanish mumkin.

Mazkur vosita bilan ishlash uchun quyidagi amallar bajariladi:

1. Model va skeletni tanlanadi;
2. “Animatsiya” panelida “Windows -> Animatsiya muharrirlari -> Quick Rig” ni oching;
3. “Auto-rig” tugmasini bosiladi.




4-rasm. Quick Rig muharriridan foydalanish.

Agar yakuniy natija qoniqarsiz bo‘lsa, “Step-By-Step” rejimni tanlash mumkin.

Motion Capture orqali animatsiya. Motion Capture (mocap) bo‘limiga o‘tish uchun “Windows -> Content Browser” ni tanlanadi;

Animatsion -> Motion Capture -> FBX o‘tiladi va namunadagi mocaplardan biri tanlanadi;



5-rasm. Motion Capture paneli.

Yuqoridagi amallarni bajargandan so‘ng Mocap model yonida paydo bo‘ladi, ammo animatsiya modelga bog‘lanmagan. Animatsiyani bog‘lash uchun “Quick Rig” muharririda “Character” bo‘limida model joylashgan, “Sours” bo‘limiga kirib “Walk1” mocap tanlash natijasida animatsiya va model avtomatik bog‘lanadi.



6-rasm. Quick Rig muharriri yordamida Model va Mocapni bog‘lash.

Agarda yakuniy natija qoniqarsiz bo‘lsa, “Windows -> Animation Editors -> Graph Editor” muharriri yordamida ishlov beriladi.

### Arnold render imkoniyatlari.

Arnold – badiiy animatsiya va VFX filmlar uchun ishlab chiqilgan ilg‘or render hisoblanadi. Quyida Arnold rendereridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Autodesk Maya da foydalanish imkonini beruvchi MtoA plaginini taqdim etilgan. Shuningdek, Arnold renderidan

foydalanib, “Hukmdor” modelini yoritish va soya, aiStandartSurface materiali bilan ishlab render qilamiz. Fotoreal yoritishni sozlash uchun biz Arnold yoritish vositalaridan Skydome Light dan foydalanamiz. Arnold bilan ishlashda Arnold chiroqlaridan tashqari standart Maya chiroqlaridan ham foydalanish mumkin. Agar yorug‘lik manbasini tanlasa, Maya atribut muharririni hamda oddiy yorug‘lik manbasi atributlarini sozlash mumkin.

“Hukmdor” modeli hamda rekvizitlarga yorug‘lik va soya o‘rnatish hamda qilich, toj kabi rekvizitga tillarang berish uchun Standart\_surface shaderidan foydalanamiz. Standart\_surface shader ko‘p maqsadli shader bo‘lib, oddiy plastmassadan tortib avtomobil bo‘yog‘i yoki terigacha bo‘lgan barcha turdagi materiallarni yaratishga qodir. Standart\_surface shader juda kuchli va turli xil materiallarni yaratishga imkon beradi. Quyida qilich rekvizitga “gold” preset, kimga “Velvet” preset tanlandi.



7-rasm. Arnold Render. aiStandart Surface materiali yordamida avtomatik presetlardan foydalanish.

Shuningdek, yoritish uchun Arnold “Area Light” chiroqlaridan foydalanildi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Maya o‘zida jamlagan barcha vositalarni atributlar orqali sozlash mumkin. Shu atributlar yordamida chiroqlarning modelga ta’sir darajasi sozlandi.

Xulosa o‘rnida, hozirgi raqamli texnik imkoniyatlar davrida kino san’atining ham badiiy ifoda vositalari tizimi mudom yangilanib, boyib borayotganligi ma’lum. Bu borada ayniqsa, kompyuter grafikasi, animatsiya vositalarining qo‘llanilishi milliy kinoning badiiy tili, semantikasi, metaforik tizimiga ta’sir ko‘rsatib, o‘z navbatida sohaning zamonaviy jahon kinosi badiiy jarayonlariga integratsiyasini ta’minlaydi.



8-rasm. Yakuniy natija.

Yuqoridagi bajarilgan amallar real vaqt harakatiga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘ziga xos uslub yaratadi. Ushbu uslubda hujjatli, ilmiy ommabop, television ko‘rsatuvlar uchun sarlavha, multfilm, qisqa metrajli filmlar yaratish mumkin. Ilovada ushbu metod yordamida yaratilgan qisqa metrajli animatsion filmlar keltirilgan.

## XALQ DOSTONI SAHNADA

**Annotatsiya.** Milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz qayta tiklanayotgan hozirgi davrga kelib, "Tohir va Zuhra" musiqali dramasi qayta ishlagan holda yangi tahriri yuzaga keldi. Jumladan, ushbu maqolada, spektaklning umumiy kompozitsiyasi, undagi voqealar rivoji hamda yangi ijrochilar haqida batafsil so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** vokal, libretto, korfarmon, baxshi, xalfa, uvertyura orkestr, beshik to'y, aranjirovka, xoreografiya, epizod, lapar, yalla, ariya, duet.

## НАРОДНЫЙ ЭПОС НА СЦЕНЕ

**Аннотация.** К настоящему времени, когда наши национально-духовные ценности возрождаются, появилась новая редакция музыкальной драмы "Тахир и Зухра" с переработкой. В частности, в этой статье подробно рассказывается об общей композиции пьесы, развитии событий в ней, а также о новых исполнителях.

**Ключевые слова:** вокал, либретто, корфармония, башши, халфа, увертюра, оркестр, колыбельная свадьба, аранжировка, хореография, эпизод, лапар, ялла, ария, дуэт.

## PEOPLE'S EPIC IS ON STAGE

**Abstract.** By the present time, when our national-spiritual values are being revived, a new revision has emerged, reworking the musical drama "Tohir and Zuhra". In particular, this article will talk in detail about the general composition of the performance, the development of events in it, as well as about new performers.

**Key words:** vocals, libretto, corfarmon, bakhshi, khalfa, uvertyura, orchestra, cradle wedding, arrangement, choreography, episode, lapar, yalla, aria, duet.

Xalq dostonlari asosida yaratilgan "Tohir va Zuhra" – musiqali drama, san'at ixlosmandlarining sevimli asarigina emas, ayni vaqtda sahna ijodkorlari, aktyorlarning mahorat maktabi hamdir. Mazkur doston teatr san'atining ilk shakllanish yillaridayoq ijodkorlar e'tiborini tortgan. Ma'lumki, 1939-yilda O'zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor To'xtasin Jalilov dramaturg Sobir Abdulla bilan hamkorlikda **"Tohir va Zuhra"** pyesasi asosida dastlab musiqali drama yaratgan edi. Ushbu musiqiy drama ilk bor 1940-yilda Andijon viloyat teatrida rejissyorlar Vahob Azimov va Abbos Bakirovlar tomonidan sahnaga qo'yilgan. Mazkur spektaklda Tohir rolini birinchilar qatorida Jamol G'iyosov, Mashrabjon Yunusov, Mahmudjon G'ofurov, Zuhra obrazini esa Shahodat Rahimova, Tursunoy Ja'farovalar mahorat bilan ijro qilishgan. O'zbek xalq ertagi asosida yaratilgan "Tohir va Zuhra"ning sahnada namoyon bo'lishi tomoshabinlar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olingan.

Garchi o'sha davr hukmron mafkurasining tazyiqi o'laroq, Sobir Abdulla asaridagi obrazlar mohiyati, voqealar rivoji ham birmuncha siyosatlashtirilgan bo'lsa-da, (pyesaning yettita varianti yozilgan) aktyorlarning mahobatli ijrosi, dramatik mahorati, vokal qobiliyati, syujetga singib ketgan milliy kuy-qo'shiqlar bilan teatr tarixida mangu saqlanib qoldi.

Milliy ma'naviy qadriyatlarimiz qayta tiklanayotgan hozirgi davrga kelib, sevgi qahramonlarining hayoti va ruhiy kechinmalarini yaratish ijodiy vazifasi kun tartibidan o'rin oldi. Jumladan, **"Tohir va Zuhra"** pyesasini ham yana qayta ishlagan holda tomoshabing taqdim etildi. Rejissyor Ahad Farmonov, libretto muallifi san'atshunoslik fanlari doktori, professor Oltinoy Tojiboyeva, musiqa rahbari Temur Mahmudov, adabiy maslahatchi Shuhrat Rizayev ko'magida "Tohir va Zuhra" musiqali dramasi yangi tahriri yuzaga keldi.

Spektaklning umumiy kompozitsiyasi hamda undagi voqealar rivoji avvalgisidan anchayin farqli.

Rejissyor A.Farmonov spektaklni sahnalashtirishda an'anaviy teatr vositalaridan, folklordan unumli foydalangan. Jumladan, yangi tahrirda "Tohir va Zuhra" musiqali dramasi rejissyor tomonidan Nozim obrazi umumlashtirilib, u spektaklda boshlovchi, saroy shoiri hamda ustoz kabi vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Nozim obrazining korfarmonligi tomoshani boshlab, voqealarni bir-biriga ulashi asarni an'anaviy teatr san'atiga xos uslubda talqin etilishini ta'minlagan. Bu esa baxshilar, xalfalar san'atidagi shoirlik, badihago'ylik, tomoshabin bilan muloqot, ustoz-shogird singari an'analarni esga soladi. Zero, bu ham rejissura nuqtayi nazaridan o'ziga xos foydalanish, topilma izlashga, yangilik yaratishga vosita bo'lgan.

San'atshunoslik fanlari doktori, professor Oqil Ibrohimov spektakl haqida shunday fikr bildiradi: *"Alaxusus, Sobir Abdullaning bu o'rnida muallif nomidan o'qilishi ko'zda tutilgan ertaknamo "Bor ekanu yo'q ekan, och ekanu to'q ekan", – boshlanmasi yangi tahrir muqaddimasida shoir, munajjim va ustoz Nozimning an'anaviy teatrga xos yakkaxon "chiqishi"ga o'zgartirilgan: "Uzoq o'tmish zamonda, Hisor tog'lar tomonda, sen beshikda ekanda, men beshikda ekanda, bir podshoh o'tgan ekan. Drama yakunidagi donishmandning fojiali qismati ham sevgi qissasiga shu rivoyat xotima berishi orqali butun bir sahnaviy asar kompozitsiyasidagi yaxlitlikni ta'minlaydi"* [1.12.B]. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Boir Xolmirzayev ijrosida to'laqonli tarzda gavdalantirilgan donishmand Nozim tilidan aytilgan bu rivoyat ko'rsatilajak sahna asari o'tmishdan ertak eshitisiga tomoshabinni hozirlaydi.

"Tohir va Zuhra" musiqali dramasi ham uvertyura bilan boshlanadi. Uvertyuraning bosh kuy mavzusi uchun To'xtasin Jalilov bastalagan mashhur "Otmagay

tong” dueti ohanglari zamin bo‘lib xizmat qilgan. Bastakor T.Jalilov yaratgan musiqalar kompozitor I.A.Shperling tomonidan orkestrga moslangan. Ushbu musiqiy dramaning yaratilishida bastakor T.Jalilov qo‘llagan yo‘l diqqatga molik bo‘lib, xalq musiqiy merosiga asoslangan ijro namunalari sahna asarining muhim komponentiga aylantirdi. Yangi spektaklda ham musiqiy dramaturgiya to‘liq saqlanib qoldi va boyitildi. Shuningdek, yangi davr ruhiyatidan kelib chiqib, musiqiy ritmi ham birmuncha tezlashtirildi.

Rejissyor Ahad Farmonov spektakl postanovkasida o‘zbek milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini sahnaga olib chiqishda o‘ziga xos ijodiy yutuqlarga erishgan. Spektakl beshikto‘y bilan boshlanib, mazkur marosimning sahnaviy talqinidagi tomoshaviylik elementlari bilan ulanib ketadi. Bu yerda marosim chiroyli sahnaviy tus oladi va tomoshabin ko‘z o‘ngida beshikto‘y marosimi udumlari bajariladi. Unda so‘zsiz musiqa va xoreografiya elementlari orqali beshikto‘y marosimi yaxlit ifodalanadi. Bu ham spektakl jozibasini oshirgan. Bu yerda rejissyor Farg‘ona-Toshkent beshikto‘y marosimini o‘ziga xos lokal xususiyatlarini ta’kidlagan holda uni sahna asariga payvand qila bilgan.

Beshikto‘y marosimini o‘tkazgan kayvoni ona siymosi tomoshabinlarga spektakl oxirida ham ko‘rinish beradi. U yerda uning vazifasi yanada murakkablashib, “Motam yor-yor”ini kuylaydi. Inobat Umirova talqin etgan kayvoni ona o‘zbek milliy qadriyatlarini o‘zida ifoda etgan obrazdir. Ma’lumki, azaldan xalqimiz orasida kayvoni onalar marosimlarni boshqargan, ular ko‘p yillik tajribalari bilan qadriyatlarimizni o‘rganishga, milliy urf-odatlarimizni targ‘ib qilishga asosiy hissasini qo‘shgan. Inobat Umirova obrazida ham mana shu jihatlar olib kiritilgan. Folkloridagi kayvoni ona obrazi musiqali dramada birinchi marta personaj bo‘lib kirgan. Kayvoni onaning keyingi sahnasida “Motam yor-yor” yangraydi. Bu yerda ham folklor vositasini kiritish, aktrisaga juda katta imkoniyat bergan, shart-sharoit yaratgan. Birinchidan, ilk sahnasida ona bo‘lib ularga “Alla” aytsa, oxirida esa o‘zi katta qilgan bolalariga “Motam yor-yor”ini aytadi. Hozirgi kungacha “Motam yor-yor”i spektakllarda deyarli qo‘llanilmagan. Shu sabab, mazkur yor-yorni olib chiqishda rejissyor aynan folklorshunoslikka murojaat qilgan. Folklorshunoslardan olingan matnni ijroga singdirib yuborgan. Uni aktrisa sahnada musiqasiz ijro etadi.

Ushbu yor-yor dardchil, mahzun va o‘ta qayg‘uliki, bevosita bu tomoshabinni ruhiga ko‘chib o‘tadi va uni ta’sirlantiradi. Vaholanki, rejissyor ushbu “Motam yor-yor”ini ariya qilib kiritishi ham mumkin edi. Lekin ushbu marosim folklorini musiqiy aranjirovkasiz yaxlit holda ifodalanishi spektakl jozibasini oshiradi. Bu esa o‘z o‘rnida aktyordan katta mahorat talab qiladi. Zero, orkestr yordamisiz, musiqasiz ijro qilishga har bir aktyor ham qodir emas. Inobat Umirovaning tajribasi bunga imkon bergan. Mana shu holatning o‘zida ko‘rinadiki, folklor motivlari, folklor asarlaridagi xususiyatlar, qo‘shiqlarni spektakllarga olib kirishda muayyan sintezga erishish aktyor ijrosida juda katta o‘rin tutadi. Bu yerda milliy qadriyat, urf-odatlar o‘zida katta falsafani aks ettirishi bilan birga uning zamini juda mustahkam ekanligi namoyon bo‘ladi. Shu tariqa folklorida insonning tug‘ilishidan to umrining so‘ngigiga qadar bo‘lgan davr o‘zini qamrab olganligi spektaklga

ko‘chadi. Natijada, mazkur sahnada teatr va folklor san’ati o‘rtasida muayyan uzviy bog‘lanish, badiiy sintez vujudga kelganini kuzatish mumkin.

Xorazm sahnasi ko‘rinishida rejissyor yanada tomoshaviylikni oshirish maqsadida, pyesada mavjud bo‘lmagan vohaning eng mashhur xalq qo‘shiqlarini kiritgan. Ushbu qo‘shiqlar yaxlit ansamblni ochib berish hamda o‘ziga xos lokal xususiyatini ko‘rsatishda ahamiyatli bo‘lgan. Spektakl aynan shu jihatlar bilan yanada boyigan. Lokal xususiyatlar avvalo milliy san’at rang-barangligini his qilishda, qolaversa, folklor jozibasini sahnaga ko‘chira bilishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan.

Yana shuni aytish o‘rinliki, Xorazm sahnasida xalq qo‘shiqlarini saroydagi ijrochilar kuylashadi. Bizningcha, ushbu sahnaga xalfa obrazi kiritilsa yana ham asar jozibasi oshgan bo‘lardi. Zero, spektaklga ko‘ra mazkur voqealar ayni damda xon saroyida, malika va uning kanizaklari atrofida kechadi. Tarixdan ma’lumki, o‘tmishda Xorazm xoni Muhammad Rahimxon Feruz davrida saroyda xalfa ayollar ijod qilib, ular lapar, yalla, sahna ko‘rinishlarini aynan ayollar davrasida kuylashgan. Ushbu sahnadagi aktrisa Musallam Dadajonova ijro etgan bosh kanizak obrazi sahnada laparchi bo‘lib aks etadi. Ushbu personajni xalfa qilib olinishi, davrada Xorazm kayvoni onasi siymosini ifodalashga imkon bergan bo‘lardi. Bu esa shoh saroyini to‘laqonli ko‘rsatishda har bir unurni e’tibordan chetda qolmasligiga xizmat qilar edi. Bular o‘z navbatida spektakl tomoshaviylikni oshirib, uning tomoshabin bilan muloqotini jonlantirishda, zavq bag‘ishlashda, ayniqsa, yosh aktyorlarni Xorazm folklori, xalq ijodi bilan yaqindan tanishishga yordam berishi mumkin edi.

Musiqaga, ayniqsa, romantik sarguzashtlarga o‘ch bo‘lgan o‘zbek tomoshabinlarining did va mayllarini yaxshi bilgan A.Farmonov xalq san’ati, an’anaviy teatr vositalaridan yangi asosda foydalana bilgan.

Spektaklni sahnalashtirishda “Tohir va Zuhra” xalq dostonining tub mazmunida aks etgan ezgulik, yovuzlik, tuhmat, havas va hasad, yaxshilik hamda yomonlik o‘rtasidagi kurash g‘oyasi yangi tahrirda musiqali dramani asosiy leymotivi bo‘lib o‘z ifodasini topgan. Yangi tahrirdagi musiqali dramaga aynan shu g‘oyaning tanlanishi bejiz emas. Zero, sotsrealizmga asoslangan adabiyotga ko‘ra asarlarda har qanday sharoitda xalq kuchi va qudrati g‘olib bo‘lishi aks etgan. Bundan farqli o‘laroq, yangi spektaklda olamning falsafiy muammolari o‘rtaga tashlanib, yaxshilikni ko‘zi ko‘r ekanligi, yomon odamni qo‘li hamisha ustun kelayotganligi badiiy tilda ifoda etiladi. Ayni paytda, yangi asarga ayrim epizodlar, xarakterli obrazlar kiritilgan bo‘lib, ilgari mavjud bo‘lgan ba’zi personajlar o‘zgartirilgan. Jumladan, Sobir Abdulla pyesasidagi Yulduz obrazi yangilangani holda dramatik konflikt yaratishga xizmat qiladi.

Spektaklda O‘zbekiston xalq artistlari Naima Po‘latova va Maryam Ixtiyorovalar uchun ikki enaga obrazi kiritilgan. Ushbu maxsus yozilgan ikki enaga talqinida yaxshilik hamda yomonlik o‘rtasidagi azaliy kurash o‘z aksini topgan. Naima Po‘latova qahramoni har doim yaxshilik tarafdori, haqiqat uchun kurashuvchi ayol bo‘lsa, Maryam Ixtiyorova yaratgan enaga obrazida qabohat ustuvor. Ushbu ikkita qutb asosiy vosita bo‘lib, yaxshilik va yomonlik kurashi doimo yonma-yon ketishi, bir-biri bilan azaliy to‘qnashishi aks etadi. Bu qutblarning

har bir harakatida inson boshiga keladigan baxt yoki aksincha baxtsizlik balolari tasvirlanadi. Rejissyor ijobiy obrazlarni qunt bilan yaratilishidan tashqari, ularning qarshisida turgan salbiy obrazlar kamolotiga ham katta diqqat qilgan. Tomonlarning o'tkir dramatismi spektakl konfliktini benihoya kuchaytirib, ta'sir darajasini oshirgan.

Spektaklda O'zbekiston xalq artisti Mirza Azizov Boboxon siymosini gavdalandirgan edi. Saltanatni qurshab olgan yovuz kuchlar bilan kurashishda murosai madora yo'lini tutgan va keyinchalik ogohlikni boy bergan podshoh obrazi uning ijrosida o'ta ta'sirchan talqin qilingan. Ayniqsa, so'nggi sahnada yolg'iz qizini boy berib, o'z xatolari uchun xun to'lagan Boboxon monologini iste'dodli aktyor adashgan insonning iztirobi, qalb tug'yoni tarzida ijro etgan. Ushbu sahnani aktyor yuksak mahorat bilan ochgan. Shu tariqa "uzoq o'tmish zamonda" kechgan bu qissa, zamondosh tomoshabinni chin sevgidan ma'naviy zavqlantirgani holda fojiga sabab bo'lgan va hozirda ham jamiyatimizda uchraydigan illatlar haqida fikr yuritish o'laroq to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi.

Tohir va Zuhra obrazi uchun rejissyor yosh, umidli aktyorlardan Omon Yo'ldoshev va Zulfiya Umirovani tanlagan. Birinchidan, yangi nomlar kashf qilingan. Ikkinchidan, ularning mahorati va sahnada endigina boshlanayotgan tajribasi o'z navbatida beg'ubor ikkita qalbni ifodalashga imkon bergan. Birinchi o'rinda, rejissyor ularning tashqi ko'rinishi va ovozigga e'tibor qilgan. Bungacha bo'lgan barcha talqinlarda Tohir go'zal, oqil, dono shahzoda yigit timsolida gavdalangan. Shuning uchun ham rejissyor bo'y-basti, ko'rinishidan kelib chiqib, mazkur obrazga Omon Yo'ldoshevni tanlagan.

Mazkur spektaklni yana bir murakkablik tomoni shundaki, bastakor To'xtasin Jalilov yaratgan musiqalarni hamma aktyor-xonandalar ham ijro qilolmaydi. Shu ma'noda rejissyor "Tohir va Zuhra" musiqali dramasiidagi deyarli barcha kuy va qo'shiqlarni saqlab qolgan. Sababi, lirik qahramonlarning o'ziga xos sevgi madhiyasiga aylangan "Otmagay tong" dueti, Zuhraning "Qalamlar", Tohirning "Ey, quyosh" ariyalarini hamda "To'ylar muborak" va yana boshqa ko'plab sahnaviy kuy-qo'shiqlar xalqning sevimli taronalari aylangan. Dostondagi xalq kuylari qahramonlar xarakteri, ruhiy dunyosini yorqinroq ochib berish, voqealarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bundan tashqari spektaklning musiqi rahbari Temur Mahmudov tomonidan "Nurxon" musiqali dramasiidan duet, xor va fon kuylari ham kiritilgan. Bu esa yangi asardagi musiqiy dramaturgiyani yanada boyitishga xizmat qilgan. Mana shuning uchun ham rejissyor ikkita qahramonning go'zal va yangi qiyofali bo'lishi bilan birga ovoz imkoniyatlari ham yetishiga e'tibor qilgan. Omon Yo'ldoshev hamda Zulfiya Umirovalar bu imkoniyatni qo'ldan boy berishmadi.

Aktyorning kelishgan bo'yi-basti, qaddi-qomati Tohir obraziga juda mos tushgan. Spektaklning dastlabki ijrolarida bir qadar qiyinchilik sezilgan bo'lsa-da, keyingi

paytlarda aktyor ovoz imkoniyati bo'yicha yaxshi natijalarga erishgan. Lekin ijrodagi milliy qochirimlar, ohangdorliklar yanada ham ko'payishi aktyordan mehnat talab qiladi.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, ariya, duetlarni aktyorlar faqatgina nota bo'yicha to'g'ri ijro qilish bilan cheklanmay, balki o'zbek xalq qo'shiqlaridagi o'ziga xos ohang, nola, qochirim imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda yurakdan kuylashi talab etiladi. Ana o'shandagina ariyalar ta'sirchanligi oshadi va u yanada tomoshabin qalbiga chuqur kirib boradi. O'zbek musiqali drama aktyorini tarbiyalashdagi omillardan biri ustoz san'atkorlar ovozidagi qochirim, nolalarni qunt bilan o'rganish, ikkinchisi esa, xalq ijodidagi o'ziga xos xususiyatlarni o'zlashtirish muhim hisoblanadi. Folklor qo'shiqlarini o'rganilishi hamda ijodkorligini olib kiritilishi bu borada yetakchi o'rin tutishi mumkin. Folklor keskin burilishlarni, o'ynoqlikni, qochirimlarni talab qiladiki, undagi bu murakkab holatlarni aktyor tarbiyasiga olib kirish, uning universalligiga, to'laqonli ijrochi bo'lishiga yordam beradi. Aks holda o'zbek milliy musiqali drama aktyori akademik ijrodan nariga o'tolmasligi bor gap.

Xuddi shu kabi holatlarni Zuhra rolini ijro etgan Zulfiya Umirovada ham kuzatish mumkin. Aktrisada tabiiy tovush kuchli. Bu ovozni yuqori pardalarda ishlata bilish esa alohida mahoratni va tajribani talab qiladi. Aktrisa kuylagan ariyalarning ba'zilarini ijrochilik nuqtayi nazaridan me'yoriga yetgan emas. Darhaqiqat, "Suv kelar", "Qalamlar" ariyalarini nazarda tutmoqdamiz. Jumladan, mana shu ariyalarning yuqori baland avjlarida "qichqiruv", tomoqqa tushirib ijro qilish holatlari kuzatiladi. Bunday vaziyatlarda ijrochi texnik jihatdan juda usta bo'lishi darkor. Masalan, avvalo, ovozni chiniqtirish, ijro paytida ayniqsa, baland avj pardalarda nafasdan unumli foydalanish yo'llarini puxta bilish lozim. Aks holda ovoz tez xirillab qoladi, sahnada o'rinsiz baqiriq-chaqiriqlar eshitiladi. Bu ham akademik ta'limdagi ovoz imkoniyatlaridan foydalanish me'yorlarini chiniqtirishga borib taqaladi. Bizningcha, bu holatda ham xalq ijodkorligi vositalari ahamiyatli bo'lishi mumkin. Odatda xalq ijrochiligi murakkab o'tishlarni, keskin holatlarni talab qiladi. Garchi xalq ijrochiligida avj pardalar deyarli qo'llanilmasa-da, o'ynoqlik, jo'shqinlik, xarakter ifodasi ovoz imkoniyatlarini to'g'ri taqsimlay bilishni talab etadi. Xalfalar ijroda shunga muvofiq ish ko'radilar. Bu jihat bo'lajak musiqali teatr aktyorini tarbiyalashda xalq ijodkorligining alohida turi bo'lgan xalfachilik ijro an'analariidan ham o'rinli foydalana bilish muhimligini ko'rsatadi.

Bir so'z bilan aytganda, "Tohir va Zuhra" spektakli ustida ishlash aktyorlarning professional o'sishiga, ularni aktyorlik mahorati, vokal imkoniyatlarini yana bir bor imtihon qildi. Mazkur spektakl ayrim aktyorlarning badihago'yiligini, ularga rolni ham tashqi, ham ichki tomondan puxta talqin qilish, sahnada partnyorni tinglay bilish va ansamblda yashay olish prinsiplarini ham singirdi. Zero, xalq ijodini qancha ko'p o'rganilsa, undagi bitmas-tuganmas gavharlar shuncha ochila boradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov O. "Tohir va Zuhraning yangicha talqini". "Teatr" jurnali, 2022-yil, 3-son. 12-bet.
2. Tojiboyeva O. Epos va teatr. Xalq epik ijodiyotining teatr san'atidagi o'rni (birinchi kitob). – Toshkent: 2015-yil.





# VII BO' LIM E'TIROF

Muslimbek YO'LDOSHEV,  
O'zDSMI "Sahna nutqi" kafedrasida dotsenti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

## USTOZ MUHAMMADJON AKA

*(Ustoz Muhammadjon Ismonovning 80 yilligiga bag'ishlanadi)*

**Аннотация.** Мақолада, устоз Муҳаммаджон Исмоновнинг ҳаёт ва ижод йўллари қаламга олинди. Собиқ Тошкент театр ва рассомлик санъати институтининг "Саҳна нутқи" кафедрасида фаолият юритган устоз Муҳаммаджон Исмонов ўзига хос педагог ва феъл-атвордаги инсон эди. Устознинг ана шу жиҳатлари мақолада баҳоли қудрат ёритиб берилди.

**Калит сўзлар:** моноспектакль, "саҳнавий нутқ", маданият, нотик, бадиий сўз, режиссёр, педагог.

## УСТАЗ МУХАММАДЖАН АКА

*(Посвящается 80-летию Устаза Мухаммаджона Исманова)*

**Аннотация.** Это статья о жизненной и творческой пути преподавателя с большой буквы Мухаммаджона Исманова, бывшего преподавателя кафедры «Сценической речи» Ташкентского театрально-художественного института. (ныне Уз ГИИК) М. Исманов был истинным педагогом, с твёрдым характером, логическим мышлением, требовательным и новаторским подходом к творчеству. Полностью отдавался своему ремеслу – преподаванию.

**Ключевые слова:** моноспектакль, "сценическая речь", культура, чтец, художественное слово, режиссёр, педагог.

## USTAZ MUHAMMADJAN AKA

*(Dedicated to the 80th anniversary of Ustoz Muhammadjon Ismanov)*

**Abstract.** This is an article about the life and creative path of a teacher with a capital letter, Muhammadjon Ismanov, a former teacher at the Department of Stage Speech at the Tashkent Theater and Art Institute. (now Uzbekistan State Institute of Cinematography) M. Ismanov was a true teacher, with a strong character, logical thinking, a demanding and innovative approach to creativity. He devoted himself completely to his craft - teaching.

**Key words:** one-man show, "stage speech", culture, reader, artistic expression, director, teacher.

Odatda, san'at institutining aktyorlik guruhlariga yangi kurs qabul qilayotgan katta domla, abituriyentlar ichidan o'ziga yoqqanlarini tanlab olardi. Bu ichki bir qonun edi. Chunki ana o'sha yoshlardan ustozlar yetuk aktyorlar tayyorlab chiqarishi kerak bo'lardida. Shuning uchun ham har qanday talabdan biror natija chiqishiga ko'zi yetsagina o'z guruhiga olishi mumkin edi.

Men institutga kelib, imtihondan o'tayotganimda esa boshqacharoq bo'lgan. Katta ustoz Lola Xo'jayeva dam olishga ketganligi sababli, talaba tanlash ishini Muhammadjon Ismonov degan o'qituvchiga ishonib topshirgan ekan. Shunday qilib men, Ismonov domlaning tanloviga ko'ra institutga qabul qilinganman.

Muhammadjon Ismonov 1943-yil Andijon viloyatining Marhamat tumanida tug'ilgan. O'rta maktabni Asaka shahrida tugatgan. O'sha, maktabni bitirar yili Andijon bo'ylab ijodkor yoshlarni izlab topish uchun

safarbar qilingan bir necha kishilik o'qituvchilar tumandagi hamma maktablarga xabar berib, talabgorlarni "Cho'ntak" choyxonasiga ko'rikka chaqirishadi. Bo'lajak talaba Muhammadjon Ismonov "komissiya"ga she'r o'qib, "...oq shohi ko'ylaging..." so'zlari bilan qo'shiq aytib beradi. Poytaxtdan kelgan ustozlar Muhammadjon Ismonovga yozda institutga kelib, hujjat topshirishni taklif qilib ketishadi.

Agar taqdirda yozig'liq bo'lsa, sen emas, institutning o'zi sening oldingga keladi. Bu gal ham shunday bo'ldi, deb hisoblasak bo'ladi-da. Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutning "Drama va kino aktyorligi" fakultetini tugallab, yo'llanma bilan o'sha davrdagi Yosh gvardiya teatri truppasiga kelib qo'shiladi. Bugun bularning hammasini nomi o'zgarib ketgan. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, O'zbek davlat drama teatri deb ataladi bugun ular. O'sha yillar teatrning bosh rejissyori Ergash Masafoyev gurkiragan, turli shov-shuvli spektakllar

sahnalashtirib, teatr dovru'ini ko'kka ko'tarayotgan paytlar edi. O'zini ham ayamaydigan bu rejissyor boshqalarni ham tinch qo'ymas, juda prinsipial va qattiqqo'l rahbar bo'lgan, deyishadi.

Bir davrga kelib, nimadir bo'lib, rejissyor lavozimidagi ishdan olinadi. Truppadan kimlardir boshqa ishlarga o'tib ketishadi. Kim televideniye yo radioga, kimdir institutga. Muhammadjon Ismonov o'zi o'qigan institutning "Sahna nutqi" kafedrasiga kelib, o'qituvchilik faoliyatini boshlaydi. Bu yerda ham yoshparvar professor-o'qituvchilar yetarli bo'lib, darrov uni o'z qanotlari ostiga oladilar.

Xullasi kalom, ham institut saboqlarini, ham teatr aktyorligi-yu, Masafayev boshqaruvinu ko'rib, pishib chiniqqan Muhammadjon Ismonov biz bilan yakka darslarda shug'ullanadigan bo'ldi.

Eng birinchi qilgan ishi, har bir talabaga o'ttiz daqiqalik magnit tasmasi sotib olib kelishni buyurgan. Keyin, kirish imtihonlarida talaba qaysi she'r yo monologni o'qib qatnashgan bo'lsa, o'shani yana bir qayta ishlab chiqib, "O'quv teatri" binosining uchinchi qavatida joylashgan Arkashevskiy degan ovoz ustasining chog'roqqina studiyasida ovozimizni o'sha lentaga yozdirib olgan. Buning sirini men keyin bildim. Talabalar institutga yangi kelganlarida ovozi, nafasi, talaffuzi va ijrosi qay darajada bo'lganini uchinchi, balki to'rtinchi bosqichga o'tganidagisi bilan solishtirish, va tabiiyki, talabalarga "ishlangan", "sozlangan" va "nafasga qo'yilgan" ovoz va ijro qanday bo'lishini aniq misol bilan anglatish bo'lgan ekan. Bu ham Muhammadjon Ismonovning o'sha zamondagi "innovatsion" yondashuvi bo'lgani aniq.

Ustozning ikki tarafi bor edi. Yomon tarafi: bular birinchi-ikkinchi bosqich talabasi demasdan, hali teatrni yaxshi tushunmaydi demasdan, judayam ezib, nihoyatda qattiqqo'llik bilan o'rgatar edi. Mashg'ulotlar kech soat 23 lardan ham oshib ketardi, ba'zan. Eng oxirgi avtobus yo tramvayga ilinib qolardik. Yaxshi tarafi: dars jarayonlarini juda zo'r tushuntirar edi. So'zning shunchaki aytilishi ta'sirsiz ovoz chiqarishdan boshqa narsa emas, so'zning miyada tug'ilishi, yaxlit, jonli fikr bo'lib ifoda etilishi tabiiy va demakki, ishonchli chiqishiga sabab bo'lishini uqtirardi. Matn ustida ishlaganda, mantiqiy tahlilni yaxshi o'zlashtirib olishimizni talab qilardi. Chunki aynan mana shu to'g'ri, mantiqiy tahlil san'atkorning yo'nalishini to'g'rilab turarkanda! Buning uchun esa qayta-qayta uqtirishi, talaba zotining mudroq fikrini uyg'otish uchun uzoq ishlashi kerak edi...

Oramidanda kimdir kurs rahbari Lola Xo'jayevaga shikoyat qilardi shekilli, u: *"Bolalarni bunaqa qiynamang!"* – deb gohida urishib ham berardi. Ammo Muhammadjon aka o'zgarmas edi. Xususan, faqat shuni deb emas, boshqa masalada ham Lola Xo'jayeva bilan tortishar edi. Masalan, Muhammadjon aka: *"To'rtinchi kursning birinchi yarmida talabalarimiz monospektakl topshirsin, "Bir aktyor teatri" yo'nalishini puxta o'zlashtirib ketishsin"*, – desa Lola Ag'zamovna: *"Unga vaqt yo'q-ku, menga ham yoqadi agar shunaqa bo'lsa. Lekin diplom spektakliga ulgurmay, bolalar chalg'ib qolishadi"*,



#### **Ijodiy guruh.**

**Chapdan o'ngga:** O'zbekiston xalq artisti Murod Rajabov, ustoz Muhammadjon Ismonov hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Turdibek Sodiqov.

– deb aytardi. Bir muddat jim yurishardida, keyin yana shu gap ko'tarilib qolardi: *"Hech bo'lmasa men spektaklda uncha band bo'lmagan talabalarni olib ishlab turay, ular ham jo'yali bir ish qilsinlar"*, – deb qolardi Muhammadjon aka. Bunga javoban Lola opa: *"O'zi boshqa kurslardan ham talabalarni chaqiryapmanku..."* – deb kesib qo'ya qolardi. Shunda ham Muhammadjon aka xafa bo'lmas, arazlamas, maqsadidan voz kechmasdi. Bizlarning imkoniyatimizdan kelib chiqib, kimga murakkabroq, kimga yengilroq, yana birimizga satirik materiallardan tanlab berib, zimdan harakat qilaverardi. I.Ilnskiy, A.Zakushnyak, V.Yaxontov, M.Hamidov kabi so'z san'atkorlarining ijod yo'li, so'z bilan ishlash mahorati, bir o'zi sahnada bir yarim, ikki soatlab badiiy o'qish qilib olqishlar olishi haqida ma'lumotlar berib borardi. Shunday paytlarda uning ko'zlariga tikilib qaragan odam, biz, shogirdlarning sahnada monospektakl ijro qilib turgan onlarimizni orzulayotganini ko'rishi mumkin edi.

Domla talabalarda badiiy so'z san'atining sir-asrorlariga muhabbat uyg'otishi, o'rgatishi barobarida o'zi ham so'z qudratini chuqur anglar, so'z ijrochiligi imkoniyatlaridan samarali foydalanar edi. Institut, vazirlik miqyosidagi ko'pgina tadbirlarga boshlovchilik qilar va bu imkoniyatdan badiiy so'z ijrosi yo'lida unumli foydalanar edi. Mana shu izlanishlari samarasi o'laroq, Hamid Olimjonning "Zaynab va Omon" poemasi asosida monospektakl tayyorlab, uni muvaffaqiyatli namoyish qilgan edi. Bunda biz ustozning maqsad yo'lida sobitligini, ijodiy va tashkiliy ishlarda o'ta faolligini bilib olishimiz mumkin. Bu ishi bilan u, "Sahna nutqi" kafedrasiga a'zolariga agar unga imkon berilganida, bizlardan qanday badiiy so'z ustalari chiqara olishi mumkinligini isbot ham qilgan edi.

Muhammadjon akaning yana bir maqtoqli jihati aruz vazni qonuniyatlarini juda yaxshi bilar, o'zi ham amalda tatbiq qila olardi. Mening bugungi qarashim bilan aytganda, aruzni o'rgatib bo'lmaydi. O'rgatib bo'lsa ham yaxshi ko'rdirib bo'lmaydi. Aruz qalbdan his qilinadi. Bu his qilish ham tuyg'ular kabi bo'lib, miya faoliyatining qaysidir qismi bilan seziladi. Insonning o'ziga bog'liq bo'lmagan ichki tanlovdan o'tadi. Shu tufayli kimdir g'azalni sevadi, o'z-o'zidan

ravon o'qiy oladi. Kimdir esa olti oylik tayyorlov bosqichida ham uni o'zlashtirolmaydi. Muhammadjon Ismonov bizning guruhimizdan va Tursunboy Isroilov kursidan g'azal mutolaasini yaxshi o'zlashtirgan talabalarni yetaklab, televideniye ko'rsatuviga olib borganlarini ham yaxshi eslayman. Bu o'sha davrda "ustoz-shogird" an'anasi yo'lida qilingan ishlaridan bo'lsa kerak. Umuman men she'riyat va aruz o'qib nimagadir erishgan, buni kimgadir manzur qilgan bo'lsam, bu bevosita Muhammadjon akaning xizmati, deb bilaman. Chunki bizga aruzdan faqat Muhammadjon Ismonov dars o'tgan.

Pedagog sifatida ham, inson sifatida ham juda prinsipli, intilishi zo'r, maqsadiga erishish yo'lidan qaytmaydigan, talabalarni yuz foiz imkoniyatlarini ochish uchun o'zini mutlaqo ayamay ishlaydigan odam edi. Shunaqalarni fidoyi inson, desa bo'ladi. Dars paytida, ish o'xshamay zerikkan paytimizda ikkita so'z bilan joyimizga o'tqazib, mixlab qo'yardi. Qanday jiddiy va beshafqat ko'rinsa ham biz talabalar, o'zimiz yig'iladigan davralarga ustozni taklif qilsak, albatta, kelardi. Lekin bu paytda butunlay o'zgarar, anovi jahldor va o'ta jiddiy odam o'rniga boshqa bir muloyim, hazilkash va xushchaqchaq odamni almashtirib qo'ygan, derdingiz.

Achinarli joyi shundaki, shunday iqtidorli insonning san'at olamida omadi yurmadi. Teatrda ahlolni aytib berdim. Institutda ham shunga o'xshash gap. Lola Xo'jayeva butunlay boshqa qutb odami, Muhammadjon aka bilan ish uslublari qarama-qarshi. Ilmiy rahbari Sotimxon Inomxo'jayev ham institutdan ketib qoldi. Shunday qilib, boshlagan dissertatsiya ham to'xtadi. 90-yillar boshida juda ko'p ziyolilar aziyat chekdi. Sotimxon aka ham allaqanday nashriyotga, yaxshi daromad qiladigan joyga o'tib ketdi. Muhammadjon aka ham institutdan tashqari yana o'rta maktablarda, to'garaklarda



*Hamkasblar davrasida.*

*O'ng taraf: Ustoz Muhammadjon Ismonov.*

mashg'ulotlar o'tishga kirishdi. Keyinroq esa u ham butkul institutdan ketdi. Xalq ta'limi vazirligida ham uni tanishar, hurmati yaxshi edi. Lekin maktab bilan institut mashtabini aslo tenglashtirib bo'lmaydi-ku!

Yana keyinroq, o'g'li Rossiyada qo'nim topib, ishlari yaxshi bo'lib ketgan davrda Muhammadjon aka turmush o'rtog'i bilan Moskvaga ko'chib ketishdi.

O'sha yillarda baravar (parallel) o'qigan biz, Lola Xo'jayeva kursi va Tursunboy Isroilov kursidagi talabalar O'zbekiston xalq artisti Muqaddas Xoliqova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Saida Rametova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Bahodir Odilov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Abdurasul Abdullayev, "Do'stlik" ordeni sovrindori Barno Qodirova va yana viloyat teatrlarida ijod qilib yurgan ko'pchiligimiz ustozni doim eslab turamiz, u bizga nima o'rgatgan bo'lsa ijodimizda, hayotimizda qo'l kelayotganini e'tirof etamiz.

Hayot bo'lganida ustozimiz bu yil 80 yoshni qarshilagan bo'lardi. Alloh rahmat qilgan bo'lsin!

## URGANCHLIK AKTRISA

(O'zbekiston xalq artisti Gulora Rahimova ijodiga chizgilar)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, Xorazm teatrining ustoz san'atkori, O'zbekiston xalq artisti Gulora Rahimovaning ijodiy faoliyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** teatr, aktyor, dramaturg, asar, raqs, musiqa, qo'shiq, lapar, masxaraboz, qo'g'irchoq.

## МОЛОДАЯ АКТИСРА

(Черты по работам народной художницы Узбекистана Гулоры Рахимовой)

**Annotatsiya.** В данной статье мы остановимся на творческой деятельности ведущей актрисы Хорезмского театра народной артистка Узбекистана гулоры Рахимовой.

**Ключевые слова:** театр, актер, драматург, произведение, кульминация, музыка, песня, лапар, клоун, кукла.

## YOUNG ACTISM

(Features based on the works of the national artist of Uzbekistan Gulora Rakhimova)

**Abstract.** In this article we will focus on the creative activity of the leading actress of the Khorezm Theater, People's Artist of Uzbekistan gulora Rakhimova.

**Key words:** theater, actor, playwright, work, climax, theater critic, music, song, lapar, clown, doll.



Gulora Rahimova 1982-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, 1992-yilda O'zbekiston xalq artisti unvonlariga sazovor bo'lgan. Umumiy mehnat faoliyati 52 yil. 2007-yildan buyon Xorazm teatrining yetakchi aktrisasi, hozirda drama artisti vazifasida ishlab kelmoqda. Gulora Rahimova betakror, beqiyos o'ziga xos jarangdor ovozi bilan avval yakkaxon xonanda, keyinchalik spektakllarda bir qancha bosh rollarni ijro etib, taniqli san'atkor sifatida elga tanildi. U ko'p yillik ijodiy faoliyati davomida teatrdagi ikki yuzdan ortiq turli rollarni maromiga yetkazib ijro etgan. Jumladan, Uyg'unning "Beruniy" asarida Gulsanam, Komil Yashinning "Nurxon" asarida Nurxon, Shalamayevning "Ibn Sino" spektaklida Saidabegim, Ayyomi asari "Oshiq G'arib va Shohsanam"da Shohsanam, Navoiy asari Xushnud



inseniroykasi "Layli va Majnun"da Layli, H.H.Niyoziyning "Maysaraning ishi" musiqali komediyasida Maysara, K.Matrizayevning "Munozara davom etadi" dramasi Gulsum, O.Abdullinning "O'n uchinchi rais" dramasi Qadriya, X.Muhammad, M.Leviyevning "Toshkentning nozanin malikasi"da Munavvar, P.Telegenovning "Onalar" asarida Kelin, "Toshlar tilga kirganda" asarida Gulasal, N.Dumbadzening "Quyoshni ko'rayapman" asarida Ketavani, Marsinkyavichyusning "Mingdaugas" asarida Marta, E.Samandarovning "Jaloliddin Manguberdi" asarida Ona, K.Avazning "Marvarid taqqan ayol"da O'g'iloy, O'.Hoshimovning "Birovning tashvishi" dramasi Ona, S.Rahmon, E.Sobitning "Hijron" musiqali komediyasida Qizboji, A.Dudarovning "Ostona" dramasi Katya, E.Samandarovning "Ajdodlar qilichi" asarida Ona, "Olma pishganda galing" musiqali dramasi Zuhra, K.Avazning "Jahannam" dramasi Ra'no, "Feruz"da Feruzning onasi, "Tashkildagi hangoma"da Saboxon, "Dilbandi Xiva" dramasi Ona, "Avesto"da Durdava,

ifodalab bergan.

Sevimli adibimiz shoir va dramaturg Erkin Samandarning O'zbekiston xalq artisti Gulora Rahimova haqida aytgan quyidagi fikrlari e'tiborimizni tortadi: "Gulora to'g'risida faqat bir gap aytish mumkin, u juda ham umri uzun aktrisa. Unga o'xshagan aktrisa Xorazm teatrida bo'lmagan. Teatrda kirib ishlay boshlaganidan shu vaqtgacha biror marta teatrni tark etgan emas. Biror oy dam olmagan. Birorta aktrisa Guloraga o'xshab qirq besh yil dam olmasdan teatrdagi ishlagan emas"<sup>1</sup>.

1948-yilning 25-martida Xorazm viloyati Bog'ottumanining qadimiy Beshariq qishlog'ida tug'ilgan Guloraning otasi o'sha payti oltmish besh yoshda, onasi Xoljon opa o'ttiz bir yoshda bo'lgan. Uch o'g'ildan keyin tug'ilgan qizaloqqa uch kun ism tanlashgach, otasi Rayimbergan aka: "Qizim gullar orasida Gul ora bo'lsin", deya shu ismni niyat qilib qo'yadi. Oilada o'g'il bolalar ichida ulg'aygan Gulora doim shaddod, cho'rtkesar otasi bilan doim parrandalik, chorva boqishga qiziqqan, chaqqonligi, mehnatsevarligi bilan mahalla qizlariga o'rnak bo'lgan. Qo'shiq aytishni onasi Xoljon opa qoyillatgan, chunki paxta dalalarida uning ovozi butun dala ishchilarining e'tiborini tortib, mironib eshitishlariga sabab

<sup>1</sup> Shoir va dramaturg Erkin Samandarov bilan bo'lgan suhbatdan. 2020-yil, mart oyi.

bo'lgan. Ammo qizining qo'shiq kuylashiga oila muhiti, ya'ni otasining qat'iy ruxsat bermay turishi Gulorani Urganch davlat pedagogika universitetiga yetaklaydi. Ammo uning orzulari, san'atga bo'lgan intilishi tahsil olayotgan dargoh sahnasida namoyon bo'lib, ko'pchilik viloyatga tanilgan san'at ahli e'tiboriga tusha boshlaydi. Oliygoxda doimiy o'tkaziladigan tadbirlar-u, bayramlar Gulorasiz o'tmaydigan, viloyat tadbirlarida ham uning qo'shiqlari taniqli hofiz va xonandalar qatorida navbat berilib tilga olinadigan, hatto, Xorazm televideniye orqali chiqishlari otasi Rayimbergan akani ham befarq qoldirmaydi. Ammo qizining san'atkor bo'lishiga qat'iy qarshi turadi. Lekin rus tili va adabiyoti mutaxassisligini qo'lga kiritgan Gulora Rahimova Matyusuf Xarratov nomidagi Urganch Musiqa bilim yurtiga rus tili va adabiyoti o'qituvchisi vazifasiga ishga kiradi.

Yuqorida aytganimizdek, doimiy tadbir va bayram chiqishlari Gulora Rahimovasi o'tmaydi. Undagi iste'dod, ovozinin avji, nolalari butun san'at mutaxassislarini e'tiborsiz qoldirmaydi. O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, Bastakorlar uyushmasi a'zosi Abdusharif Otajonovning tavsiya va yo'llanmasi bilan O'zbekiston Davlat konservatoriyasiga o'qishga yuboriladi. U o'qishga imtihonlarsiz qabul qilinadi. Qo'shiq, ariya bularning barchasiga obraz, uning ichki tug'yonlari orqali kuylash esa ustozlaridan Gulora Rahimovaga singdiriladi. Konservatoriyada ustoz Saodat Qobulovadan sahna sirlarini mukammal o'rganadi. Qayta-qayta sahna madaniyati, qo'shiq kuylash va tomoshabin oldidagi madaniyatni sinchkovlik bilan o'rgatib uqtiradi.

Televideniya doimiy chiqishlari, tadbir va bayramlarda ko'zga ko'rinib qolgan va tanilgan xushovoz Gulora Rahimovani Madaniyat vazirligi tavsiyasiga ko'ra, "yosh ovozlari yo'qligi" sababli, Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatriga ishga tavsiya etishadi.

Gulora Rahimovani teatrga yangi kelgan paytlari jamoa yaxshi kutib oladi. U faqatgina ovoziga suyanib qolmasdan, ariyalar kuylayotganda asardagi qahramonlarning dardi, ichki kechinmalarini yurakdan his qilib ijro etadi. Uning ham aktyorlik, ham xonandalik mahorati shu tariqa sayqallanib boradi.

1971-yil teatrdan o'z faoliyatini boshlagan xonanda, sahnada jaranglayotgan ovozlari ichida alohida bo'lib, ovoz diapazoni kengligi bilan ijro etayotgan ariyalarini takrorlanmas ohanglarda kuylagan. O'z-o'zidan rejissyorlardan Ibodulla Niyozmetov aktrisaning ovozidagi yoqimli ohang, iqtidori va intilishini ko'rib, Gulora Rahimovaga asosiy qahramonlarni bera boshlaydi. Uning ilk roli "Beruniy" spektaklida Gulsanam roli bo'ldi. Asarni o'qib chiqqach, ijro etadigan roliga nisbatan mas'uliyati yanada kuchayadi. Nutq borasida mutazam shug'ullanadi. Xalq artistlari oldidagi asosiy imtihoni uni shu qadar izlanishga, mehnat qilishga undaydi. Pedagogika oliygohi va musiqa bilim yurti diplomi bilan ish boshlagan Gulora teatr bosh rejissyori, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Ibodulla Niyozmetov, teatrnin onasi hisoblangan O'razgul G'oiyova, sahnada yurishni, muomalani o'rgatgan Zoya G'afforova, Shirin Ramazonova, San'at Devonov, rejissyor Hoshim Ismoilov, Abdusharif Otajonov, Madraim Bobojonovlardan butun umr minnatdor bo'lib, teatr dargohida taniqli aktyorlar

qatori xizmat qilib ishonchini oqlashga astoydil kirishadi. Ustozlar tavsiyasi, doimiy spektakldan keyingi muhokamalar uni roldan roliga, spektakldan spektaklga o'tishida yordam beradi.

Teatrdan Ne'mat Solayevning "To'maris" asari 1998-yil sahnalashtirishi rejaga kiritiladi. Ijodiy jamoa bir ovozdan To'maris roliga Gulora Rahimovani tavsiya etadi. Vatan ozodligi, mustaqilligi yo'lida Eron bosqinchilaridan Kirga qarshi kurash olib borgan To'marisning yolg'iz o'g'li bosqinchilar tomonidan hiyla bilan asirlikka olinadi. Jigarbandining iztiroblari uning metin irodasini bukolmaydi. To'maris roliga Gulora Rahimovadagi o'ziga ishonch, tashqi ko'rinish, ovozidagi dadillik mutaxassislarining ijobiy fikrlariga sazovor bo'ladi. Bu esa aktrisaning yana bir qirrasini, g'ururi balandligi so'zlarida ifodalanadi. Aktrisa ushbu roli sabab, tarixni o'rganish, To'maris qahramonini ishonarli chiqarish borasida ko'p izlanadi. Kutubxonalarda imkon qadar adabiyotlardan davr muhitini, liboslari, talaffuzi, hatto, ko'z qarashlari-yu, yurish-turishini e'tibor bilan o'rganib sahnada o'z To'marisini gavdalandiradi. Monologlarida o'ziga ishonch seziladi. So'zlarida dadillik, yurishlari, qadam tashlashida kelajakka umidvorlik ko'rinadi. To'maris aktrisa tomonidan uzoq yillar davomida ijro etib kelinmoqda. Bugungi kunda Xorazmning tarixiy shaxslaridan biriga aylangan To'maris – Gulora Rahimovaning yetmishni qoralashiga qaramasdan, uning roliga, qahramoniga nisbatan hurmat va e'tiboridan darak beradi.

Gulora Rahimova talqinidagi ayollar, ayniqsa, onalar chin muhabbat, odamiylik nima ekanligini yaxshi anglaydilar. Shohsanam, Xolisxon, Layli, Nurxon, Gulsum, Marta, Bog'dagul, Qadriya, Ketovani singari latofatli mahbubalar, Jaloliddin Manguberdining onasi Oychechak kabi mo'tabar ona rollarini faqat Guloragagina xos bo'lgan viqor, zakovat, qat'iyat, shiddat bilan ijro etadi.

Har gal turli qurshovlar iskanjasida qolib ketgan ayolni har daqiqada yorug'lik tomon, yaxshi odamlar tomon yetaklashga intiladi va bunga erishadi ham. Buni aktrisaning har bir obraz bilan birga ruhiy poklanishi, desak adashmaymiz. Teatr san'atining nafaqat aktyorni, balki tomoshabinni ham ruhiy poklanishga da'vat etuvchi mohiyati, xosiyati ham ana shunda. Ko'z o'ngimizda yana Gulora yaratgan obrazlar gavdalanaveradi. Erkin Samandarning "Jaloliddin Mangubardi", O'tkir Hoshimovning "Birovning tashvishi", Roblesning "O'limdan kuchli", Ne'matjon Salayevning "To'maris", Komil Avazning "Feruz", "Dilbandi Xiva", "Avesto", Xosiyat Bobomurodovanning "Bola ko'targan ayol", Qo'chqor Norqobilning "O'lsidagi odamlar"i bu kabi qator asarlarning har birida Gulora Rahimova ona siyosida gavdalanadi. Undagi ovoz diapazonining kuchli jarangdorligi, dialoglardagi ta'sirchanlik kuchi tomoshabinni yanada kuchliroq o'ziga jalb etadi. Aktrisa qaysi onani ijro etmasin, uni "o'zimman" deb ijro etadi.

Aktrisa ijro etgan onalarning deyarli hammasi, o'z kundalik hayotiga yo'qotmay ko'chirib olib o'tgani bilan qiziq. Chunki odamlarga muhabbat, hayotsevarlik, insonparvarlik, yaxshilikning g'alabasiga ishonch g'oyalari farzandlariga, hamkasblariga ham o'tkazish orqali ajralib turishi bilan e'tiborli hisoblanadi. Spektaklda asosan xalq qahramonligi, erksevarligi, ma'naviy qudrati, yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi ochib berilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraximov T. O'zbek dramaturgiyasining shakllanishi va taraqqiyotida folklorning o'rni: filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – Toshkent: 1995-y. 125-b.
2. Qodirov M. Tomosha san'atlari o'tmishda va bugun. – T.: "Mumtoz so'z", 2001-y. 24-b.
3. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. – T.: "Adabiyot va san'at", 1988-y. 17-b.
4. Matnazar Abdulhakim. "Hayotbaxsh sahna". "Xorazm haqiqati" gazetasi, 2022-yil, 16-oktyabr.

## MIRSODIQ TOJIYEVNING IJODIY MEROSI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, bastakor Mirsodiq Tojiyevning ijodiy merosi haqida so'z ketadi. Bastakorning ayrim musiqiy asarlari tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** bastakor, ijod, musiqa asari, she'r, simfoniya, partitura.

## ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ МИРСОДИКА ТАДЖИЕВА

**Аннотация.** Данная статья посвящена творческому наследию заслуженного артиста Узбекистана, композитора Мирсодика Таджиева и освещает основные музыкальные произведения композитора.

**Ключевые слова:** композитор, творчество, музыкальное произведение, стихотворение, симфония, партитура.

## THE CREATIVE HERITAGE OF MIRSODIQ TOJIEV

**Abstract.** This article is dedicated to the creative heritage of the Honored Artist of Uzbekistan, composer Mirsodiq Tadjiev, and covers the main musical works of the composer.

**Key words:** composer, creativity, musical work, poem, symphony, score.



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, dotsent, kompozitor Mirsodiq Tojiyev 1944-yilning 25-martida Toshkent shahrida dehqon oilasida tavallud topgan. U yoshligidan musiqaga qiziqqan va o'rta maktabda tashkil etilgan sozandalar ansamblida mashhur dutorchi Abdusamat Ilyosovdan chang chalishni o'rgangan. Tojiyev maktabni bitirib, o'qishni Hamza nomidagi musiqa bilim yurtida davom ettiradi. U yerda kompozitor Albert Malaxov va Rumil Vildanovlardan kompozitorlik mutaxassisligi bo'yicha saboq oladi. 1965-yili uch qismli torli kvartet, fortepiano uchun variatsiya, fortepiano va simfonik orkestr uchun konsert va diplom ishlari bilan o'qishni bitirib, Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kiradi. Konservatoriyada dastlab kompozitor R.Vildanov, keyinchalik esa F.Yanov-Yanovskiy sinfida dars oladi.

Mirsodiq Tojiyev 1969-yilda ilk bor yosh kompozitorlar tanlovida o'zining "Shoir muhabbati" simfonik poemasi bilan ishtirok etib, katta muvaffaqiyat qozonadi va diplom sohibi bo'ladi. U shu yillari o'qish bilan bir qatorda bolalar musiqa maktabida va Hamza nomidagi musiqa bilim yurtida dars bera boshlaydi.

1970-yil M.Tojiyev bitiruv davlat imtihoniga Hamid Olimjonning "Oygul va Baxtiyor" dostoni asosida yozilgan 2-simfoniya-baletini taqdim etadi. Oliy o'quv yurtini muvaffaqiyatli tamomlab, 1972–74-yillarda konservatoriyaning musiqa nazariyasi kafedrasida dars bera boshlaydi. 1973–79-yillarda esa Muhiddin Qori-Yoqubov nomidagi O'zbek davlat filarmoniyasining "Go'zal", "Shodlik" ansambllarida, keyinchalik esa filarmoniyaning badiiy rahbari lavozimida faoliyat yuritadi. 1979-yildan boshlab konservatoriyaning bastakorlik kafedrasida o'z ijodiy faoliyatini davom ettiradi. Keyinchalik 1982–85-yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi hay'ati kotibi,

1985–87-yillarda birinchi kotib vazifasini bajardi. Ana shunday mas'uliyatli ishlarni olib borishiga qaramasdan, o'z ijodiy faoliyatiga alohida e'tibor qaratib, u nafaqat o'zbek, balki klassik va zamondosh, chet el kompozitorlarining ijodini o'rganib, XX asr kompozitorlari S.Prokofyev, A.Xachaturyan singari zabardast kompozitorlarning ijodidan bahra olib, o'z faoliyatini davom ettiradi. Ayniqsa, XX asrning buyuk kompozitori D.Shostakovichning simfonik asarlari yosh o'zbek kompozitorining uslubi shakllanib borishiga barakali ta'sirini ko'rsatdi. Chunonchi, M.Tojiyev D.Shostakovich asarlarining ta'siri ostida milliy simfonik asarlar yaratishga harakat qildi va natijada 20 ta (oxirgisi tugallanmagan) milliy simfoniyalarni ijod maydoniga keltirdi.

Taniqli musiqashunos, san'atshunoslik fanlari doktori, professor To'xtasin G'ofurbekov kompozitor Mirsodiq Tojiyev simfoniylariga qiyosiy nazar solar ekan, uning asarlarini chet el kompozitorlariga taqqosladi va XX asr o'zbek musiqa madaniyati yilnomasining eng yuqori cho'qqilaridandir, deya baho berdi.

"... Men u bilan Toshkentning Yangiobod mavzesidagi mahallada o'n yil qo'shni bo'lib, ayrim asarlari, xususan, simfoniylaridan deyarli yarimining yaratilish jarayoni qanday kechgani, bular kasbdoshlari va keng tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilinganligi, hatto, Bolgariyada bo'lib o'tgan "o'zbek musiqasi kunlari"da, yoki 3-Xalqaro Osiyo musiqa minbari, Samarqand simpoziumlari konsertlarida uzoq va yaqin xorijiy mutaxassislarning olqishlar bilan tinglaganliklari guvohiman.

Ba'zi-ba'zida D.Shostakovich yoki I.Stravinskiy, B.Bartok yoki V.Lyutoslavskiylarning partitularini berib turishimni so'rab chiqqanda, nisbatan yosh kompozitor o'z simfoniylaridagi ayrim lavhalar ustida ham kunni-kun, tunni-tun demay, mashaqqatli

*ijodiy izlanishlarni boshidan o'tkazganligini ko'rganman. Aniqrog'i, jarangdorgina ovoqidagi xirgoyalariga qayta-qayta va yana qayta-qayta fortepianodan zarur sadolar topalayotganligini o'zim bevosita eshitganman...*<sup>1</sup>, – deb xotirlaydi T.G'ofurbekov.

Unda muallifning shaxsi, dunyoqarashi, ichki kechinmalari bilan mushtarak umuminsoniy tuyg'ularigacha o'z ifodasini topgan. Bu simfoniylarning ayrimlariga sarlavha orqali qisqacha nom berilgan: 2-simfoniya-balet “Oygul va Baxtiyor” (1970-y.), 4-simfoniya “Otam xotirasi” (1975-y.), 5-simfoniyasi mashhur dirijyor, O'zbekiston xalq artisti, professor Zohid Haqnazarovga bag'ishlangan (1976-y.), 15, 16, 17-“Somon yo'li” nomli simfoniya-trilogiyasi 1-“Arxipelag Gulag”, 2-“Ruhlar nidosi”, 3-“Somon yo'li” kabi nomlari bilan ataladi (1991-92-y.). 1995-yilda vatanimiz istiqboliga bag'ishlangan oxirgi 19-“Qahramonlik” simfoniyasi yaratilgan. Simfoniylaridan 7, 8, 12 va 18 kamer simfonik orkestr uchun yozilgan (1978-83-93-y.). Bundan tashqari kamer-cholg'u ansambli uchun ikkita prelyudiya, sonatina, syuita, violonchel va fortepiano uchun “Elegiya”, fleyta va fortepiano uchun “Qo'shiq”, truba va fortepiano uchun sonatina, torli kvartet, “Fortepiano triosi” va boshqalar mavjud. Bundan tashqari kompozitor tomonidan 1972-yili “Go'zal” ansambliga “Shodiyona” uvertyrasi, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun uchta uvertyra, konsertino fortepiano bilan 1979–91-yillarda chang uchun 10 ta Sharqona rapsodiyalar, a-kapella xori uchun “Yor-yora” (S.Karimov so'zi, 1974-y.),

“Biz O'zbekistondan” (G'.G'ulom so'zi, 1974-y.), vokal-xoreografik syuitasi, 1977-yil “O'zbekiston” (B.Boyqobilov so'zi), yakkaxon va simfonik orkestr uchun qasida, xor va simfonik orkestr uchun “Do'stlik” (1981-y.), “Paxtakor” (1982-y), Romanslar: “Ayriliq shomida” (Uyg'un so'zi), “Chollar va kampirlar” (H.Sharipov), “Qaydasan, jon bolam” musiqali komediyalari, “Kumush” (A.Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani asosida) operasi, Respublika bolalar teatri uchun “Maugli” spektakliga musiqalar yaratildi.

Ma'lumki, 1960–70-yillarda hozirgi MDH doirasida zamonaviy akademik musiqa sonorika, aleatorika, seriyaviy texnika kabi vositalar yordamida rivojlandi. Bularning asoschilari G.A.Kancheli, S.I.Nasidze, A.R.Terteryan, Ye.Mansuryan, M.M.Skorik, V.V.Silvestrov, P.Dambis, B.V.Kutavichyus, V.Tormis, M.M.Tojiyev, F.X.Baxor, T.Shaxidi, Ch.Nurimovlar edi. Lekin o'sha paytlari bu yorqin ijodkorlarning yangi izlanishlari birdaniga ijobiy qabul qilinmagan bo'lsa ham shunga qaramasdan vaqt o'tishi bilan ular boshlagan ishlar o'z samarasini berdi va ushbu yo'nalishlar orqali milliy musiqa madaniyati yana ham boyib bordi.

Mirsodiq Tojiyev O'zbekistonning zamonaviy professional musiqa san'atini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun 1981-yilda “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi” faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Xulosa qilib aytganda, kompozitor Mirsodiq Tojiyevning ijodiy merosi zamonaviy o'zbek musiqa madaniyatida o'chmas iz qoldirdi. Ayniqsa, uning simfoniylari o'zbek milliy merosimizda o'z o'rnini topgan.

<sup>1</sup> G'ofurbekov T. Mirsodiq Tojiyev simfoniylariga qiyosiy nazar. // San'atshunoslik masalalari III-ilmiiy maqolalar to'plami. – Toshkent: 2006-y. 94–98-betlar.

# O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

*Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jurnal*

*Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi*

**Nashrga tayyorlovchi:**

Ozoda Shobilolova

**Sahifalovchi-dizayner:**

Abdug‘ani Sodiqov



Bosishga ruxsat etildi: 20.11.2023-yil  
Ofset bosma usulda bosildi.  
“Arial” garniturası. Bichimi 60×841/8.  
Shartli bosma tabog‘i 12,25.  
Buyurtma raqami №. Adadi: 195 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
Yalang‘och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13

Jurnal “NISO POLIGRAF” MChJ bosmaxonasida chop etiladi.

Manzil: O‘rta Chirchiq tumani, “Oq ota” QFY, Mash‘al mahallasi, Markaz – 1.